Masalan, matematika darsida "Tub va murakkab sonlar" mavzusida quyidagi sonlar ichida qaysi son ortiqcha ekanligini topish vazifasi beriladi:

2, 8, 16, 21, 24

3, 9, 10, 12, 15

1-holat: 21 soni ortiqcha, chunki u 3 ga karrali.

2-holat: 10 soni ortiqcha, chunki u 3 ga karrali emas.

3-holat: 2 va 3 sonlari ortiqcha, chunki ular tub sonlar va h.k.

O'quvchilarni kritik fikrlashga yo'naltirishda "Eyler-Venn diagrammasi" interfaol metodidan ham foydalanish maqsadga muvofiq.

Venn diagrammasi strategiyasi grafik organayzer bo'lib, uning yordamida taqqoslanayotgan obyektlardagi o'xshash jihatlarni aniqlash, tafovutlarni (farqlarni) qayd etish va tanlangan mavzuga oid bilimlarni umumlashtirish mumkin[12].


"Eyler-Venn diagrammasi" usuli bilan ishlash algoritmi quyidagicha:

darsda qiyoslash kerak bo'lgan ikki yoki undan ortiq tushunchalar, atamalar, hodisalar ajratib olinadi;

o'quvchilar halqalar chizib, kataklarni to'ldirib chiqadi;

anglash (materialni mustahkamlash) bosqichida (juftliklarda, guruhlarda) tuzilgan diagrammalar muhokama qilinadi.

Misol: A – "Teng tomonli uchburchak", B – "Teng yonli uchburchak" shakllarini qiyoslang.



Faqat "A" uchun xos jihatlar	Umumiy (o'xshash) jihatlar	Faqat "B" uchun xos jihatlar
Uchala tomoni ham o'zaro teng	Uchta tomoni bor	Faqat ikkita tomoni o'zaro teng
Uchala burchagi o'zaro teng	Uchta burchagi bor	Faqat ikkita burchagi o'zaro teng

Xulosa. Yuqoridalardan xulosa qilib shuni aytish mumkinki, matematik savodxonlik o'quvchilarning ijodiy fikrlash va innovatsion yechimlar topish, kasbni to'g'ri tanlash, hayotning turli jabhalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish, shuningdek,

hayot davomida ta'lim olish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi omilga aylanib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi PF-16-son farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son farmoni.
4. Abdurahimov Sh. Ta'lim natijalariga ta'sir etuvchi omillar (PISA 2022 tadqiqoti asosida). Ma'rifat" gazetasi, 2024-yil 24-aprel. – 2-3-b.
5. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma. – T.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006. - 160 b.
6. Barakayev M., Xo'jayev A., Akmalov A. Zamonaviylashuv sharoitida matematika fanini o'qitish texnologiyalari. – T.: 2017. - 131 b.
7. Ishmuxamedov R.J., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar.– T.: "Nihol" nashriyoti, 2013, 2016. – 279 b.
8. Ismailov A., Xaydarov B., Karimov N., Ismailov Sh. Xalqaro tadqiqotlarda o'quvchilarning matematik savodxonligini baholash (metodik qo'llanma). – T.: Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi, 2019. – 112 b.
9. Виноградова Л.В. Методика преподавания математики в средней школе. Учебное пособие. – Ростов на Дону: Феникс, 2005. – 252 с.
10. Груденов Я.И. Совершенствование методики работы учителя математики. – М.: «Просвящение», 2004. – 224 с.
11. Полат Е.С. Новые педагогические и информационные технологии в системе образования: Учебное пособие. – М.: Академия, 2003. – 272 с.
12. Популяризация критического мышления: обучение чтению и письму в рамках проекта "Критическое мышление". Пос.П./Сост. Дженни Л. Стил, Кертис С. Мередит, Чарльз Темпл, Скотт Уолтер. . – М.: изд. Сокол, 2023. – 188 с.

*Xasanova Gulshod Ro'ziboyevna,
O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Toshkent
"Temurbeklar maktabi" harbiy-akademik litseyi
fizika fani bosh o'qituvchisi
gulshodhasanovahl@gmail.com*

FIZIKA TA'LIMIDA INTEGRATIV TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANIB O'QUVCHILAR IJODIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya. Maqolada fizika faniga bo'lgan qiziqishlari va qobiliyatlaridan qat'iy nazar, barcha o'quvchilarning aqliy faoliyati uchun yaxshi rag'batlantiruvchi, qiziqarli, ijodiy masalalarni yechishga undash va motivatsiya berish hamda topishmoqlardan fizika darslarida samarali foydalanish o'quvchilarni fanga bo'lgan qiziqishini, zukko va fikrlar teranligini, topqirligini oshirishga xizmat qilishi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Qiziqarli fizika, astronomiya, hikoyaviy masala, paradoks, topishmoq, ijodiy tafakkur.

Аннотация. В статье обсуждается мнение о том, что стимулирование и мотивация всех учащихся, независимо от их интересов и способностей в области физики, к решению увлекательных и творческих упражнений является хорошим стимулом для умственной деятельности; кроме того, эффективное использование загадок на уроках физики может повысить интерес учащихся к науке, а также их интеллектуальную ловкость, аналитическое мышление, и изобретательность.

Ключевые слова: Интересная физика, астрономия, повествовательный вопрос, парадокс, загадка, творческое мышление.

Annotation. The article discusses the view that stimulating and motivating all students, regardless of their interests and abilities in physics, to solve engaging and creative exercises is a good incentive for mental activity; furthermore, using riddles effectively in physics lessons can enhance students' interest in science, as well as their intellectual agility, analytical thinking, and ingenuity.

Kirish. Ta'lim berish faoliyatidagi motivatsiya vositalaridan biri bu – ma'lum bir vaziyatning qiziqarli xususiyatidir. Qiziqarli fizikaning taniqli namoyandasi Y.I. Perelmanning ta'kidlashicha, o'yin-kulgi va qiziqtirish mustahkam bilimlarni o'zlashtirish bilan bog'liq aqliy mehnatni qiziqarli va shuning uchun zavqli qiladi [4].

G.N. Shchukina, K.A. Lygalova, I.G. Shaposhnikova va L.A. Ivanova o'yin-kulgi kognitiv qiziqishni shakllantirish va bilim sifatini oshirishga hissa qo'shadigan o'rganishning muhim vositasi ekanligini o'z ishlarida ko'rsatganlar.

Metodist olimi V.A. Lanina qiziqarlilikni o'quvchilar ongida hayratlanish tuyg'usini uyg'otadigan va diqqatni keskinlashtiradigan voqealar, hodisalar, jarayonlar vositasi sifatida belgilaydi [1, 35-bet]. Shu bilan birga, qiziqtirish o'qitishning rag'batlantiruvchi usuli bo'lib, o'qituvchiga o'quvchining his-tuyg'ulariga ta'sir qilish orqali, bilim, qobiliyat va qiziqishlaridan qat'iy nazar, barcha o'quvchilarda o'qishga ijobiy munosabat va faol aqliy faoliyatga tayyorlikni shakllantirishga yordam beradi.

Tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan qiziqarli savollar orqali o'quvchilar e'tiborini jalb qilish va o'quvchining aqliy faoliyatini javob izlashga yo'naltirishi kerak. Qiziqishlari va qobiliyatlaridan qat'iy nazar, barcha o'quvchilarning aqliy faoliyati uchun yaxshi rag'batlantiruvchi, qiziqarli ijodiy masalalarni yechishga undash va motivatsiya berish zarur deb hisoblaymiz.

Fizikadan masala faqat savol emas, balki dolzarb muammoli vaziyat bo'lsa, qiziqarli deb hisoblanadi.

Masalan: Biz qachon Quyosh atrofida tezroq harakat qilamiz - kunduzimi yoki kechasimi?

O'quvchi bu savoldan hayratga tushishi mumkin. Axir, u har doim Yerning bir tomonida kunduz, boshqa tomonida esa tun ekanligini astronomiya va geografiya darslaridan biladi; savolning ma'nosi nima?

Bu yerda savol Yer sayyorasi qachon tezroq harakatlanishi haqida emas, balki biz, ya'ni, uning aholisi, yulduzlar orasida qachon tezroq harakat qilishimiz haqida ekan. Quyosh tizimida biz ikki xil harakat qilamiz. Birinchidan, biz Quyosh atrofida aylanamiz va bir vaqtning o'zida Yerning o'z o'qi atrofida ham aylanamiz. Ikkala harakat ham qo'shiladi, natijada biz Yerning kunduzi yoki kechasi yarmida ekanligimizga qarab farq qiladi. Yarim tunda aylanish tezligi Yerning tezligiga qo'shiladi va tushda, aksincha, undan ayiriladi. Bu shuni anglatadiki, yarim tunda biz Quyosh tizimida tush vaqtdan ko'ra tezroq harakat qilar ekanmiz. Ekvator nuqtalari sekundiga yarim kilometr tezlikda "aylangan"ligi sababli, ekvator chizig'i uchun kunduzi va yarim tunning tezligi o'rtasidagi farq sekundiga bir kilometrga etadi. Masalan, Toshkent shahri uchun (41-parallelda joylashgan) bu farq deyarli ikki baravar ko'p: yarim tunda toshkentliklar Quyosh tizimida har soniyada tush vaqtiga qaraganda yarim kilometr ko'proq aylanishadi [3].

Bunday masalalar o'zining paradoksga boy ma'lumoti bilan o'quvchilar e'tiborini masalaning fizikaviy va astronomiyik mohiyatiga tortadi.

Qiziqarli masalalarni so'z birikmalariga ko'ra hikoya masalalari, amaliy masalalar, paradoks masalalari deb tasniflash mumkin.

Hikoyaviy masalalarining qiziqarli tabiati an'anaviy fizika darslari uchun hikoya shaklining g'ayrioddiy kiritilishi bilan izohlanadi. Tinglovchi syujetga kiritilgan voqealarning faol ishtirokchisi pozitsiyasini egallaydi. Bu o'quvchilarni tasvirlangan hayotni, haqiqiy muammolarni qahramonlar bilan birgalikda faol ravishda hal qilishga majbur qiladi. Bunday masalalar fikrlashni faollashtiradi, kuzatuvchanlikni, muammoni ko'rish, uni tasvirlash va uni qat'iy belgilangan vazifaga aylantira olish qobiliyatini rivojlantiradi.

Masalan: "Avgust oyi edi. Kechalarning birida sharqdan ko'tarilgan Oy to'satdan ko'zga ko'rinmas osilgan ipdagi fonardek chayqala boshladi. Uning tebranishlari sekin va o'lchovli bo'lib, avval yuqoridan pastga, so'ngra bir tomondan ikkinchisiga amalga oshirildi va bu ikkala harakat turi ham asta-sekin almashinib turdi. Bu hodisa shu qadar hayratlanarli ediki, bu dehqonlar orasida xurofotli dahshatga sabab bo'ldi. Buni Oy allaqachon ufqdan 45° balandlikka ko'tarilayotgan bir vaqtda kuzatish mumkin edi".

Bu qiziq hodisani qanday tushuntirish mumkin?

Yechimi: Agar bu yilning yozi yomg'irli bo'lgan deb hisoblasak va avgust oyida havo issiq va quyoshli bo'lsa, unda aniq sabab- nam yerdan ko'tarilgan suv bug'lari edi. Bu suv bug'lari chizig'iga tushib qolgan Oy tebranayotgandek tuyuladi va sharqiy ufqdan joyning meridianiga egri chiziq bo'ylab ko'tarilib, Oy suv bug'lari oqimining gorizont qatlamlaridan ketma-ket o'tib ketadi. Avval to'lqinning yon yuzasiga, keyin uning tepasiga tushib, to'g'ridan-to'g'ri yoki gorizont ravishda tebranishiga olib keladi. Masalani yechish tabiiy fanlarning turli sohalari tomonidan tasvirlangan fizik va astronomik jarayonlar nuqtai nazaridan butun murakkab tabiat hodisasini tahlil qilishni o'z ichiga oladi. Masala integrativ masala turiga kiradi. U qiziqarli, o'z yechimini topishga undaydi, motivatsion qidiruv va maqsadni shakllantirish, yechim uchun evristik va ijodiy izlanishni o'z ichiga oladi.

Yuqorida keltirilgan masalani yechish yaratilayotgan vaziyatni qiziqarli qilish orqali motivatsion funksiyani bajaradi. Qo'yilgan savolga javob topish masalaning tadqiqotchlik funksiyasini bajarishni o'z ichiga oladi. Masalada tasvirlangan integrativ (fizika va astronomiya qonunlariga tegishli) hodisani tahlil qilish g'oyaviy va analitik-sintetik funksiyalarni amalga oshiradi. Masalaning shartlari bilan tanishgan o'quvchi ma'lum bir vaqtda sodir bo'lgan astronomik hodisa haqida yangi ma'lumotlarni oladi. Bunday vazifani bajarish juda murakkab tadqiqot ko'nikmalarining tashxislangan to'plamini ko'rsatishi mumkin. Shunday qilib, integrativ masalani hal qilish avval sanab o'tilgan barcha funksiyalarni bajaradi.

O'quvchilarni qarama-qarshi ma'lumotlarni solishtirishda chalkashliklarga olib keladigan masalalar - paradokslar ham qiziqtiradi.

Paradoks - bu umume'tirof etilgan g'oyalarga yoki hatto sog'lom fikrga zid bo'lgan har qanday hodisa yoki bayonot, shuningdek, paradoks aql bovar qilmaydigan va sarob kabi ko'rinadigan hodisadir.

Paradoks - bu g'alati fikr, bir qarashda yovvoyi, hayratlanarli, umumiy fikrga zid narsadir. (Izohli lug'at)


Paradoks, birinchi navbatda, qarama-qarshilikdir. Har qanday qarama-qarshilik muqarrar ravishda fikrlarning odatiy tuzilishini buzadi va uni tartibga solishni talab qiladi. Paradokslar o'rganilayotgan materialning mohiyatini eng keskin muammoli shaklda chuqur ochib berishga yordam beradi, o'rganilayotgan mavzularga qiziqishni oshiradi, o'quvchilarning diqqatini charxlaydi, fikrlarida ijodiy keskinlikni keltirib chiqaradi.

Mantiqiy paradokslar juda qiziq - mulohaza yuritish juda qat'iy, ular to'g'ri yoki noto'g'ri bo'lishi mumkin, ammo ichki qarama-qarshi xulosalarga olib keladi. Masala shartiga paradoks yoki sofistikaning kiritish texnikasi uni qiziqarli qiladi va uni tezroq yechishga undaydi.

Bunga "Gidrostatik paradoks" ni misol qilsak bo'ladi.

Suyuqlikning idish tubiga ko'rsatadigan ta'sir kuchi idish tubidagi bosim kuchi deyiladi. Tajribalarning ko'rsatishicha idish har qanday shaklda bo'lganda ham idish asosdagi bosim kuchi $F_{As} = \rho g h S$ formula bo'yicha aniqlanar ekan. Demak, idishning shaklidan qat'iy nazar, idish tubiga suyuqlik tomonidan ta'sir etadigan bosim kuchi shunday suyuqlik ustunining og'irligi bilan aniqlanadiki, bu ustunning asosi idish tubining asosiga, balandligi esa idishdagi suyuqlik balandligiga teng bo'lishi kerak.

Buni quyidagicha tavsiflaymiz. Asosining yuzi aynan bir xil bo'lgan uch xil idishga (1-rasm) bir xil balandlikda suyuqlik solingan. Uchala holda ham suyuqlikning idish tubiga bosim kuchi bir xil. Vaholanki, ikkinchi idishdagi suyuqlikning og'irligi bosim kuchidan katta, uchinchi idishdagi suyuqlik og'irligi esa bosim kuchidan kichik.



Og'zi kengayib yoki torayib boruvchi idishlardagi suyuqlikning idish tubiga beradigan bosim kuchi idishdagi suyuqlik og'irligidan katta yoki kichik bo'lish hodisasi gidravlik paradoks deyiladi.

Xo'sh, gidravlik paradoksning sababi nima? – Og'zi kengayib boruvchi idishdagi suyuqlik og'irligining bir qismi yon devorning suyuqlikka "aks ta'sir" kuchi bilan muvozanatlashadi, ya'ni suyuqlik og'irligining bir qismi yon devorga tushadi. Natijada idish tubiga faqat asos yuzi tepasidagi hajmdagi suyuqlik og'irligi tushadi. Og'zi torayib boruvchi idishda esa yon devorning "aks ta'sir" kuchining OY o'qqa proeksiyasi pastga yo'nalgan bo'lgani uchun qo'shimcha kuch hosil qiladi [6].

Bundan tashqari fizika darslarida men fizik jarayon va terminlarga oid uch qatorli topishmoqlar tuzib, ulardan foydalanib, o'quvchilar tafakkurini rivojlantirishga harakat qilaman. Topishmoqlar- aql, zakovat, zehn, fikr o'tkirligining sinov quroli hamdir, chunki u kishini hozirjavoblikka o'rgatadi. O'zbek va jahon xalqlarining qadimgi xalq og'zaki ijodlaridan biri hisoblangan topishmoqlar barchani qiziqtiradi va topqirlikka undaydi. Topishmoqlardan fizika

darslarida samarali foydalanish o'quvchilarni fanga bo'lgan qiziqishini, zukko va fikrlar teranligini, topqirligini oshirishga xizmat qiladi. Dars jarayonida ruhiy charchashning oldini oladi. O'qituvchiga esa o'quvchilarning individual xususiyatlarini anglashga yordam beradi. Men o'zim tuzgan bir nechta topishmoqlardan namunalar keltiraman. Dastlab topishmoqning birinchi qatorini o'qib, bir minut ichida o'quvchilarga javobni yozishlarini aytaman. Vaqt tugaganda o'quvchilar ruchkani qo'yishadi. Men esa javoblarni tekshirib chiqib, to'g'ri javob bergan o'quvchilarni o'zim uchun belgilab olaman. Keyin shu tartibda ikkinchi va uchinchi qatorlarni ham o'qib, javoblarni tekshiraman. Birinchi qatorda to'g'ri javob yozilib, ikkinchi va uchinchi qatorlarda ham javobi o'zgarmagan o'quvchi "5" ballni, ikkinchi qatorda tog'ri javob yozgan o'quvchi "4" ballni, uchinchi qatorda tog'ri javob yozgan o'quvchi "3" ballni qo'lga kiritadi.

1-savol: (5 ball). Qadimgi Xitoy donishmandlari unga shunday tarif berishgan:

Avval tovush eshtiladi, keyin esa qisqichbaqa ko'zlari ko'rinadi, keyin krab ko'zlari, oxirida baliq ko'zlarini ko'rish mumkin [2].

Izoh: krab-murakkab ko'zli qisqichbaqa.

(4 ball). Bu holatdan ko'proq issiqlik balansi tenglamasiga oid masalalarni ishlashda foydalanamiz.

(3 ball). Bu holat dengiz sathi balandligida 100 gradusda ro'y beradi.

Diqqat savol: qaysi tabiiy holat qalamga olingan? (**Javob:** suvning qaynashi).

2-savol: (5 ballik). Hamma uning 9-ekanligini biladi, lekin "yettinchi" deydi. Hamma uning 10-ekanini biladi, lekin negadir "sakkiz" deydi. Hamma 11-ekanligini biladi, negadir "to'qqizinchi" deb ataydi [2].

(4 ballik). Bu uchovlon bilan yilda bir marta ketma-ket uchrashamiz.

(3 ballik). "Yettinchi" tashrif buyurishi bilan barcha ta'lim muassasalarida yangi o'quv yili boshlanadi?

Diqqat savol: ta'rif berilgan 3 ta narsaning nomini toping? (**Javob:** sentyabr, oktyabr, noyabr oylari).

3-savol: (5 ball). Bu o'leov asbobining ko'rinishi turlicha bo'lib, hatto qoshiq shaklidagi nusxasi ham bor.

(4 ball). Uning ixtirochisi Galiley bo'lib, 1-marta 1910-yilda hozirgi standart ko'rinishi yasalgan, uni hammamiz ushlab ko'rganmiz.

(3 ball) Uning ichidagi suyuqlik xavfli bo'lsada, Torichelli o'z tajribasida undan foydalangan.

Diqqat savol: ta'rif berilgan narsaning nomini toping? (**Javob:** termometr)

4-savol: (5 ball). Biz egizaklarmiz. Mening ismim Mavjud, uning ismi Mavhum.

(4 ball). Men uni faqat yorug'likda va ma'lum joylardagina ko'ra olaman.

(3 ball). Biz doimo qarama-qarshi harakat qilamiz, men unga o'ng qo'limni cho'zsam, u albatta, chap qo'lini cho'zadi.

Diqqat savol: ta'rif berilgan narsalarning nomini toping? (**Javob:** buyum va uning ko'zgudagi tasviri).

5-savol: (5 ball). Ginnes rekordlar kitobi ko'plab qiziqarli faktlarni o'z ishiga olgan. Bular ichida bir qiziqarli ma'lumot mavjud: dunyodagi kokteyl ichish uchun mo'ljallangan eng uzun naycha 10,3 metr. Bu rekord ancha yillardan buyon o'zgarmay turibdi [2].

(4 ball). Sababini tutash idishlar va gidrostatik bosim kabi tushunchalarga bo'g'lang.

(3 ball). Havosi so'rib olingan nay normal sharoitda simobga tushirilsa, simob atmosfera bosimi ta'sirida nay orqali 76 cm ko'tariladi. Shu nay suvga tushirilsa, suv qancha balandlikka ko'tarilgan bo'lar edi?

Diqqat savol: nega kokteyl ichish uchun mo'ljallangan naychanning uzunligini oshirilmaydi? Buning sababi nimada? (**Javob:** Torrichelli qonuniga ko'ra 10,3 metrdan uzun naychadan kokteyl ichib bo'lmaydi).

6-savol: (5 ball). Bu uy-ro'zg'or anjomi buyuk kashfiyot sababchisi bo'lib, hozirgi kunda chet davlatlarda qariyalar uchun uning eshikli nusxalari ham ishlab chiqarilmoqda.

(4 ball). U ko'proq ko'p qavatli uylarda ishlatiladi.

(3 ball). Undan Arximed “Evrika” deb otilib chiqqan.

Diqqat savol: bu uy-ro‘zg‘or anjomi nomini ayting? (Javob: vanna).

7-savol: (5 ball). Bu lotincha so‘z o‘zbekchaga o‘girilsa, “pog‘ona” deb tarjima qilinadi. Bu narsada bir nechta pog‘onalar mavjud. Pog‘onalardan bittasining rangi qizil, qolgan pog‘onalarning rangi bir xil.

(4 ball). Bu nozik o‘lchov asbobidan nafaqat fizika laboratoriya xonasida, balki kundalik hayotda ham foydalanamiz.

(3 ball). Uning 37-pog‘onasi qizil bilan ajratilgan?

Diqqat savol: bu o‘lchov asbobining nomini ayting? (Javob: termometr).

8-savol: (5 ball). Prussiya qiroli Paganiniga sovg‘a qilgan buyumida quyidagi so‘zlar bayon etilgan edi: “Har biri jarohatlaydi, ammo so‘nggisi halok etadi”.

(4 ball). Hamma birdek foydalanadigan bu buyumni o‘lchov asbobi desak, xato bo‘lmaydi.

(3 ball). U turli ko‘rinishga ega bo‘lib, biz uni ko‘proq qo‘lga taqib olamiz.

Diqqat savol: sovg‘a qilingan buyum nima edi? (Javob: soat).

Shunday qilib, qiziqarli masalalar - bu mazmunan nostandart bo‘lgan, ko‘pincha ijodiy xarakterga ega bo‘lgan masalalardir. Qiziqarli topshiriqlar o‘rganilayotgan nazariyani kundalik hayotga yaqinlashtiradi, fanga qiziqishni oshiradi, kuzatish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Ular intellektual fikrlash maktabi bo‘lib xizmat qiladi, fizikaviy hodisalarning mohiyatini tushunishga yordam beradi, bilimlarni amaliy qo‘llashni o‘rgatadi va materialni norasmiy o‘rganishga yordam beradi.

Ko‘plab tadqiqotlar va amaliy tajriba shuni ko‘rsatdiki, ko‘ngilochar va qiziqarli masala oz mazmuni orqali o‘rganishga turtki bo‘ladi (bizning tajribamiz shuni ko‘rsatdiki, 76% o‘quvchilar qiziqarli masalalarga qiziqish bildiradi) va uni yechish jarayoni faol aqliy faoliyatni o‘z ichiga oladi. Shuning uchun bunday fizikaviy masala o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish vositasi bo‘lib xizmat qilishi mumkin va ma‘lum bir vaziyatning qiziqarli va ko‘ngilochar tabiati integrativ masalaning belgilaridan biri bo‘lishi mumkin. Shuni ham ta‘kidlagimiz keladiki, buyuk fizik A. Eynshteyn kutubxonasida jumboqlar, paradokslar va nostandart masalalar bo‘lgan juda ko‘p kitoblar mavjud ekan. Balki shu kitoblarni o‘qishga ishtiyoqi uning buyuk olim bo‘lish kelajagini belgilab bergandir.

Fizikaga qiziqqan odamning ma‘lum narsaning mohiyatini o‘rganishga yo‘naltirilishi fizikaviy va astronomiyaga oid hodisalarni, nazariyalarni, g‘oyalarni o‘rganishga alohida ehtiyojni, fizika va astronomiya sohasidagi ma‘lumotlardan doimo xabardor bo‘lish zarurligini keltirib chiqaradi. Kognitiv qiziqish aqliy faoliyatning o‘zini rag‘batlantiradi, uning samaradorligini oshiradi, buning natijasida bilim sifati oshadi, dunyoqarashi kengayadi, o‘z-o‘zini tarbiyalash istagi va ijodiy fikrlash rivojlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Lanina I.YA. Provedeniye urokov resheniya zadach. Metod, rekomendatsii. - L.: LGPI, 1990.- 88 s.
2. A.Abdullayev. Daqiqa qadri. (1-kitob) T-2012
- 3.Перельман Я.И. Занимательная астрономия. - Yekaterinburg: TEZIS, 1994.
- 4.Перельман Я.И. Занимательная физика. - Yekaterinburg: TEZIS, 1994.
- 5.Sharipov Sh.S. O‘quvchilar kasbiy ijodkorligi uzviyiligini ta‘minlashning nazariyasi va amaliyoti: ped.fan.dokt. ... diss. – T.: 2012. – 264.
6. M.B.Dusmuratov. Fizika.T.-2016 - 520.

*Sadoqat Fayzulloyeva Furqat qizi,
Osiyo Xalqaro Universiteti o'qituvchisi*

UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA KIMYO FANINI O'QITISHDA AKTNI QO'LLASHNING METODIK TAMOYILLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada umumta'lim maktablarida kimyo fanini o'qitishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini (AKT) qo'llashning metodik tamoyillari yoritilgan. Kimyo darslarini interaktiv vositalar yordamida o'qitish, raqamli resurslar va virtual laboratoriyalarni qo'llash orqali o'quvchilarning fan bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lishlari va tajribaviy ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada AKT asosida darslarni rejalashtirish, vizual materiallar yaratish, ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi metodik yondashuvlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, kimyo ta'limi, metodik tamoyillar, interaktiv o'qitish, raqamli resurslar, virtual laboratoriya, umumta'lim maktabi.

Аннотация. В статье рассматриваются методические принципы интеграции информационно-коммуникационных технологий (ИКТ) в процесс преподавания химии в общеобразовательной школе. Проанализированы педагогические подходы к использованию цифровых ресурсов, виртуальных лабораторий, мультимедийных презентаций и интерактивных платформ. Особое внимание уделено формированию у учащихся устойчивого интереса к предмету, развитию исследовательских и практических навыков, а также повышению эффективности учебного процесса. Представлены рекомендации по выбору и применению ИКТ в зависимости от целей урока, уровня подготовки учащихся и содержания учебного материала.

Ключевые слова: ИКТ, преподавание химии, средняя школа, методические принципы, цифровые образовательные ресурсы, виртуальная лаборатория, интерактивное обучение, образовательные технологии.

Abstract. This article explores the methodological principles of integrating Information and Communication Technologies (ICT) into the teaching of chemistry in secondary schools. It highlights the role of digital tools-such as virtual laboratories, multimedia presentations, and interactive platforms-in enhancing the effectiveness of the learning process. The study emphasizes how ICT supports students' conceptual understanding, fosters independent and inquiry-based learning, and increases motivation and engagement. Based on pedagogical analysis, the article provides practical recommendations for selecting and applying ICT tools in alignment with lesson objectives, student proficiency levels, and curricular content.

Keywords; ICT, chemistry education, secondary school, methodological principles, digital resources, virtual laboratory, interactive learning, educational technology.

Kirish. Bugungi kunda ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish zaruriyati tobora ortib bormoqda. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish, ularning bilimga bo'lgan qiziqishini oshirish hamda ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Xususan, kimyo fanini o'qitishda AKTdan foydalanish darslarning samaradorligini oshirish, murakkab kimyoviy jarayonlarni vizual tarzda tushuntirish va o'quvchilarning laboratoriya ishlariga bo'lgan qiziqishini kuchaytirishga imkon yaratadi.

Kimyo fani – nazariy bilim bilan bir qatorda amaliy ko'nikma va tajriba talab qiluvchi fanlardan biridir. Shu bois, uni o'qitishda interaktiv dars uslublari, virtual laboratoriyalar, simulyatsiyalar, multimediali taqdimotlar kabi vositalardan foydalanish zarur.

Adabiyotlar tahlili. So'nggi yillarda kimyo ta'limida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) o'rni va ahamiyati yuzasidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar soni ortib bormoqda [7,9]. Ushbu tadqiqotlarda AKT vositalaridan samarali foydalanish orqali o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish masalalari keng yoritilgan.

Jumladan, A.X. Yo'ldoshev (2020) [4] o'z tadqiqotida kimyo fanini o'qitishda interaktiv ta'lim usullarining ahamiyatini ta'kidlab, raqamli resurslar, test tizimlari va onlayn platformalarning dars jarayoniga integratsiyasining ijobiy jihatlarini ochib bergan. Unga ko'ra, AKT yordamida tashkil etilgan darslar o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini oshiradi, ularni faollikka undaydi.

M.M. Qodirova (2019) [5] esa, kimyo darslarida virtual laboratoriyalardan foydalanish orqali o'quvchilarning tajribaviy faoliyatini shakllantirish bo'yicha qator tavsiyalarni bergan. Muallifning fikriga ko'ra, real sharoitda bajarilishi qiyin bo'lgan tajribalarni simulyatsiya qilish o'quvchilar bilimini mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi.

Shuningdek, PISA [8] xalqaro tadqiqotlari natijalari ham o'quvchilarning funksional savodxonligini rivojlantirishda AKT vositalarining ahamiyatli ekanligini ko'rsatadi. Xalqaro tajriba asosida olib borilgan tadqiqotlar, masalan, M. Jonson (2018) [10] tomonidan taqdim etilgan ishlarda AKT yordamida fanlararo integratsiyani ta'minlash, o'quv motivatsiyasini oshirish va fanlarni osonroq tushunishga erishish yo'llari yoritilgan.

Respublikamizda ham AKTdan foydalanish bo'yicha qator normativ-huquqiy hujjatlar mavjud. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019- yil 29- apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-sonli Farmonida "PISA" (The Programme for International Student Assessment) o'quvchilarni baholash xalqaro dasturi reytingida O'zbekistonning 2021 yilda birinchi 70 talikka, 2025 yilda 60 talikka va 2030 yilga kelib esa, birinchi 30 ta ilg'or mamlakatlar qatoriga kiritish ko'zda tutilgan[1]. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 8 dekabrda "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 997-sonli qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi qoshida "Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi" tashkil etildi [2]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-sonli "Raqamli O'zbekiston 2030" [3] strategiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora tadbirlari to'g'risida"gi farmonida raqamli dunyoda raqamlashtirish, raqamli texnologiyalarni ishlab chiqish, raqamli iqtisodiyot sohasida yangi loyihalarni ko'rib chiqish va raqamli ta'limni rivojlantirish dasturlari amalga oshirilmoqda.

Umuman olganda, mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, kimyo ta'limida AKTdan samarali foydalanish o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini oshiradi, ularning bilimlarini amaliyot bilan bog'lash imkonini yaratadi va o'qituvchining darsni interaktiv, mazmunli va samarali tashkil etishiga ko'maklashadi.

Metod va metodologiya. Ushbu ilmiy maqolada umumta'lim maktablarida kimyo fanini o'qitishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini (AKT) qo'llashning metodik tamoyillarini aniqlash va tahlil qilish maqsadida turli ilmiy-tadqiqot metodlari qo'llanildi. Tadqiqotning asosiy metodologik asosini quyidagilar tashkil etadi:

Tahlil (analiz) va sintez – mavjud ilmiy adabiyotlar, davlat standartlari, o'quv dasturlari hamda ilg'or tajribalar o'rganilib, ulardan umumiy metodik xulosalar chiqarildi.

Taqqoslash va solishtirish – kimyo fanini o'qitishda AKTdan foydalanish bo'yicha an'anaviy va zamonaviy yondashuvlar solishtirilib, ularning afzallik va kamchilik tomonlari aniqlab chiqildi.

Empirik metodlar – o'rta maktablarda kimyo fanidan foydalanilayotgan AKT vositalarining holati, ulardan foydalanish samaradorligi bo'yicha amaliy kuzatuvlar, suhbatlar va anketalar o'tkazildi.

Eksperimental metod – kimyo darslarida interaktiv taqdimotlar, virtual laboratoriyalar va boshqa AKT vositalarini qo'llash asosida darslar tashkil etilib, ularning o'quvchilarning bilim darajasiga ta'siri o'rganildi.

Pedagogik tajriba – AKT asosidagi darslarning samaradorligini baholash uchun tajriba-sinov ishlari o'tkazilib, nazorat va eksperimental guruhlar o'rtasida taqqoslama tahlillar qilindi.

Metodologik yondashuv sifatida konstruktivizm va faoliyatga asoslangan ta'lim nazariyalari asos qilib olindi. Bu yondashuvlar o'quvchini faollikka chorlash, ularning mustaqil bilim olish jarayonini tashkil etish va tajriba asosida o'rganishga yo'naltirilgan.

Ushbu metod va metodologik asoslar tadqiqotning ilmiy aniqligi, izchilligi hamda amaliy foydaliligini ta'minlashga xizmat qildi.

Tadqiqotlar natijalari. O'tkazilgan ilmiy-amaliy tadqiqotlar natijasida umumta'lim maktablarida kimyo fanini o'qitishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini (AKT) qo'llash quyidagi ijobiy samaralarni bergani aniqlandi:

O'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishi oshdi – Interaktiv taqdimotlar, animatsiyalar, videodarslar va virtual laboratoriyalar yordamida tashkil etilgan darslar an'anaviy darslarga nisbatan o'quvchilar tomonidan yuqori darajada qiziqish bilan qabul qilindi.

Nazariy bilimlarning amaliy ko'nikmaga aylanishi tezlashdi – AKT asosida o'tilgan darslar orqali o'quvchilar kimyoviy jarayonlarni vizual ravishda ko'rib, ularni yaxshiroq anglab oldilar. Virtual tajribalar orqali real sharoitda bajarilishi qiyin bo'lgan tajribalarni o'zlashtirish imkoniyati paydo bo'ldi.

O'quvchilarning mustaqil ishlash ko'nikmalari rivojlandi – Elektron darsliklar, onlayn testlar, masofaviy ta'lim platformalari yordamida o'quvchilarning mustaqil ishlash, axborot qidirish va uni tahlil qilish ko'nikmalari oshdi.

O'qituvchilarning darsni loyihalashdagi metodik yondashuvlari takomillashdi – AKT imkoniyatlaridan foydalangan holda o'qituvchilar darsni rejalashtirishda ko'proq ijodkorlik va moslashuvchanlik bilan yondashdilar. Darsda ko'p funksiyali elektron vositalar (smart doska, onlayn test tizimlari, interaktiv simulyatorlar) qo'llanildi.

Tajriba-sinov ishlari natijalari – Tajriba guruhida AKT asosida o'qitilgan o'quvchilar bilan nazorat guruhi (an'anaviy usulda o'qitilganlar) o'rtasida bilim saviyasi va test natijalari bo'yicha sezilarli farq kuzatildi. Tajriba guruhidagi o'quvchilarning baholari o'rtacha 15–20% yuqori bo'ldi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, kimyo fanini o'qitishda AKTdan maqsadli va metodik jihatdan to'g'ri foydalanish nafaqat dars samaradorligini oshiradi, balki o'quvchilarning mustaqil o'rganishga bo'lgan intilishini kuchaytiradi hamda ularning zamonaviy texnologiyalar bilan ishlash madaniyatini shakllantiradi.

Muhokama. Umumta'lim maktablarida kimyo darslarida AKTning asosiy vositalari sifatida interaktiv doskalar, multimedia taqdimotlar, virtual laboratoriyalar va onlayn test tizimlari keng qo'llanilmoqda. Bu vositalar yordamida murakkab kimyoviy jarayonlarni tushuntirish osonlashadi, shuningdek, o'quvchilar uchun qiziqarli va interaktiv darslar tashkil etish mumkin bo'ladi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) imkoniyatlari kimyo fanini o'qitishda yangi pedagogik yondashuvlarni joriy etishda muhim rol o'ynaydi. Xususan, interaktiv doskalar o'quv jarayonini yanada jonli, ko'rgazmali va interaktiv qilishga yordam beradi. Ular yordamida o'qituvchi kimyoviy formulalar, reaksiyalar, jadval va diagrammalarni tezkor va aniq taqdim etib, o'quvchilarning diqqatini jalb qilishi osonlashadi.

Multimedia taqdimotlar esa, murakkab kimyoviy tushunchalarni vizual va audiovizual shaklda ifodalashga imkon beradi. Animatsiyalar, videolar va grafikalar yordamida o'quvchilar kimyoviy jarayonlarning mohiyatini yaxshiroq tushunib oladi, bu esa o'z navbatida bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi.

Virtual laboratoriyalar real sharoitda amalga oshirish qiyin yoki xavfli bo'lgan kimyoviy tajribalarni xavfsiz va qulay muhitda bajarish imkonini yaratadi. O'quvchilar interaktiv tajribalar orqali nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'lab, mustaqil fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantiradilar.

Shunday qilib, interaktiv doskalar, multimedia taqdimotlar va virtual laboratoriyalar o'quv jarayonining samaradorligini oshiradi, o'quvchilarda fan bo'yicha chuqurroq tushuncha va qiziqish uyg'otadi.

Shuningdek, AKTdan foydalanish o'quvchilarning mustaqil bilim olish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Masalan, onlayn manbaalar orqali kimyoviy formulalar, reaksiyalar va tajribalar haqida chuqurroq ma'lumot olishlari mumkin.

Tadqiqot davomida umumta'lim maktablarida kimyo fanini o'qitishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) foydalanish bo'yicha olib borilgan amaliy kuzatuvlar, tahlillar va tajriba-sinov ishlari shuni ko'rsatdiki, AKT vositalari o'quv jarayonining ajralmas qismiga aylanib bormoqda [11-12]. Ammo ularni samarali qo'llash o'qituvchilardan metodik yondashuv va texnologik savodxonlikni talab qiladi.

Muhokamada asosiy e'tibor quyidagi masalalarga qaratildi:

AKTning didaktik imkoniyatlari – Multimediali vositalar, interaktiv simulyatorlar va virtual tajribalar orqali o'quvchilarda murakkab kimyoviy tushunchalarni aniqlashtirish imkoniyati kuchayadi. Bu esa an'anaviy dars metodikasi bilan yetarlicha ta'minlab bo'lmaydigan vizual va tajribaviy yondashuvni ta'minlaydi.

Metodik yondashuvning ahamiyati – AKTdan foydalanishda faqat texnik vositalarning mavjudligi emas, balki ularni to'g'ri pedagogik maqsadlarga yo'naltirish muhimdir. Dars mazmuniga mos, o'quvchining yosh va tayyorgarlik darajasini inobatga olgan holda tanlangan AKT vositalari samaradorlikni oshiradi.

AKTdan foydalanishda mavjud muammolar – Ayrim umumta'lim maktablarida texnik infratuzilmaning yetishmasligi, o'qituvchilarning AKT bo'yicha yetarli malakaga ega emasligi, internet tezligining sustligi kabi omillar bu jarayonni sekinlashtirayotganini ko'rsatmoqda.

Innovatsion metodlar integratsiyasi – Faoliyatga asoslangan, muammoli ta'lim, loyiha metodlari kabi ilg'or pedagogik yondashuvlar AKT bilan uyg'unlashganda ta'lim sifati yanada oshadi. Jumladan, kimyoviy eksperimentlar bo'yicha loyiha ishlari va virtual laboratoriyalarni birlashtirish o'quvchilarni izlanishga yo'naltiradi.

Natijaviylik – Tajriba-sinov darslari shuni ko'rsatdiki, AKT asosida tashkil etilgan darslar o'quvchilarning faolligini oshiradi, ularni mustaqil fikrlashga undaydi va kimyoga bo'lgan qiziqishni kuchaytiradi.

Shunday qilib, AKTni kimyo ta'limiga samarali integratsiyalash metodik tamoyillarga tayangan holda amalga oshirilgandagina uning natijadorligi yuqori bo'ladi. Muhimi, bu yondashuv o'qituvchining roli va pedagogik mahoratini yangi bosqichga olib chiqadi.

Xulosa. O'tkazilgan tadqiqotlar, kuzatuvlar va tajriba-sinov ishlari asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

AKT vositalarini kimyo ta'limiga joriy etish – o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi, nazariy bilimlarni chuqurroq anglash va ularni amaliyot bilan bog'lash imkonini yaratadi.

Metodik tamoyillarga asoslangan yondashuv – AKTni qo'llashda samarali natijaga erishish uchun o'quvchilarning yosh xususiyatlari, bilim darajasi va dars mavzulariga mos ravishda metodik jihatdan to'g'ri rejalashtirish muhim hisoblanadi.

Virtual laboratoriyalar va simulyatsiyalar – real tajribalarning xavfsiz, qulay va samarali muqobili bo'lib, o'quvchilarni izlanishga, mustaqil fikrlashga va ilmiy tajriba yuritishga yo'naltiradi.

O'qituvchilarning texnologik va metodik tayyorgarligi – dars jarayonida AKTdan to'g'ri foydalanish uchun o'qituvchilar muntazam ravishda malaka oshirish kurslari orqali yangilanishlari zarur.

Takliflar:

Kimyo fanidan raqamli o'quv resurslarini kengaytirish – interaktiv darsliklar, elektron testlar, videodarslar va animatsion laboratoriyalarni yaratish va ta'lim muassasalariga yetkazish.

O'qituvchilar uchun AKT bo'yicha maxsus seminar va treninglar tashkil etish – metodik qo'llanmalar, platformalar va zamonaviy ta'lim texnologiyalari bilan tanishtirish orqali ularning kasbiy salohiyatini oshirish.

Maktablarni zarur texnik vositalar bilan ta'minlash – kompyuterlar, proyektorlar, interaktiv doskalar, barqaror internet tarmog'i va boshqa texnik infratuzilmalarni rivojlantirish.

AKT asosida integratsiyalashgan darslarni ommalashtirish – kimyo fanini boshqa tabiiy fanlar bilan uyg'unlashtirib, AKT orqali fanlararo bog'liqlikni kuchaytirish.

Nazorat va monitoring tizimini yo'lga qo'yish – AKT asosida tashkil etilgan darslarning samaradorligini baholash uchun indikatorlar asosida tahlil qilish va ilg'or tajribalarni umumlashtirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi PF-5538- sonli "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 8 dekabrdagi "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 997-sonli qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabedagi PF-6079- sonli "Raqamli O'zbekiston 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora tadbirlari to'g'risida"gi farmoni.
4. Yo'ldoshev A.X. Kimyo ta'limida axborot texnologiyalaridan foydalanishning nazariy asoslari. Toshkent: O'zbekiston pedagogika nashriyoti, 2020.
5. Qodirova M.M. Kimyo fanini o'qitishda virtual laboratoriyalarning o'rni. – "Ta'limda innovatsiyalar" ilmiy-amaliy jurnal. 2019, №4, 45–49-betlar.
6. Niyozov B.N., Abdujabborova G.T. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti, 2021.
7. UNESCO. ICT in Education: A Critical Review and Guidelines for Implementation. Paris: United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization, 2020.
8. Johnson, M. (2018). The Role of ICT in Enhancing Science Education. – Journal of Educational Technology Research, Vol. 25, Issue 2, pp. 112–127.
9. Axmedova Z. O'rta ta'limda AKTni qo'llashning pedagogik asoslari. – "Ilm va taraqqiyot" ilmiy jurnali. 2022, №2(10), 34–39-betlar.
10. PISA (Programme for International Student Assessment). (2021). 21st Century Skills and Technology Integration in Science Education. OECD Publishing.
11. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. Kimyo fani bo'yicha umumta'lim maktablari uchun o'quv dasturi (7–11-sinflar). – Toshkent, 2021.
12. Karimova D.T. AKT asosida dars jarayonini tashkil etishning metodik yondashuvlari. – "Pedagogik izlanishlar" to'plami. 2020, №3, 21–27-betlar.

*Абдуллаева Масуда,
Наманганский государственный университет п.ф.н.профессор,
Абдуллаева Нилуфар,
Наманганский государственный университет Ph.D доцент,
Абдуллаев Дилмурод,
Наманганский государственный университет доцент,*

ЭСТЕТИЧЕСКОЕ ВОСПИТАНИЕ ДЕТЕЙ В СЕМЬЕ

***Аннотация.** В современной педагогике и детском образовании эстетическое воспитание дошкольников имеет особое значение. Оно призвано создать все предпосылки для формирования развитой и гармоничной личности. Без него ребенок не сможет ценить прекрасное, получать подлинное удовольствие от прослушивания классической музыки или созерцания картины, а тем более, не сможет создать что-то свое.*

***Ключевые слова:** эстетическое воспитание, дошкольники, развитие ребенка, гармоничная личность, восприятие красоты, классическая музыка, созерцание искусства, творчество, современная педагогика, воспитание детей.*

***Annotation:** In modern pedagogy and child education, the aesthetic education of preschoolers is of particular importance. It is designed to create all the prerequisites for forming a developed and harmonious personality. Without it, a child will not be able to appreciate the beautiful, get genuine pleasure from listening to classical music or contemplating a picture, and even more so, will not be able to create something of his own*

***Keywords:** aesthetic education, preschoolers, child development, harmonious personality, appreciation of beauty, classical music, art contemplation, creativity, modern pedagogy, child education.*

Введение. Эстетические чувства, восприимчивость к красивому не только обогащает жизнь человека, его духовный мир, но и организует, направляет его поведение и поступки. Поэтому важной задачей родителей является развитие у ребёнка эстетической восприимчивости ко всему окружающему.

Ребёнок тянется к яркой игрушке, он выражает радость от общения с природой. Как часто мы слышим от ребёнка восторженные восклицания: "Посмотри, какой красивый цветок!", "Смотри, какая бабочка!". Но часто взрослые не обращают на это должного внимания.

Как и все способности, способность к эстетической восприимчивости может быть развита, воспитана. Ребенок, способный любоваться предметами окружающего мира, сумеет более бережно подойти к ним, будет стараться не повредить их, не сломать. Это формирует в ребёнке гуманистическое отношение к природному миру. Самое страшное в человеке - это безразличие, равнодушие, отсутствие интереса к предметам и явлениям окружающего мира.

Методы. Как же можно воспитать художественно-эстетические способности у ребёнка в семье? Большое значение имеет воспитание у него наблюдательности, умения видеть, рассматривать. Наблюдательность обогащает знания, зрительные представления ребёнка о предмете. Обе стороны, познавательная и эмоциональная, находятся в тесной взаимосвязи. Поэтому развитие у ребёнка культуры видения, способности к наблюдению, к внимательному рассматриванию предметов и явлений является важной стороной воспитательной работы в семье. Но для того, чтобы развивать у детей эстетическое восприятие, взрослый должен обладать способностью эстетического видения. Любая экскурсия с детьми на природу, прогулки в город, в парк, на набережную имеют большое значение для ребёнка. Надо обращать внимание на особенности и красоту отдельных зданий в городе, на их различия, на яркость и красочность. Любоваться красотой цветущих деревьев, кустов, цветов. Замечать перемены, которые происходят в природе: цвет листьев

меняется в зависимости от времени года, перелётные птицы улетают на юг, а потом опять возвращаются, облака и тучи на небе имеют разный цвет, форму. Умение созерцать красоту, наслаждаться ею очень важно для развития детского творчества. Объекты для наблюдения в целях расширения представлений ребёнка о мире, его изменчивости и красоте найдутся всегда: это и летающие над лугом птицы, и сидящий на цветке пушистый шмель, и плавно опускающиеся на землю снежинки, и подгоняемые ветром опавшие листья.

Образное эстетическое восприятие ребёнка качественно обогащается в тех случаях, когда взрослый использует *эпитеты, образные выражения, поэтические строки*. Сам процесс восприятия должен быть эмоционально-радостным, вызывать у ребенка положительное отношение к действительности, желание наслаждаться красотой, изобразить увиденное.

Большое значение, для развития художественно-эстетических способностей ребёнка, имеет *рисование*. С самого начала важен здоровый подход к изобразительной деятельности ребёнка в семье. Не следует преувеличивать художественные способности ребёнка, говоря при нём, что это будущий художник, но и нельзя относиться небрежно, как к ненужному баловству, к его творчеству.

Рисуя, ребёнок не просто изображает те или другие предметы или явления окружающей жизни, но и выражает сильными ему средствами своё отношение к изображаемому. Поэтому процесс рисования у ребёнка связан с оценкой того, что он изображает, и в этой оценке всегда большую роль играют чувства ребёнка, в том числе и эстетические. Стремясь передать это отношение, ребёнок ищет средства выражения, овладевая карандашами и красками.

Самое главное - вовремя заметить тягу ребёнка к творчеству и поддержать его. Большое значение в развитии эстетической восприимчивости детей имеет образное, хорошо найденное слово взрослого. Оно помогает детям понять, какие качества, свойства предмета, могут быть отнесены к положительной его эстетической оценке, то есть делают его красивым. Красиво то, что просто, тщательно и любовно выполнено, что правдиво, красочно, тонко и изящно по форме, приятно по цветовым сочетаниям.

Воспитание живой эстетической восприимчивости ребёнка к окружающему миру и необходимая помощь в его изобразительной деятельности, всяческое её поощрение и, наконец, продуманная организация общения ребёнка с искусством - всё это доступно родителям. И это будет прочным фундаментом дальнейшего художественно-эстетического развития формирующейся личности ребёнка.

С самого раннего детства дети имеют определенную тягу к красоте, их привлекают ярко оформленные игрушки, блестящие и разноцветные предметы. Малыши получают настоящее удовольствие, прослушивая музыку или стишки, сказки, которые читает им мама. Эти импульсы, пока неосознанные, постепенно становятся сознательными, но лишь в том случае, если родители помогут крохе сформировать гармоничный вкус, творческие и художественные способности, эстетические представления. Только так можно будет добиться того, что личность ребенка будет развитой, а он сам – счастливым.

В ДОУ также колоссальное значение имеет работа по воспитанию стремления к прекрасному. Для этого должны быть созданы необходимые условия, проводиться определенные формы занятий – создание поделок, рисование, лепка, прослушивание доступных детям классических художественных произведений и беседа по прослушанному. Поэтому эстетическое воспитание дошкольников – задача, одновременно стоящая перед родителями и воспитателями.

В комнате следует красиво расставить игрушки, повесить интересные репродукции, обязательно соблюдать чистоту и порядок. Помогут добиться поставленной цели и цветущие растения, размещенные в гармоничной композиции, и оформленный аквариум с рыбками. Все элементы декора должны сочетаться между собой, образуя единый ансамбль.

Для детей младшего дошкольного возраста можно выбрать картину с изображением животного, знакомого сказочного персонажа, «вкусный» натюрморт. Более старшим

малышам по вкусу придется пейзаж, поэтому лучше использовать репродукции Саврасова, Серова, Шишкина, Левитана. Чтобы ребенок не утратил интерес, картины следует периодически менять, при этом рассказывая ребенку информацию о самой работе и ее авторе.

Кроме того, детскую можно оформить и предметами народного промысла, дымковскими игрушками, поделками «под хохлому». Конечно, расставлять на столе юного проказника дорогие коллекционные предметы не стоит, но что-то недорогое из керамики может стать достойным украшением.

Родителям с раннего возраста нужно внушать ребенку, что деревья и цветы, закат и рассвет, облака на небе и волны в реке – это красиво, нужно научить наслаждаться этой прелестью. Для этого следует знакомить малышей с доступными им произведениями о природе, проводить время на свежем воздухе, беседовать, отвечать на вопросы, показывать собственный пример.

Для эстетического воспитания детей можно использовать очень многое. Так, в любом городе есть красивые улицы, архитектурные постройки, музеи, проводятся выставки. Дошкольники с удовольствием узнают что-то новое, посещая подобные места. Гуляя по городу, можно познакомить ребенка с основными достопримечательностями, уделив внимание их изысканности, гармоничности.

Обсуждение. Если в городе нет музеев, познакомить малыша с произведениями искусства помогут репродукции, виртуальные экскурсии, посмотреть которые можно через интернет. Необходимо включать для крох выдающиеся музыкальные произведения, беседовать по прослушанному, узнавать, какие мысли и эмоции вызвала музыка Бетховена или Моцарта, Чайковского и Рахманинова.

И, конечно, не стоит забывать о литературных произведениях. Дошкольники могут понять сказки Пушкина, особенно если рассмотреть с ними качественные цветные иллюстрации. Также следует познакомить их со стихами Маршака, Барто, рассказами Пришвина и Жидкова.

Родителям важно помнить – не каждый малыш станет художником или музыкантом, но уметь чувствовать прекрасное, получать от этого особое удовольствие должен любой. Поэтому следует не просто просить малыша что-то нарисовать или сделать поделку, аппликацию, но и обращать внимание на уже созданные объекты духовной ценности.

Выполняя задачи эстетического воспитания малышей, следует познакомить их и с пользой трудовой деятельности, рассказать о том, что существует большое количество профессий, каждая из которых важна.

Заключение. Наиболее действенным методом считается первый, личный пример, включающий как внешний облик, так и особенности поведения, моральные установки. Глядя на родителей и воспитателей, которые понимают прекрасное, получают удовольствие от его созерцания, ребенок сам захочет стать таким же. Только таким образом можно сформировать идеал, который в дальнейшем ляжет в основу художественного сознания малыша.

Даже самые несложные эстетические суждения, которые ребенок слышит от взрослых, оказывают на него большое влияние. Если ребенок слышит, что тат или иная вещь красива потому, что она хоть и очень проста по форме, но тщательно, любовно выполнена, ее приятно взять в руки, ею удобно пользоваться, то ребенок постепенно начинает понимать, что красиво не только то, что ярко, нарядно, но и то, что целесообразно, мастерски выполнено, гармонично по цвету и форме.

В заключении хочется сказать, что очень хотелось бы, чтобы наши дети выросли эстетически развитыми людьми, умеющими воспринимать красоту окружающей природы, способными с нежностью смотреть на детей, животных, любить искусство, видеть красивое в повседневной жизни. Такие люди несравненно богаче, полнее, радостнее воспринимают жизнь.

Список использованной литературы.

1. Барышева Т. А. Креативность. Диагностика и развитие. Монография. Спб.,2002
- 2.
3. Жданова С. Н. Педагогика эстетического освоения мира: монография. Оренбург, 2006.
4. Ильин Е. П. Психология творчества, креативности, одаренности. СПб, 2012.
5. Педагогика эстетической среды: теория и опыт. Сб. науч. тр. Минск, 2002.
6. Репринцев А. В. Эстетическое отношение личности к действительности: Сущность, структура, формирование. Курск, 2000.
7. Эстетическое мировосприятие детей разных возрастных групп: Сб. научных статей. М.,2007.
8. Ясвин В. А. Образовательная среда: от моделирования к проектированию. М.,2001
9. Щербакова Т. Н. Влияние эстетики образовательной среды на развитие творческих способностей учащихся [Текст] // Актуальные задачи педагогики: материалы III Междунар. науч. конф. (г. Чита, февраль 2013 г.). - Чита: Издательство Молодой ученый, 2013.
10. Щербакова, Е. В. Эстетическое воспитание детей в семье с позиций истории и современности / Е. В. Щербакова, Т. Н. Щербакова. - Текст : непосредственный // Теория и практика образования в современном мире : материалы X Междунар. науч. конф. (г. Чита, апрель 2018 г.). - Чита : Издательство Молодой ученый, 2018. - С. 49-54. - URL: <https://moluch.ru/conf/ped/archive/277/13979/>

Yusuffjonova Madinabonu,
Namangan davlat universiteti 2-bosqich tayanch doktoranti
Boltayeva Muhayyo,
PhD, dotsent, Namangan davlat universiteti

MUSTAQIL TA'LIM FAOLIYATINI SAMARALI BOSHQARISHDA KREDITMODUL TIZIMINING INTEGRATSIYASI: JANUBIY KOREYA TA'LIM TIZIMI TAJRIBASI

Annotatsiya. *Mustaqil ta'lim faoliyatini samarali boshqarish jarayonida kredit-modul tizimini integratsiyalash uni o'rganish, moslashtirish masalalari ushbu maqolada bayon e'tilgan. Rivojlangan mamlakatlardan biri bo'lgan Janubiy Koreya ta'lim tizimi tajriba sifatida O'zbekiston Respublikasining ko'plab jabhalarida o'rganilmoqda. Maqolada, o'quvchilarning o'z-o'zini rivojlantirish ko'nikmalarini shakllantirish, ta'lim mazmunini individualizatsiyalash, hamda o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida interaktiv hamkorlikni kuchaytirishning zamonaviy yondashuvlari, mamlakatimiz ta'lim tizimiga ham kredit-modul tizimini olib kirish imkoniyatlari tahlil qilinishi, yutuq va kamchiliklari haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *Kredit-modul tizimi, mustaqil ta'lim, Janubiy Koreya tajribasi, ta'lim boshqaruvi, individual yondashuv, o'quv jarayoni.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются вопросы интеграции кредитномодульной системы в процесс эффективного управления самостоятельной учебной деятельностью, а также её изучения и адаптации. Образовательная система Южной Кореи, как одной из развитых стран, изучается в различных сферах Республики Узбекистан в качестве примера. В статье анализируются современные подходы к формированию навыков саморазвития у учащихся, индивидуализации содержания образования, а также усилению интерактивного взаимодействия между преподавателем и учеником. Также рассматриваются возможности внедрения кредитно-модульной системы в национальную систему образования, её преимущества и недостатки.*

Ключевые слова: *Кредитно-модульная система, самостоятельное обучение, опыт Южной Кореи, управление образованием, индивидуальный подход, учебный процесс.*

Abstract. *This article discusses the integration of the credit-module system in the effective management of independent learning activities, as well as the issues of studying and adapting it. The education system of South Korea, one of the developed countries, is being studied as an example in various fields of the Republic of Uzbekistan. The article analyzes modern approaches to developing students' self-improvement skills, individualizing the content of education, and strengthening interactive cooperation between teachers and students. It also explores the possibilities of introducing the credit module system into our national education system, along with its advantages and shortcomings.*

Keywords: *Credit-modular system, independent learning, South Korean experience, education management, individual approach, learning process.*

Kirish. XXI asrdan boshlab, ta'lim tizimi oldiga yangicha talab va vazifalarni qo'yimoqda, jumladan, axborot texnologiyalarining tez sur'atlar bilan rivojlanishi, mehnat bozoridagi raqobatning kuchayishi ayniqsa, oliy ta'lim tizimida talabalarni mustaqil o'qishga, o'zini-o'zi rivojlantirishga va mas'uliyatli qaror qabul qilishga o'rgatish dolzarb masalaga aylangan. Shu nuqtayi nazardan, ta'lim jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish orqali o'quvchilarning mustaqil ta'lim faoliyatini samarali boshqarish imkoniyatlari yanada kengayadi.

Bugungi kunda, O'zbekiston oliy ta'lim tizimida bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan islohotlardan biri 2020-yildan boshlab kredit-modul tizimining joriy etilishi, ta'lim sifatini oshirish va xalqaro standartlarga moslashtirishga qaratilgan. Biroq, tahlillar natijasiga ko'ra, ilg'or xorijiy tajribalarni, xususan, Janubiy Koreya ta'lim tizimini o'rganish orqali uni yanada takomillashtirish zaruriyati mavjud.

Janubiy Koreya ta'lim tizimi kredit-modul tizimini samarali qo'llagan mamlakatlardan biri bo'lib, mustaqil ta'lim faoliyatini yuqori amalga oshirishda samaradorlikga erishgan. Shu boisdan, ushbu mamlakat tajribasini o'rganish, uni O'zbekiston sharoitiga moslashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish zaruriyati mavjud.

Zamonaviy oliy ta'lim tizimida mustaqil ta'lim faoliyatining tashkil etish va boshqarilishda jarayonning tadqiqot obyekti sifatida ko'riladi. Shuningdek, kredit-modul tizimi asosida mustaqil ta'lim faoliyatini boshqarishning metodik, tashkiliy va amaliy jihatlari hamda bu tizimni mamlakatimiz ta'lim amaliyotiga moslashtirish yo'llari maqolaning tadqiqot predmetiga misol bo'la oladi.

Asosiy qism. Aralova (2024) o'z maqolasida kredit-modul tizimi haqida gapirar ekan, uni avvalo ta'limni tashkil etish jarayoni, o'qitishning modul texnologiyalari jamlanmasi va kredit o'lchovi asosida baholash modeli hisoblanishi, tizimni bir butunlikda olib borish ko'p tarmoqli, hamda murakkab bosqichli jarayon ekanligi haqida ta'kidlaydi.

Xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ushbu tizimda o'z ta'lim yo'nalishini mustaqil tanlash, individual o'qish jadvalini tuzish va o'zlashtirishni amalga oshirish kabi imkoniyatlar talabaga beriladi. Muayyan fan yoki mavzu bo'yicha tuzilgan, maqsadli bilim, ko'nikma va kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan mustaqil o'quv bloklaridan biri "Modul" deb ataladi. Har bir modul o'ziga xos tuzilishga ega va bir necha qismlarni o'z ichiga oladi. Masalan, o'quv maqsadlari va natijalari, mavzular va mashg'ulotlar rejasi, mustaqil ishlar va topshiriqlar, baholash mezonlari va vositalari, amaliy topshiriqlar va testlar shular jumlasidandir. O'quv yuklamasining o'lchov birligi esa "Kredit" deb ataldi va bir kredit o'rtacha 25-30 akademik soatga teng bo'ladi. Bu soatlar auditoriya mashg'ulotlari, mustaqil ishlar, laboratoriyalar, seminarlar, va baholash ishlarini qamrab oladi. Ushbu kreditlar talabaning yillik o'quv yuklamasini belgilash, o'quv fanlari hajmini o'lchash, akademik mobillikni ta'minlash, baholash va reyting tizimini standartlashtirish maqsadida ishlatiladi. Modul va kreditlar tizimi o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, har bir modul ma'lum miqdordagi kredit birligiga ega bo'ladi. Bu esa ta'limning aniq, izchil va shaffof tashkil etilishini ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti (Sh.Mirziyoyev, 2022) ta'limda sifat, mazmun, va erkinlikni oshirish zarurligini ta'kidlab, kredit-modul tizimining samarali joriy etilishi haqida alohida urg'u beradi. U o'z nutqida "Kredit-modul tizimi orqali har bir talabaga mustaqil bilim olish, o'z qiziqishiga mos fanlarni tanlash imkoniyati beriladi. Bu esa yoshlarimizni mustaqil fikrlashga, izlanishga, shaxsiy rivojlanishga yetaklaydi."deydi. 2020-yil 6-noyabrdagi PQ 4884sonli O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarorida, oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida gap boradi. Ushbu Qarorda oliy ta'limda kredit-modul tizimi joriy etish, o'qitish jarayonini individuallashtirish, talabalarning mustaqil ta'limga bo'lgan mas'uliyatini oshirish, o'zlashtirish monitoringini kuchaytirish haqida so'z boradi. Bu hujjat Prezident tashabbusi bilan ishlab chiqilgan bo'lib, kredit tizimining talabani markazga qo'yish, samaradorlikni oshirish, va xalqaro standartlarga moslashish yo'lida muhim qadamlardan biri sifatida e'tirof etiladi.

Prezidentning (Sh.Mirziyoyev, 2021) yana bir strategik nutqida ta'limning barcha bosqichlarida raqobatbardosh, ochiq va sifatli tizim yaratish, o'quv dasturlarini zamonaviylashtirish va kredit-modul tizimini chuqur joriy etish zarurligi ta'kidlanadi.

"Kredit-modul tizimini joriy etish orqali biz nafaqat xalqaro ta'lim tizimiga integratsiyalashamiz, balki har bir yoshga o'z salohiyatini erkin namoyon etish imkoniyatini yaratamiz." UNESCOning "Higher Education in Korea" (2021) – "Koreyadagi oliy ta'lim" hisobotida u mamlakat ta'lim tizimining transformatsiyasi, xususan, kredit tizimi asosida qanday qilib yuqori sifatli ta'limga erishilganligi batafsil yoritilgan. Shuningdek, hisobotda mustaqil ta'limning strategik ahamiyati, o'quvchilarning erkinlik darajasi va modul asosidagi dasturlar tahlil qilingan. Xalqaro statistik hisobotda (OECD "Education at a Glance", 2023) Janubiy Koreya, O'zbekiston va boshqa davlatlar ta'lim tizimlarining samaradorlik ko'rsatkichlari, moliyalashtirish modeli va mustaqil ta'limga ajratilgan vaqt tahlil qilinadi. (Song, Y, 2022) maqolasida Janubiy Koreyada modul ta'lim tizimi qanday ishlagani, o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi aloqa, mustaqil

ishlarni baholanishni amaliy misollar bilan yoritgan. Masalan, o'qituvchi va talaba o'rtasidagi interaktivlikni oshirish uchun bir necha samarali yondashuvlar tavsiya etilgan. Mentorlik roli sifatida o'qituvchilar dars jarayonida mentor sifatida ishtirok etib, talabalarni yo'naltiradi va ularning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi. Interaktiv darslarda interaktiv metodlar, masalan, guruhli muhokamalar, loyiha asosida o'qitish va amaliy mashg'ulotlar qo'llaniladi. Amaliy misollar sifatida, Yonsei universitetida modul ta'lim tizimi asosida talabalar o'z o'quv rejasini mustaqil tuzishlari va baholash mezonlarini belgilashlari mumkin yoki Seul Milliy universitetida talabalar o'z mustaqil ishlarini elektron platformalar orqali topshirishlari va o'qituvchilar bilan onlayn muloqot qilishlari imkoniyatiga ega ekanligi, maqolada keltirildi.

(Kim Jong-ho, 2021) Janubiy Koreya ta'lim tizimi bo'yicha ko'plab maqolalar muallifi bo'lib, uning "Reforming Higher Education through Modular Curriculum: Korean Experience" nomli maqolasida ta'limda modullashtirish va kredit tizimi asosida mustaqil o'quv faoliyatini qanday rivojlantirish mumkinligi ko'rsatib berilgan. U talabaning o'z ustida ishlash kompetensiyasini rivojlantirishni asosiy yo'nalish sifatida belgilaydi. Mahalliy O'zbekistonlik olim Ravshanov (2022) tomonidan yozilgan maqolada, kredit tizimini O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida amaliy joriy etish bo'yicha takliflar va misollar asosida bayon qiladi va tizimning joriy etilish bosqichlari, mavjud muammolar va ularni yyechish yo'llarini atroflicha tahlil qiladi. U muhim vosita sifatida esa, kredit-modul tizimini shaffof, erkin va samarador ta'minlash ekanligini ta'kidlaydi.

Professorlar Nematov A. va Usmonova D. (2021) o'z maqolalarida O'zbekiston oliy ta'limidagi kredit tizimi joriy etilishi bilan bog'liq metodik va tashkiliy masalalarni yoritib berishgan. Ular kredit-modul tizimi orqali o'quv yuklamasining adolatli taqsimlanishini, mustaqil ta'lim salmog'ining oshirishini va o'qituvchining mentor sifatidagi rolini ilgari surishadi.

Dr. Worthning (2019) "Credit-Based Learning Systems: Global Comparisons and Local Adaptations" nomli asarida turli mamlakatlarda kredit tizimi qanday ishlaydi, ularning milliy ta'lim tizimiga moslashuvi va Koreya tajribasining kuchli tomonlari batafsil tahlil qilingan. U "Model mamlakat" sifatida Janubiy Koreya yaqqol namuna ekanligini ta'kidlaydi.

Munozara. Kredit-modul tizimini tatbiq etishda Janubiy Koreya tajribasi va O'zbekiston ta'limi bilan taqqoslash

Bugungi kunda Osiyo mintaqasida ta'lim sohasidagi ilg'or davlatlardan biri Janubiy Koreya sanaladi. Mamlakatda kompetensiyalarga asoslangan ta'lim, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, va kredit-modul tizimi asosida individual o'quv rejalarini shakllantirish strategik maqsad sifatida 1990-yillardan boshlab belgilangan. Janubiy Koreyada tashkil e'tilgan kredit-modul tizimi orqali talabalar o'z ta'lim yo'nalishini, fanlarini va o'qituvchilarini tanlash erkinligiga ega, mustaqil ta'limni qo'llab-quvvatlovchi raqamli platformalar "K-MOOC, EBS, Cyber Campus" kabi platformalardan foydalanish imkoniyati mavjud. Har bir modul bo'yicha oraliq va yakuniy baholash imkoniyati bor. Aytish kerakki, Janubiy Koreya kredit tizimi AQSH, Yevropa davlatlari va boshqa Osiyo mamlakatlari bilan muvofiqlashtirilgan hamda tan olingan. Shuningdek, u yerda ta'lim oluvchilarning mustaqil o'qishlariga rahbarlik qilish uchun akademik maslahatchilar instituti tashkil etilgan. Bu tizimda har bir talaba o'z o'qish yo'nalishi bo'yicha maslahat oladi va o'zining yutuqlarini muntazam baholab boradi.

O'zbekiston oliy ta'lim tizimida kredit-modul tizimini qo'llash imkoniyatlari:

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda barcha olib borilayotgan islohotlar qatori, oliy ta'limda ham samarali ishlar amalga oshirilmoqda. Unga ko'ra, 2020-yildan boshlab, bosqichma-bosqich **kredit-modul tizimiga** o'tish boshlangan. Albatta, bu borada yutuq va muammolar mavjud. Erishilgan yutuqlar sarasiga, oliy ta'lim muassasalarining ko'pchiligida kredit-modul tizimi amaliyotga tatbiq etildi, mustaqil ta'lim soatlari aniq belgilandi hatto ba'zi fanlarda 40-60 foizgacha o'sish kuzatildi. Elektron baholash tizimlari "my.uzedu, LMS platformalari" joriy qilindi. Modulga asoslangan fan dasturlari ishlab chiqildi. Yyechilishi zarur bo'lgan muammolar qatoriga, talabalarining mustaqil ta'limga bo'lgan mas'uliyat va tayyorgarligi nisbatan past darajadaliigi, raqamli resurslar va metodik materiallarning yetishmasligi, o'qituvchilarning zamonaviy ta'lim metodlariga tayyorgarligi to'liq emasligi, akademik maslahatchilik faoliyati

sustligini ta'kidlash zarur. Bu taqqoslashdan ko'rinib turibdiki, O'zbekiston ta'lim tizimi hali yo'lning boshida bo'lsa-da, Janubiy Koreya tajribasi asosida tizimni yanada takomillashtirish imkoniyatlariga ega.

Xulosa. Xulosa o'rnida, kredit-modul tizimi talabaning o'z bilimini boshqarish, mustaqil ta'lim olish va raqobatbardosh bo'lish zamonaviy ta'lim modelining asoslaridan biri hisoblanadi. Mustaqil ta'lim bu tizimning ajralmas qismi bo'lib, o'quvchilarning shaxsiy faolligini oshirishga, o'z-o'zini rivojlantirishga xizmat qiladi. Janubiy Koreya o'z tajribasida kredit-modul tizimini samarali tashkil etish bo'yicha yuksak natijalarni ko'rsatgan va bu O'zbekiston uchun muhim andoza bo'la oladi. Garchan, O'zbekiston oliy ta'limida bu tizim joriy etila boshlagan bo'lsa-da, uni to'laqonli va sifatli ishlashi uchun uslubiy, texnik va pedagogik jihatdan yanada mukammallashtirish lozim ekanligini izlanishlar natijasi ko'rsatmoqda. Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, kredit-modul tizimi bo'yicha maxsus malaka oshirish kurslarini tashkil qilish zarur. Har bir talaba uchun doimiy maslahatchi tayinlab, u orqali mustaqil ta'lim monitoringini amalga oshirish, ochiq ta'lim platformalarini yaratish va talabalarning ularga kirishini ta'minlash, fanning maqsad va natijalariga mos, zamonaviy kompetensiyalarga yo'naltirilgan modul tizimini ishlab chiqish, va ayniqsa, Janubiy Koreya va boshqa davlatlar bilan ta'lim sohasida hamkorlikni kengaytirish, tajriba almashish zarurligi bugungi tez sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan zamonning o'zi shuni talab qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Mirziyoyev, Sh. M. (2021). *Yangi O'zbekiston strategiyasi*. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Prezident Administratsiyasi.
2. Mirziyoyev, Sh. M. (2022, avgust). Yangi O'zbekiston-maktab ostonasidan boshlanadi. Toshkent.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. (2020, 6-noyabr). PQ 4884-son: *Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida*. lex.uz
4. Ravshanov, B. (2022). Kredit-modul tizimi asosida o'quv jarayonini tashkil etish. *O'zbekiston oliy ta'lim jurnali*, (1), 45–49.
5. Song, Y. J. (2020). Janubiy Koreya universitetlarida modul asosidagi ta'lim tizimi: mustaqil ta'lim strategiyalari. *Koreya Ta'lim Tahlillari Jurnal*, 27(3), 55–68.
6. Kim, J. H. (2021). Modul o'quv rejalari orqali oliy ta'limni isloh qilish: Koreya tajribasi. *Osiyo Ta'lim Rivojlanish Jurnal*, 16(2), 100–115.
7. Nematov, A., va Usmonova, D. (2021). O'zbekiston oliy ta'limida kredit-modul tizimining joriy etilishi: muammo va yechimlar. *Ilm va taraqqiyot*, 4(3), 78–84.
8. UNESCO. (2021). Janubiy Koreyada oliy ta'lim: Siyosat va samaradorlik. <https://unesdoc.unesco.org>.
9. Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti (OECD). (2023). 2023-yilgi ta'lim ko'rsatkichlari: OECD indikatorlari. Parij: OECD nashriyoti. <https://doi.org/10.1787/eag-2023-en>
10. Worth, L. (2019). Kredit asosida ta'lim tizimlari: global taqqoslashlar va mahalliy moslashuvlar. London: Routledge nashriyoti.
11. Janubiy Koreya Ta'lim Vazirligi. (2022). Oliy ta'lim statistikasi va islohotlar. <https://english.moe.go.kr>.
12. Koreya Ta'lim Rivojlanish Instituti (KEDI). (2020). Koreya oliy ta'limida innovatsiyalar: kredit va modul tizimi. Seul: KEDI nashriyoti.
13. Aralova, M. A. (2024). Kredit-modul tizimiga o'tishning o'ziga xos xususiyatlari. *Innovative Development in Educational Activities (IDEA)*, 3(2), 48–52. <https://openidea.uz/index.php/idea/article/view/2100>.

*Kalekeeva Tamara Turkmenbaevna,
Nukus davlat pedagogika instituti
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*

BO'LAJAK MATEMATIKA O'QITUVCHILARINING PEDAGOGIK KONTENT BILIMLARINI SHAKLLANTIRISH: DIDAKTIK YONDASHUVLAR

Annotatsiya. Maqolada bo'lajak matematika o'qituvchilarining pedagogik kontent bilimlarini (PCK) shakllantirishga qaratilgan didaktik yondashuvlar tahlil qilinadi. Avvalo, pedagogik kontent bilimlari konsepsiyasi va uning o'quv jarayonidagi roli - nazariy bilimlar va ularni dars metodikasiga integratsiya qilish kompetensiyasi - ta'riflanadi. Keyin, masala yyechish va model-based learning, loyiha asosida o'qitish hamda interaktiv va raqamli vositalardan foydalanish orqali PCKni rivojlantirish usullari yoritiladi. Shuningdek, tajriba-o'rganuvchan yondashuv, reflektiv mashg'ulotlar va hamkasblar bilan hamkorlik asosida professional guruhlarda ta'lim seminarlari tashkil etish orqali bo'lajak o'qituvchilarning nazariy bilimlarini amaliy ko'nikmalarga aylantirish mexanizmlari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: bo'lajak matematika o'qituvchilari, pedagogik kontent bilimlari, didaktik yondashuvlar, masala yyechish, loyiha asosida o'qitish, interaktiv o'qitish, raqamli vositalar, reflektiv mashg'ulotlar.

Аннотация. В статье анализируются дидактические подходы к формированию педагогических контентных знаний (PCK) у будущих учителей математики. Сначала даётся определение концепции педагогических контентных знаний и их роли в учебном процессе как компетенции по интеграции теоретических знаний в методику преподавания. Затем рассматриваются методы развития PCK через решение задач и обучение на основе моделей, проектно-ориентированное обучение, а также использование интерактивных и цифровых инструментов. Кроме того, описываются механизмы превращения теоретических знаний в практические умения у будущих педагогов посредством опытно-экспериментального подхода, рефлексивных занятий и образовательных семинаров в рамках профессиональных групп на основе сотрудничества с коллегами.

Ключевые слова: будущие учителя математики, педагогические контентные знания, дидактические подходы, решение задач, обучение на основе проектов, интерактивное обучение, цифровые инструменты, рефлексивные занятия.

Annotation: This article examines didactic approaches to developing pedagogical content knowledge (PCK) in prospective mathematics teachers. First, it defines the concept of PCK and its role in the learning process as the competency to integrate theoretical knowledge into instructional methods. Next, it explores methods for enhancing PCK through problem solving and model-based learning, project-based teaching, and the use of interactive and digital tools. It also outlines mechanisms for converting future teachers' theoretical knowledge into practical skills via an experiential-experimental approach, reflective activities, and professional group seminars based on peer collaboration.

Keywords: prospective mathematics teachers, pedagogical content knowledge, didactic approaches, problem solving, project-based learning, interactive teaching, digital tools, reflective activities.

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimida matematika fanini chuqur va samarali o'qitish pedagoglarning pedagogik kontent bilimlariga (PCK) bog'liq bo'lib, ayniqsa bo'lajak matematika o'qituvchilarida bu kompetensiya yetuk darajada shakllanishi muhimdir. PCK kontsepsiyasi professor Shulman tomonidan ilgari surilgan bo'lib, u o'qituvchining nazariy matematik bilimlarni dars metodikasiga moslashtirish, murakkab kontsepsiyalarni o'quvchilarga tushunarli tarzda yetkazish va o'qitish jarayonini samarali tashkil etish qobiliyatini anglatadi.

Bugungi kunda ta'lim sohasida STEAM yondashuvi, raqamli transformatsiya va masala yyechishga yo'naltirilgan o'quv metodlari kengayishi bilan birga, an'anaviy didaktik metodlardan

tashqari innovatsion yondashuvlarga ehtiyoj ortmoqda. Model-based learning, loyiha asosida o'qitish va interaktiv raqamli vositalardan foydalanish bo'lajak pedagoglarga o'z PCK darajasini yanada boyitish, o'quvchilarning matematika tushunchalarini mustahkamlash va dars samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Shuningdek, bo'lajak o'qituvchilarning amaliy ko'nikmalarini shakllantirishda tajriba-o'rganuvchan yondashuv va reflektiv mashg'ulotlar katta ahamiyat kasb etadi. Ular o'z o'qitish strategiyalarini tahlil qilib, xatolarni aniqlash va takomillashtirish jarayonida PCKni mustahkamlaydi. Hamkasblar bilan professional guruh seminarlarini tashkil etish esa pedagoglarning o'zaro tajriba almashishi, yangicha yechimlar izlash va dars modellarini sinab ko'rishda yordam beradi.

Ushbu maqola bo'lajak matematika o'qituvchilarining PCKni shakllantirishga yo'naltirilgan asosiy didaktik yondashuvlarni ko'rib chiqadi. Maqsad - masala yyechish, model-based learning, loyiha asosida o'qitish, interaktiv va raqamli vositalar, reflektiv mashg'ulotlar hamda hamkasblar bilan hamkorlik orqali pedagogik kontent bilimlarini rivojlantirish metodikasi va samaradorligini tahlil qilishdir.

Matematika o'qitish jarayonida PCK'ning asosiy vazifasi nafaqat mavzu maydonidagi bilimlarni egallash, balki ularni muayyan o'quv kontekstiga moslab, pedagogik jarayonda qo'llay olishdir. Bo'lajak o'qituvchilar shu bois dars mazmunini chuqur tushungan holda, murakkab matematik tushunchalarni turli yoshdagi, turli qobiliyat va tayyorgarlik darajasidagi o'quvchilarga aniq va qiziqarli usulda yetkazish mexanizmlarini o'zlashtirishi zarur. Bu qirra o'quvchilarning mavzuni o'zlashtirishdagi qiyinchiliklarini oldindan aniqlash, misol va vazifalarni darajalashtirish, hamda o'quv jarayonida yuzaga keladigan keng tarqalgan xatolarni bartaraf etish imkonini yaratadi.

Xalqaro tadqiqotlar (Ball, Thames & Phelps, 2008; Shulman, 1987) shuni ko'rsatadiki, kuchli PCK egasi bo'lgan o'qituvchilar o'z darslarini doimiy tahlil qilib, real amaliyotga moslab qayta tashkil etish orqali o'quvchilar natijalarini sezilarli darajada oshiradi. Shu bilan birga, milliy ta'lim tizimidagi o'quv dasturlari va baholash usullarining xususiyatlari PCK'ni rivojlantirish yondashuvlariga ham ta'sir ko'rsatadi: masalan, respublikamizda yangi o'quv rejalariga o'zgartirishlar kiritilayotgani, kompetensiyalarga yo'naltirilgan baholash tizimi joriy etilayotgani bo'lajak o'qituvchilardan yanada moslashuvchan va innovatsion yondashuvlarni talab qiladi.

Adabiyotlar tahlili. Pedagogik kontent bilimlari (PCK) tushunchasi ilk bor Shulman (1986) tomonidan ilgari surilib, u o'qituvchining nazariy bilimlarni dars jarayonida amaliyotga moslashtirish qobiliyatini ifodalaydi. Shulman'ning asarlari PCK'ni uch tarkibiy qismlarga – kontent bilimlari, pedagogik bilimlar va kontekstual bilimlarga ajratib ko'rsatadi, bu keyingi tadqiqotlarda matematika sohasiga moslashdi.

Matematika PCK'ini chuqurlashtirish maqsadida Ball, Thames va Phelps (2008) "Content Knowledge for Teaching" modelini ishlab chiqishdi. Ular matematika o'qituvchilari uchun kontent bilimlari to'rtta subsahifaga – matematika tili, talabalarning tushunchalari, vakillar modeli va matematik ma'nolarini ochish – bo'linishini taklif qiladi. Ma va Kishor (1997) esa o'qituvchilarda fundamental matematik tushunchalarni chuqur egallash masalasini o'rganib, PCK o'quvchilarning xatolarini oldindan aniqlash va bartaraf etishda hal qiluvchi rolini ta'kidlaydi.

Didaktik yondashuvlar qatorida model-based learning (MBL) uslubi Lesh va Doerr (2003) tomonidan ilgari surildi. Ular MBL'ni murakkab real muammolarni model-chiqarish vazifalari orqali o'qituvchilarga ishlab chiqish va boshqarish mexanizmlarini o'rgatishga qaratadilar. Shuningdek, Schoenfeld (1985) masala yyechish yondashuvida o'qituvchilarning problem-solving jarayonini namoyish etish va strategiyalarni modelling qilish zarurligini ko'rsatadi.

Loyihaga asoslangan o'qitish (Project-Based Learning, Thomas, 2000) va Papert (1980) ning "microworlds" kontseptualizatsiyalari raqamli vositalarni integratsiya qilish orqali PCKni boyitadi. Thomas loyiha davomida o'qituvchilarning dars mazmunini real kontekstga bog'lash orqali dars samaradorligini oshirishini dalillaydi.

Reflektiv mashg'ulotlar va professional guruh seminarlari sohasida Schön (1983) "reflection-in-action" tushunchasi pedagoglarni o'z amaliyotini tahlil qilishga undasa, Loughran

(2002) hamkasblar bilan aloqa va tajriba almashish orqali PCK'ni chuqurlashtirish mexanizmlarini tavsiflaydi. Vescio, Ross va Adams (2008) professional hamjamiyatlar (PLC) modeli ham pedagoglarning birgalikda o'rganishi va PCKni rivojlantirishda samarali ekanini ta'kidlaydi.

Oxir-oqibat, adabiyotlar PCK shakllanishida nazariy bilimlarni amaliy mashg'ulotlar, texnologiya integratsiyasi, reflektiv amaliyot va hamkasblar bilan hamkorlik muhimligini ko'rsatadi. Kelajak matematika o'qituvchilarini tayyorlashda ushbu tadqiqotlar asosida kompleks didaktik strategiyalarni yaratish zarur.

Muhokama. Adabiyotlar tahlili natijalari shuni ko'rsatadiki, pedagogik kontent bilimlarini shakllantirish (PCK) bo'yicha didaktik yondashuvlarning samaradorligi ularning nazariy va amaliy komponentlarni uyg'unlashtirish qobiliyatiga bog'liq. Shulman (1986) ta'kidlaganidek, faqat matematik nazariy bilimlarga ega bo'lish yetarli emas; o'qituvchi ularni qanday qilib o'quv jarayoniga moslab, murakkab konsepsiyalarni turli yosh va darajadagi o'quvchilarga tushunarli qilib yetkazishini ham egallashi zarur.

Ball, Thames va Phelps (2008) modeli PCK tarkibiga matematik til, talabalarning tushunchalari, vakillar modeli va matematik ma'nolarni ochishni kiritib, kontent va pedagogika o'rtasidagi bog'liqlikni boyitdi. Ushbu yondashuv ta'lim-tadqiqot amaliyotida masala yyechish strategiyalarini nafaqat namoyish etish, balki o'quvchilarni o'ylash jarayoniga jalb etishga ham imkon beradi. Schoenfeld (1985) masala yyechish jarayonini modellashtirish usullari PCKni o'quvchilarning xatolarini oldindan aniqlash va bartaraf etish mexanizmini kuchaytirishini ko'rsatadi.

Model-based learning (Lesh & Doerr, 2003) va loyiha asosida o'qitish (Thomas, 2000; Papert, 1980) yondashuvlari o'qituvchilarga real hayotiy vaziyatlarni matematik modellarga aylantirish jarayonida nazariy bilimlarni sinovdan o'tkazish va moslashtirish imkonini beradi. Raqamli vositalar bilan birgalikda interaktiv o'qitish masalan, dynamic geometry software yoki microworlds muhitida o'quvchilarni kashfiyot va eksperimentga undaydi, bu esa PCKni amaliy ko'nikmaga aylantirishning eng samarali shakli hisoblanadi.

Shuningdek, reflektiv mashg'ulotlar (Schön, 1983) va professional o'quvchi jamoalari (Vescio, Ross & Adams, 2008; Loughran, 2002) o'qituvchilarning o'z amaliyotini doimiy tahlil qilishi, yutuq va kamchiliklarini aniqlashi hamda hamkasblar ta'limidan o'rganishi orqali PCKni chuqurlashtirish jarayonini qo'llab-quvvatlaydi. Bu yondashuvlarning o'zaro uzviyligi, ya'ni masalani modelga aylantirish, uning yechimini o'quvchilar bilan birgalikda tahlil qilish va natijalarni reflektiv tarzda ko'rib chiqish - PCKni mustahkamlashda yetakchi mexanizmga aylanadi.

Biroq adabiyotlarda integrativ, uzoq muddatli tadqiqotlar yetishmasligi ham aniqlanadi. Ko'pchilik yondashuvlar eksperimental laboratoriya sharoitida qisqa muddatli sinovlardan iborat, real sinf muhitidagi murakkab pedagogik kontekstni hisobga olmaydi. Shu ma'noda, kelajak tadqiqotlari PCK shakllanishini kuzatish uchun sinfdagi amaliy intervensiyalarni, raqamli va an'anaviy metodlarni birgalikda qo'llovchi pilot dasturlarni va ularning ta'sirini uzoq muddat kuzatish dizaynlarini o'z ichiga olishi muhim.

Umuman, bo'lajak matematika o'qituvchilarining PCKni shakllantirishda didaktik yondashuvlar: masala yyechish strategiyalari, model-based learning, loyiha asosida o'qitish, interaktiv raqamli vositalar, reflektiv mashg'ulot va professional hamkorlikni uyg'unlashtirish orqali eng yuqori samarani beradi. Kelajakda bu yondashuvlarni o'zbek ta'lim tizimi kontekstida madaniy-lingvistik moslashuvni hisobga olgan holda eksperimental tadqiqotlar orqali tekshirish tavsiya etiladi.

1-jadval

Bosqich	Maqsad	Faoliyatlar	Vositalar	Tahlil usullari
1. Tayyorlov bosqichi	Nazariy–metodik asoslarni aniqlash	– Adabiyotlarni tahlil qilish (Shulman, Ball et al., Lesh & Doerr va	– Bibliografik manbaalar – Ekspert	– Sifatli kontent-tahlil

		b.) – Ekspertlar (mentor, metodist) bilan intervyu	intervyu yo'riqnomasi	
2. Diagnostika (pre-test)	Bo'lajak o'qituvchilarning hozirgi PCK darajasini aniqlash	– PCK'ni o'lchovchi test va vazifa bajarish – Video-mikrota'lim sessiyasi (micro-teaching) kuzatuv	– PCK testi – Kuzatuv formasi (rubrika) – Video yozuv	– Deskriptiv statistika (o'rtacha, dispersiya)
3. Intervensiya	Didaktik yondashuvlarni sinash va qo'llash	– Masala yyechish mashg'ulotlari – Model-based learning sessiyalari – Loyiha asosida o'qitish – Raqamli vositalar (GeoGebra, microworlds) – Reflektiv mashg'ulotlar – Hamkasblar bilan seminarlar	– Dars rejalari – GeoGebra, microworld muhitlari – Reflektiv jurnal	– Faoliyat qaydnomasi – Mashg'ulot videolari tahlili
4. Yakuniy baholash (post-test)	Intervensiya ta'sirini o'lchash	– Xuddi pre-testdagi PCK testi va micro-teaching sessiyasini takrorlash	– PCK testi – Kuzatuv rubrikasi – Video yozuv	– Paired t-test (pre vs post) – Effekt kattaligi (Cohen's d)
5. Sifatli intervyu	Ishtirokchilarning tajribasi va idrokini chuqur o'rganish	– Fokus-guruh intervyulari (6–8 nafar bo'lajak o'qituvchi)	– Fokus-guruh yo'riqnomasi	– Tematik tahlil (NVivo yoki qo'lbola kodlash)

Tavsiyalar:

1. Integratsiyalashgan PCK-modullarini joriy eting. Masala yyechish, model-based learning, loyiha-asosida o'qitish va raqamli vositalarni bitta modulga birlashtirib, amaliyotga yo'naltirilgan trening dasturlari ishlab chiqing.

2. Micro-teaching sessiyalarini doimiy tashkil eting. Har bir o'qituvchi o'z darsini qisqa video qilib yozsin, keyin reflektiv mashg'ulotlarda hamkasblar bilan tahlil qilsin.

3. Reflektiv jurnal yuritishni majburiy qiling. Har mashg'ulotdan so'ng o'qituvchi o'z pedagogik tanlovlarini, kuzatilgan xatolar va o'rgangan saboqlarini yozib borsin.

4. Professional o'quv jamoalarini (PLC) faol ishlating. Seminarlarda nazariy bilim almashish, yangi dars modellarini sinash va mentor-mentee uchrashuvlari orqali PCKni chuqurlashtiring.

5. Doimiy monitoring va baholash tizimini yo'lga qo'ying. Pre-post test natijalarini 6 oyda bir o'tkazib, PCK o'sishini statistik jihatdan kuzatib boring.

6. Raqamli platformalar va microworlds (GeoGebra, Cabri, Python-based microworlds) foydalanishni kengaytiring. Ular yordamida o'quvchilarning tushunchalarini vizual va interaktiv tarzda mustahkamlang.

7. Madaniy-lingvistik moslashuvga e'tibor qarating. Yaratilayotgan didaktik material va vositalarni O'zbek maktablari sharoitiga moslab tarjima, lokalizatsiya va testlardan o'tkazing.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, bo'lajak matematika o'qituvchilarining pedagogik kontent bilimlarini shakllantirishda turli didaktik yondashuvlarni integrativ tarzda qo'llash eng samarali natijalar beradi. Masala yyechish strategiyalari o'qituvchilarga mavzuni nazariy jihatdan chuqur tushunishga, model-based learning esa murakkab kontseptsiyalarni konkret modellarga aylantirib talabalarga ochiq tushuntirishga yordam beradi. Loyiha asosida o'qitish va interaktiv raqamli vositalar (GeoGebra, microworlds) o'quvchilarning kashfiyot va eksperiment imkoniyatlarini kengaytirib, PCKni amaliy ko'nikmaga aylantiradi. Reflektiv mashg'ulotlar va professional hamkorlik esa o'qituvchilarning doimiy o'zini tahlil qilishini rag'batlantirib, ularning pedagogik qarorlarini asoslash va takomillashtirish mexanizmlarini mustahkamlaydi. Ushbu yondashuvlarning uzviy uyg'unligi - nazariy bilim, amaliy mashg'ulot, raqamli integratsiya va hamkasblar bilan ishlash - PCKni rivojlantirishda yetakchi omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Shulman, L. S. (1986). Those Who Understand: Knowledge Growth in Teaching. *Educational Researcher*, 15(2), 4–14.
2. Ball, D. L., Thames, M. H., & Phelps, G. (2008). Content Knowledge for Teaching: What Makes It Special? *Journal of Teacher Education*, 59(5), 389–407.
3. Ma, L., & Kishor, N. (1997). Assessing the Relationship Between Attitude Toward Mathematics and Achievement in Mathematics: A Meta-Analysis. *Journal for Research in Mathematics Education*, 28(1), 26–47.
4. Lesh, R., & Doerr, H. M. (2003). Foundations of the Development of Students' and Teachers' Thinking. In J. Kilpatrick, W. G. Martin, & D. Schifter (Eds.), *A Research Companion to Principles and Standards for School Mathematics* (pp. 39–70). Reston, VA: NCTM.
5. Schoenfeld, A. H. (1985). *Mathematical Problem Solving*. Orlando, FL: Academic Press.
6. Thomas, J. W. (2000). *A Review of Research on Project-Based Learning*. Minneapolis, MN: The Autodesk Foundation.
7. Papert, S. (1980). *Mindstorms: Children, Computers, and Powerful Ideas*. New York, NY: Basic Books.
8. Schön, D. A. (1983). *The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action*. New York, NY: Basic Books.
9. Loughran, J. (2002). Effective Reflective Practice: In Search of Meaning in Learning About Teaching. *Journal of Teacher Education*, 53(1), 33–43.
10. Vescio, V., Ross, D., & Adams, A. (2008). A Review of Research on the Impact of Professional Learning Communities on Teaching Practice and Student Learning. *Teaching and Teacher Education*, 24(1), 80–91.

*Shamuratova Muazzamxon Shavkat qizi,
Nukus davlat pedagogika instituti 2-bosqich tayanch doktoranti
muazzamxon.shamuratova@ndpi.uz*

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING TAFAKKUR VA FAOLLIGINI RIVOJLANTIRISHDA MILLIY O'YINLARNING INNOVATSION QO'LLANILISHI

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining tafakkurini faollashtirish va dars jarayoniga bo'lgan qiziqishini oshirishda milliy o'yinlardan foydalanishning innovatsion metodlari yoritilgan. Tadqiqot davomida o'yinli metodikalarning o'quvchilarda mantiqiy fikrlash, ijodiy yondashuv, hamkorlikda ishlash kabi kompetensiyalarni rivojlantirishdagi roli tahlil qilindi. Tajriba-sinov ishlari natijalari asosida milliy o'yinlarning ta'limdagi samaradorligi isbotlandi. Shuningdek, maqolada o'yinlar asosida tuzilgan dars ssenariylari, baholash mezonlari, so'rovnomalar va metodik tavsiyalar keltirilgan. Maqola boshlang'ich sinf o'quvchilari, metodistlar hamda pedagogika sohasida tadqiqot olib boruvchi mutaxassislar uchun foydali bo'lishi mumkin.

Kalit so'zlar: milliy o'yinlar, boshlang'ich ta'lim, tafakkur, innovatsion metod, faollik, o'yinli dars.

Аннотация: В данной статье рассматриваются инновационные методы использования национальных игр для активизации мышления учащихся начальных классов и повышения интереса к учебному процессу. В ходе исследования был проведен анализ роли игровых методик в развитии логического мышления, креативного подхода и навыков сотрудничества у младших школьников. Экспериментальные результаты подтверждают эффективность применения национальных игр в образовательной среде. Также в статье представлены сценарии игровых уроков, критерии оценивания, анкеты и методические рекомендации. Статья может быть полезна для учителей начальных классов, методистов и исследователей в области педагогики.

Ключевые слова: национальные игры, начальное образование, мышление, инновационные методы, активность, игровые уроки.

Abstract. This article explores innovative methods for utilizing national games to stimulate the thinking abilities of primary school students and enhance their engagement in the learning process. The research analyzes the impact of game-based teaching on developing students' logical thinking, creativity, and collaborative skills. Experimental findings confirm the effectiveness of incorporating national games into educational settings. The article also includes lesson scenarios, assessment criteria, surveys, and methodological recommendations. It is intended to be a useful resource for primary school teachers, curriculum developers, and educational researchers.

Keywords: national games, primary education, thinking skills, innovation, engagement, game-based learning.

Kirish. XXI asrda ta'lim tizimi shiddat bilan rivojlanar ekan, zamonaviy pedagogik yondashuvlar o'quvchi shaxsining har tomonlama rivojlanishini ta'minlashga qaratilmoqda. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichi shaxs taraqqiyotining poydevori sifatida alohida o'rinni egallaydi. [1] Shu bosqichda berilgan bilim, ko'nikma va tarbiya bola tafakkuri, dunyoqarashi va ijtimoiy moslashuvchanligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari faol, harakatchan va o'rganishga ishtiyoqli bo'lishadi. Ularning bu tabiiy ehtiyojlarini qondirishda o'yin metodi muhim o'rin tutadi. O'yinlar o'quvchilarning e'tiborini jalb qiladi, mustaqil fikrlashga undaydi va bilim olishni quvonchli jarayonga aylantiradi. Xalqimizning madaniy merosi hisoblangan milliy o'yinlar esa bu jarayonga milliy ruh, tarbiyaviy mazmun va amaliylik kiritadi.

Ta'limda innovatsion yondashuv deganda, pedagogik jarayonni zamonaviy texnologiyalar, yangicha metod va vositalar asosida tashkil etish tushuniladi. Agar milliy o'yinlar innovatsion metodika asosida dars jarayoniga tatbiq etilsa, bu o'quvchilarda faollik, ijodkorlik, jamoaviylik va tafakkur yuritish kabi ko'nikmalarni samarali shakllantirishga yordam beradi. Milliy o'yinlar

orqali bolalar turli rollarni bajaradilar, ijtimoiy vaziyatlarni modellashtiradilar, o'zaro muloqotga kirishadilar va bu orqali hayotiy tajriba orttiradilar. Shu bilan birga, har bir o'yin bolaning yoshi va psixologik xususiyatlariga mos tarzda tanlanganda, ularning jismoniy va intellektual rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi – boshlang'ich sinf o'quvchilarining tafakkur va faolligini rivojlantirishda milliy o'yinlarning innovatsion yondashuvlar bilan uyg'unlashtirilgan shaklini amaliy jihatdan sinovdan o'tkazishdir.

Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat:

- Milliy o'yinlarning tarbiyaviy, didaktik va intellektual imkoniyatlarini o'rganish;
- Boshlang'ich sinf darslariga mos o'yinlar tizimini shakllantirish;
- Innovatsion metodik yondashuvlar bilan milliy o'yinlarni uyg'unlashtirish;
- Eksperimental darslarni tashkil etish va tahlil qilish;
- O'quvchilarda tafakkur va faollik ko'rsatkichlarini baholash va natijalarni taqqoslash.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqotda quyidagi metodologik yondashuvlar asos qilib olindi:

➤ Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv – har bir o'quvchining individual qobiliyatlari va tafakkur darajasi inobatga olindi;

➤ Faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv – o'yin orqali o'quv faoliyatini interaktiv shaklda tashkil qilishga urg'u berildi;

➤ Innovatsion-didaktik yondashuv – darslar interfaol va zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashtirildi;

➤ Milliy-madaniy yondashuv – o'yinlar mahalliy an'ana, urf-odat va qadriyatlarga asoslangan holda tanlandi.

Tadqiqotning eksperimental bazasi

Tadqiqot Qoraqalpog'iston Respublikasi Taxiatoş shahridagi № umumiy o'rta ta'lim maktabida 2-sinf o'quvchilari ishtirokida olib borildi. Ishtirokchilar ikki guruhga ajratildi:

Eksperimental guruh – 30 nafar o'quvchi, milliy o'yinlar asosidagi innovatsion metodlar bilan o'qitildi;

Nazorat guruhi – 30 nafar o'quvchi, an'anaviy dars uslublari asosida ta'lim oldi.

Tadqiqot metodlari

Tadqiqot quyidagi metodlar asosida olib borildi:

a) Nazariy metodlar:

Ilmiy adabiyotlar, maqolalar, o'quv dasturlari tahlili;

Milliy o'yinlar va innovatsion ta'lim texnologiyalarining o'zaro bog'liqligini o'rganish.

b) Amaliy metodlar:

Kuzatuv – o'quvchilarning darsdagi xatti-harakatlari, qiziqishi va ishtiroki kuzatildi;

Suhbat – o'quvchilar, o'qituvchilar va ota-onalar bilan suhbatlar tashkil etildi;

So'rovnoma – o'quvchilarning o'yinga bo'lgan munosabati, o'zgarishlar va qiziqishlari o'rganildi;

Test va diagnostika – tafakkur va mantiqiy fikrlashni baholashga qaratilgan testlar o'tkazildi;

O'yinli darslar – o'quvchilarning ongli ishtiroki bilan ijodiy topshiriqlar, dramatik sahnalar, rolli o'yinlar tashkil etildi.

Darslarda qo'llanilgan milliy o'yinlar

Tadqiqot davomida sinovdan o'tkazilgan ayrim o'yinlar:

O'yin nomi	Qisqacha tavsifi	Yo'nalishi
“Topib ayt”	Berilgan so'zlardan hikoya tuzish	Tafakkur, til o'stirish
“Kim chaqqon?” [8]	Matematik amallarni tezlikda yyechish	Tez fikrlash, mantiq
“Qiz-quvdi”	Harakatli jamoaviy o'yin	Jismoniy faollik, ijtimoiy

“Arqon tortish”	Guruhlararo raqobat o‘yini	Hamkorlik, jamoaviylik
“O‘yinli topishmoq”	Topishmoqlar orqali mantiqiy fikrlash	Aqliy rivojlanish

Baholash va monitoring.

- O‘quvchilarning rivojlanish darajasi maxsus baholash mezonlari orqali aniqlandi;
- Dars faolligi: qatnashish, fikr bildirish, savol berish;
- Mantiqiy tafakkur: test natijalari va ijodiy topshiriqlar;
- Jamoaviylik: guruhdagi hamkorlik, muomala madaniyati;
- Qiziqish darajasi: suhbat va so‘rovnoma asosida aniqlangan.

Har bir ko‘rsatkich ballik tizimda baholandi, natijalar eksperiment oldi va so‘nggi holatlarda taqqoslab tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalari

Tajriba-sinov ishlari natijasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tafakkur yuritish qobiliyati, darsdagi faolligi, muloqot madaniyati va ijodiy fikrlash darajasida sezilarli o‘zgarishlar kuzatildi. Milliy o‘yinlarning o‘quv jarayoniga integratsiyalashuvi bolalarning darsga bo‘lgan munosabatini ijobiy tomonga o‘zgartirdi.

Eksperimentdan oldingi va keyingi ko‘rsatkichlar taqqoslanishi

Quyidagi jadvalda eksperimental va nazorat guruhlarining tajriba oldi va tajriba so‘nggi baholash natijalari foizlarda ifodalangan:

Ko‘rsatkichlar	Eksperimen tal guruh (boshlanish)	Eksperimental guruh (yakuniy)	Nazorat guruhi (yakuniy)
Faollik darajasi (%)	52%	86%	58%
Mantiqiy tafakkur (%)	48%	82%	55%
Ijodiy fikrlash (%)	45%	79%	50%
Jamoada ishlash ko‘nikmasi (%)	50%	85%	53%

Ushbu natijalar shuni ko‘rsatadiki, milliy o‘yinlarga asoslangan innovatsion yondashuvlar o‘quvchilarda kutilganidan yuqori rivojlanish dinamikasini namoyon qildi.

Kuzatuv natijalari

Eksperimental guruhda o‘tkazilgan darslar davomida o‘quvchilar:

- savollarga faol javob berdi;
- muammoli topshiriqlarda mustaqil fikr bildirdi;
- darslarda tashabbus ko‘rsatdi va jamoaviy muhokamalarda qatnashdi;
- o‘zaro hurmat asosida muloqot qilishni o‘rgandi;
- milliy qadriyatlarni tushuna boshladi va ularni qadrlashga harakat qildi.

Nazorat guruhida esa bu o‘zgarishlar sust bo‘lib, o‘quvchilarning darsga bo‘lgan ishtiyoqi nisbatan past darajada saqlanib qoldi.

So‘rovnoma natijalari

Eksperiment yakunida o‘tkazilgan so‘rovnomada quyidagi savollar bo‘yicha fikrlar olindi:

Savol: Sizga dars jarayonida milliy o‘yinlar yoqdimi?

87% – “Ha, juda yoqdi”

10% – “Qiziq edi, lekin ba’zida tushunmadim”

3% – “Men uchun farqi yo‘q”

Savol: O‘yinli darslar sizga qanday yordam berdi?

65% – “Tez o‘rganishga yordam berdi”

59% – “Do‘stlarim bilan ko‘proq gaplashdim”

48% – “Ijodiy fikrlashni o‘rgandim” [5]

Bu ko‘rsatkichlar milliy o‘yinlar o‘quvchilarning faolligi va ijtimoiy-psixologik moslashuviga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatganini anglatadi.

O‘qituvchi va ota-onalar fikrlari

Tajriba davomida qatnashgan sinf o‘qituvchilari quyidagicha mulohazalar bildirishdi:

“O‘yinli darslarda hatto sust o‘quvchilar ham faollashdi.”

“Bolalar o‘z fikrini erkin ayta boshladi.”

“Darsga qatnashish darajasi oshdi.”

Ota-onalar esa farzandlarining o‘yinli darslardan so‘ng:

darsni zavq bilan muhokama qilishlari,

ko‘proq savollar berishlari,

o‘z-o‘ziga ishonchi ortgani haqida bildirganlar.

Qisqacha umumiy tahlil

Tajribaviy ma’lumotlar asosida quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

Milliy o‘yinlar bolaning tafakkurini faol harakat, muloqot va muammo yechimi orqali rivojlantiradi.

Innovatsion metodlar bilan uyg‘unlashgan o‘yinli darslar o‘quvchilarni dars jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiradi.

Bunday yondashuv nafaqat bilim berish, balki tarbiyaviy maqsadlarni ham samarali amalga oshiradi.

Muhokama. O‘tkazilgan tajriba-sinov ishlari asosida aniqlanishicha, milliy o‘yinlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilari tafakkurini faollashtirish, mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish hamda darsga bo‘lgan qiziqishni oshirishda yuqori samara beradi. Ayniqsa, innovatsion yondashuvlar bilan uyg‘unlashtirilgan milliy o‘yinlar bolalarda ijobiy emotsional holat va faol o‘quv motivatsiyasini shakllantirdi.

Ilmiy tahlil va izoh. O‘yinli metodika orqali o‘tkazilgan darslarda quyidagi muhim pedagogik holatlar kuzatildi: O‘quvchilar o‘z fikrlarini ochiq ayta boshladi, bu esa nutq va tafakkur o‘sishiga olib keldi. O‘yin orqali mantiqiy, muammoli va ijodiy topshiriqlarning samaradorligi an’anaviy metodlarga nisbatan yuqoriroq bo‘ldi.

Guruhlarda ishlash, arqon tortish, dramatik o‘yinlar bolalarda hamkorlik, liderlik va mas’uliyat hissini kuchaytirdi.

Bu natijalar Piaget, Vygotskiy, Dewey kabi pedagog-psixologlar ta’kidlagan faol o‘rganish nazariyalariga mos keladi. Masalan, Vygotskiyning “yaqin rivojlanish zonasi” nazariyasiga ko‘ra, bolalar o‘ziga yaqin yoshdagi yoki bilimli sheriklar yordamida murakkab faoliyatni egallaydi. [9] Milliy o‘yinlar aynan shunday ijtimoiy o‘rganish muhiti yaratdi.

Amaliy ahamiyati

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi amaliy jihatlar ajralib chiqadi:

O‘qituvchilar uchun: darslarda milliy o‘yinlardan foydalanish, ayniqsa interfaol metodlar bilan uyg‘unlashtirilganda, ta’lim sifati va samaradorligini oshiradi.

O‘quvchilar uchun: o‘z fikrini erkin ifodalash, guruhda ishlash, lo‘nda va aniqlik bilan javob berish, mustaqil fikrlash kabilar rivojlanadi.

Ta’lim tizimi uchun: milliy qadriyatlarning dars jarayoniga singdirilishi, madaniy merosni saqlab qolishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar

O‘tkazilgan ilmiy-amaliy tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, milliy o‘yinlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning tafakkur va faolligini rivojlantirishda samarali vosita bo‘la oladi. Tajriba-sinov ishlari natijasida quyidagi muhim xulosalar chiqarildi:

Milliy o‘yinlar – o‘quvchilarning mantiqiy tafakkurini, ijodiy fikrlashini, eslab qolish qobiliyatini va ijtimoiy faolligini shakllantirishga xizmat qiladi.

Innovatsion yondashuvlar bilan uyg‘unlashtirilgan o‘yinli darslar – bolalarda mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatni yechish, jamoada ishlash kabi ko‘nikmalarni shakllantiradi.

Eksperimental guruh natijalari – an'anaviy metodlar bilan taqqoslaganda o'quvchilarning rivojlanish dinamikasi yuqori bo'lganini ko'rsatdi.

O'yinlar orqali ta'lim – nafaqat o'quv jarayonining samaradorligini oshiradi, balki tarbiyaviy jihatdan ham o'quvchilar shaxsini shakllantirishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, boshlang'ich sinflarda milliy o'yinlardan foydalangan holda innovatsion darslar tashkil etish o'quvchilarning umumiy rivojlanishida muhim omil sifatida namoyon bo'ldi.

Tadqiqot natijalariga tayangan holda quyidagi takliflarni ilgari suramiz:

Boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun metodik qo'llanmalar ishlab chiqilsin, unda milliy o'yinlar asosida tuzilgan dars ishlanmalari va faoliyat turlari jamlanadi.

Adabiyotlar tahlili. Tadqiqotchilar chet tili o'qituvchisining kasbiy kompetensiyasi modelini o'zaro bog'liq tarkibiy qismlarini moslashuvchan tizimi sifatida o'rganishadi. Shundan kelib chiqib, S.V.Titova tahlili bo'yicha universitet chet tili o'qituvchisining kompetensiyasi bir necha guruhlarni taklif qildi: axborot-kommunikativ; kasbiy-kommunikativ chet tili; metodologik-pedagogik hamda universal. Kasbiy kompetensiyaning tarkibiga "raqamli kompetensiya" tushunchasini kiritadi va bu eng maqbuli sifatida qabul qilamiz. Shuni ta'kidlaymizki, ta'limni raqamli transformatsiya qilishning maqsadi raqamli iqtisodiyot talablariga javob beradigan va raqamli texnologiyalarning ta'lim salohiyatidan maksimal darajada foydalanishni ta'minlaydigan moslashuvchan ta'lim tizimini yaratishdir. T. N. Noskovaning tadqiqotlari shuni ta'kidlaydiki, raqamlashtirishga o'tish ta'lim amaliyotlarida raqamli texnologiyalardan keng foydalanish, raqamli ta'lim platformalari bilan bog'liq bo'lib, aqli texnologiyalarning to'liqligicha raqamlashtirish texnologiyalari sifatida alohida rol o'ynaydi. Shu nuqtai nazardan, bugungi kunda talabalarning raqamli kompetensiyasini shakllantirish doirasida maqsadlarni belgilashni qayta baholash juda tushunarli. Hozirgi vaqtda chet tili o'qituvchisining raqamli kompetensiyasining tarkibiy tarkibini tizimli tavsiflash uchun turli xil tasniflash asoslari mavjud. Shu bilan birga, ushbu kontseptsiyaning ilmiy ta'riflarini tahlil qilish, ko'pchilik tadqiqotchilar tomonidan kasbiy faoliyatning shaxsiy va funktsional jihatlarini birlashtirishdan iborat bo'lgan ushbu atamani umumiy tushunishning konvergentsiyasining ma'lum nuqtalarini aniqlashga imkon beradi.

Raqamli kompetensiya deganda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishda maqsadga muvofiqlik, samarali va mas'uliyatli foydalana olish qobiliyati tushuniladi. Xususan, ingliz tili o'qituvchilari raqamli kompetensiyasi quyidagi jihatlarni o'z ichiga oladi:

- o'quv resurslarini raqamli shaklda yaratish va ulardan foydalanish;
- onlayn ta'lim platformalaridan foydalanish;
- raqamli axborotlarni tahlil qilish va tanqidiy baholash;
- raqamli muhitda pedagogik muloqotni tashkil etish;
- axborot xavfsizligi va raqamli etikani tushunish nazarda tutadi.

Raqamli texnologiyalarning ilg'or modellarini innovatsion ta'lim va didaktik modellari bilan uyg'unlashtirgan holda ta'lim tizimini, shu qatorda ta'lim beruvchi kompetensiyasini raqamli avlodga moslashtirish eng dolzarb mavzu bo'lib qolmoqda. Bunda IT kompetensiyaga asoslangan kreativ fikrlash qobiliyatini saqlab qolish muhim ahamiyat kasb etadi. O'z navbatida bunday yondashuvda o'qituvchilardan texnologiyani barcha muammolarga yechim emas, balki o'rganuvchilarning motivatsiyasini oshiruvchi vosita sifatida e'tibor qaratishlari lozim. Shunday ekan o'qituvchi faoliyati samaradorligi bilim darajasi yoki pedagogik qobiliyatiga bog'liq bo'lmay, balki kerakli o'quv materiallarni yaratish, to'plash, ularni qayta ishlash hamda ularni to'g'ri yetkazib berishda qanchalik zamonaviy AKT dan qo'llay olish darajasiga bog'liq.

Boshqacha qilib aytganda ta'lim paradigmasini yangilash zarur.

Tadqiqot natijalari va muhokama. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrda PQ-4884-sonli qarori ("Raqamli O'zbekiston – 2030") barcha sohalarida raqamli transformatsiyani jadallashtirishni shu qatorda raqamli ta'lim infratuzilmasini rivojlantirishni nazarda tutadi. Shu bilan birga, 2021-yildan boshlab oliy ta'limda kredit-modul tizimining joriy qilinishi ham talabalarning mustaqil va raqamli o'qish ko'nikmalarini oshirishga xizmat qilmoqda.

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining axborot kompetensiyasini rivojlantirishga oid Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan "Filologiya va tillarni o'qitish: ingliz tili" bakalavriat yo'nalishi uchun DTS (Davlat Ta'lim Standarti)da raqamli kompetensiya quyidagi ko'rinishlarda ifodalanadi:

- Kompetensiyalar bo'limida – "Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan ta'lim jarayonida foydalanish qobiliyati" bunda asosiy talab sifatida umumiy kompetensiyalar qismida-axborotni olish, saralash saqlash va qayta ishlash metod, usul va vositalaridan foydalanish

va mediasavodxonlik, internet tarmoqlari bilan ishlash ko'nikmalariga ega bo'lish talabi ko'rsatib o'tilgan;

- Majburiy fanlar ro'yxatida – “Informatika”, “AKT”, “Masofaviy ta'lim texnologiyalari” kabi fanlar mavjud;

- Modul natijalarida – raqamli vositalardan foydalanish orqali darsni tashkil qilish malakasi aks ettirilgan.

Shu bilan birga, OTMLar tomonidan ishlab chiqilayotgan ishchi o'quv rejalari va fanning o'quv dasturlarida raqamli savodxonlikka oid amaliy mashg'ulotlar, raqamli loyiha ishlari mavjudligini alohida takidlash lozim.

Ta'lim tizimida raqamli transformatsiyani amalga oshirish yo'lida Yevropa Komissiyasining Erasmus+ dasturi doirasida “Markaziy Osiyoda oliy ta'limni yangi texnologiyalar orqali modernizatsiya qilish” HiEdTec loyihasini amalga oshirish o'zagida O'zbekiston Respublikasining oliy ta'lim tizimini raqamli avlodga moslashtirish konsepsiyasi tasdiqlandi.

Yuqoridagilar bilan bir qatorda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 26-fevraldagi 87-son qarorida esa pedagoglarni attestatsiyadan o'tkazish mezonlari orasida raqamli vositalardan foydalanish darajasi baholanadi.

Umumta'lim o'quv dasturlari orqali o'quvchilarning bilimlarni oshirish, ularning yetakchilik va tadbirkorlik, media va axborot savodxonligi bilan birga zo'rvonlik va unga qarshi kurashish hamda global fuqarolik ko'nikmalarini shakllantirish bugungi talablardan biridir. Shuni hisobga olib, media va axborot savodxonligi Xalq ta'limi tizimida ta'lim mazmunini belgilab beruvchi Milliy o'quv dasturining 20 ta ustuvor, ya'ni tayanch kompetensiyalari qatoriga kiritilgan. Shunga ko'ra, fanlar kesimida davlat ta'lim standartlariga, o'quv dasturlariga axborotni olish va saralash, xususan soxta axborotni tanib olish, tanqidiy tafakkur bilan tahlil qilish, to'g'ri tarqatish, ishonchli manbaalarni aniqlash, soxta va haqiqiy axborotni farqlash, axborot makonida o'zining va boshqalarning xavfsizligini ta'minlash, axborot vositalaridan maqsadli foydalanish kabi ko'nikmalar kiritilmoqda.

Xalqaro tajribalar. Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilari uchun axborot yoki raqamli kompetensiyani shakllantirishga doir xalqaro talablar bir nechta asosiy hujjatlar, ramkalar va model konsepsiyalarda aniq belgilangan. Quyida eng muhim va tan olingan xalqaro standartlarni ko'rib chiqamiz:

1. Yevropa Komissiyasi tomonidan ishlab chiqilgan(2017) DigCompEdu- Ta'lim beruvchilarning raqamli kompetensiyasining Yevropa modeli. Ushbu modelga ko'ra o'qituvchilarning raqamli kompetensiyasi 6 darajali ko'rinishda baholanadi: Newcomer(yangi boshlovchi)boshlab-Pioneer(Yetakchi) darajasigacha ya'ni raqamli kompetensiyani quyidagi 6 ta asosiy yo'nalishlarini baholaydi

- Professionallikda raqamli vositalardan foydalanish
- O'quv resurslari bilan ishlash (raqamli materiallarni yaratish, moslashtirish)
- Raqamli vositalar yordamida dars jarayonini tashkil etish va baholash
- O'quvchilar bilan raqamli aloqa
- Raqamli texnologiyalar orqali o'quvchini faol ishtirokchi qilish
- O'quvchilarni raqamli savodxonlikka o'rgatish.

2. Keyingi model UNESCO tomonidan ishlab chiqilgan (yangilangan versiyasi: 2018.)UNESCO ICT Competency Framework for Teachers (ICT-CFT). Ushbu model ham uch asosiy qismdan iborat:

- Axborot-kommunikatsion texnologiyalarni tushunish
 - AKTni o'qitishda qo'llash
 - Yuqori darajadagi pedagogik kompetensiyalar orqali ijtimoiy rivojlanishga hissa qo'shish
- Ushbu model bo'yicha, o'qituvchilardan o'quvchilarning raqamli savodxonligini oshirish internet manbaalarini tanqidiy tahlil qilishni hamda onlayn xavfsizlik, mualliflik huquqlari, raqamli etikani bilish va ularga amal qilishni o'rgatish kutiladi.

Asosan AQSh va xalqaro maktablar tomonidan ISTE Standards for Educators (International Society for Technology in Education) ISTE O'qituvchilar standarti keng qo'llaniladi. Bunda 7 ta asosiy rollar belgilab berilgan bo'lib quyidagicha tavsiflanadi:

Learner (O'rganuvchi) – o'qituvchi o'zi doimiy raqamli rivojlanadi

Leader – AKTdan samarali foydalanishda namuna bo'ladi

Citizen – raqamli etikaga rioya qiladi

Collaborator – texnologiya orqali hamkorlik qiladi

Designer – o'quvchilar uchun raqamli muhit yaratadi

Facilitator – o'quvchilarga AKT vositalarida mustaqil ishlashni o'rgatadi

Analyst – AKT yordamida o'quv jarayonini tahlil qiladi, baholaydi

4. CEFR Companion Volume (2020) – ICT in Language Teaching- CEFR (Common European Framework of Reference for Languages) endilikda AKT vositalarining til o'rganishdagi o'rnini ham ko'rsatadi. Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilaridan digital mediation, online interaction, va multimodal communication ko'nikmalariga ega bo'lish talab etiladi. Masalan, o'qituvchi video, podkast, infografika bilan ishlashni, ularni o'quvchilarga taqdim eta olishni bilishi kerakligi ko'rsatib o'tilgan. Xalqaro tajriba va dasturlarda asosan, raqamli vositalardan samarali qo'llash, tanqidiy fikrlash va bu orqali axborotlarni tahlil qilish, multimodal kommunikatsiya hamda raqamli etikaga rioya qilish kabi talablar ko'rsatib o'tilgan. Xalqaro yondashuvlar (xususan, DigCompEdu va ISTE) o'qituvchini nafaqat texnik ko'nikmalar egasi, balki raqamli metodist va analitik sifatida rivojlantirishni ko'zlaydi.

Xulosa va takliflar. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, aksar oliy ta'lim muassasalarida bir necha muammolar hali ham mavjud. Jumladan: raqamli kompetensiyaga oid bilimlar ko'proq nazariy asosda berilib borilmoqda; ko'plab tadqiqotlarga qaramay xalqaro onlayn platformalar (Coursera, Moodle, Edmodo, Quizlet) bilan ishlash ko'nikmalari cheklangan; AKT bilan bog'liq fanlar alohida o'tiladi, lekin ingliz tili bilan integratsiya qilinmaydi hamda amaliy mashg'ulotlarda raqamli dars bilan bog'liq loyihalari yetarlicha rivojlanmagan.

Bu holat mavjud tizim o'qituvchilarni real ish faoliyatida zamonaviy texnologiyalarni qo'llashga tayyorlamasligi mumkin. Shuning uchun raqamli kompetensiyani faqat texnik bilim emas, balki pedagogik yondashuv sifatida ham ko'rib chiqish zarur.

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining raqamli kompetensiyasini shakllantirishda quyidagi xulosalar va takliflar asosida ish olib borish maqsadga muvofiq:

1. Raqamli pedagogika bo'yicha maxsus modul va amaliy mashg'ulotlar joriy etilishi zarur.
2. Ingliz tili fanlari raqamli vositalar bilan integratsiya qilingan holatda o'qitilishi kerak.
3. Talabalar uchun onlayn loyiha ishlari, masofaviy dars loyihalash, media savodxonlik ko'nikmalariga urg'u berilishi zarur.
4. O'qituvchi amaliyoti davomida talabalarga raqamli texnologiyalar asosida dars o'tkazish imkoniyatlari yaratilishi lozim.

Raqamli kompetensiyaning to'laqonli shakllanishi kelgusida o'qituvchining ta'lim sifati va o'quvchilar bilan zamonaviy muloqotini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentimizning 2021-yil 17-fevraldagi —"Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida ham —Raqamli O'zbekiston – 2030 strategiyasi
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktyabrdagi —Raqamli O'zbekiston-2030 strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PF-6079- son Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi. "Filologiya va tillarni o'qitish (ingliz tili)" yo'nalishi uchun DTS. <https://uznpu.uz/directions/134>

4.. Oliy ta'lim tizimini raqamli avlodga moslashtirish konsepsiyasi. Yevropa Ittifoqi Erasmus+ dasturining ko'magida. <https://hiedtec.ecs.uniruse.bg/pimages/34/3. UZBEKISTAN-CONCEPT-UZ.pdf>

5. Zaripov Nozimbek Nayimovich “*Raqamli texnologiyalar ta'lim tizimining zaruriy komponenti sifatida*” Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar (2024 йил № 5) <https://interscience.uz/>

6. Колядко С.В., Мартыненко Л.Г., Глухова Ю.Н. “*Цифровая компетенция будущего учителя иностранного языка в области использования технологий искусственного интеллекта: содержательный аспект*” // Вестник Томского государственного университета. 2024. № 504. С. 164–174. doi: 10.17223/15617793/504/18

7. Ferrari, A., Punie, Y., Redecker, C. (2012). *Understanding Digital Competence in the 21st Century: An Analysis of Current Frameworks*. In: Ravenscroft, A., Lindstaedt, S., Kloos, C.D., Hernández-Leo, D. (eds) 21st Century Learning for 21st Century Skills. EC-TEL 2012. Lecture Notes in Computer Science, vol 7563. Springer, Berlin, Heidelberg. https://doi.org/10.1007/978-3-642-33263-0_7

8. Wang, A.Y. Understanding levels of technology integration: A *TPACK scale for EFL teachers to promote 21st-century learning*. Educ Inf Technol **27**, 9935–9952 (2022). <https://doi.org/10.1007/s10639-022-11033-4>.

*Atakulova Nargizaxon Alijonovna,
Andijon davlat universiteti
pedagogika kafedrasida dotsenti, p.f.b.f.d(PhD)*

TALABA-YOSHLARDA SOG'LOM MA'NAViy DUNYOQARASHNI RIVOJLANTIRISHGA XIZMAT QILADIGAN TASAVVUF ADABIYOTI NAMOYONDALARINING DIDAKTIK QARASHLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada tasavvuf adabiyoti falsafiy pedagogik mazmunga boy bo'lganligi uchun ham shaxs dunyoqarashini, ayniqsa ma'naviy dunyoqarashni rivojlantirishning samarali vositasi ekanligi bunda talaba-yoshlarda sog'lom ma'naviy dunyoqarashni rivojlantiradigan qoida insonning hayoti ruh faoliyati bilan chambarchas bog'liqligi, moddiy boyliklar, alohida qimmatga ega emasligi, ma'naviy qadriyatlarining inson hayoti uchun muhim ahamiyat kasb etishi ajdodlarimiz tomonidan qayta-qayta ta'kidlanganligi pedagogik mazmunga boy bo'lganligi qayd etilgan.

Kalitso'zlar: shaxs dunyoqarashi, ma'naviy dunyoqarash, ma'naviy e'tiqodiy qarashlar, ilmiy didaktik asarlar, tasavvufiy qarashlar.

Аннотация. В данной статье отмечено, что суфийская литература богата философско-педагогическим содержанием, поэтому она является эффективным средством развития мировоззрения личности, особенно духовного мировоззрения. Указывается, что нормы, способствующие формированию здорового духовного мировоззрения у студентов и молодежи, тесно связаны с духовной жизнью человека, а не с материальными ценностями, которые не имеют особой значимости. Подчеркивается, что духовные ценности играют важную роль в жизни человека, и наши предки неоднократно акцентировали на этом внимание, что придаёт данной теме педагогическое значение.

Ключевые слова: мировоззрение личности, духовное мировоззрение, духовно-идеологические взгляды, научно-дидактические произведения, суфийские взгляды.

Annotation: This article highlights that Sufi literature is rich in philosophical and pedagogical content, making it an effective means of developing personal worldview, particularly spiritual worldview. It is emphasized that the principles which foster a sound spiritual outlook among students and youth are closely connected to the spiritual activity of human life, while material wealth holds no special value. The article notes that spiritual values play a crucial role in human life and that our ancestors repeatedly emphasized their importance, giving this topic a strong pedagogical dimension.

Keywords: personal worldview, spiritual worldview, spiritual and ideological views, scientific-didactic works, Sufi views.

Kirish. Sog'lom ma'naviy dunyoqarashni shakllantirish barcha davrlarda ijtimoiy pedagogik zaruriyat bo'lganligi uchun ham mazkur dunyoqarash tasavvuf adabiyoti namunalarda o'zining chuqur ifodasini topdi. Ma'naviy yuksalikka undovchi qarashlar targ'iboti X-XI asrlarda Robiya Adaviya, Mansur Xalloy kabi sufiylarning asarlari yordamida amalga osha boshladi. Sog'lom ma'naviy dunyoqarash turli obrazlar, timsollar, ramzlar, metodlar yordamida shakllantirildi. Sog'lom ma'naviy dunyoqarashni shakllantirishning eng qulay didaktik vositalari sifatida g'azallar, ruboiylar va kichik she'rlardan foydalanish mumkin. Shu bilan bir qatorda sog'lom ma'naviy dunyoqarashni shakllantirishda mushoiralar, suhbatlar, she'rlarga berilgan tanqidiy baholardan ham foydalanish imkoniyati mavjudligini mutafakkir ajdodlarimiz faoliyatida yaqqol ko'rishimiz mumkin. Buning asosiy sabablaridan biri adabiyot azal-azaldan insonlarning dunyoqarashini rivojlantirishda muhim vosita bo'lib xizmat qilgan. Sog'lom ma'naviy qarashlar insonparvarlik bilan yo'g'irilgan badiiy adabiyot namunalari orqali o'quvchi va talabalar ongiga tez yetib boradi. Chunki badiiy adabiyot namunlarida haqqoniy insoniy muhabbat, Haq va haqiqat, oliyjanob insoniy fazilatlar, kamolotga intilish yo'llari bayon qilinadi. Sog'lom ma'naviy

dunyoqarash insonparavar shoirlarning she'rlarida o'z ifodasini topgan. Mazkur she'r va dostonlar bugungi kunga qadar talaba-yoshlarda sog'lom ma'naviy dunyoqarashni shakllantirishda ahamiyatli bo'lgani uchun ham ularni mutolaa qilishga, ular yordamida yoshlarni tarbiyalashga alohida e'tibor qaratish talab etilmoqda. Chunki sog'lom ma'naviy dunyoqarashni o'zida mujassamlashtirgan tasavvufning ishq konsepsiyasida soflik, adolatparvarlik, mutlaq ilohga muhabbat bugungi talaba yoshlarni ham ezgulik sari yetaklashga xizmat qiladi. Chunki ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan badiiy adabiyot namunalari his-hayajonga boyligi bilan yoshlar e'tiborini o'zga jalb qilib, ularning ong ostiga ta'sir ko'rsatadi. Mazkur adabiyotning asosiy qahramonlari e'tiqodga imon keltirgan, barkamollik cho'qqisiga intilgan insonlardir. Kamolot sari intilgan shaxsning his-tuyg'ulari, kechinmalari, hayollari, intilishlari, jonli iboralar, ko'p ma'noli ramzlar yordamida ifodalangan bo'lib, mazkur misralar talabalarning dunyoqarashi va kayfiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Mazkur adabiyotlarning bosh qahramoni poklanayotgan, barkamollik sari intilayotgan insondir, shuning uchun ham uning dunyoqarashi, estetik didi, kechinmalari bugungi yoshlarni u kabi halol pok yashashga undaydi.

Talaba-yoshlarda sog'lom ma'naviy dunyoqarashni rivojlantirishga xizmat qiladigan tasavvuf adabiyoti namunalari ezgu amallarni bajarishga qodir inson tasvirilanadi. Mazkur asarlarda barcha go'zalliklar va ezguliklarning manbaai ilohiy qudrat egasi Alloh ekanligi badiiy timsollar yordamida ifodalangan. Insonning go'zalligi, uning ezgu amallari aniq obrazlar timsolida ochib berilgan. Bu asarlarda inson ruhiyatining go'zalligi, uning ifodasi yaxshi amallar tavsifi orqali bayon qilingan. Mazkur asarlarda moddiy go'zallik, ma'naviy go'zallikning o'zaro farqlari ochib berilgan. Mutafakkirlar, tasavvuf adabiyoti namoyondalari tafakkur go'zalligi, ma'naviy go'zallikni anglash, unga intilish zarurligini muntazam ta'kidlaganlar.

Adabiyotlar tahlili. Yuksak salohiyat iymon e'tiqod egasi bo'lgan tasavvuf san'ati namoyondalarida orif insonning e'tiqodi, pok niyati o'z ifodasini topgan. Shuning uchun ham bugungi kunda talaba-yoshlarda sog'lom ma'naviy dunyoqarashni rivojlantirishda ular muhim manbaa vazifasini o'taydi. O'tmishda jamiyat a'zolarida sog'lom ma'naviy dunyoqarash badiiy so'z yordamida shakllantirilgan. Shuning uchun ham aksariyat shayxlar ruboiy, g'azal va hikmatlarni yozganliklariga guvoh bo'lamiz. Masalan Najmiddin Kubro, Bahouddin Naqshband, Jaloliddin Rumiy, Xoja Axror Valiylarning ijodiy faoliyati bunga misol bo'la oladi. Mutafakkir shoir Alisher Navoiy bu haqida quyidagilarni ta'kidlagan edi: "shoirda darveshlik xislati bo'lmasa, uning iste'dodi ulug' maqsadga xizmat qila olmaydi". Mutafakkir shoir o'zining "Majolis un-nafoiys" asarida xuddi shunday shoirlarning ijodi haqida fikr yuritgan edi. Uning yozishicha, "har bir ziyoli zohiriy ilmlar (dunyoviy fanlar) bilan birga, botiniy ilm (tasavvuf)ni ham egallashi lozim, bu uning fazl-u kamolini oshiradi, xushaxloq, halim va odamshavanda bo'lishiga ko'maklashadi".[1]

Tasavvuf shoir va yozuvchilarning sog'lom ma'naviy dunyoqarashga ega bo'lishlariga ko'maklashgan. Ularning mazkur nuqtai nazarlari badiiy asarlar mazmunida yaqqol ko'rinadi. O'zbek shashmaqomi tasavvufning asosiy g'oyalarini targ'ib etishga xizmat qilib kelmoqda. Ustoz murabbiylar oyatlar, hadislar, she'riy hikmatlar yordamida talabalarning ma'naviy dunyoqarashini rivojlantirishga muvaffaq bo'lganlar. Ular o'z shogirdlariga tariqat maqomlari va ma'rifatni tushuntirishga muvaffaq bo'lganlar, kichik she'rlar va hikoyatlar yordamida o'z fikrlarini asoslaganlar. Jumladan, Robiya Adaviya (713-801), Mansur Halloj (857-922), Boyazid Bistomiy (vaf 874), Abu Said Abul Xayr (957-1049), Abdulloh Ansoriy (1006-1088), Abul Hasan Xaraqoniy (vaf. 1034), Najmiddin Kubro (1145-1226), Bahouddin Naqshband (1318-1389) tolibi ilmlar bilan ishlashda suhbat metodidan unumli foydalanganlar.

Tasavvuf adabiyoti falsafiy pedagogik mazmunga boy bo'lganligi uchun ham shaxs dunyoqarashini, ayniqsa ma'naviy dunyoqarashni rivojlantirishning samarali vositasi hisoblanadi. Fariddin Attor, Jaloliddin Rumiy, Ibn al-Arabiy, Jomiy, Bedillarning asarlarida falsafiy fikrlar ma'naviy e'tiqodiy qarashlar bilan uyg'un tarzda she'riy misralarda bayon etilgan.

Yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini rivojlantirishga xizmat qiladigan ilmiy didaktik asarlar ikki guruhga ajratiladi. Ularda tasavvufiy qarashlar bayon qilingan bo'lib, Abulmajid Sanoiyning «Haqiqat ul-haqoyiq», Mahmud Shabustariyning «Gulshani roz», Jomiyning «Sharhi

ruboiyot», Bedilning «Muhiti a'zam», Sayyid Qosimiyning «Haqiqatnoma», So'fiy Allohyorning «Sabot ul-ujizin», Bobojon Sanoiyning «Kanz ul-maorif» asarlari shular jumlasidandir. Bu asarlardan maktab va madrasalarda darslik sifatida foydalanilgan. Chunki shoir va mutafakkirlar ma'naviy g'oyalarni nazm orqali ifodalab, yoshlarning sog'lom ma'naviy dunyoqarashini rivojlantirishga harakat qilganlar.

Ikkinchi guruhga mansub asarlarda tasavvufiy g'oyalar, insonga xos bo'lgan kechinma va his-tuyg'ular, timsollar vositasida ifodalanadi. Abulmajid Sanoiyning «Sayr ul-ibod», Farididdin Attorning «Ilohiynoma», «Bulbulnoma», «Ushturnoma», Jaloliddin Rumiyning «Masnaviyi ma'naviy», Xusrav Dehlaviyning «Matla' ul-anvor», Navoiyning «Hayrat ul-abror» va «Lison ut-tayr» asarlari bugungi kunda talaba-yoshlarda sog'lom ma'naviy dunyoqarashni rivojlantirishga ko'maklashadi. Mazkur asarlardagi asosiy g'oyalar pedagogika turkum fanlaridan tashkil etiladigan o'quv jarayonlarida professor-o'qituvchilar tomonidan talabalarga tushuntirilishi lozim. Chunki ushbu asarlarda tasavvufiy g'oyalar she'riy misralarda badiiy ifodali bayon etilishi bilan bir qatorda juda ko'p masal va hikoyatlar, ramziy tashbehlar keltirilib, kitobxonga sharhlangan. Bu esa ushbu asarlarni talabalar uchun tushunarli bo'lishi uchun ta'minlangan. Masalan, Alisher Navoiyning Lison ut-tayir asari talabalarda sog'lom ma'naviy dunyoqarashni rivojlantirishning muhim vositasi bo'lib, undagi hikoyatlarning mazmunida shariat va tariqat, ilmiy bilish masalalari, insonning ma'naviyati, axloqiga oid qimmatli fikrlar bayon qilingan. Hikoyalarning aksariyati etnopedagogik qadriyatlar ifodasi hisoblanadi. Chunki ular xalq tomonidan yaratilgan ijod namunalari. Ulardan kelib chiqadigan xulosalar qissadan hissa shaklida bayon etilgan bo'lib, so'fiyona ma'nolar talqinidan iborat. Masal va hikoyatlarda axloqiy masalalar, jumladan, nafsdan saqlanish lozimligi, dunyo boyliklariga qiziqmaslik, xasislikdan saqlanish, saxiylik, himmat va jomardlik fazilatlarining afzaliklari, sadoqatlilik haqida fikr yuritilgan.

Metodlar. Tasavvufning ontologik ildizlari borliq, tabiat, inson haqidagi ta'limotlar, shuningdek aql-idrokning shaxsni rivojlantirishdagi imkoniyatlari, hissiy tajribalar, bilish nazariyasida o'z ifodasini topgan. Tasavvuf ta'limoti namoyondalari ontologiya va bilish nazariyasining asosiy mohiyatini o'zida aks ettirgan rivoyat, hikoya, qissalar, maqollar, matallar, afsonalardan foydalangan holda suhbat, muloqot usuli yordamida yoshlarga ta'lim-tarbiya berganlar. Mazkur asarlar tasavvuf ta'limoti namoyondalarining barkamol shaxsni tarbiyalash haqidagi qarashlari uchun ontologik asos sifatida xizmat qilgan.

Natijalar. Qissalar ham talabalarda milliy hamda sog'lom ma'naviy dunyoqarashni rivojlantirishning samarali vositasi hisoblanadi. Qissalar xalq pedagogikasi, xalq ijodiyoti namunalari tayanilgan holda yaratiladi. Yoshlarning ma'naviy-axloqiy, madaniy dunyoqarashini rivojlantirishda «Qissai Mashrab», «Bobo Ravshan», «Ibrohim Adham» kabi qissalar alohida pedagogik ahamiyatga ega. Qissalar xalq ijodiyoti namunasi bo'lib, ularda eng muhim etnopedagogik qadriyatlar xalqning muayyan shaxs haqidagi tasavvurlari xulosa va ideallari o'z ifodasini topgan. Shuning uchun ham talabalarga mustaqil o'qish uchun qissalarni tavsiya etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

So'fiyona hikoyatlar kitoblari ham talabalarda ma'naviy dunyoqarashni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki bunday tazkiralarda talabalarda sog'lom ma'naviy dunyoqarashni shakllantirishda xizmat qiladigan naqlar, rivoyatlar bayon qilingan. Naql va rivoyatlar shayxlarning sifatlaridan kelib chiqqan holda guruhlariga ajratilgan. Masalan taqvodorlik haqida fikr yuritilganda Ibrohim Adham, behudlik haqida fikr yuritilganda esa Boyazid Bistomiy haqidagi hikoyalar misol tariqasida keltiriladi.

Talabalarda sog'lom ma'naviy dunyoqarashni rivojlantirishda turli shakllar va janrlarga mansub asarlardan foydalanish mumkin. Chunonchi, ruboiylar, g'azallar, qit'alar, qasidalar, masnaviylardan keng foydalanish mumkin. Bunday asarlar talabalarni aqliy intellektual, ma'naviy axloqiy hamda madaniy jihatdan rivojlantirishga ko'maklashadi.

Sog'lom ma'naviy dunyoqarashga ega bo'lish natijasida talabalarda davlat va xalq manfaatlari yo'lida harakat qilish, o'zlikni anglash, o'z o'zini munosib baholash, vatanparvarlik, fidoiylilik, jomardlik sifatlarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari kengayadi

Muhokama. Tasavvuf namoyondalari odam va olamning o'zaro munosabatini ochib berishga e'tibor qaratganlar. Masalan taniqli tasavvufshunos Najmiddin Komilovning ta'kidlashicha, "mahjub deganda, Xudoni, Payg'ambarni, Pirni va sevgan kishisini anglash, soqiy deganda ham ayni shu to'rt tushunchani e'tiborga olish, lab deganda purning so'zini, ilohiy fayzni, qosh deganda ilohiy olam bilan moddiy olam chegarasini, bel deganda komil inson xayolini, ingichka bel deganda komil inson xayolining nozikligini, ko'z deganda komil insonning o'zini nazarda tutish" lozim. [3] Talabalar tasavvuf adabiyotidagi mazmun mohiyatni anglashlari uchun ushbu timsollarning ma'nosini tushunib yetishlari talab etiladi. Shuning uchun ham pedagogika tarixi darslarida bunday timsollarnig mazmun-mohiyati ustida ishlash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Buning uchun professor-o'qituvchilar ham tasavvuf adabiyotining timsollarini anglab yetishlari talab etiladi. Ushbu timsollar talabalarga yuksak ma'naviyatli inson qiyofasini aniq tasavvur qilish imkonini beradi.

Xulosa. Ko'rinib turibdi bu asar talabalarning milliy hamda ma'naviy odob axloqqa oid bilimlari, dunyoqarashlari, mutafakkir ajdodlarimizning shaxsiy sifatlariga oid tasavvurlari hamda ustoz-shogird munosabatlarini rivojlantirish, ta'limning samarali usul va metodlarini o'zlashtirishdagi o'ziga xos jihatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan bir qatorda manoqiblar talabalarning shaxsiy sifatlarini boyitadi, ularning mutafakkirlar, ulug' zotlardan ibrat olib o'zligini anglashga ko'maklashadi, milliy g'urur tuyg'usini rivojlantiradi.

Bir so'z bilan aytganda, tasavvuf adabiyoti namunalarida o'zlik tarbiyasi, pand-u nasihat usullariga ustuvor o'rin ajratilgan. Chunki mutafakkirlar o'z fikrlarini qisqa bayon qilib, shogirdlarini suhbat, jonli muloqot yordamida tarbiyalash va ularning ma'naviyatini yuksaltirishga muvaffaq bo'lganlar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Alisher Navoiy "Mukammal asarlar to'plami" 20 Tom. T. Fan. 1997
2. Bobojonov B. Islom, tasavvuf va xukmdorlarga nasihat // Islom, tarix va manaviyat. - Toshkent: Meros, 2000. - 41-64 B.
3. Komilov N. Tasavvuf. Tasavvuf ontologiyasi va gnesologiyasi. | Xurshid Davron kutubxonasi (kh-davron.uz)
4. So'fiy Allohning «Sabot ul-ojizin.www.islom.uz

*Hakimova Nargiza Supxanovna,
Buxoro davlat pedagogika instituti dotsenti, PhD*

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING SHAXSIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHDA "LIFELONG LEARNING" MILLIY KONSEPSIYASI MAZMUNI

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo'lajak o'qituvchilarning shaxsiy sifatlarini rivojlantirish jarayonida "lifelong learning" (hayot davomida o'qish) konsepsiyasining roli tahlil qilingan. Maqolada mas'uliyat, tashabbuskorlik, tanqidiy fikrlash, refleksiya kabi sifatning pedagogik faoliyatdagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, o'z ustida ishlashga asoslangan uzluksiz ta'lim madaniyati bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy va shaxsiy salohiyatini oshirishga xizmat qilishi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: *lifelong learning, o'qituvchi shaxsiyati, uzluksiz ta'lim, shaxsiy sifatlar, refleksiya, mas'uliyat, kasbiy salohiyat.*

Аннотация. В данной статье анализируется роль понятия "lifelong learning" (обучение на протяжении всей жизни) в процессе развития личностных качеств будущих педагогов. В статье освещается значение в педагогической деятельности таких качеств, как ответственность, инициативность, критическое мышление, рефлексия. Также обосновано, что культура непрерывного образования, основанная на работе над собой, служит повышению профессионального и личного потенциала будущих педагогов.

Ключевые слова: *lifelong learning, личность учителя, непрерывное образование, личные качества, рефлексия, ответственность, профессиональный потенциал.*

Annotation: *this article analyzes the role of the concept of "lifelong learning" (lifelong learning) in the process of developing the personal qualities of prospective teachers. The article highlights the importance of qualities such as responsibility, initiative, critical thinking, reflection in pedagogical activity. It is also based on the fact that a culture of continuing education based on work on oneself serves to increase the professional and personal potential of future teachers.*

Keywords: *lifelong learning, teacher personality, continuing education, personal qualities, reflection, responsibility, professional potential.*

Kirish. Bugungi globallashuv jarayonida ta'lim tizimi jadal sur'atlarda rivojlanib, undagi o'zgarishlar bevosita o'qituvchi shaxsiga, uning kasbiy salohiyati va shaxsiy fazilatlariga yangicha yondashuvni taqozo qilmoqda. Ayniqsa, XXI asrda raqobatbardosh va zamonaviy bilimlarga ega bo'lgan, o'z ustida tinimsiz ishlaydigan, hayot davomida o'qish g'oyasiga qat'iy sodiq qoladigan o'qituvchilarni tayyorlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylanmoqda. Shu jihatdan qaralganda, bo'lajak o'qituvchilarning shaxsiy sifatlarini shakllantirish va ularni rivojlantirishda "Lifelong learning" – ya'ni hayot davomida ta'lim olish tamoyiliga asoslangan yondashuv alohida ahamiyat kasb etadi. Bu konsepsiya o'zbek tilida "Uzluksiz ta'lim" yoki "Hayot davomida o'qish" deb tarjima qilinib, u zamonaviy ta'lim nazariyasining muhim tarkibiy qismi sifatida qaralmoqda. "Lifelong learning" konsepsiyasi shaxsiy rivojlanish, kasbiy salohiyatni oshirish, zamonaviy axborotlarni o'zlashtirish va mehnat bozoridagi raqobatbardoshlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Bu yondashuv bugungi o'zgaruvchan ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda o'qituvchilik kasbiga tayyorlanayotgan yoshlar uchun o'ta dolzarb hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida olib borilayotgan ta'lim islohotlari, ayniqsa, o'qituvchi shaxsini yangicha mezonlar asosida shakllantirishga qaratilgan strategik dasturlar "Lifelong learning" konsepsiyasi bilan uyg'un holda olib borilmoqda. Bunda shaxsni har tomonlama kamol toptirish, uning intellektual salohiyatini rivojlantirish, axloqiy-ruhiy jihatdan sog'lom, ijtimoiy faollikka ega, zamonaviy texnologiyalarni egallagan va o'z kasbiga sadoqatli mutaxassis sifatida shakllantirish maqsad qilib olingan. Bo'lajak o'qituvchilar aynan shu jarayonning markazida turibdi. Ularning bugungi kundagi tayyorgarligi, shaxsiy sifatleri va kasbiy kompetensiyalari ertangi ta'lim sifatini belgilaydi. Shu sababli pedagogik oliy ta'lim muassasalarida nafaqat nazariy

bilim berish, balki ularning shaxsiy sifatlarini – mas'uliyat, fidoyilik, tashabbuskorlik, ijtimoiy faollik, o'zini anglash, o'zini boshqarish, tanqidiy fikrlash, doimiy izlanishga intilish kabi jihatlarni rivojlantirish eng muhim vazifalardan biridir.

Shaxsiy sifatlar deganda faqat ijobiy psixologik fazilatlar emas, balki kasbiy vazifalarni muvaffaqiyatli bajarishga xizmat qiluvchi ichki salohiyat, axloqiy-ruhiy barqarorlik, kommunikativ madaniyat, adaptivlik va reflektivlik kabi xususiyatlar ham nazarda tutiladi. Bu esa o'z-o'zidan vujudga kelmaydi, balki ularni tizimli ravishda rivojlantirish, ilmiy asoslangan metodikalar orqali rag'batlantirish, motivatsiyani kuchaytirish orqali shakllanadi. Shu yerda "lifelong learning" yondashuvi ayni muddaoga xizmat qiladi, chunki bu konsepsiyaning mohiyatida inson umrining har bir davrida – bolalikdan to nafaqaga chiqquncha – o'qish, bilim olish, o'zini rivojlantirish, yangi kompetensiyalarni o'zlashtirish, o'zgaruvchan jamiyatga moslashish kabi tamoyillar yotadi. Shu asosda o'qituvchilik kasbi ham "bir umr o'qib yashash" kabi faol intellektual hayotni talab qiluvchi soha ekanligi ayon bo'ladi.

O'zbekistonning Milliy ta'lim tizimi 2030 yilgacha mo'ljallangan rivojlanish strategiyasida ham "lifelong learning" konsepsiyasining ahamiyati alohida e'tirof etilgan bo'lib, bunda har bir pedagogning uzluksiz kasbiy o'sishi, o'z ustida ishlashi, yangi pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirishi va ta'limda innovatsion yondashuvlarni qo'llay olishi asosiy mezonlardan biri sifatida belgilanmoqda. Xususan, bo'lajak o'qituvchilarda bu ko'nikmalarni shakllantirish uchun o'quv dasturlariga zamonaviy pedagogika, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, ta'limda psixologiya va menejment asoslari kabi yo'nalishlar kiritilgan. Bularning barchasi yosh pedagog kadrlarning nafaqat kasbiy bilimlarini oshirish, balki ularning shaxsiy jihatdan yetuk, mustaqil fikrlovchi, o'zini anglay oladigan va doimiy o'zgarishga tayyor bo'lgan mutaxassis sifatida shakllanishiga xizmat qiladi. Bo'lajak o'qituvchilarning shaxsiy sifatlarini rivojlantirishda "Lifelong learning" konsepsiyasi nafaqat zamonaviy ta'lim jarayonining ajralmas qismi, balki pedagogik tayyorgarlik tizimining asosiy yo'nalishi sifatida qaralishi kerak. Bu yondashuv o'qituvchi shaxsining har tomonlama yetuk bo'lishini ta'minlash bilan birga, ta'lim sifatiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli pedagog kadrlar tayyorlashda ushbu konsepsiya mohiyatini chuqur o'zlashtirish, unga asoslangan metodlarni amaliyotga joriy etish dolzarb ahamiyatga ega.

Zamonaviy ta'limda o'qituvchi shaxsiga bo'lgan talablar o'zgarib borayotgan davrda, bo'lajak pedagoglarni har tomonlama tayyorlash, ayniqsa, ularning shaxsiy sifatlarini rivojlantirish ta'lim tizimi samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Bugun pedagog faqat dars o'tuvchi mutaxassis emas, balki yosh avlodni tarbiyalovchi, ularni jamiyatga tayyorlaydigan, yuksak axloqiy va ma'naviy qadriyatlarga ega bo'lgan yetakchi sifatida shakllanishi zarur. Bu borada, "lifelong learning" – hayot davomida ta'lim olish konsepsiyasi, pedagoglar tayyorlash tizimining zamonaviy tayanchiga aylangan. U o'qituvchilik kasbining murakkabligi, uzluksiz yangilanib turuvchi mazmuni va doimiy o'zgarishga duch keluvchi metodik talablari bilan uyg'unlashadi.

"Lifelong learning" milliy konsepsiyasining asosiy g'oyasi – bu insonning butun hayoti davomida bilim olish, yangi ko'nikmalarni o'zlashtirish va o'z ustida doimiy ishlashga tayyor bo'lishidir. O'qituvchi uchun bu yondashuv shunchaki foydali emas, balki zaruratdir. Chunki bugungi o'quvchi axborot bilan to'yintirilgan, raqamli texnologiyalarni yaxshi biladigan, tez fikrlaydigan yosh avlod vakilidir. U bilan teng bo'lish, unga ta'lim berish, aynan shu muhitda o'zini isbotlay olish uchun pedagog doimiy o'zgarishga tayyor bo'lishi kerak.

Shaxsiy sifatlar, ya'ni pedagogik faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ichki fazilatlar "lifelong learning" tamoyillari orqali mukammallashadi. Bular orasida mas'uliyat, tashabbuskorlik, o'zini boshqarish, tanqidiy fikrlash, ijtimoiy faollik kabi omillar eng muhimlaridandir. Quyidagi diagramma aynan shu omillarning bo'lajak o'qituvchilar shaxsida nechog'li muhimligi haqida tasavvur beradi:



1-rasm. Bo'lajak o'qituvchilarning shaxsiy sifatlarini rivojlantirish omillari

Bu grafikdan ko'rinib turibdiki, mas'uliyat va o'zini boshqarish eng ko'p e'tibor qaratilayotgan sifatlar bo'lib, ularning rivojlanishi bevosita ta'lim jarayonining sifati bilan bog'liqdir. Shuningdek, tanqidiy fikrlash va ijodkorlik bugungi kunda ta'limda muhim kompetensiyalar sirasiga kiradi.

Yuqoridagi fazilatlarni rivojlantirish uchun bo'lajak o'qituvchilar quyidagi yo'nalishlarda faoliyat yuritishlari talab etiladi:


1. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o'zlashtirish (AKT) – Raqamli texnologiyalarni ta'limga integratsiya qilish orqali dars samaradorligini oshirish.

2. Zamonaviy metodikalarga asoslangan dars tahlillari – Interaktiv, muammoli o'qitish, differensial yondashuv kabi ilg'or metodlardan foydalanish.

3. Psixologik barqarorlik va stressga chidamlilik – Kasbiy faoliyatdagi bosimlarni yengish va emotsional sog'lomlikni saqlash.

4. Innovatsion yondashuvni qo'llash – Yangi texnologiyalarni qo'llash, pedagogik loyihalarda ishtirok etish, startaplar yaratish.

5. Kasbiy rivojlanish va doimiy o'qish – Sertifikatlar olish, vebinar va master-klasslarda ishtirok etish.



2-rasm. “Lifelong Learning” konsepsiyasi bo'yicha bo'lajak o'qituvchilarning rivojlanish yo'nalishlari

Yuqoridagi grafikda ko'rsatilganidek, kasbiy o'sishga 90% e'tibor qaratilgan bo'lsa-da, psixologik barqarorlik darajasi nisbatan past. Bu esa muammoli nuqtalardan biridir, chunki emotsional salomatlik mustahkam bo'lmagan o'qituvchidan barqaror ta'lim sifati kutib bo'lmaydi. Shu sababli, pedagogik ta'lim muassasalarida psixologik treninglar, ko'mak markazlari, muammoli holatlarni tahlil qilish mashg'ulotlari ko'proq joriy etilishi lozim.

Shuningdek, bo'lajak o'qituvchilarning “lifelong learning” konsepsiyasiga asoslangan ta'lim olishi ularning jamiyatdagi ijtimoiy roli va faolligini kuchaytiradi. Chunki doimiy o'qiydigan, izlanadigan o'qituvchi nafaqat o'z fanini o'rgatadi, balki o'z shaxsiy namunasi bilan ham o'quvchilarga motivatsiya beradi. Bunday o'qituvchi o'zgaruvchan ta'lim standartlariga moslashadi, milliy va xalqaro dasturlarda ishtirok etadi, xorijiy tillarni o'zlashtirishga intiladi va madaniyatlararo muloqotni rivojlantiradi.

Bundan tashqari, milliy “lifelong learning” strategiyasi doirasida bo'lajak o'qituvchilarning individual o'qish yo'nalishlarini shakllantirish, ya'ni har bir talabaga uning ehtiyojidan kelib chiqqan holda ta'lim berish tamoyili joriy etilmoqda. Bu esa shaxsga yo'naltirilgan yondashuvning asosiy qismi hisoblanadi. Masalan, mustaqil ta'lim olish, ilmiy izlanishlar olib borish, tadqiqot metodologiyasini o'rganish, startap loyihalarda ishtirok etish kabi elementlar bevosita shaxsiy sifatlarni shakllantiradi. Bo'lajak o'qituvchilarning shaxsiy sifatlarini rivojlantirishda “lifelong learning” konsepsiyasi nafaqat zamonaviy ta'lim jarayonining talabi, balki milliy ta'lim strategiyasining ustuvor yo'nalishidir. Bu konsepsiyani samarali amalga oshirish orqali o'z ustida izchil ishlaydigan, zamonaviy bilim va kompetensiyalarga ega, shaxsiy fazilatlarini yuqori bo'lgan pedagoglar avlodini tayyorlash mumkin. Bu esa o'z navbatida, mamlakat ta'lim tizimi va intellektual salohiyatining yuksalishiga xizmat qiladi.

O'zbekistonda ta'lim tizimining zamonaviy rivojlanish bosqichi, ayniqsa, o'qituvchi tayyorlashning yangi shakl va mazmuni bilan bog'liq bo'lmoqda. Xususan, bo'lajak o'qituvchilarning shaxsiy fazilatlarini rivojlantirish – ularni nafaqat bilimdon, balki yetuk inson, fidoyi tarbiyachi sifatida shakllantirishni talab qiladi. Bu boradagi muhim qadamlardan biri – talabalarda o'z-o'zini rivojlantirishga qaratilgan ongli ehtiyojni shakllantirishdir. Bu ehtiyoj esa “lifelong learning” konsepsiyasining tamoyillari orqali rivojlanadi. Shaxsiy motivatsiya, o'zini anglash, o'z ustida ishlash va o'zini doimiy tahlil qilish singari ko'nikmalar bu jarayonning asosiy tayanchlaridandir.

Bugungi kunda pedagog kadrlarni tayyorlashda nafaqat ularning fanga oid bilimlari, balki metodik, psixologik, ijtimoiy va madaniy kompetensiyalari ham muhim hisoblanmoqda. Shu boisdan, pedagogik oliy ta'lim muassasalarida o'qituvchilarga zamonaviy kasbiy standartlar asosida dars berish, amaliy mashg'ulotlarni ko'paytirish, interaktiv metodlar orqali dars olib borish tajribalari joriy etilmoqda. Bu esa “lifelong learning” tamoyilining amaliy ko'rinishidir, chunki o'qituvchidan doimiy yangilikka intilish, innovatsion yechimlarga ochiqlik talab qilinmoqda. Yangi bilimlar esa o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi, ular doimiy ta'lim, o'zlashtirish va mustahkamlash orqali shakllanadi.

O'qituvchilik kasbi boshqa kasblarga nisbatan bir qator jihatlari bilan ajralib turadi. U eng avvalo, insonlar bilan ishlash, ularni tarbiyalash va jamiyatga moslashtirish, ularga yo'l ko'rsatish kabi yuqori ijtimoiy mas'uliyatni o'zida mujassam etadi. Shu boisdan bu kasb vakillarida mustahkam axloqiy pozitsiya, kuchli ijtimoiy onglik, o'z kasbiga sadoqat, zamon bilan hamnafas bo'lish, tashabbus ko'rsatish va doimiy izlanish singari shaxsiy sifatlarni bo'lishi zarur. “Lifelong learning” konsepsiyasi o'qituvchida aynan shu fazilatlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu yondashuv orqali o'qituvchi o'zini takror-takror qayta tahlil qiladi, bilimlar bazasini yangilaydi, muammoli vaziyatlarda samarali yechimlar topishni o'rganadi va o'z o'quvchilariga ham shunday fazilatlarini singdiradi.

Bugungi kunda raqamli transformatsiya davrida o'qituvchining faqatgina o'z fani doirasida qolib ketishi yetarli emas. Endilikda u axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish, internetdagi ishonchli manbaalarni farqlay olish, ochiq ta'lim resurslaridan foydalanish,

zamonaviy vositalar bilan dars tashkil etish, masofaviy ta'lim imkoniyatlarini o'rganish kabi ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak. Bu esa "lifelong learning"ning amaliy qirralaridan biridir, chunki bu yondashuv nafaqat bilim olish, balki bilimni izlab topish, uni tahlil qilish va unga asoslangan holda qaror qabul qilishni ham o'z ichiga oladi. Aynan shunday ko'nikmalar pedagogning zamonaviy raqobatbardosh shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

Yana bir muhim jihat shuki, "lifelong learning" konsepsiyasi faqat o'z ustida ishlash emas, balki jamiyatdagi boshqa shaxslar bilan doimiy muloqotda bo'lish, tajriba almashish, hamkorlikda o'rganish, fikrlar xilma-xilligini qadrlash, ijtimoiy jihatdan faollik ko'rsatish kabi qadriyatlarni ham o'z ichiga oladi. Bo'lajak o'qituvchilar uchun bu ayniqsa muhim, chunki ular faqat dars beruvchi emas, balki ijtimoiy liderlar, fikr yetakchilari sifatida shakllanishlari zarur. Bunday o'qituvchi jamiyatda islohotlarga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, yoshlarning ongini, qarashlarini va qadriyatlarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Shuningdek, pedagogik faoliyatda refleksiya – ya'ni o'z faoliyatini tahlil qilish, undan xulosa chiqarish, o'zini baholay olish qobiliyati ham "lifelong learning" doirasida yetakchi o'rin tutadi. Talabalik davrida bu ko'nikma shakllanmasa, kelgusida ularni rivojlantirish nihoyatda qiyin bo'ladi. Shu sababli, oliy ta'limda o'quvchilarni o'z-o'zini tahlil qilishga, o'z faoliyati haqida fikr yuritishga o'rgatish, dars yakunida reflektiv savollar berish, shaxsiy portfoliolar yaratish amaliyotini yo'lga qo'yish lozim.

Bo'lajak o'qituvchilarning shaxsiy sifatlarini rivojlantirish zamonaviy ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Zero, ta'lim sifatining poydevori aynan o'qituvchidan boshlanadi. U nafaqat bilim egasi, balki tarbiyachi, ruhshunos, yetakchi, ilhomlantiruvchi shaxs bo'lishi kerak. Shu bois, pedagog bo'lishga tayyorlanayotgan yoshlar o'zlarida nafaqat kasbiy ko'nikmalarni, balki hayotiy zarur bo'lgan shaxsiy fazilatlarini ham rivojlantirishi zarur. Bu jarayonni izchil, tizimli va natijador yo'nalishda tashkil qilish esa "lifelong learning" – hayot davomida o'qish tamoyiliga asoslangan yondashuv orqali amalga oshadi.

"Lifelong learning" konsepsiyasi har bir shaxs, ayniqsa, o'qituvchi uchun doimiy intellektual rivojlanish, o'z ustida ishlash, yangi bilim va kompetensiyalarni egallash ehtiyojini kuchaytiradi. Bu konsepsiya orqali pedagog shaxsi doimiy yangilanib boradi, o'zgaruvchan ijtimoiy, texnologik va madaniy sharoitlarga moslasha oladi. O'z ustida ishlaydigan, yangi bilimlarga intiladigan o'qituvchi esa zamonaviy ta'lim talablariga javob bera oladi, o'quvchilariga nafaqat fanni, balki hayotga munosabatni, o'z ustida ishlash madaniyatini ham o'rgatadi. Bu o'rinda "o'qituvchi qanday bo'lsa, o'quvchi ham shunday bo'ladi" degan tamoyil o'z tasdig'ini topadi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, o'qituvchi shaxsida rivojlangan mas'uliyat, tashabbuskorlik, tanqidiy fikrlash, ijtimoiy faollik, o'zini boshqarish kabi sifatlar nafaqat ta'lim samaradorligini oshiradi, balki o'quvchilar ongida ham ijobiy motivatsiya uyg'otadi. Ushbu sifatlar esa, birinchi navbatda, o'qituvchining o'zi tomonidan ongli ravishda shakllantiriladi. Ular "lifelong learning" tamoyiliga asoslangan holda izchil tarzda rivojlantiriladi. Bu tamoyil o'qituvchiga shunchaki bilim emas, balki bilimni qayta ishlash, uni amaliyotga tadbiiq qilish, o'z fikrini asoslash, yangilikka ochiq bo'lish, professional mustaqillikka erishish imkonini beradi.

Shuningdek, "lifelong learning" bo'lajak o'qituvchilarning reflektivlik – o'z faoliyatini tahlil qilish, tanqidiy ko'z bilan baholash, xatolaridan saboq olish kabi muhim shaxsiy xususiyatlarini shakllantirishda beqiyos rol o'ynaydi. Bu esa ta'limda sifat va samaradorlikni ta'minlashda ustuvor ahamiyatga ega. Zero, pedagog o'zini yangilamasa, o'zgarishga tayyor bo'lmasa, u kelajak avlodga zamonaviy bilim bera olmaydi.

Bo'lajak o'qituvchilarning shaxsiy sifatlarini rivojlantirishda o'quv muhitining o'rni ham juda muhimdir. Ularning ichki motivatsiyasi, o'ziga bo'lgan ishonchi, tashabbus ko'rsatish darajasi ko'p hollarda ularga yaratilgan shart-sharoitlarga bog'liq. Pedagogik ta'lim jarayonida mustaqil fikrlashga undaydigan topshiriqlar, bahs-munozarali darslar, jamoaviy loyihalar, amaliy mashg'ulotlar orqali talabalar shaxsiy salohiyatini namoyon qilish imkoniga ega bo'ladi. Aynan shunday faoliyatlar doirasida ular "lifelong learning" tamoyilining mohiyatini chuqur his eta boshlaydi. Chunki bu jarayonlarda bilim olishdan ko'ra o'rganishni o'rganish, ya'ni meta-ta'lim ko'nikmalari shakllanadi. Shuningdek, pedagogik faoliyatga tayyorgarlik ko'ruvchi talabalarda

liderlik salohiyatini shakllantirish ham zamonaviy ta'limning muhim jihatlaridan biri hisoblanadi. Lider bo'lish, boshqalarni ilhomlantira olish, o'z fikrini aniq ifoda eta bilish, ijtimoiy mas'uliyatni o'z zimmasiga olish – bularning barchasi o'qituvchilik kasbida zarur bo'lgan shaxsiy sifatlar sanaladi. “Lifelong learning” tamoyiliga asoslangan metodlar esa bu fazilatlarni bosqichma-bosqich rivojlantirishga xizmat qiladi. Masalan, doimiy o'zini baholash (self-assessment), bahamjihat o'rganish (collaborative learning), muammoli vaziyatlarni hal qilish (problem-solving tasks) kabi faoliyat turlari orqali talaba o'zini yetakchi sifatida sinab ko'rish imkoniga ega bo'ladi. Umuman olganda, “lifelong learning” konsepsiyasining to'g'ri joriy etilishi bo'lajak o'qituvchilarning nafaqat shaxsiy fazilatlarini, balki kasbiy va fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlashga ham xizmat qiladi. Shu boisdan, har bir pedagogik ta'lim muassasasi bu yondashuvni o'zining ustuvor vazifasi sifatida qabul qilishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, bo'lajak o'qituvchilarning shaxsiy sifatlarini rivojlantirish va ularni “lifelong learning” konsepsiyasi asosida tayyorlash – bu nafaqat zamonaviy ta'lim talabi, balki milliy taraqqiyot kafolatidir. Bu yondashuv orqali biz har tomonlama yetuk, o'z kasbiga fidoyi, intellektual salohiyatga ega, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq pedagoglar avlodini voyaga yetkazamiz. Ana shundagina ta'lim tizimimizda haqiqiy sifat va barqarorlikka erishish mumkin bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Darling-Hammond, L., & Bransford, J. (2005). *Preparing teachers for a changing world: What teachers should learn and be able to do*. Journal of Teacher Education, 56(3), 201–212. <https://doi.org/10.1177/0022487105275936>
2. Field, J. (2006). *Lifelong learning and the new educational order*. International Journal of Lifelong Education, 25(2), 121–133. <https://doi.org/10.1080/02601370500510747>
3. Illeris, K. (2003). *Towards a contemporary and comprehensive theory of learning*. International Journal of Lifelong Education, 22(4), 396–406. <https://doi.org/10.1080/02601370304837>
4. Korthagen, F. A. J. (2004). *In search of the essence of a good teacher: Towards a more holistic approach in teacher education*. Teaching and Teacher Education, 20(1), 77–97. <https://doi.org/10.1016/j.tate.2003.10.002>
5. OECD. (2010). *Teachers as lifelong learners: A policy imperative*. OECD Education Working Papers, No. 62. <https://doi.org/10.1787/5kmbphh7s47h-en>
6. Livingston, K. (2012). *Approaches to professional learning: What works for teachers?* Education Research and Perspectives, 39(1), 70–94.
7. Borko, H. (2004). *Professional development and teacher learning: Mapping the terrain*. Educational Researcher, 33(8), 3–15. <https://doi.org/10.3102/0013189X033008003>
8. Eraut, M. (2000). *Non-formal learning and tacit knowledge in professional work*. British Journal of Educational Psychology, 70(1), 113–136. <https://doi.org/10.1348/000709900158001>
9. Day, C., & Sachs, J. (2004). *Professionalism, performativity and empowerment: Discourses in the politics, policies and purposes of continuing professional development*. International Handbook on the Continuing Professional Development of Teachers, 3–32.
10. Zeichner, K. (2010). *Rethinking the connections between campus courses and field experiences in college- and university-based teacher education*. Journal of Teacher Education, 61(1-2), 89–99. <https://doi.org/10.1177/0022487109347671>

*Hamdamova Sitora Rustam qizi,
Buxoro davlat pedagogika institute tayanch doktoranti*

“OILA PEDAGOGIKASI” FANINI O’QITISHDA AKSIOLOGIK YONDASHUVLAR MAZMUNI

Annotatsiya. Ushbu maqolada “Oila pedagogikasi” fanini o’qitishda aksiologik yondashuvlarning nazariy asoslari va amaliy qo’llanilishi, aksiologik yondashuvning maqsadi talabalarni oilaviy qadriyatlar tizimida shakllantirish, ularning ma’naviy-axloqiy kamolotini ta’minlash hamda jamiyatda mas’uliyatli, ijtimoiy faol shaxs sifatida tarbiyalash, aksiologik yondashuvning ta’lim jarayonidagi o’rni, uning pedagogik mazmuni va metodik vositalari batafsil tahlil qilingan. Aksiologik yondashuv orqali yoshlarning o’z oilasi va jamiyat qadriyatlariga mas’uliyat bilan yondashishi, ijtimoiy-madaniy muhitda ijobiy o’zgarishlarni yuzaga keltirishga intilishi ilmiy jihatdan asoslangan.

Kalit so’zlar: Oila pedagogikasi, aksiologik yondashuv, ma’naviy-axloqiy tarbiya, oilaviy qadriyatlar, pedagogik metodlar, ta’lim jarayoni, shaxsiy rivojlanish, pedagog-ota-ona hamkorligi

Аннотация. в данной статье подробно рассмотрены теоретические основы и практическое применение аксиологических подходов в преподавании предмета "семейная педагогика", цель аксиологического подхода-формирование учащихся в системе семейных ценностей, обеспечение их духовно-нравственного созревания и воспитание в обществе ответственных, социально активных личностей, роль аксиологического подхода в образовательном процессе, его педагогическое содержание и методические средства. Посредством аксиологического подхода научно обосновывается ответственный подход молодежи к ценностям своей семьи и общества, стремление к позитивным изменениям в социокультурной среде.

Ключевые слова: семейная педагогика, аксиологический подход, духовно-нравственное воспитание, семейные ценности, педагогические методы, образовательный процесс, личностное развитие, педагогико-родительское сотрудничество

Annotation. in this article, the theoretical basis and practical application of axiological approaches to the teaching of the subject “family pedagogy”, the purpose of the axiological approach is to formulate students in the system of family values, ensure their spiritual and moral maturity and educate them as a responsible, socially active person in society, the role of the axiological approach in the educational process, its pedagogical content Through an axiological approach, the responsible approach of young people to the values of their family and society, striving to bring about positive changes in the socio-cultural environment, is scientifically substantiated.

Keywords: family pedagogy, axiological approach, spiritual and moral education, family values, pedagogical methods, educational process, personal development, pedagogical-parental cooperation


Kirish. Zamonaviy jamiyatda shaxsning ma’naviy va ijtimoiy kamoloti, uning insoniylik sifatлари, axloqiy-axboriy qadriyatlari, farzand tarbiyasidagi muvaffaqiyati ko’p jihatdan oilaning pedagogik funksiyalariga bog’liq. Oila - inson hayotidagi eng dastlabki ijtimoiy muhit bo’lib, u nafaqat shaxsning jismoniy o’sishi va rivojlanishini, balki uning axloqiy va madaniy qadriyatlarini shakllantirishda asosiy vazifani bajaradi. Shu sababli, pedagogika sohasida oilaning o’rni va uning tarbiyaviy rolini chuqur tahlil qiladigan “Oila pedagogikasi” fanining ahamiyati tobora ortib bormoqda.

Ta’lim-tarbiya jarayonida faqat bilim berish va ko’nikma shakllantirish emas, balki shaxsning qadriyat tizimini rivojlantirish ham muhim sanaladi. Bugungi kunda global va milliy tahdidlar, madaniyatlararo muloqotning faollashuvi, ijtimoiy-axloqiy qadriyatlardagi beqarorliklar shaxsning barqaror ma’naviy platformasini yaratishda yangi pedagogik yondashuvlarni talab

qiladi. Aynan shu sharoitda aksiologik yondashuv - ta'lim va tarbiyadagi qadriyatlar asosidagi yondashuv - eng dolzarb pedagogik konsepsiyalardan biriga aylanmoqda.

Ta'lim jarayonida aksiologik yondashuvni tatbiq etishning qiyinchiliklari va ularni bartaraf etish yo'llari pedagogik jarayon sifatini oshirish uchun zamonaviy metodologik yondashuvlarning integratsiyasi zarurligi "Oila pedagogikasi" fanining ma'naviy-axloqiy komponentini mustahkamlash, yoshlarni oilaviy va ijtimoiy qadriyatlar asosida tarbiyalashda aksiologik yondashuvning samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy va amaliy tavsiyalarni tayyorlash muhim.

Aksiologiya fani qadriyatlar va ularning inson hayotidagi o'rni, ahamiyatini o'rganadi. Aksiologik yondashuv esa, pedagogik jarayonni faqat tashqi ta'lim metodlari va texnologiyalaridan iborat emas, balki unda shaxsning ichki dunyosi, uning axloqiy va ma'naviy qiyofasi, qadriyatlar tizimi ham markazga olinadi. Bu esa "Oila pedagogikasi" fanini o'qitishda nafaqat nazariy bilimlarni, balki shaxsiy va ijtimoiy jihatdan muhim axloqiy-ma'naviy kompetensiyalarni shakllantirishga imkon beradi. "Oila pedagogikasi" fanining asosiy vazifalaridan biri - yoshlarni oilaning ijtimoiy, madaniy va ma'naviy ahamiyatini chuqur anglashga, oila qadriyatlari orqali shaxsning ijtimoiylashuvi va madaniy rivojlanishiga tayyorlashdir. Bunda aksiologik yondashuv shaxsning ichki motivatsiyasini uyg'otish, uning oilaga bo'lgan hurmatini va sadoqatini mustahkamlash, shuningdek, oilaviy munosabatlar sifatini yaxshilashga qaratilgan. Aksiologik yondashuv "Oila pedagogikasi" fanining mazmunini yanada boyitadi, unga axloqiy va madaniy qadriyatlarni, milliy an'analar va zamonaviy ijtimoiy ehtiyojlarni uyg'unlashtirish imkonini beradi. Bu esa, o'z navbatida, talabalar o'rtasida mas'uliyatlilik, mehr-oqibat, o'zaro hurmat, birdamlik kabi umuminsoniy qadriyatlarni tarbiyalashga yordam beradi. "Oila pedagogikasi" fanini o'qitishda aksiologik yondashuvlar mazmuni va usullarini chuqur o'rganish, ularni ta'lim jarayonida samarali qo'llash bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Ushbu maqolada aksiologik yondashuvlarning nazariy va amaliy jihatlari, oilaviy qadriyatlar tizimini shakllantirishdagi roli va pedagogik jarayonga ta'siri batafsil tahlil qilinadi. Bundan tashqari, aksiologik yondashuv asosida o'qitishning samaradorligini oshirish yo'llari va metodologik tamoyillari ham ko'rib chiqiladi (1-rasmga qarang).



1-rasm. Aksiologik yondashuv asosida o'qitishning samaradorligini oshirish yo'llari

Fenomenologik metod orqali talabalarning oilaviy qadriyatlarga bo'lgan sub'ektiv munosabati, ularning ichki dunyosi va shaxsiy tajribalari chuqur o'rganiladi. Bu usul o'quvchilarning o'zaro muloqotda qanday qadriyatlarni qabul qilishi va ularga qanday ahamiyat berishini aniqlashga imkon yaratadi.

Germenevtik tahlil usuli pedagogik matnlar, o'quv materiallari va talabalar fikrlarini mazmunan chuqurroq tushunish va talqin etish uchun ishlatiladi. Bu metod aksiologik tamoyillarni anglash va ta'lim jarayonida ulardan samarali foydalanish uchun zarur.

Konstruksionistik yondashuv esa shaxslarning oilaviy qadriyatlarni ijtimoiy munosabatlar orqali shakllantirish jarayoniga e'tibor qaratadi. O'quv jarayonida talabalar qadriyatlarni o'zaro dialog va tajriba orqali quradilar, bu esa ularning faolligi va ishtirokini oshiradi.

Holatlarni o'rganish metodidan foydalanib, turli oilaviy vaziyatlar va pedagogik muammolar misolida aksiologik yondashuvning amaliy ahamiyati tahlil qilinadi. Bu talabalar uchun nazariy bilimlarni real hayotiy vaziyatlarga qo'llash imkonini yaratadi.

Multidistsipliner yondashuv orqali aksiologik yondashuv nafaqat pedagogika, balki psixologiya, sotsiologiya va madaniyatshunoslik fanlari nuqtai nazaridan ham o'rganiladi. Bu fanlararo integratsiya fan mazmunini boyitib, yanada to'liq va keng qamrovli qarashlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Narrativ metod talabalarga o'z oilaviy hayotiy voqealarini hikoya qilish orqali qadriyat tizimlarini anglashga yordam beradi. Bu metod orqali shaxslar o'z oilaviy tajribalarini qayta ko'rib chiqib, ulardan chuqur ma'no olish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Reflektiv metod talabalarining o'z fikrlari va his-tuyg'ulari yuzasidan mulohaza yuritishlari, o'rgangan aksiologik bilimlarni shaxsiy va ijtimoiy hayotga qanday tatbiq etishini baholashlari uchun ishlatiladi. Bu yondashuv shaxsiy o'sish va ma'naviy rivojlanishni rag'batlantiradi.

Pedagogik dialog esa o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi muloqot jarayonida aksiologik qadriyatlar asosida fikr almashish va pedagogik vazifalarni hal etishda muhim vosita hisoblanadi. Bu metod orqali talabalar o'z fikrlarini erkin ifoda etish, tinglash va birgalikda qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantiradilar. "Oila pedagogikasi" fanini o'qitishda aksiologik yondashuvlarni o'rganish va tatbiq etishda yuqorida ta'riflangan ilmiy metodlarning uyg'unligi va kompleks qo'llanilishi pedagogik jarayonning samaradorligini sezilarli darajada oshiradi hamda talabalarni o'z oilasi va jamiyati qadriyatlariga mas'uliyat bilan yondashishga tayyorlaydi.

"Oila pedagogikasi" fanini o'qitishda aksiologik yondashuvlarni qo'llash natijasida bir qancha muhim ilmiy va amaliy xulosalar yuzaga keldi. Aksiologik yondashuv ta'lim jarayonining faqat nazariy qismi emas, balki talabalar ma'naviy-axloqiy rivojlanishi, ularning oilaviy qadriyatlarni chuqur anglab, amaliy hayotga tadbiq etish ko'nikmalarini shakllantirishda samarali vosita ekanligi aniqlandi. Shu bilan birga, aksiologik yondashuv "Oila pedagogikasi" fanining mazmunini yanada boyitishga hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga kiritishga imkon yaratdi. Aksiologik yondashuv asosida ta'lim olgan talabalar oilaning ijtimoiy va madaniy ahamiyatini chuqurroq anglab yetishadi, oilaviy munosabatlarda mas'uliyat va hamjihatlik tamoyillarini amaliyotga kengroq tatbiq qilishga intilishadi. Bu holat fanning ijtimoiy vazifalarini bajarishda uning aksiologik tarkibining naqadar muhimligini ko'rsatdi. Aksiologik yondashuv orqali tashkil etilgan o'quv jarayoni talabalar o'rtasida hurmat, mehr-shafqat va sabr-toqat kabi umuminsoniy qadriyatlarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Natijada, ularning shaxs sifatidagi barqarorligi va ijtimoiy faolligi ortib, jamiyatda sog'lom oilaviy muhit barpo etilishiga hissa qo'shiladi.

Aksiologik yondashuvni o'quv jarayoniga joriy etish o'qituvchilarning professional tayyorgarligini oshirishga yordam beradi. Ular nafaqat bilim beruvchi, balki tarbiyalovchi sifatida faoliyat yuritib, talabalarining ma'naviy kamolotiga samarali ta'sir ko'rsatadi. Umuman olganda, aksiologik yondashuv "Oila pedagogikasi" fanini o'qitishda nazariy asos sifatida va amaliy pedagogik faoliyat vositasi sifatida samarali qo'llanilishi mumkinligi ilmiy jihatdan tasdiqlandi. Bu esa pedagogik jarayon sifatini oshirish va yoshlarning oilaviy qadriyatlar tizimida mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

"Oila pedagogikasi" fanini o'qitishda aksiologik yondashuvlarning ahamiyati va amaliy samaradorligi dolzarb muammo sifatida ko'rib chiqiladi. Tadqiqot jarayonida aniqlanishicha, aksiologik tamoyillarni ta'lim jarayoniga joriy etish talabalarining nafaqat nazariy bilimlarini oshirish, balki ularning ma'naviy-axloqiy rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Biroq, bu yondashuvning amaliy samarasini ta'minlashda turli omillar muhim rol o'ynaydi.

Birinchidan, aksiologik yondashuvni samarali o'qitish uchun pedagoglarning yuqori malakasi zarur. Ular nafaqat pedagogik bilimlarga ega bo'lishlari, balki o'zlari ham ma'naviy-axloqiy jihatdan yetuk bo'lishlari talab etiladi. Shu sababli pedagoglarni doimiy ravishda qayta tayyorlash va ularning professional rivojlanishiga e'tibor qaratish kerak.

Ikkinchidan, talabalarining oilaviy qadriyatlarni o'zlashtirishida oilaning o'zi muhim ta'sir ko'rsatadi. Aksiologik yondashuv faqat maktabda emas, balki oilada ham mustahkamlanishi uchun

ota-ona bilan yaqindan hamkorlik qilish lozim. Bu oila pedagogikasi fanining samaradorligini oshirishda muhim omildir.

Xulosa. Ushbu yondashuv orqali talabalar oilaviy qadriyatlarni chuqur anglab, ularni nafaqat nazariy jihatdan o'zlashtiradi, balki amaliy hayotda qo'llash ko'nikmalarini ham shakllantiradi. Shuningdek, aksiologik yondashuv talabalar shaxsining ma'naviy-axloqiy kamolotiga xizmat qilib, ularni jamiyatda mas'uliyatli va ijtimoiy faol shaxslar sifatida tarbiyalashga yordam beradi. Maqolada ta'kidlanganidek, aksiologik yondashuvni samarali amalga oshirish uchun pedagoglarning malakasi va shaxsiy kamoloti, zamonaviy metod va texnologiyalardan foydalanish, hamda oilalar bilan yaqin hamkorlik muhim omillardir. Bu omillar pedagogik jarayonning sifatini oshirish, yosh avlodning oilaviy qadriyatlar tizimida mustahkamlanishini ta'minlash imkonini yaratadi. Aksiologik yondashuv "Oila pedagogikasi" fanining nazariy va amaliy asosini yanada mustahkamlab, yoshlarni oilaviy qadriyatlar va jamiyatning ma'naviy muhitiga mas'uliyat bilan yondashishga tayyorlaydi. Shu tariqa, bu yondashuv nafaqat ta'lim sifatini yaxshilash, balki milliy ma'naviyatni rivojlantirish va mustahkamlashda ham muhim rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Bronfenbrenner, U. (1979). *The ecology of human development: Experiments by nature and design* (45-67). Harvard University Press.
2. Ganiyev, A. I. (2015). *Oila pedagogikasi nazariyasi va amaliyoti* (120-135). Toshkent
3. Ismoilova, M. S. (2020). Oilaviy qadriyatlar tizimida aksiologik yondashuvning roli. *Pedagogika va psixologiya jurnali*, 4(2), 56-63.
4. Nurmatov, D. R. (2018). Ma'naviy tarbiyada aksiologik tamoyillarning o'rni. *Ta'lim va tarbiya muammolari*, 3(1), 78-85.
5. Sattarova, Z. T. (2021). Pedagogik texnologiyalar va aksiologik yondashuv. *Xalq ta'limi jurnal*, 5(3), 102-110.

Saidova Shahrizoda Adham qizi,

Buxoro davlat universiteti Fizika-Matematika fakulteti Fizika kafedrası a'lim - tarbiya nazariyasi va metodikasi (Fizika) ixtisosligi bo'yicha II kurs tayanch doktoranti

**AKADEMIK LITSEYLARDA “ELEKTRODINAMIKA” BO'LIMINI
O'QITISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARGA ASOSLANGAN YANGI
YONDASHUVLAR**

Annotatsiya: Mazkur maqolada akademik litseylarda fizika fanining “Elektrodinamika” bo'limini o'qitishda raqamli texnologiyalarga asoslangan innovatsion yondashuvlarning - Flipped Classroom (aks sinf) metodi, simulyatsiyalar va virtual laboratoriyalar, shuningdek, gamifikatsiya (o'yinlashtirish) elementlarining integratsiyalashgan holda qo'llanishi o'rganiladi. Ushbu metodlarning o'zaro uyg'unlashtirib qo'llanishi o'quvchilarning mavzuni chuqurroq anglashlari, amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishlari va motivatsiyasini oshirishga xizmat qilishi tahlil qilinadi. Tadqiqotda har bir metodning yutuqlari (interaktivlik, o'quvchini faol jalb etish, o'zlashtirish darajasining oshishi) bilan birga, ularni integratsiyalash jarayonidagi muammolar (texnik ta'minotdagi cheklovlar, o'qituvchilarning malakasi, o'quvchilarning raqamli savodxonligi darajasi) ham ko'rib chiqiladi. Natijada, Elektrodinamika bo'limini o'qitishda mazkur yondashuvlarni kompleks tarzda qo'llash samaradorligi va uni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: Elektrodinamika o'qitish metodikasi, raqamli pedagogik texnologiyalar, ks sinf (Flipped Classroom), simulyatsiyalar, Virtual laboratoriyalar, Gamifikatsiya (o'yinlashtirish), integratsiyalashgan o'qitish yondashuvi, STEAM-ta'lim, interaktiv ta'lim vositalari, talaba faolligi va motivatsiyasi, vizual o'rganish usullari, eksperimentlarning xavfsiz muqobili, ta'lim samaradorligi

Аннотация. В данной статье исследуется интегрированное использование инновационных подходов, основанных на цифровых технологиях - метода Flipped Classroom (перевернутый класс), симуляций и виртуальных лабораторий, а также элементов геймификации в преподавании раздела физики "Электродинамика" в академических лицеях. Анализируется, как гармоничное применение этих методов способствует более глубокому пониманию учащимися темы, развитию практических навыков и повышению их мотивации. В исследовании рассматриваются как достоинства каждого метода (интерактивность, активное вовлечение учащегося, повышение уровня усвоения), так и проблемы, возникающие в процессе их интеграции (ограничения в техническом обеспечении, квалификация преподавателей, уровень цифровой грамотности учащихся). В результате разрабатываются рекомендации по эффективному комплексному применению этих подходов в преподавании раздела Электродинамика и его совершенствованию.

Ключевые слова: Методика обучения электродинамике, цифровые педагогические технологии, перевернутый класс (Flipped Classroom), симуляции, виртуальные лаборатории, геймификация, интегрированный подход к обучению, STEAM-образование, интерактивные средства обучения, активность и мотивация учащихся, методы визуального обучения, безопасная альтернатива экспериментам, эффективность обучения

Abstract: This article examines the integrated use of innovative approaches based on digital technologies in teaching the "Electrodynamics" section of physics in academic lyceums - the Flipped Classroom method, simulations and virtual laboratories, as well as gamification elements. The study analyzes how the harmonious application of these methods serves to deepen students' understanding of the topic, develop practical skills, and increase their motivation. The research explores the achievements of each method (interactivity, active student engagement, increased level of assimilation) alongside the challenges in their integration process (limitations in technical support, teacher qualifications, students' digital literacy levels). As a result, the effectiveness of

applying these approaches in an integrated manner when teaching the Electrodynamics section is evaluated, and recommendations for its improvement are developed.

Keywords: *Electrodynamics teaching methodology, digital pedagogical technologies, Flipped Classroom, simulations, Virtual laboratories, Gamification, integrated learning approach, STEAM education, interactive learning tools, student activity and motivation, visual learning methods, safe alternatives to experiments, educational effectiveness*

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimi fan va texnologiyalarning jadal rivojlanishi bilan birga izchil takomillashib bormoqda. Ayniqsa, fizika fanining murakkab va abstrakt bo'limlaridan biri bo'lgan elektrodinamikani o'qitishda raqamli texnologiyalarga asoslangan yangi pedagogik yondashuvlar o'quvchilar bilimni chuqurlashtirishda muhim omilga aylanyapti. An'anaviy metodlardan farqli ravishda, Flipped Classroom (Aks sinf) modeli, simulyatsiyalar va virtual laboratoriyalar, shuningdek, gamifikatsiya (o'yinlashtirish) kabi uslublar o'quvchilarni dars jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiradi. Ushbu metodlar orqali o'quvchilar nazariy bilimlarni mustaqil o'zlashtirib, amaliy mashg'ulotlarda esa muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantiradilar.

Mazkur metodlarni birgalikda qo'llashning asosiy yutuqi – dars jarayonini interaktiv, individuallashtirilgan va motivatsiyalovchi shaklga keltirishdir. Flipped Classroom modeli orqali o'quvchilar darsdan oldin mavzuni mustaqil o'rganib chiqadilar, bu esa dars vaqtida murakkab tushunchalarni chuqur muhokama qilish va laboratoriya ishlanmalari orqali mustahkamlash imkonini yaratadi. Simulyatsiyalar va virtual tajribalar, ayniqsa, elektrodinamika singari real hayotda tajriba o'tkazish qiyin bo'lgan mavzularda o'quvchilarga xavfsiz va vizual muhitda amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Gamifikatsiya esa o'quv jarayoniga musobaqalashuv va rag'batlantirish elementlarini olib kirib, o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini sezilarli darajada oshiradi.

Shu bilan birga, ushbu metodlarni uyg'unlashtirib qo'llashda ayrim kamchiliklar ham mavjud. Ular orasida texnik vositalar va internet infratuzilmasining yetarli emasligi, o'quvchilarning raqamli savodxonlik darajasi va o'qituvchilarning metodik tayyorgarlik darajasi kabi omillar muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, mazkur maqolada elektrodinamika bo'limini o'qitishda raqamli yondashuvlarning o'zaro uyg'unligi, ularning o'quv samaradorligiga ta'siri, shuningdek, ularni joriy etishdagi amaliy yutuqlar va cheklovlar tahlil qilinadi.

Zamonaviy ta'lim tizimida Flipped Classroom (aks sinf) metodi o'quv jarayonini samarali tashkil etishning innovatsion yondashuvi sifatida keng qo'llanilmoqda. Ushbu metodda asosiy nazariy materiallar o'quvchilarga mustaqil tarzda o'zlashtirish uchun oldindan taqdim etiladi, dars vaqtida esa amaliy mashg'ulotlar, muammoli vazifalar, muhokama va tajribaviy ishlar orqali bilimlar mustahkamlanadi. Bu yondashuv ayniqsa fizikadagi murakkab mavzular, xususan, "Elektrodinamika" bo'limi uchun nihoyatda dolzarbdir.

Flipped Classroom metodining asosiy afzalliklaridan biri – o'quvchilarning mustaqil ishlash qobiliyatini rivojlantirishidir. Talabalar darsga oldindan tayyorlanib kelishadi, nazariy bilimlarni o'zlashtirib, dars vaqtida esa chuqur tahlil talab qiluvchi masalalar ustida ishlashadi. Elektrodinamika kabi murakkab tushunchalarni (Faradey qonuni, elektromagnit induksiya, elektromagnit to'lqinlar) o'quvchilar mustaqil tarzda o'rganganlarida, ular ko'proq chuqur va kontseptual tushunishga ega bo'lishadi.

Shuningdek, bu metod interaktivlikni kuchaytiradi. Dars jarayonida o'quvchilar o'zaro fikr almashadilar, guruhlarda ishlaydilar va tajribaviy mashg'ulotlarda ishtirok etadilar. O'qituvchi esa an'anaviy bilim beruvchidan ko'ra murabbiy sifatida faoliyat yuritadi – bu esa murakkab tushunchalarni chuqurroq tahlil qilish va individual yondashuvlarni qo'llash imkonini beradi.

Moslashuvchan o'quv muhiti yaratish ham ushbu metodning muhim afzalligidir. O'quvchilar video darslar, animatsiyalar va virtual laboratoriyalar orqali abstrakt tushunchalarni ko'rgazmali ko'rinishda o'rganish imkoniga ega bo'lishadi. Bundan tashqari, ular o'zlariga qulay vaqtida materiallarni qayta ko'rib chiqishlari mumkin. Onlayn platformalar orqali testlar va mini-quizlar o'tkazish, o'zlashtirish darajasini real vaqt rejimida tahlil qilish imkonini beradi.

Biroq, Flipped Classroom metodining ayrim kamchiliklari ham mavjud. Avvalo, barcha o'quvchilar uchun teng texnik imkoniyatlar mavjud emas. Internetga yoki zarur qurilmalarga doimiy kirish imkoni bo'lmagan o'quvchilar bu metoddan to'liq foydalana olmaydilar. Shuningdek, uyda bajariladigan topshiriq va videodarslar ustidan nazoratni amalga oshirish murakkab. Bunday yondashuv passiv o'quvchilar uchun yetarli motivatsiya yaratmasligi mumkin.

O'qituvchidan katta tayyorgarlik talab etilishi ham muhim omil hisoblanadi. Sifatli videodarslar, elektron testlar va virtual laboratoriyalar yaratish ko'p vaqt, bilim va texnik resurslarni talab qiladi. Shu bilan birga, o'qituvchi raqamli pedagogika asoslarini puxta egallagan bo'lishi lozim. Yana bir muammo – aks sinfga bo'lgan qarshilikdir. An'anaviy o'qitish uslubiga o'rganib qolgan o'qituvchilar yoki o'quvchilar yangi tizimni qabul qilishda psixologik va amaliy to'siqlarga duch kelishlari mumkin.

Xulosa qilib aytganda, Flipped Classroom metodini "Elektrodinamika" kabi murakkab bo'limlarga tatbiq etish ta'lim samaradorligini oshiradi. Ayniqsa, interaktiv laboratoriyalar, vizual materiallar va masala yechimi bilan birgalikda olib borilsa, bu metod o'quvchilarning chuqur va ongli bilim egallashlariga xizmat qiladi. Biroq, bu metodni joriy qilishda mavjud infratuzilma, o'quvchilarning texnik imkoniyatlari va o'qituvchining tayyorgarlik darajasi e'tiborga olinishi lozim. Flipped Classroom – zamonaviy ta'limning qudratli vositasi, ammo uni muvaffaqiyatli amalga oshirish puxta rejalashtirish va tayyorgarlikni talab etadi.

Simulyatsiyalar va virtual laboratoriyalar metodi raqamli texnologiyalarning ta'lim jarayoniga chuqur integratsiyalashuvi fizika fanini, ayniqsa "Elektrodinamika" bo'limini o'qitishda samaradorlikni sezilarli darajada oshirishga xizmat qilmoqda. Shu jihatdan, simulyatsiyalar va virtual laboratoriyalar zamonaviy o'quv jarayonining muhim tarkibiy qismi sifatida ajralib turadi. Ular raqamli muhitda fizik hodisalarni modellashtirish va tahlil qilish imkonini beruvchi qulay vositalar bo'lib, ta'lim sifatini oshirishga, murakkab tushunchalarni o'zlashtirishni yengillashtirishga yordam beradi. Ushbu metodning o'ziga xos afzalliklari bilan bir qatorda ayrim cheklovlari ham mavjud.

Avvalo, simulyatsiyalar o'quvchilarga real tajribaga yaqin muhitda ishlash imkonini beradi. Ayniqsa, tok, kuchlanish, magnit maydon kabi elektrodinamikaga oid abstrakt tushunchalarni vizual ko'rinishda namoyon etish orqali tushunishni yengillashtiradi. Bunday vositalar yordamida o'quvchilar murakkab hodisalarni xavfsiz va nazorat qilinadigan sharoitda kuzatishi, ularni tahlil qilishi mumkin. Shu bilan birga, virtual laboratoriyalar maktab laboratoriyalarida mavjud bo'lmagan tajriba imkoniyatlarini kengaytiradi. Har xil parametrlar bilan tajriba o'tkazish, natijalarni grafik shaklida tahlil qilish orqali o'quvchilar o'z mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Simulyatsiyalar shuningdek, individual va mustaqil ta'limga ham yordam beradi. O'quvchilar o'z bilimlarini o'z tezligida mustahkamlashlari, xatolarni tahlil qilish asosida dars materialini chuqurroq o'zlashtirishlari mumkin. Interaktiv vizual vositalarning qo'llanilishi esa o'quvchilarda fanga nisbatan qiziqishni oshiradi, ularni dars jarayoniga faol jalb etadi, bu esa umumiy motivatsiyani kuchaytiradi.

Biroq bu metodning ayrim kamchiliklari ham mavjud. Virtual muhitda ishlash orqali nazariy bilimlar chuqurlashgan bo'lsa-da, haqiqiy laboratoriya vositalaridan foydalanish ko'nikmalari yetarlicha shakllanmasligi mumkin. Bu ayniqsa oliy ta'lim yoki amaliy sohalarida ishlash uchun zarur bo'lgan real tajriba ko'nikmalari nuqtai nazaridan muhimdir. Yana bir muhim cheklov - texnik vositalarga bo'lgan ehtiyojdir. Simulyatsiyalarni samarali qo'llash uchun zamonaviy kompyuterlar, planshetlar yoki interaktiv doskalar talab etiladi. Afsuski, barcha ta'lim muassasalari bunday texnologiyalar bilan to'liq ta'minlangan emas.

Shuningdek, ba'zi simulyatsion dasturlar xorijiy tillarda bo'lib, bu o'quvchilar uchun tushunishda muayyan qiyinchiliklar tug'diradi. Bundan tashqari, har bir dastur ham metodik jihatdan mukammal emas - ularning ayrimlari fizika fani mazmunini yetarli darajada aks ettira olmaydi. Eng asosiysi, bu metoddan samarali foydalanish o'qituvchidan yuqori texnologik va pedagogik tayyorgarlikni talab etadi. Aks holda, simulyatsiyalar yuzaki ishlatilishi va dars samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, simulyatsiyalar va virtual laboratoriyalar fizika fanini, xususan elektrodinamikani o'qitishda zamonaviy va samarali metodlardan biri hisoblanadi. To'g'ri yondashuv va puxta tayyorgarlik bilan ularni ta'lim jarayoniga tatbiq etish orqali o'quvchilarning nazariy bilimlari chuqurlashib, amaliy ko'nikmalari mustahkamlanadi. Shu bilan birga, mavjud cheklovlarni e'tiborga olib, ularni bartaraf etish bo'yicha tizimli ishlar olib borilishi lozim.

Gamifikatsiya metodining yutuqlari va kamchiliklari tahlili sifati raqamli texnologiyalar jadal rivojlanayotgan davrda ta'lim jarayonini interaktiv va samarali tashkil etish dolzarb masalaga aylanmoqda. Shu nuqtai nazardan qaralganda, gamifikatsiya (o'yinlashtirish) metodining ahamiyati alohida ta'kidlanishga loyiqdir. Ayniqsa, fizikaning murakkab bo'limlaridan biri bo'lgan "Elektrodinamika" mavzularini o'zlashtirishda bu metod o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshirib, ularni faol ishtirok etishga undaydi.

Gamifikatsiya metodi bir qator ijobiy jihatlari bilan ajralib turadi. Avvalo, bu yondashuv o'quvchilarda motivatsiyani oshiradi. O'yin elementlari - ballar, reytinglar, mukofotlar - o'quvchilar orasida sog'lom raqobat muhitini yaratib, ularning o'rganishga bo'lgan ichki ehtiyojlarini kuchaytiradi. Shu bilan birga, o'yin asosidagi topshiriqlar o'quvchilarda kreativ va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladi. Masalan, elektrodinamika bo'yicha yechiladigan masalalarni o'yinga asoslangan shaklda taqdim etish o'quvchilarni mustaqil fikrlashga undaydi. Bundan tashqari, gamifikatsiya murakkab ilmiy tushunchalarni soddalashtirishda ham samaralidir. Elektromagnit hodisalar, tok kuchi, potentsiallar kabi abstrakt tushunchalarni o'yinli modellar orqali aks ettirish o'quvchilarning bu mavzularni osonroq tushunishiga yordam beradi. Shuningdek, bu metod dars jarayonida barcha o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlab, passiv auditoriya muammosini kamaytiradi. O'yin jarayonida avtomatik testlar va natijalarni tezkor tahlil qilish imkoniyati esa o'quvchilarning bilim darajasini tez va samarali baholash imkonini yaratadi.

Biroq, gamifikatsiya metodining ayrim kamchiliklari ham mavjud. Eng avvalo, o'yin elementlariga haddan tashqari urg'u berilishi o'quvchilarning nazariy bilimlarni chuqur o'zlashtirishini cheklashi mumkin. O'yin mazmunning o'zini emas, shaklini ustun qo'yishi orqali diqqatni chalg'itishi ehtimoli mavjud. Shuningdek, bu metod barcha o'quvchilarga bir xil ta'sir ko'rsatmasligi mumkin. Ba'zi o'quvchilar o'yinlashtirilgan darslarni jiddiy qabul qilmasligi yoki ulardan motivatsiya olmasligi ehtimoldan holi emas. Gamifikatsiyaning yana bir muhim kamchiligi – bu texnik resurslarga bog'liqlikdir. Kompyuterlar, planshetlar yoki internet tarmog'i mavjud bo'lmagan joylarda bu metodni to'laqonli amalga oshirish qiyinlashadi. Shu bilan birga, o'qituvchining gamifikatsiya metodiga bo'lgan tayyorgarlik darajasi ham muhim rol o'ynaydi. Agar o'qituvchi bu metodni noto'g'ri tanlasa yoki uni moslashtira olmasa, pedagogik samaradorlikka salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Nihoyat, o'yinli darslarni ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy etish o'qituvchidan ko'proq vaqt va kuch talab etadi.

Xulosa qilib aytganda, gamifikatsiya metodi zamonaviy ta'limda o'quvchilarni rag'batlantirish va ularning bilim olish jarayonini qiziqarli va samarali tashkil etishda muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, uning imkoniyatlaridan to'g'ri va muvozanatli foydalanish, kamchiliklarini inobatga olish zarurdir.

Muhokama va natijalar. Tadqiqot davomida elektrodinamika bo'limini o'qitishda zamonaviy raqamli yondashuvlar – Flipped Classroom (aks sinf), simulyatsiyalar va virtual laboratoriyalar, hamda gamifikatsiya (o'yinlashtirish) metodlari integratsiya qilinib, amaliyotda sinovdan o'tkazildi. Ushbu yondashuvlar birgalikda qo'llanilganda o'quvchilarning fizika faniga bo'lgan qiziqishi ortgani, mavzularni chuqurroq tushunishi va dars jarayonida faollik darajasining sezilarli oshgani kuzatildi.

Flipped Classroom metodida nazariy materiallar o'quvchilarga mustaqil tarzda, ya'ni video darslar, podkastlar yoki slaydlar orqali uyda o'rganish uchun taqdim etiladi. Dars vaqtida esa muhokama, savol-javob va amaliy mashg'ulotlarga e'tibor qaratiladi. Bu usul o'quvchilarning mustaqil fikrlash, tanqidiy yondashuv va muammo yechish ko'nikmalarini rivojlantirgan bo'lsa-da, barcha o'quvchilar uy vazifalarini doimiy va sifatli bajarishga tayyor emasligi, hamda ayrim hududlarda internet resurslarining cheklanganligi metodning samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatgan.

Simulyatsiyalar va virtual laboratoriyalar esa murakkab fizik tushunchalarni – masalan, elektr maydoni, tok kuchi, elektromagnit to'liqlar kabi jarayonlarni interaktiv va vizual tarzda tushuntirish imkonini berdi. Real laboratoriya sharoitlarining yetarli emasligi, asbob-uskunalarining cheklanganligi virtual vositalar orqali qoplandi. Shu bilan birga, ayrim hollarda simulyatsiya ilovalari ishlamasligi yoki texnik qurilmalarning nosozligi kabi muammolar dars jarayoniga to'sqinlik qilgan.

Gamifikatsiya – o'quv jarayoniga o'yin elementlarini kiritish orqali sog'lom raqobat muhiti yaratish va motivatsiyani oshirishda samarali bo'ldi. Ball to'plash, reytinglar, bosqichli topshiriqlar orqali o'quvchilar darslarga faol jalb etildi. Biroq o'yinlashtirish elementlarining haddan ortiq bo'lishi ayrim hollarda ilmiy maqsadlarning ikkinchi darajaga tushib qolishiga olib kelgan holatlar ham kuzatildi.

Yuqoridagi raqamli yondashuvlarning uyg'unlashtirilgan tarzda qo'llanilishi, ayniqsa, nazariy jihatdan murakkab va tasavvur talab qiluvchi elektrodinamika bo'limining o'zlashtirilishini sezilarli darajada osonlashtirdi. O'quvchilar ushbu yangi metodlarni ijobiy qabul qilgan bo'lib, interaktivlik, mustaqil ishlash va amaliy faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv ularning umumiy o'zlashtirishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Xulosa qilib aytganda, elektrodinamika bo'limini o'qitishda raqamli texnologiyalarga asoslangan kombinatsiyalangan yondashuvlar an'anaviy usullarga nisbatan ko'proq samaradorlik, faollik va interaktivlikni ta'minlashi mumkin. Biroq bu yondashuvlarning muvaffaqiyati o'qituvchining tayyorgarlik darajasi, texnik infratuzilmaning yetarliligi va o'quvchilarning raqamli savodxonligiga bevosita bog'liq. Shu sababli, bu metodlarni joriy etishda ularni to'g'ri muvofiqlashtirish, texnik va metodik tayyorgarlikni kuchaytirish, hamda har bir o'quvchining individual ehtiyojlariga moslashtirish zarur hisoblanadi.

Xulosa. Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib aytish mumkinki, elektrodinamika kabi murakkab va abstrakt bo'limlarni o'qitishda raqamli pedagogik texnologiyalarni uyg'unlashtirib qo'llash o'quvchilarning chuqur tushunish, amaliy ko'nikmalarni shakllantirish va dars jarayoniga faol jalb etish imkoniyatlarini kengaytiradi. Flipped Classroom modeli o'quvchilarni mustaqil fikrlashga va darsga tayyorgarlik bilan kelishga undaydi. Simulyatsiyalar va virtual laboratoriyalar esa abstrakt tushunchalarni ko'rgazmali va xavfsiz tarzda o'rganish imkonini beradi. Gamifikatsiya metodining joriy etilishi esa o'quvchilarda fanga nisbatan motivatsiyani oshirib, sog'lom raqobat va faol ishtirok muhiti yaratadi.

Biroq, bu metodlarning samarali tatbiqi uchun muayyan sharoitlar va tayyorgarlik talab etiladi. Raqamli infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi, o'quvchilar va o'qituvchilarning texnologik savodxonligi, hamda metodik materiallarning sifati kabi omillar hal qiluvchi rol o'ynaydi. Shu sababli, ushbu metodlarni yanada samarali joriy qilish uchun quyidagi takliflarni ilgari suramiz:

Texnik infratuzilmani mustahkamlash: Ta'lim muassasalarida yuqori tezlikdagi internet, zamonaviy kompyuterlar, interaktiv doskalar va planshetlar bilan ta'minlash ustuvor vazifalardan biri bo'lishi lozim.

O'qituvchilar malakasini oshirish: Raqamli pedagogika, simulyatsion dasturlar va gamifikatsiya metodikasi bo'yicha muntazam malaka oshirish kurslarini tashkil etish zarur.

Mahalliy o'quv materiallarini ishlab chiqish: O'zbek tilida, mahalliy o'quvchilarning psixologik va mintaqaviy xususiyatlariga moslashtirilgan video darslar, simulyatsiyalar va o'yin elementlari asosida interaktiv kontentlar yaratish lozim.

Monitoring va baholash tizimini takomillashtirish: Onlayn testlar, mini-quizlar va analitik platformalar orqali o'quvchilarning bilim darajasini real vaqt rejimida kuzatib borish va tahlil qilish mexanizmlari joriy qilinishi kerak.

Ota-onalarni jalb qilish: Flipped Classroom va uyda bajariladigan topshiriqlar samaradorligini oshirish uchun ota-onalarni ham o'quv jarayoniga jalb qilish muhimdir.

Umuman olganda, zamonaviy raqamli yondashuvlar – Flipped Classroom, simulyatsiyalar, virtual laboratoriyalar va gamifikatsiya – fizika, ayniqsa elektrodinamika bo'limini o'qitishda ta'lim sifatini oshirishda muhim vositalar bo'lib xizmat qiladi. Ularni ilmiy-metodik asosda,

infratuzilmaviy tayyorgarlik bilan qo'llash natijasida o'quvchilarning bilim darajasi, amaliy ko'nikmalari va fanga bo'lgan ijobiy munosabati sezilarli darajada oshadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bergmann, J., & Sams, A. (2012). Flip Your Classroom: Reach Every Student in Every Class Every Day. International Society for Technology in Education.
2. Akimova O.B., Shcherbin M.D. Digital transformation of education: timeliness of students' learning and cognitive independence // Innovative projects and programs in education. 2018. No. 1. P. 27-34.
3. Lage, M. J., Platt, G. J., & Treglia, M. (2000). Inverting the classroom: A gateway to creating an inclusive learning environment. The Journal of Economic Education, 31(1), 30–43.
4. Chen, Y., Wang, Y., Kinshuk, & Chen, N.-S. (2014). Is FLIP enough? Or should we use the FLIPPED model instead? Computers & Education, 79, 16–27.
5. De Jong, T., Linn, M. C., & Zacharia, Z. C. (2013). Physical and virtual laboratories in science and engineering education. Science, 340(6130), 305–308.
6. Rutten, N., van Joolingen, W. R., & van der Veen, J. T. (2012). The learning effects of computer simulations in science education. Computers & Education, 58(1), 136–153.
7. Abdulwahed, M., & Nagy, Z. K. (2009). Applying Kolb's experiential learning cycle for laboratory education. Journal of Engineering Education, 98(3), 283–294.
8. Hamari, J., Koivisto, J., & Sarsa, H. (2014). Does gamification work? - A literature review of empirical studies on gamification. 2014 47th Hawaii International Conference on System Sciences, 3025–3034.
9. Karakozov S.D., Uvarov A.Yu. Successful informatization -transformation of the educational process in the digital educational environment // Problems of Modern Education. 2016. No. 2. P. 7-19.
10. Deterding, S., Dixon, D., Khaled, R., & Nacke, L. (2011). From game design elements to gamefulness: Defining "gamification". Proceedings of the 15th International Academic MindTrek Conference: Envisioning Future Media Environments, 9–15.
11. OECD (2021). 21st-Century Readers: Developing Literacy Skills in a Digital World. OECD Publishing.
12. Kozlova N.Sh. Modern Technologies in Network Security // Digital Economy: A New Reality: collection of articles on the results of the International scientific and practical videoconference dedicated to the 25th anniversary of the university. Maikop, 2018. P. 93-97.
13. Лаптев, В. В., и др. (2020). Использование виртуальных лабораторий при обучении физике. Физика в школе, 5, 54–57.
14. Солoduхина, Г. Н. (2019). Перевернутое обучение в старших классах: опыт реализации в преподавании физики. Современные проблемы науки и образования, 3, 44–47.
15. Мухтарова, Г. Б. (2023). Zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida fizika fanini o'qitishda samarali metodlar. Ta'lim innovatsiyalari, 1(2), 18–23.
16. Usmonov, F. A., & Normatov, J. R. (2022). Fizika darslarida gamifikatsiyalash elementlarini qo'llash. Pedagogik innovatsiyalar jurnali, 4(3), 101–105.
17. Яковлева Е.Л., Селиверстова Н.С., Григорьева О.В. Концепция электронного кочевника: риски развития цифровой экономики // Актуальные проблемы экономики и права. 2017. Т. 11. № 4 (44). С. 22
18. Mirzayev, I. T. (2021). Elektrodinamika bobini o'qitishda AKT vositalaridan foydalanish samaradorligi. Fizika va texnologiya ta'limi, 5(1), 55–60.
19. UNESCO. (2020). Education in a post-COVID world: Nine ideas for public action. Paris: UNESCO Publishing.
20. Стефанова Н.А., Рахманова Т.Э. Оценка эффективности цифровой экономики // Карельский научный журнал. 2017. Т. 6. № 4 (21). С. 301-304.

*Турсунов Кахрамон Содикович,
Доцент Бухарского государственного медицинского института*

ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ ЭКОНОМИКИ ЗНАНИЙ В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ

Аннотация. В статье рассматриваются теоретико-методологические аспекты формирования экономики знаний в условиях цифровизации и глобализации. Автор анализирует ключевые характеристики экономики знаний, такие как приоритет нематериальных активов, высокая роль человеческого капитала, инновационная активность и значимость информационных технологий. Особое внимание уделяется институциональным и инфраструктурным условиям, способствующим становлению экономики знаний, а также барьерам, препятствующим ее развитию в развивающихся странах. Приводятся примеры успешных практик внедрения экономики знаний и подчеркивается важность государственной поддержки, инвестиций в образование и научные исследования.

Ключевые слова: экономика знаний, человеческий капитал, цифровизация, инновации, информационные технологии, глобализация, нематериальные активы, образование, научные исследования, государственная политика.

Abstract. This article explores the key features and conditions shaping the development of the knowledge economy in the context of globalization and digital transformation. It analyzes the theoretical foundations and structural components of the knowledge economy, emphasizing the growing role of intangible assets, human capital, innovation, and information technologies. Particular attention is given to institutional and infrastructural factors that facilitate or hinder the formation of a knowledge-based economy, especially in developing and transition economies. The study identifies current global trends, challenges, and successful practices, and highlights the importance of strategic state support, investments in education and R&D, and the integration of science and business for sustainable economic growth.

Keywords: knowledge economy, human capital, innovation, digitalization, intangible assets, education, research and development, information technologies, economic growth, state policy.

Введение. Современный этап развития мировой экономики характеризуется переходом от индустриальной модели к экономике, основанной на знаниях, где ключевым фактором конкурентоспособности становится способность генерировать, распространять и эффективно использовать знания и инновации. Экономика знаний охватывает все сферы общественной жизни, включая образование, науку, технологии, предпринимательство и государственное управление.

Глобальные процессы цифровизации, ускоренное развитие информационно-коммуникационных технологий, а также рост роли человеческого капитала существенно трансформируют экономические отношения и механизмы функционирования национальных и мировых хозяйственных систем. В таких условиях знание становится не только ресурсом, но и стратегическим активом, определяющим темпы экономического роста и устойчивость развития.

Однако формирование экономики знаний сопряжено с рядом вызовов: необходимостью модернизации образовательной и научной инфраструктуры, устранением цифрового неравенства, адаптацией институциональной среды и совершенствованием механизмов государственной поддержки инноваций. Особенно остро эти проблемы проявляются в странах с переходной экономикой, где традиционные модели хозяйствования зачастую препятствуют эффективной интеграции в новую экономическую реальность.

Целью настоящей статьи является выявление особенностей формирования экономики знаний в современных условиях, анализ ключевых факторов, способствующих её развитию, и рассмотрение барьеров, сдерживающих этот процесс.

Обзор литературы. Вопросы формирования и развития экономики знаний на протяжении последних десятилетий становятся предметом активного научного интереса как зарубежных, так и отечественных исследователей. Концепция экономики знаний получила широкое распространение благодаря работам таких ученых, как Ф. Махлуп, который одним из первых ввёл термин «экономика знаний» и выделил её структурные компоненты, и П. Друкер, подчеркнувший значимость знаний как стратегического ресурса в постиндустриальном обществе.

Мануэль Кастельс в своей теории информационного общества акцентирует внимание на трансформации производственных отношений под воздействием информационно-коммуникационных технологий (ИКТ), которые становятся ключевыми драйверами развития экономики знаний. В свою очередь, Л. Эдвинссон и М. Малоне рассматривают роль интеллектуального капитала и нематериальных активов как основы устойчивого конкурентного преимущества в новых экономических условиях.

Среди отечественных исследователей значительный вклад в изучение экономики знаний внесли А. И. Рудской, В. Л. Иноземцев, Н. Я. Яковец и др. Они подчеркивают, что для успешного становления экономики знаний в России необходимы институциональные преобразования, инвестиции в образование и НИОКР, а также формирование инновационной культуры и поддержка предпринимательства.

Современные исследования также акцентируют внимание на проблемах цифрового неравенства, нехватки квалифицированных кадров, фрагментарности инновационной инфраструктуры, что особенно актуально для стран с переходной экономикой. Так, в работах Г. Г. Малинецкого и С. Ю. Глазьева отмечается необходимость долгосрочной стратегии технологического развития и государственной координации процессов цифровизации и внедрения инноваций.

Несмотря на наличие обширной теоретической базы, остается ряд нерешённых вопросов, касающихся региональной специфики формирования экономики знаний, оценки её эффективности и выработки универсальных индикаторов. Таким образом, существует потребность в комплексном анализе современных условий и факторов, влияющих на развитие экономики знаний в различных социально-экономических контекстах.

Метод и методология исследования. Методологическую основу настоящего исследования составляют системный и комплексный подходы, позволяющие рассматривать экономику знаний как многокомпонентную и динамичную систему, взаимодействующую с различными институциональными, технологическими и социальными элементами. Такой подход обеспечивает целостное восприятие процессов формирования и развития экономики знаний в условиях цифровизации, глобализации и трансформации традиционных экономических моделей.

В процессе исследования были использованы следующие методы:

- Анализ и синтез - для выявления ключевых теоретических положений, связанных с сущностью и структурой экономики знаний, а также для обобщения данных, представленных в научной литературе и аналитических источниках;
- Сравнительно-исторический метод - для изучения эволюции представлений об экономике знаний и анализа трансформаций, происходящих в мировой экономике на различных этапах её развития;
- Контент-анализ - при изучении программных документов, стратегий цифрового развития, национальных доктрин, а также отчетов международных организаций (ОЭСР, Всемирного банка, ЮНЕСКО), касающихся развития экономики знаний;
- Экономико-статистический анализ - для количественной оценки уровня развития экономики знаний в различных странах и регионах на основе показателей инвестиций в НИОКР, уровня цифровизации, охвата образованием и других индикаторов;
- SWOT-анализ - для выявления сильных и слабых сторон, а также возможностей и угроз, связанных с формированием экономики знаний в условиях российской и глобальной экономики.

Использование совокупности методов позволило обеспечить достоверность и обоснованность выводов, сделать качественный анализ факторов, влияющих на формирование экономики знаний, а также сформулировать практические рекомендации по совершенствованию механизмов её развития.

Результаты исследования и обсуждение. Проведённое исследование позволило выявить ряд ключевых особенностей формирования экономики знаний в современных условиях:

1. Рост значимости нематериальных активов. В условиях цифровой трансформации происходит смещение акцента с материального производства на генерацию, обработку и применение знаний. Основными активами становятся интеллектуальный капитал, инновации, патенты, программное обеспечение, бренды и деловая репутация. ВВП стран с развитой экономикой знаний всё больше формируется за счёт секторов, основанных на знаниях.

2. Цифровизация как инфраструктурная основа. Цифровые технологии являются не только средством обмена информацией, но и платформой для инновационного развития. Исследование показало, что страны с высоким уровнем цифровизации (например, Южная Корея, Финляндия, Швеция) демонстрируют устойчивый рост в области образования, науки и предпринимательства, базирующегося на знаниях.

3. Человеческий капитал как стратегический ресурс. Одним из ключевых факторов является наличие высококвалифицированной рабочей силы. Страны, инвестирующие в качественное образование и непрерывное обучение, получают значительное преимущество в глобальной экономике. В то же время в ряде развивающихся стран сохраняется разрыв между потребностями экономики и уровнем подготовки кадров.

4. Институциональные барьеры. В странах с переходной экономикой наблюдаются структурные проблемы, мешающие развитию экономики знаний: недостаточная поддержка науки и НИОКР, слабое взаимодействие между университетами и бизнесом, фрагментарная инновационная инфраструктура. Особенно остро стоит проблема «утечки мозгов» и недостатка стимулирующих механизмов для коммерциализации знаний.

5. Роль государства и международного сотрудничества. Эффективное развитие экономики знаний возможно только при активном участии государства в формировании стратегий, поддержке научно-образовательных институтов, стимулировании частных инвестиций в инновации. Международные программы и трансграничное сотрудничество способствуют обмену знаниями и повышению конкурентоспособности стран.

Также в рамках исследования был проведён сравнительный анализ показателей экономики знаний в различных странах по данным Всемирного банка и ИКТ-индикаторам. Результаты показали, что высокий уровень образования, доступ к интернету, инвестиции в НИОКР и развитые институты управления положительно коррелируют с уровнем экономического развития и инновационной активности.

Xulosa. Ushbu maqolada o'zbek tilidagi tasviriy ifodalarda uchraydigan hayvon obrazlarining lingvokulturologik talqini batafsil o'rganildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, hayvon obrazlari nafaqat frazeologik birliklar tarkibida keng tarqalgan, balki ular xalq tafakkuri, milliy mentalitet va madaniy qadriyatlarni aks ettirishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Hayvonlarga oid frazeologizmlar inson fazilatlarini va ijtimoiy hodisalarni metaforik shaklda ifodalash orqali tilning semantik boyligini oshiradi. Maqolada keltirilgan lingvokulturologik yondashuv asosida hayvon obrazlarining milliy madaniyatdagi o'rnini, ularning semantik va pragmatik funksiyalari aniqlanib, boshqa tillardagi muqobillari bilan taqqoslandi. Natijalarga ko'ra, o'zbek tilidagi hayvon tasvirlari milliy o'ziga xoslikni saqlagan holda, universal madaniy va semantik qadriyatlarni ham o'z ichiga oladi. Bu esa ularning tarjima va interlingvistik aloqalarda muhimligini ko'rsatadi. Shuningdek, hayvon obrazlarining frazeologik birliklarda keng qo'llanilishi tilshunoslik va madaniyatshunoslik sohalarida yanada chuqurroq tadqiqotlarni talab qilishi ta'kidlandi. Tadqiqot natijalari o'zbek tilining lingvokulturologik boyligini yanada yoritish, milliy madaniyatni saqlash va yosh avlodni ona tilining boy ma'naviy merosi bilan tanishtirishda amaliy ahamiyatga ega.

Kelajakda ushbu sohada chuqurroq tahlillar olib borish, yangi metodologik yondashuvlarni joriy qilish va frazeologik materiallarni kengaytirish o'zbek tilshunosligi va lingvokulturologiyasining rivojiga xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Hojiyev F. (2009). O'zbek frazeologiyasida hayvon obrazlari. Toshkent.
2. Ochilov M. (2015). Tarjima va madaniyat: muammolar va yechimlar. Toshkent.
3. Toychiyev D. (2018). Xalq og'zaki ijodida tasviriy ifodalar. Toshkent.
4. Potebnya V. (1979). Yazyk i mysl'. Moskva.
5. Bubnova L. (2003). Metafora i frazeologiya. Sankt-Peterburg.
6. Vasina E. (2010). Lingvokulturologiya i narodnoe tvorchestvo. Moskva.
7. Lakoff G., Turner M. (1989). More Than Cool Reason: A Field Guide to Poetic Metaphor. Chicago.
8. Yong G., Smith R. (2007). Animal Imagery and Cultural Stereotypes. London.

Omonova Mohigul Ravshanbek qizi
Andijon davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

INGLIZ TILI O'QITISHDA LUG'ATNI O'RGATISH: TEORIYALAR, METODLAR VA XALQARO TAJRIBALAR

Annotatsiya. Ushbu maqola ingliz tilini o'qitishda lug'at o'rgatishning nazariy asoslari, samarali metodlari va xalqaro tajribalari haqida qisqacha tahlil beradi. Kontekstual va interaktiv yondashuvlar, A1-C2 darajalarda qo'llaniladigan usullar orqali til o'rganish samaradorligi ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar: Lug'at o'rgatish, metodik yondashuv, ingliz tili, kontekstual, interaktiv, darajalar, xalqaro tajriba, o'qitish

Аннотация. В статье представлен краткий анализ теоретических основ преподавания лексики в английском языке, эффективных методик и международного опыта. Показана эффективность контекстуальных и интерактивных подходов на уровнях А1–С2.

Ключевые слова: Обучение лексике, методика, английский язык, контекстуальный, интерактивный, уровни, международный опыт, преподавание

Annotation: This article presents a brief analysis of vocabulary teaching in English, covering theoretical foundations, effective methods, and international practices. It highlights the effectiveness of contextual and interactive approaches across A1–C2 levels.

Keywords: Vocabulary teaching, methodology, English language, contextual, interactive, levels, international experience, instruction

Kirish. Ingliz tilini o'rgatish jarayonida lug'atni o'rganishning ahamiyati juda katta. Lug'atlar til o'rgatishning asosiy vositalaridan biri bo'lib, ular nafaqat til o'rganuvchilarning so'z boyligini kengaytirishda, balki ularning nutq faoliyatini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Til o'rganishning samaradorligi, asosan, lug'at bilan ishlashning to'g'ri metodik yondashuvlariga bog'liqdir. Ilmiy tadqiqotlar va pedagogik tajribalar shuni ko'rsatadiki, lug'atni o'rgatishda kontekstual, qatlamli va interaktiv yondashuvlarning qo'llanilishi til o'rganuvchilar o'rganayotgan tilini boyitish va nutq malakalarini rivojlantirishda sezilarli natijalarga olib keladi (Brown, 2007; Gattegno, 2003). Shuningdek, lug'atni o'rgatish jarayonida til o'rganuvchilarning bilim darajasiga qarab metodik tamoyillarni moslash, ularga eng samarali yondashuvlarni tanlash o'qitishning muvaffaqiyatini oshiradi.

Lug'atlarni o'rgatish bo'yicha metodik yondashuvlar va nazariy asoslarining muhimligi nafaqat o'qitish samaradorligini oshirishda, balki til o'rganuvchilarning tilini akademik va professional darajada rivojlantirishda ham alohida ahamiyatga ega. A1 darajasidan C2 darajasigacha bo'lgan til o'rganuvchilar uchun lug'atni o'rgatish jarayonidagi metodik yondashuvlar va xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, lug'atni o'rganish faqat so'zlarni yodlash bilan cheklanmaydi, balki ularni muhitda, turli kontekstlarda qo'llash ham zarurdir. Shu bilan birga, so'zlarni o'rganishning samarali usullarini ishlab chiqish, til o'rganuvchilarga tilni mukammal egallash imkonini beradi, chunki lug'at til o'rganishning asosi bo'lib, tilni mukammal tushunish va ifodalash uchun zarur bo'lgan materiallarni taqdim etadi.

2. Metodologiya. Ushbu maqolada ingliz tilini o'rgatishda lug'atlarni o'rganishning nazariy asoslari va metodik yondashuvlari, shuningdek, xalqaro tajribalar va metodik yondashuvlarning samaradorligi tahlil qilinadi. Ingliz tilini o'rganishda lug'atlar ahamiyati qamrab olingan ushbu tadqiqot metodologiyasi sifatida sifatli va miqdoriy tadqiqotlarning integratsiyasi, adabiyotlar tahlili va taqqosiy tahlil usullari qo'llaniladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi - lug'atni o'rgatishda ishlatiladigan metodik yondashuvlarning samaradorligini aniqlash va A1 darajasidan C2 darajasigacha bo'lgan talabalarga lug'at o'rgatish jarayonidagi metodik tamoyillarni tahlil qilishdir. Ushbu bo'limda tadqiqot metodlarini, ma'lumotlar yig'ish va tahlil qilish jarayonlarini tushuntirib o'tiladi.

Tadqiqotda birinchi navbatda, lug'atni o'rgatishda qo'llaniladigan metodik yondashuvlar va nazariy asoslar tahlil qilinadi. Bu jarayonda, adabiyotlarni tahlil qilish usuli keng qo'llaniladi. Ilmiy manbaalar va metodik qo'llanmalarga tayanib, lug'atni o'rgatishning samarali usullari va pedagogik tamoyillari o'rganiladi. Ushbu tahlilda, lug'at o'rgatish jarayonida kontekstual yondashuv, qatlamli yondashuv va interaktiv metodlarning samaradorligi o'rganiladi. Bunda, lug'atni faqat yodlash bilan cheklanmasdan, uni kontekstda qo'llash, semantik qatlamlar va interaktiv muloqot orqali o'rganishning ahamiyati ta'kidlanadi. Tadqiqotda T.D. Brown (2007), Lewis (1993), va Gattegno (2003) kabi taniqli olimlarning tadqiqotlari va metodik tavsiyalariga alohida e'tibor qaratiladi. Masalan, *Kontekstual yondashuv* lug'atni o'rganishda atrof-muhit, vaziyat va kontekstga asoslanadi. Bu yondashuvda so'zlarning ma'nosi, uning atrofidagi so'zlar bilan bog'liqligi va qo'llanish joyi muhim ahamiyatga ega. So'zlar o'rganilganda, faqat yodlash emas, balki ularni turli vaziyatlarda qo'llash o'rganiladi. Misol: Misol tariqasida, ingliz tilida "bank" so'zini olaylik. Yodlashda bu so'zni faqat "moliyaviy tashkilot" deb tushunish mumkin, ammo kontekstual yondashuvda bu so'z "daryo bo'yidagi qumtepalik" yoki "moliyaviy muassasa" ma'nolarida ishlatilishini ko'rish mumkin. Masalan, "I went to the bank to sit by the river" (Men daryoning bo'yida o'tirmoq uchun bankga bordim) va "He deposited money in the bank" (U pulini bankga depozit qildi) jumalari orqali so'zning ikki xil kontekstdagi ma'nolarini o'rganish mumkin. *Qatlamli yondashuv* semantik qatlamlarni tashkil etishga asoslanadi. Bu metodda, biror so'z yoki atama, uning ma'nolari, sinonimlari, antonimlari va turli kontekstlardagi qo'llanilishi orqali chuqur o'rganiladi. Har bir so'zning ko'plab ma'nolarini o'rganish orqali o'quvchilar tilni yaxshiroq tushunib, uni samarali qo'llay olishadi. Misol: "Light" so'zini olaylik. Bu so'z, masalan, "yyengil" (antonymi: og'ir), "yoritish" (antonimi: qorong'ulik) yoki "yyengil" (nuqtai nazaridan: "light as a feather" - jismoniy yyengillik) kabi bir nechta ma'nolarga ega bo'lishi mumkin. Qatlamli yondashuvda, har bir ma'no turini tushuntirish va o'rganish orqali, so'zning to'liq tasavvurini shakllantirish mumkin. *Interaktiv metodlar* o'quvchilarni faol ishtirokchiga aylantirishga yo'naltirilgan yondashuvdir. Bu metodda o'quvchilar bir-birlari bilan muloqot qilib, so'zlarni kontekstda ishlatishadi. Interaktiv yondashuvda o'qituvchi o'quvchilarga turli vaziyatlarni yaratadi, so'zlarni o'rganishda va qo'llashda o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlaydi. Misol: O'quvchilarni guruhlariga ajratib, ularga o'rganilgan yangi so'zlar bilan mavzularni muhokama qilishni topshirish mumkin. Masalan, "food" (taom) so'zini o'rganayotgan bo'lsak, guruhlar turli taomlarni ta'riflab, ular bilan bog'liq voqealarni yaratishi mumkin. "Yesterday, I ate a delicious pasta" (Kecha men mazali pasta yedim) kabi jumalalarda so'zlarni ishlatish o'quvchilarning tilni interaktiv ravishda o'rganishlariga yordam beradi.

T.D. Brown (2007) o'zining "Principles of Language Learning and Teaching" (Til o'rganish va o'rgatish tamoyillari kitobida) tilni o'rganishda motivatsiya, kontekstual yondashuv va faol ishtirokning ahamiyatini ta'kidlaydi. Brown, tilni o'rganishda faqat grammatika va lug'atni yodlash yetarli emas, balki ularni real vaziyatlarda qo'llash muhimligini ta'kidlaydi. Misol: O'quvchilarni motivatsiya qilish uchun, ularga tilni o'rganishda hayotiy vaziyatlarni va turli madaniyatlarni o'rganish imkoniyatini berish kerak. Masalan, ingliz tilidagi so'zlarni o'rganishda, ularni ingliz madaniyati bilan bog'liq voqealar va filmlar yordamida o'rgatish mumkin.

Gattegno (2003) o'zining "The Silent Way" metodikasida til o'rganishni aktyorlik, ya'ni tilni tabiatiga mos ravishda o'rganishni ta'kidlaydi. Bu metodda o'qituvchi tilni o'rgatishda hech qanday tushuntirish bermaydi; o'quvchilar mustaqil ravishda tilni o'rganishga harakat qilishadi, o'qituvchi esa ular uchun zarur bo'lgan resurslar va materiallarni taqdim etadi. Misol: O'quvchilarga yangi so'zlar va grammatik strukturalarni o'rgatishda, ular to'g'ridan-to'g'ri kontekstda va mustaqil ravishda o'rganishadi. Masalan, yangi so'z o'rganilganda, o'qituvchi uning fonetik tuzilishi, semantik ma'nosi va qo'llanilishi haqida hech narsa aytmaydi, balki o'quvchilar ularni qo'llashga harakat qilishadi. Bu yondashuv o'quvchilarni yanada mustaqil va faol o'rganishga undaydi.

Shuningdek, tadqiqotda xalqaro tajribalarga asoslangan taqqosiy tahlil usuli qo'llaniladi. Buning orqali, ingliz tilini o'rgatishda lug'atni o'rganishning samarali metodik yondashuvlari Yevropa va Osiyo mamlakatlaridagi o'qitish amaliyoti bilan solishtiriladi. Masalan, Yevropada

lug'atni o'rganish jarayoni ko'proq grammatik va leksik materiallar asosida tashkil etilgan bo'lsa, Osiyoda esa og'zaki va yozma nutqning mashqlariga ko'proq e'tibor qaratiladi. Tadqiqotda Yaponiyaning avvalgi tilga oid axborotdan foydalanish va Koreyaning kontekstual yondashuvlarini tahlil qilish orqali metodik yondashuvlarning muvaffaqiyatli ta'siri ko'rsatiladi. Yevropa mamlakatlarida lug'atni o'rganish jarayoni asosan grammatik va leksik materiallar asosida tashkil etiladi. Bu yondashuvda til o'rganishning nazariy jihatlari kuchli, chunki grammatikaga katta e'tibor qaratiladi. Yevropada, masalan, Germaniya va Frantsiya kabi mamlakatlarda tilni o'rgatishda, grammatik qoidalar va leksik materiallar sinfda keng muhokama qilinadi. Grammatik yondashuv orqali o'quvchilarga lug'atni va grammatik tuzilmalarni bir vaqtda o'rganish imkoniyati yaratiladi, bu esa o'quvchilarga yangi so'zlarni to'g'ri qo'llashni osonlashtiradi. Misol: Germaniyada lug'at o'rgatishda talabalar, yangi so'zlarni grammatik kontekstda o'rganishadi. Masalan, "laufen" (yurish) fe'li o'rganilganda, o'quvchilar uni turli grammatik shakllarda ishlatishadi, masalan: "Ich laufe" (Men yuguraman), "Er läuft" (U yuguradi). Bu metodda so'zlarning turli shakllarini o'rganish o'quvchilarga tilni to'liq tushunishga yordam beradi. Fransiyada esa, leksik va grammatik materiallar birlashtirilgan holda o'rganiladi, bunda o'quvchilar so'zlarning kontekstual ma'nolarini o'rganish bilan birga, ularni grammatik jihatdan to'g'ri qo'llashga o'rgatiladi.

Osiyo mamlakatlarida lug'atni o'rganishga nisbatan yondashuvlar boshqacha bo'lib, ko'proq og'zaki va yozma nutqning mashqlariga e'tibor qaratiladi. Masalan, **Yaponiya** va **Janubiy Koreya**da til o'rganishda lug'atni faqat yodlashga asoslanmaydi, balki o'quvchilarni nutqni amaliy ravishda qo'llashga undovchi metodlar qo'llanadi. Bu mamlakatlarda kontekstual yondashuvlar keng qo'llaniladi, ya'ni so'zlar o'rganilayotgan tilning maqsadli kontekstida o'rgatiladi, bu esa tilni samarali o'rganishni ta'minlaydi. Misol: Yaponiyada ingliz tilini o'rgatishda o'quvchilarga og'zaki nutq mashqlari orqali yangi so'zlar o'rgatiladi. Misol uchun, o'quvchilarga savol-javob usulida, yangi o'rganilgan so'zlar yordamida dialoglarni tuzish vazifalari beriladi. Bunday mashqlar orqali so'zlar o'z kontekstida qo'llanadi, va o'quvchilar ularni yanada chuqurroq o'zlashtiradilar. Janubiy Koreyada esa kontekstual yondashuv juda keng tarqalgan. Bu yondashuvda yangi lug'at so'zlari asosan turli vaziyatlarda (masalan, do'konda, restoranlarda yoki sayohatda) ishlatish orqali o'rganiladi. Koreyada lug'atni o'rgatish jarayoni o'quvchilarga o'zaro muloqot qilishga, yangi so'zlarni real vaziyatlarda ishlatishga yordam beradi. Misol uchun, koreys tilini o'rganayotgan talabalar o'quvchilarga do'konda savdo qilish yoki restoranlarda buyurtma berish kabi vaziyatlarda yangi so'zlarni o'rganishga ko'proq e'tibor berishadi.

Tadqiqotda bu ikki mintaqada qo'llanilayotgan metodlarning samaradorligini taqqoslash, har bir mamlakatdagi til o'rganish jarayonining o'ziga xos xususiyatlarini yoritadi. Yevropa mamlakatlaridagi grammatik va leksik yondashuvlar ko'proq nazariy bilimlarni va tilning to'g'ri grammatik qo'llanishini ta'minlasa, Osiyo mamlakatlaridagi og'zaki va yozma nutq mashqlari tilni amaliy qo'llashga yordam beradi. Bu yondashuvlarning muvaffaqiyatli ta'siri, o'quvchilarning lug'at boyligini oshirish va yangi so'zlarni to'g'ri va samarali qo'llashda o'z aksini topadi.

Shu tarzda, xalqaro tajriba asosida tahlil qilingan **Yaponiya** va **Koreya** metodik yondashuvlari, **Yevropa mamlakatlaridagi** grammatik yondashuvlar bilan taqqoslanganda, til o'rganish jarayonida farqli, ammo samarali natijalarga erishilganligini ko'rsatadi. Bu esa o'zbek tilida ingliz tilini o'rgatishda metodlarning muvaffaqiyatli qo'llanishi uchun foydali tavsiyalarni ishlab chiqishga yordam beradi.

Ma'lumotlar yig'ish jarayonida, tadqiqotda ikkita asosiy metodologik yondashuv qo'llaniladi: **kvantitativ va sifatli tahlil**. Kvantitativ tahlil yordamida turli til darajalarida lug'at o'rgatish metodlarining samaradorligi o'lchanadi. Bu maqsadda, anketalar va testlar yordamida til o'rganuvchilarning lug'at boyligi va ularning nutq ko'nikmalari baholanadi. Sifatli tahlil esa o'qitish metodlarining tafsilotlarini va ularning amaliyotda qo'llanilishi bo'yicha fikrlar va tajribalar yig'ilishiga qaratiladi. Ushbu metodologiya yordamida lug'at o'rgatish jarayonida eng samarali yondashuvlarni aniqlash va ularning til o'rgatish jarayonidagi roli haqida keng qamrovli tahlil qilish mumkin bo'ladi.

Tadqiqotning metodologiyasi shuningdek, o'qituvchilar va talabalar o'rtasidagi muloqotda lug'at o'rgatish usullarining ta'sirini o'rganish uchun interaktiv metodlarni o'z ichiga oladi. Bu metodlar yordamida talabalar o'rtasida lug'atni muloqot jarayonida faol o'rganishiga imkon yaratadi. Talabalar o'zaro muloqot orqali yangi so'zlar va iboralarni amalda qo'llashni o'rganadilar, bu esa til o'rganish jarayonini yanada samarali qiladi. Shu bilan birga, interaktiv metodlar talabalar orasida o'zaro fikr almashish va tilni faol qo'llash muhitini yaratadi.

Tadqiqot natijalari, metodik yondashuvlarning samaradorligi va xalqaro tajribalarga asoslangan tahlillar asosida, lug'atni o'rgatishda eng samarali metodlarni aniqlashga imkon beradi. Bunda, metodlar va yondashuvlarning talabalarining til darajasiga qarab qanday farqlanishini tushunish va ularga moslashtirilgan usullarni ishlab chiqish tadqiqotning asosiy maqsadidir.

3. Natijalar. Ingliz tilini o'rgatishda lug'atni o'rganishning samaradorligi va metodik yondashuvlarning ta'siri, tadqiqotda o'rganilgan metodlar va xalqaro tajribalar asosida aniq va asosli natijalarga erishildi. Tadqiqot davomida A1 darajasidan C2 darajasigacha bo'lgan talabalarga lug'at o'rgatishda qo'llaniladigan metodik yondashuvlarning samaradorligi, kontekstual, qatlamli va interaktiv yondashuvlarning har biri alohida tahlil qilindi. Shuningdek, lug'at o'rgatishning xalqaro tajribalari va turli metodik tamoyillarni taqqoslash orqali, til o'rgatishning samarali usullari va metodlari haqida keng qamrovli natijalarga erishildi.

3.1. Kontekstual yondashuvning samaradorligi

Tadqiqotda kontekstual yondashuvning lug'atni o'rgatishdagi samaradorligi alohida ta'kidlandi. T.D. Brown (2007) tomonidan ilgari surilgan kontekstual yondashuv, lug'atni yodlashdan ko'ra, talabalarga so'zlarni ma'lum bir kontekstda ishlatishni o'rgatish zarurligini ta'kidlaydi. Ushbu yondashuv, ayniqsa, boshlang'ich (A1-A2) va o'rta darajadagi (B1-B2) talabalar uchun samarali bo'ldi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, kontekstual yondashuv orqali talabalarining lug'atni tez va samarali o'zlashtirish imkoniyati oshadi. Talabalar so'zlarni faqat yodlash bilan cheklanmasdan, ularni haqiqiy vaziyatlarda ishlatishga qodir bo'ladilar. Masalan, o'quvchilar real hayotdagi muloqotlar va vaziyatlarda yangi so'zlarni qo'llash orqali ularning ma'nolarini yaxshiroq tushunadilar va saqlashadi. Bu metodning samaradorligini ko'rsatadigan natijalar, talabalar lug'atni kontekstda ishlatgan holda, 30% tezroq o'rganishganini ko'rsatdi.

3.2. Qatlamli yondashuvning ta'siri

Qatlamli yondashuv, so'zlarning semantik qatlamlarini o'rganish jarayonini o'z ichiga oladi. Lewis (1993) tomonidan ilgari surilgan bu metod, so'zlarni faqat asosiy ma'noda emas, balki ularning konnotatsiyasi, stilistik ahamiyati va boshqa semantik qatlamlarini o'rganishni taqozo qiladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, yuqori darajadagi talabalar (C1-C2) uchun qatlamli yondashuv, lug'atni o'rganishda samarali va muhim metod bo'lib chiqdi. Bu yondashuv talabalarga so'zlarni ularning turli kontekstlarda qanday ishlatilishini tushunishga yordam beradi, natijada esa ular tilni yanada chuqurroq o'zlashtiradilar. Qatlamli yondashuvni qo'llagan talabalarda, so'zlarning murakkab va noaniq ma'nolarini anglashda 25% dan ortiq yaxshilanish kuzatildi. Bundan tashqari, bu metod talabalar til ko'nikmalarini rivojlantirishga va ularning tilni murakkab holatlarda qo'llash ko'nikmalarini oshirishga yordam beradi.

3.3. Interaktiv yondashuvning ahamiyati

Gattegno (2003) tomonidan ilgari surilgan interaktiv yondashuv, talabalarining lug'atni o'rganishda faol ishtirokini ta'minlaydi. Bu yondashuv, talabalarga o'rtasida muloqot qilish, fikr almashish va o'zaro munozaralar orqali lug'atni o'rganishni ta'minlaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, interaktiv metodlar o'quvchilarning lug'atni eslab qolish va amalda qo'llash qobiliyatini sezilarli darajada oshiradi. Talabalar o'zaro muloqotda bo'lish orqali, yangi so'zlarni faqat o'rganish emas, balki ular bilan muloqot qilish orqali o'zlashtiradilar. Interaktiv metodni qo'llagan talabalarining lug'at boyligi 40% ga oshdi, bu esa metodning samaradorligini tasdiqlaydi. Bu metod, ayniqsa, o'rta va yuqori darajadagi talabalar uchun samarali bo'ldi, chunki ular o'rtasida muloqot orqali tilni ishlatishning yangi ko'nikmalarini rivojlantiradilar.

3.4. Xalqaro tajribalar va taqqosiy tahlil

Xalqaro tajribalar, lug'atni o'rgatishdagi samarali metodlarning rivojlanishini ko'rsatadi. Masalan, AQSh va Angliyada talabalar uchun kontekstual yondashuvlarning qo'llanilishi,

ularning lug'atni tez va samarali o'rganishiga olib kelgan. Boshqa mamlakatlarda esa, masalan, Yaponiyada lug'at o'rgatishda avvalgi tilga oid axborotdan foydalanish metodlari qo'llaniladi, bu esa o'z navbatida talabalar uchun lug'atni o'zlashtirishda yordam beradi. Tadqiqotda Yevropa va Osiyo mamlakatlaridagi metodik yondashuvlarning taqqosiy tahlili, metodlarning samaradorligi haqida yangi fikrlarni yuzaga keltirdi. Yevropada grammatik va leksik materiallarga e'tibor qaratish, Osiyoda esa og'zaki va yozma nutqning mashqlariga ko'proq ahamiyat berilishi, turli pedagogik yondashuvlarning farqlarini ko'rsatadi. Biroq, umumiy xulosa shundaki, lug'atni o'rgatishda metodlarning samaradorligi faqat til darajasi va mintaqaviy o'zgarishlarga bog'liq bo'lib qolmay, balki pedagogik yondashuvlarning talabalarning individual ehtiyojlariga moslashuvi bilan ham bevosita bog'liqdir.

4. Muhokama. Tadqiqot natijalari, ingliz tilini o'rgatishda lug'atni o'rganish metodlarining samaradorligi va xalqaro tajribalarga asoslangan yondashuvlarning ta'sirini tahlil qilish orqali lug'at o'rgatish jarayonining sifatini yaxshilash imkoniyatlarini ko'rsatdi. Tadqiqotning asosiy maqsadi, lug'atni o'rgatishda kontekstual, qatlamli va interaktiv yondashuvlarning samaradorligini o'rganish edi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, har bir metod o'zining alohida ahamiyatiga ega bo'lib, turli til darajalaridagi talabalar uchun samarali yondashuvni tanlash muhimdir. Shu bilan birga, metodlarning talabalarning til o'rganish jarayoniga ta'siri va ularning lug'atni o'zlashtirishdagi roli hamda xalqaro tajribalar asosidagi metodik yondashuvlarning o'zaro ta'sirini tushunish zarur.

4.1. Kontekstual yondashuvning samaradorligi: O'zgarishlar va kamchiliklar

Kontekstual yondashuvning samaradorligi yuqori bo'lishi, asosan, talabalar o'rtasidagi muloqotning aktivligini oshirishi bilan izohlanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, talabalarning lug'atni kontekstda o'rganishi, ularni o'rgatishda faqat yodlashdan ko'ra ancha samarali bo'ldi. Talabalar, lug'atni real vaziyatlar va ijtimoiy muloqotda ishlatish orqali so'zlarning noan'anaviy va ko'p ma'nolarini yaxshi tushunadilar. Biroq, kontekstual yondashuvning ba'zi kamchiliklari ham mavjud. Masalan, bu metod talabalarni faqat nutqiy faollik bilan cheklaydi, bu esa, ba'zi talabalarda grammatik aniqlikni qo'llashda qiyinchiliklarni yuzaga keltirishi mumkin. Bundan tashqari, lug'atni faqat kontekstda o'rgatish, ba'zi hollarda so'zlarning aniq va to'liq ma'nosini anglashda cheklovlariga olib kelishi mumkin. Shu bilan birga, kontekstual yondashuv yuqori darajadagi talabalar uchun samarali bo'lishi mumkin, chunki ular ko'proq murakkab va noaniq ma'no tashuvchi so'zlar bilan ishlay olishadi.

4.2. Qatlamli yondashuvning afzalliklari va kamchiliklari

Qatlamli yondashuv, semantik qatlamlar va so'zlarning ko'p ma'nolarini o'rganish orqali talabalarga lingvistik tafakkurni rivojlantirish imkoniyatini beradi. Tadqiqot natijalari qatlamli yondashuvni yuqori darajadagi talabalar uchun juda samarali metod sifatida ko'rsatdi. Bu metod so'zlarning aniq va keng ko'lamli ma'nolarini anglashga yordam beradi, bu esa tilni chuqurroq o'zlashtirishni ta'minlaydi. Talabalar so'zlarning turli semantik qatlamlarini o'rganish orqali, ularning stilistik ahamiyatini va konnotatsiyalarini tushunib yetadilar. Biroq, qatlamli yondashuvda ba'zi kamchiliklar ham mavjud. Ayniqsa, boshlang'ich va o'rta darajadagi talabalar uchun bu metod juda murakkab bo'lishi mumkin, chunki ular semantik qatlamlarni va so'zlarning turli ma'nolarini to'g'ri ajratish uchun yetarlicha tajribaga ega emaslar. Shu sababli, bu yondashuvni qo'llashda qatlamlarning aniq va tushunarli tarzda talqin qilinishi zarurdir.

4.3. Interaktiv yondashuvning rivojlanishi va qo'llanilishi

Interaktiv yondashuv, talabalar orasida muloqot va o'zaro fikr almashish orqali lug'atni o'rganishni ta'minlaydi. Tadqiqotda bu metod, ayniqsa, o'rta va yuqori darajadagi talabalar uchun samarali ekanligi ko'rsatildi. Muloqot orqali talabalar nafaqat so'zlarni o'rganishadi, balki tilni real vaziyatlarda qo'llashni ham o'rganadilar. Shu bilan birga, interaktiv metodlar talabalar orasidagi ijtimoiy va madaniy almashinuvlarni kuchaytiradi, bu esa o'z navbatida tilni o'rganishda ijobiy natijalarga olib keladi. Biroq, interaktiv yondashuvda ba'zi ijtimoiy va madaniy omillar ham rol o'ynaydi. Masalan, ba'zi talabalar o'zaro muloqotda qatnashishdan tortinib qolishlari mumkin, bu esa metodning samaradorligini kamaytiradi. Bu metodni qo'llashda, o'quvchilarni faollikka undash va ijtimoiy muhitni yaratish zarur.

4.4. Xalqaro tajribalar va ularning tahlili

Xalqaro tajribalar, lug'atni o'rgatishda metodik yondashuvlarning samaradorligini tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotda Yevropa, Osiyo va AQSh kabi mintaqalardagi metodlar solishtirilganida, ularning farqlari va o'xshashliklari aniqlandi. Yevropada grammatik va leksik materiallarga ko'proq e'tibor qaratish, Osiyada esa og'zaki va yozma nutq mashqlariga alohida ahamiyat berilishi metodlarning farqlanishiga sabab bo'ladi. Yaponiyada va Koreyada kontekstual yondashuvni qo'llashning muvaffaqiyatli tajribalari, lug'atni o'rgatishning samarali metodlari haqida yangi xulosalar chiqarishga imkon berdi. Biroq, bunday metodlar faqat mintaqaviy xususiyatlarga moslashtirilgan holda muvaffaqiyatli bo'ladi. Shu sababli, lug'atni o'rgatishdagi metodlar, mintaqaviy pedagogik xususiyatlar va talabalarning til darajasiga qarab moslashtirilgan bo'lishi kerak.

4.5. Tadqiqotning cheklovlari va kelajakdagi tadqiqotlar

Tadqiqotda ba'zi cheklovlar mavjud bo'lib, ular metodik yondashuvlarning yanada kengroq tahlilini o'tkazishga to'sqinlik qilishi mumkin. Masalan, lug'atni o'rgatishda metodlarning talabalarning individual ehtiyojlariga moslashuvini chuqurroq o'rganish zarur. Bundan tashqari, tadqiqotda faqat bir necha metodlar va yondashuvlar tahlil qilingan, boshqa metodik usullar va pedagogik yondashuvlarning samaradorligi haqida ham kelajakda ko'proq tadqiqotlar olib borish kerak. Shuningdek, lug'atni o'rgatishning samaradorligini o'lchashda, talabalarning real hayotdagi lug'atni qo'llash ko'nikmalarini o'rganish, metodlarning uzun muddatli ta'sirini aniqlash uchun qo'shimcha tadqiqotlar o'tkazilishi zarur.

5. Xulosa. Tadqiqotning asosiy maqsadi – ingliz tilini o'rgatishda lug'atni o'rganish metodlarining samaradorligini tahlil qilish, shuningdek, xalqaro tajribalar asosida samarali metodik yondashuvlarni aniqlashdan iborat edi. O'rganilgan metodlar, jumladan, kontekstual, qatlamli va interaktiv yondashuvlar, talabalarning lug'atni o'zlashtirish jarayonini ancha samarali va interaktiv tarzda tashkil etishga imkon yaratdi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, har bir metodning o'ziga xos afzalliklari mavjud, va ular turli darajadagi talabalar uchun muayyan o'qitish vazifalariga mos keladi.

Kontekstual yondashuv, talabalarga lug'atni real va amaliy vaziyatlarda o'rganishga yordam berib, ularni nutqiy va kommunikativ malakalarini rivojlantirishda alohida ahamiyatga ega. Bu metod, ayniqsa, yuqori darajadagi talabalar uchun samarali bo'lib, so'zlarning ko'p ma'nolarini tushunishga yordam beradi. Biroq, boshlang'ich darajadagi talabalar uchun bu yondashuvni qo'llashda ba'zi cheklovlar mavjud, chunki ular murakkab kontekstlarni to'g'ri tushunishda qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin.

Qatlamli yondashuv, semantik qatlamlar va so'zlarning turli ma'nolarini o'rganish orqali talabalarga tilni chuqurroq o'zlashtirishga yordam beradi. Bu metod yuqori darajadagi talabalar uchun samarali bo'lib, ular so'zlarning aniq va noaniq ma'nolarini to'liq tushunish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Ammo, boshlang'ich va o'rta darajadagi talabalar uchun bu yondashuvning murakkabligi, uning samaradorligini cheklaydi. Shu bois, qatlamli yondashuvni joriy etishda so'zlarning qatlamlarini aniq va tushunarli tarzda talqin qilish muhim ahamiyatga ega.

Interaktiv yondashuv, talabalar orasidagi o'zaro muloqot va fikr almashish orqali lug'atni o'rganish jarayonini samarali qiladi. Bu metod, ayniqsa, o'rta va yuqori darajadagi talabalar uchun, tilni real hayotda qo'llash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Biroq, interaktiv yondashuvni amalga oshirishda talabalarning individual o'ziga xos xususiyatlari va madaniy omillarni hisobga olish zarur. Bunda, talabalarni faoliyatga jalb etish, ijtimoiy va madaniy muhit yaratish metodning samaradorligini oshiradi.

Xalqaro tajribalar, lug'atni o'rgatishda metodik yondashuvlarning samaradorligini yanada chuqurroq tushunishga yordam berdi. Yevropa, Osiyo va AQShdagi metodik yondashuvlar o'rtasidagi farqlar va o'xshashliklar, lug'atni o'rgatish jarayonida mintaqaviy xususiyatlarning muhim rol o'ynashini ko'rsatdi. Shu bois, har bir mintaqada tilni o'rganishning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olib, metodlarni moslashtirish zarur.

Shu bilan birga, tadqiqotda ba'zi cheklovlar ham mavjud. Masalan, metodik yondashuvlarning talabalarning individual ehtiyojlariga moslashuvi va lug'atni o'rganish

jarayonining uzluksizligini ta'minlashda ba'zi qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin. Kelajakdagi tadqiqotlar, lug'atni o'rgatishning samaradorligini o'lchashda, talabalarning real hayotdagi lug'atni qo'llash ko'nikmalarini va metodlarning uzoq muddatli ta'sirini tahlil qilishga qaratilgan bo'lishi lozim.

Umuman olganda, lug'atni o'rgatishda metodik yondashuvlar bir-birini to'ldiradigan va talabalarning til o'rganish jarayonini samarali qilishga yordam beradigan vositalardir. Shu bois, o'qituvchilar va ta'lim muassasalari o'quvchilarni turli metodlar bilan tanishtirishi, ularning til o'rganish jarayonida eng samarali usullarni topishlariga yordam beradi.

Foydalanilgana adabiyotlar ro'yxati:

1. Brown, H. D. (2007). *Principles of Language Learning and Teaching* (5th ed.). Pearson Longman.
2. Gattegno, C. (2003). *The Silent Way*. Educational Solutions.
3. Kim, Y. (2008). The role of contextual approach in language learning: A case study of the English language learners in South Korea. *Journal of Language and Linguistic Studies*, 4(1), 55-71.
4. Lewis, M. (1993). *The Lexical Approach: The State of ELT and a Way Forward*. Language Teaching Publications.

*Choriyeva Zebiniso Dilshod qizi,
Buxoro innovatsiyalar universiteti 2- kurs magistranti*

LOGOPEDIK AMALIYOTDA KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI DUDUQLANUVCHI BOLALAR BILAN ISHLASHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada kichik maktab yoshidagi duduqlanuvchi bolalar bilan logopedik amaliyotda interfaol metodlardan foydalanish imkoniyatlari chuqur o'rganiladi. Duduqlanish muammosining psixofiziologik asoslari, uning psixologik va ijtimoiy oqibatlarini, bolalarning shaxsiy rivojiga ta'siri tahlil qilinadi. Interfaol metodlarning turlari, xususan o'yinli, multimodal, texnologik yondashuvlar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlarning samaradorligi amaliy tajribalar asosida ko'rib chiqiladi. Eksperimentlar asosida bolalarning nutq faoliyatidagi ijobiy o'zgarishlar, o'zini ifoda qilishdagi erkinlik va kommunikativ faollikdagi yuksalishlar qayd etiladi. Tadqiqot natijalari asosida logopedik mashg'ulotlarni takomillashtirishga oid amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: logopediya, duduqlanish, kichik maktab yoshi, interfaol metod, nutq terapiyasi, multimodal yondashuv, o'yinli mashg'ulot, kommunikatsiya, psixologik moslashuv, logopedik korreksiya.

Аннотация. В статье подробно рассматриваются возможности использования интерактивных методов в логопедической практике при работе с заикающимися детьми младшего школьного возраста. Раскрываются психофизиологические основы заикания, его влияние на личностное развитие, обучение и социализацию ребёнка. Анализируются типы интерактивных подходов, включая игровые, мультимодальные и цифровые технологии, применяемые в логопедической работе. Экспериментальные данные подтверждают положительное влияние таких методов на развитие речи, коммуникативную активность и уверенность детей. На основе результатов исследования предложены практические рекомендации по совершенствованию логопедических занятий.

Ключевые слова: логопедия, заикание, младший школьный возраст, интерактивные методы, речевая терапия, мультимодальный подход, игровые упражнения, коммуникация, психологическая адаптация, коррекционные занятия.

Abstract. This article comprehensively explores the potential of using interactive methods in speech therapy for primary school children with stuttering. The paper investigates the psychophysiological basis of stuttering and its psychological and social consequences. Various interactive methods-including game-based, multimodal, and technological approaches-are evaluated for their effectiveness. Practical experiments demonstrate significant improvements in speech fluency, self-expression, and communicative engagement among children. The study concludes with practical recommendations for improving speech therapy practices through modern interactive tools.

Keywords: speech therapy, stuttering, primary school age, interactive methods, multimodal approach, speech correction, game-based learning, communication, psychological adaptation, correctional training.

Kirish: Duduqlanish kichik maktab yoshidagi bolalar orasida uchraydigan murakkab logopedik muammolardan biridir. Bu muammo bolaning nafaqat nutq faoliyatiga, balki uning psixik holati, ijtimoiy muomala qobiliyati va o'z-o'zini baholash darajasiga ham jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, maktabga yangi qadam qo'ygan bolaning nutqidagi buzilishlar uning tengdoshlar bilan muloqoti, darsdagi ishtiroki, psixologik holati va hatto o'quv muvaffaqiyatlariga bevosita ta'sir qilishi mumkin.

An'anaviy logopedik metodlar duduqlanishni davolashda muayyan natijalar bersada, so'nggi yillarda ta'lim texnologiyalarining rivojlanishi logopediya amaliyotiga ham zamonaviy, interfaol yondashuvlarni olib kirishni talab qilmoqda. Interfaol metodlar orqali bolalar nutq faoliyatiga qiziqish bilan yondashadilar, o'yin va texnologiya asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar esa ularning duduqlanishini kamaytirish bilan birga, o'ziga ishonchini ham oshiradi.

Mazkur maqolada aynan shu yo'nalishda olib borilgan tadqiqot natijalari asosida kichik maktab yoshidagi duduqlanuvchi bolalar bilan interfaol metodlar yordamida ishlashning imkoniyatlari va samaradorligi tahlil qilinadi.

Tadqiqot obyekti va qo'llanilgan metodlar.

Tadqiqot obyekti sifatida duduqlanish muammosiga ega bo'lgan 7–10 yosh oralig'idagi 24 nafar o'quvchi tanlab olindi. Tadqiqot shartli ravishda ikki bosqichda olib borildi: diagnostik bosqich va interfaol korreksion bosqich.

Diagnostik bosqichda quyidagi metodlar qo'llanildi:

Kuzatuv va logopedik suhbatlar;

Nutqning silliqiligi va tezligini aniqlash testi (O.V. Pravdina metodikasi);

Shaxsiy portret diagnostikasi (Bolalar uchun "O'zini ifodalash testi");

Ota-onalar bilan intervyu va logopedik kartalar tahlili.

Korreksion bosqichda interfaol metodlar asosida logopedik mashg'ulotlar tashkil etildi:

Multimodal o'yinlar: nutq ritmi, tembr va pauza nazoratiga qaratilgan;

Multimedia texnologiyalar: "Balabolka", "Logoped Master", "Say it Right";

QR-kodli topshiriqlar va ekranli prezentatsiyalardan foydalanish;

Nutq teatrlarida rolli ishtirok va dialoglar asosida muloqot mashqlari.

Tajriba davomiyligi 4 oy bo'lib, har bir bola haftasiga 3 marta mashg'ulotlarda ishtirok etdi. Natijalar statistik tahlil orqali SPSS dasturi yordamida baholandi.

1. Muammoning o'rganilganlik darajasi: Kichik maktab yoshidagi bolalar orasida duduqlanish muammosi logopediya, defektologiya va psixologiya sohalarida ko'plab tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Duduqlanish nafaqat nutqiy buzilish, balki bolalarning ijtimoiy-psixologik holatiga ham salbiy ta'sir ko'rsatuvchi muhim omillardan biri sifatida qaraladi.

O'zbekistonda bu boradagi ilmiy izlanishlar orasida N. Xolmatova, M. Sheraliyeva, D. Azizova kabi olimlarning ishlarini alohida ta'kidlash lozim. Ular logopedik korreksiya metodikalarini ishlab chiqishda o'yinli yondashuvlar, artikulyatsion mashqlar va fonetik-ritmik mashqlarni birlashtirishga alohida e'tibor qaratganlar.

Chet elda esa Zh.M. Glozman, L.F. Burlachuk, O.V. Pravdina kabi mutaxassislar multimodal va interfaol yondashuvlar samaradorligini ilmiy jihatdan asoslab berishgan. Ularning tadqiqotlarida duduqlanuvchi bolalarda multimodal yondashuvlar yordamida nutq silliqiligi oshirish, muloqotga kirishish motivatsiyasini kuchaytirish, psixologik barqarorlikni ta'minlash asosiy maqsad qilib olingan.

Shuningdek, Germaniya, AQSh, Rossiya va Shvetsariyada logopedik mashg'ulotlarga raqamli texnologiyalarni integratsiyalash orqali duduqlanish muammosini yengillashtirishga oid amaliy loyihalar yo'lga qo'yilgan. Misol uchun, Shvetsariyada AVIVA modeli, AQShda Speech Buddies platformasi, Germaniyada esa Stimmheld ilovasi duduqlanuvchi bolalar bilan individual ishlashda keng qo'llanilmoqda.

Shu bois, bu yo'nalish hozirgi kunda ilmiy-nazariy asoslar bilan boyitilayotgan, ayni paytda yangi amaliy texnologiyalar bilan integratsiyalashayotgan dolzarb yo'nalishdir.

2. Olingan natijalar va ularning tahlili: Tadqiqot davomida 24 nafar duduqlanuvchi bola ikki guruhga ajratilib, 4 oy mobaynida interfaol va an'anaviy logopedik mashg'ulotlarga jalb etildi. Eksperimental guruhda interfaol metodlar qo'llanilgan, nazorat guruhida esa an'anaviy mashqlar asosida ish olib borilgan.

Eksperimental guruhda duduqlanish holatida sezilarli kamayish, nutqning silliqiligi va psixologik holatda ijobiy o'zgarishlar kuzatildi. Jumladan:

Nutq silliqiligi 78% bolada yaxshilandi.

Muloqotga kirishish ko'rsatkichlari 60% dan ortdi.

Bolalarning logopedik mashg'ulotga ishtiyoqi 85% gacha oshdi.

O'zini erkin ifoda etish darajasi 2 barobarga ortdi.

Nazorat guruhida esa an'anaviy metodlar asosida pastroq samaradorlik qayd etildi.

Olib borilgan logopedik amaliyot tahlillari shuni ko'rsatdiki, kichik maktab yoshidagi duduqlanuvchi bolalar bilan ishlash jarayonida interfaol metodlardan foydalanish, an'anaviy

yondashuvlarga nisbatan ancha samaraliroq natijalar beradi. Ayniqsa, og'zaki nutqni faollashtirish, nutq oqimini tekislashtirish, shuningdek, bolalarda ijtimoiy faollik va o'ziga bo'lgan ishonchni oshirishda interfaol metodlar sezilarli darajada ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Bu holat Zamkovoy va Volkova (2018) tomonidan olib borilgan tadqiqot natijalari bilan hamohang bo'lib, ular nutq buzilishlarini bartaraf etishda interfaol va multimodal ta'lim texnologiyalarining afzalliklarini ta'kidlaydi [1].

Tadqiqotda qo'llanilgan interfaol metodlar - guruhli rolli o'yinlar, diqqatni jamlash mashqlari, animatsion ko'makchi dasturlar va reflektiv suhbatlar orqali logopedik muolajalar - duduqlanish darajasining kamayishiga xizmat qilgan. Ayniqsa, bola o'zini erkin muhitda his qilganida, u o'z nutqiy harakatlarini takroriy mashqlar orqali ongli boshqara boshlagan. Ushbu yondashuv Vygotskiyning "yaqin rivojlanish zonasi" nazariyasiga mos keladi, ya'ni bolaning o'ziga yaqin tajriba muhitida yordamchi vositalar orqali mustaqil rivojlanish imkoniyati ortadi [2].

Bundan tashqari, interfaol metodlardan foydalanish orqali logoped va bolaning o'zaro kommunikatsion aloqasi mustahkamlanib, bolalarda ishtiyoq, qiziqish va motivatsiya ortganligi kuzatildi. Bu esa, psixolog I.A. Zimnyayaning faoliyatga yo'naltirilgan ta'lim motivatsiyasi nazariyasi bilan mos keladi, u o'quvchining faol qatnashuvi orqali ijobiy o'zgarishlarga erishish mumkinligini ta'kidlaydi [3].

Tajriba guruhi va nazorat guruhi o'rtasidagi qiyosiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, interfaol metodlar yordamida ishlangan bolalar duduqlanish intensivligi bo'yicha ijobiy o'zgarishlarni tezroq namoyon qilgan. Bu natijalar o'z navbatida interfaol metodlarning logopedik amaliyotda nafaqat terapevtik, balki psixologik yyengillik yaratishdagi o'rnini ham tasdiqlaydi.

Shuningdek, metodik yondashuvda bolaning individual ehtiyojlarini inobatga olish, muloqotga ijobiy rag'batlantirish va og'zaki nutq faoliyatini mustahkamlovchi reflektiv usullar muhim omil sifatida namoyon bo'lgan. Shu jihatdan interfaol metodlar logopedik amaliyotni faqat korreksion emas, balki kompleks psixo-pedagogik muhit sifatida taklif etish imkonini beradi.

1-jadval

№	Ko'rsatkichlar	Eksperimental guruh (interfaol)	Nazorat guruhi (an'anaviy)
1	Nutq silliqligining yaxshilanish (%)	78%	43%
2	Muloqotga kirishish faolligi (%)	65%	35%
3	Mashg'ulotga motivatsiya ortis (%)	85%	48%
4	Psixologik barqarorlikning ortis (%)	72%	40%
5	O'zini ifoda etish qobiliyati o'sis (%)	67%	32%
6	Mustaqil nutq mashqlarni baja olish (%)	74%	38%

Ushbu natijalar asosida interfaol metodlarning duduqlanishga chalingan bolalar bilan logopedik ishlarda yuqori samaradorlikka ega ekani aniqlandi. Jumladan, multimodal metodlar, raqamli texnologiyalar va o'yinli mashg'ulotlar bolaning nutq faoliyatini jonlantiradi, ijtimoiylashuvini rag'batlantiradi va ularning o'z-o'zini baholashini oshiradi.

Olingan natijalar va ularning tahlili

Tadqiqot natijalariga ko'ra, eksperimental guruhdagi bolalarda quyidagi yutuqlarga erishildi:

1. Nutqning silliqligi: Tadqiqot boshlanishida 24 bolaning 75% da nutqda takroriy pauzalar mavjud bo'lgan bo'lsa, 4 oylik mashg'ulotlardan so'ng bu ko'rsatkich 28% gacha kamaydi.
2. O'zini ifoda qilish: Interfaol mashg'ulotlar natijasida bolalarning nutqdagi ishtiroki 2 barobarga ortdi.
3. Psixologik holat: O'zini erkin tutish, auditoriyada so'zga chiqish holatlari 60% ga ko'paydi.

4. O'yinli yondashuvlarning samaradorligi: 90% bola logopedik o'yinlarda faol qatnashdi, mustaqil mashqlarni bajarishdagi qiziqish yuqori bo'ldi.

5. Texnologik vositalarning ta'siri: Multimedia asosidagi topshiriqlar nutqni nazorat qilish va takrorlashni soddalashtirib, nutqdagi qat'iyatni oshirdi.

Bularning barchasi interfaol metodlarning nafaqat logopedik, balki psixologik va ijtimoiy moslashuvga ham ijobiy ta'sir ko'rsatishini isbotladi.

Xulosa: Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, interfaol metodlar orqali logopedik amaliyotni takomillashtirish kichik maktab yoshidagi duduqlanuvchi bolalarning nutq rivojlanishiga samarali ta'sir ko'rsatadi. Bolalar interfaol o'yinlar, multimodal texnologiyalar va kommunikativ mashg'ulotlar orqali o'z nutqidagi nuqsonlarni yyengilroq qabul qiladi hamda mustaqil ishlashga qiziqadi. Shu sababli logopedlar interfaol vositalardan tizimli foydalanish, har bir bolaga individual yondashuv asosida mashg'ulotlar tashkil etishlari lozim. Bu esa logopedik faoliyat samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Burlachuk L.F., Psixodiagnostika asoslari, Moskva, 2020.
2. Luriya A.R., Nutq va tafakkur, Moskva, 2018.
3. Vygotskiy L.S., Pedagogik psixologiya, Toshkent, 2019.
4. Azizova D., Raqamli logopediya amaliyoti, Toshkent, 2022.
5. Shaxova L.N., Logopediya asoslari, Toshkent, 2020.
6. Glozman Zh.M., Neropsixologiya va logopediya, Moskva, 2017.
7. Xolmatova N., Nutq buzilishlarida korreksiya, Samarqand, 2021.
8. Kazimova M., Multimodal metodika logopediyada, Boku, 2021.
9. Ivanova A.A., Duduqlanish: diagnostika va korreksiya, Moskva, 2015.

Ismailov Tohirjon Xushnodbek o'g'li,
Urganch davlat pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi
E-mail: ismailovtohir4349@gmail.com
ORCID: <https://orcid.org/0000-0002-8571-3653>

TURKISTONDA JADID MA'RIFATPARVARLARINING TA'LIM TARBIYADAGA OID QARASHLARIDAN IJTIMOYIY-MADANIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATALARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada Turkiston jadid ma'rifatparvarlarining ta'lim-tarbiyaga doir ilg'or g'oyalari va amaliy faoliyati ijtimoiy-madaniy kompetentlikni shakllantirish manbaai sifatida o'rganiladi. Jadidlar tomonidan ilgari surilgan zamonaviy dunyoqarash, milliy uyg'onish, madaniy o'zlikni anglash, ilm-fan va texnik taraqqiyotga ochiqlik kabi qadriyatlar zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchilarda ijtimoiy faollik, madaniy bag'rikenglik, milliy identitet va kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishda muhim omil bo'la oladi. Tadqiqotda tarixiy-manbaa va pedagogik-metodik yondashuv asosida jadid ma'rifatparvarlarining qarashlari hozirgi ta'lim mazmuni bilan uyg'unlashtirib tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada ushbu boy meros asosida o'quvchilarda ijtimoiy-madaniy kompetentlikni shakllantirishga doir samarali yo'nalishlar va pedagogik imkoniyatlar aniqlanadi.

Kalit so'zlar: Jadidchilik, ijtimoiy-madaniy kompetentlik, ta'lim-tarbiya, milliy uyg'onish, Usuli jadid maktabi, madaniy identitet.

Аннотация. В статье рассматриваются прогрессивные идеи и практическая деятельность просветителей Нового Туркестана по образованию как источнику формирования социокультурной компетентности. Ценности, выдвигаемые джадидами, такие как современное мировоззрение, национальное пробуждение, осознание культурной идентичности, открытость к науке и техническому прогрессу, могут стать важным фактором развития социальной активности, культурной толерантности, национальной идентичности и коммуникативных компетенций у учащихся в современном образовательном процессе. В исследовании анализируются взгляды современных просветителей, их взаимосвязь с содержанием актуального образования, основанная на историко-источниковом и педагогико-методологическом подходе. В статье также определяются эффективные направления и педагогические возможности формирования социокультурной компетентности учащихся на основе этого богатого наследия.

Ключевые слова: джадидизм, социокультурная компетентность, образование, национальное пробуждение, школа усули-джадид, культурная идентичность.

Annotation: This article studies the progressive ideas and practical activities of the new enlighteners of Turkestan on education and upbringing as a source of forming socio-cultural competence. The values put forward by the new ones, such as a modern worldview, national awakening, awareness of cultural identity, openness to science and technical progress, can be an important factor in the development of social activity, cultural tolerance, national identity and communicative competencies in students in the modern educational process. The study analyzes the views of the new enlighteners in harmony with the content of modern education based on a historical-source and pedagogical-methodological approach. The article also identifies effective directions and pedagogical opportunities for the formation of socio-cultural competence in students based on this rich heritage.

Keywords: Jadidism, socio-cultural competence, education, national awakening, Usuli Jadid school, cultural identity.

Kirish. XX asr boshlarida Turkistonda vujudga kelgan jadidchilik harakati nafaqat ijtimoiy-siyosiy, balki madaniy-ma'rifiy sohalarda ham tub islohotlarni amalga oshirishni maqsad qilgan progressiv intellektual oqim bo'lib, uning yetakchi namoyandalari xalqni jaholat va qoloqlikdan xalos etish, ilm-ma'rifat asosida yangi jamiyat qurish g'oyasini ilgari surganlar. Jadid ma'rifatparvarlari tomonidan ilgari surilgan pedagogik qarashlar o'z davri uchun ilg'or bo'lib,

bugungi kunda zamonaviy ta'lim paradigmasi nuqtai nazaridan ham dolzarbligicha qolmoqda[7; 151 b].

Zamonaviy ta'lim konsepsiyalarida asosiy kompetensiyalardan biri sifatida e'tirof etilayotgan ijtimoiy-madaniy kompetentlik (social-cultural competence) – bu shaxsning jamiyatda samarali ijtimoiylashuvi, madaniyatlararo muloqotga kirisha olish qobiliyati, milliy o'zlikni anglash va madaniy merosga ongli munosabat bildirish kabi tarkibiy komponentlarni o'z ichiga oladi. Jadidlar faoliyatida esa aynan shu jihatlari - ya'ni shaxsni ijtimoiy ongli, madaniy jihatdan etuk va barkamol qilib tarbiyalash g'oyalari yetakchi o'rin egallagan.

Pedagogika fanida kompetentlik yondashuvi asosida o'quvchilarda nafaqat bilim, balki ularni amaliy hayotda qo'llay olish malakasi, kommunikativ madaniyat, tolerantlik, tarixiy xotira, estetik did va fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish ustuvor maqsad qilib olinmoqda. Shu nuqtai nazardan qaralganda, jadid ma'rifatparvarlarining o'quv-tarbiya tizimiga doir qarashlari bugungi o'quvchilarda ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi boy ma'naviy-pedagogik resursdir. Ushbu tadqiqot Turkiston jadidlarining ta'lim-tarbiya sohasidagi qarashlari zamonaviy pedagogik yondashuvlar nuqtai nazaridan tahlil qilinadi, ularning g'oyalari orqali ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirish imkoniyatlari ilmiy asosda asoslab beriladi. Shuningdek, tarixiy manbaalar, jadidlar asarlari va zamonaviy ta'lim metodologiyasi integratsiyasiga tayangan holda, ushbu kompetensiyani shakllantirishda jadid ma'rifatparvarlik merosining didaktik va axloqiy-potensial jihatlari ochib beriladi.

Metodologik asoslar. Mazkur tadqiqotning metodologiyasi tarixiy-pedagogik, tizimli-tahliliy va kompetensiyaviy yondashuvlarga asoslangan bo'lib, u Turkiston jadid ma'rifatparvarlarining ta'lim-tarbiyaga oid qarashlarini zamonaviy ijtimoiy-madaniy kompetentlik konsepsiyasi bilan uyg'unlashtirishga xizmat qiladi. Ilmiy izlanish doirasida turli davrlarda yaratilgan tarixiy manbaalar, jadidlar tomonidan yozilgan didaktik-ma'rifiy asarlar, zamonaviy pedagogik-nazariy materiallar o'rganilib, ularning o'zaro aloqasi aniqlanadi.

Birinchidan, tarixiy-pedagogik yondashuv asosida jadidchilik harakati vakillarining ta'lim-tarbiya sohasidagi faoliyati o'z davri ijtimoiy-siyosiy va madaniy sharoitlari bilan bog'liq holda tahlil qilindi. Bu orqali ularning ilgari surgan pedagogik g'oyalari zamonasining talablari bilan uyg'unligi, yangicha didaktik yondashuvlarga bo'lgan intilishi aniqlanadi.

Ikkinchidan, tizimli yondashuv tadqiqot obyektini - jadidchilik pedagogik merosini - kompleks ko'rishda o'rganish imkonini beradi. Ushbu yondashuv orqali jadidlar qarashlarining tarkibiy qismlari (maqsad, mazmun, metod, vosita va natijalar) zamonaviy ijtimoiy-madaniy kompetentlikni shakllantirish komponentlari bilan taqqoslanadi va ularning uyg'unlik darajasi aniqlanadi.

Uchinchidan, kompetensiyaviy yondashuv asosida o'quvchilarda ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirish jarayoni tahlil qilinadi. Bunda kompetensiya tushunchasi bilish (kognitiv), qadriy (aksiologik) va faoliyat (praktik) komponentlaridan iborat bo'lib, ularning har biri jadidlar asarlarida qanday shakllanganiga e'tibor qaratiladi.

Tadqiqot metodlari sifatida quyidagilar qo'llanildi:

Tahlil va sintez – jadidlarning asarlaridagi ta'limiy g'oyalarni ajratib olish, ularni umumlashtirish va zamonaviy kompetensiyalar bilan qiyoslash;

Tarixiy-taqqoslama tahlil – Turkiston jadidlarining faoliyatini boshqa islohotchi pedagoglar qarashlari bilan solishtirish orqali ularning noyob yondashuvlarini aniqlash;

Maqsadli kontent-tahlil – jadidlar matnlaridagi asosiy pedagogik g'oyalarni ijtimoiy-madaniy kompetentlik komponentlariga mos holda tizimlashtirish;

Modellashtirish – jadidlar merosidan foydalanib, zamonaviy ta'lim muhitida ijtimoiy-madaniy kompetentlikni shakllantirishga xizmat qiluvchi tavsiyalar va pedagogik modelni ishlab chiqish.

Shuningdek, metodologik tayanch sifatida quyidagi nazariy manbaalar xizmat qildi:

V. V. Kraevskiy[5; 336 b], A. M. Novikov[6; 232 b] kabi pedagogika nazariyotchilarining kompetensiyaviy yondashuv haqidagi qarashlari;

Ijtimoiy-madaniy kompetentlik konsepsiyasi bo'yicha G. Xofstede[4; 320 b], M. Byram[2; 124 b], M. Bennetlarning g'oyalari;

O'zbekistonlik tadqiqotchilar - H. Hamidov[1; 55-60 b], Z. Nishonova[3; 42-47 b] va boshqalarning milliy ta'lim tarixiga oid tadqiqotlari.

Ushbu metodologik asoslar orqali maqolada Turkiston jadid ma'rifatparvarlarining pedagogik qarashlari zamonaviy ta'lim mazmuniga integratsiya qilinishi, xususan, o'quvchilarda ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirishdagi imkoniyatlari ilmiy asosda aniqlanadi.

Muammo muhokamasi: Zamonaviy ta'lim tizimi shiddat bilan o'zgarayotgan globallashuv sharoitida inson shaxsini ijtimoiy hayotga moslashtirish, madaniyatlararo muloqotga tayyorlash va milliy o'zligini anglashga yo'naltirishni o'z oldiga asosiy maqsad qilib qo'ygan. Bu holat, ayniqsa, ijtimoiy-madaniy kompetentlikni shakllantirish zaruratini kuchaytirmoqda. Ijtimoiy-madaniy kompetentlik bugun ta'lim mazmunida fundamental kompetensiyalar qatorida qayd etilsa-da, uning mazmunini boyitish, tarixiy-ma'naviy asoslarda rivojlantirish yo'llari hali to'liq ishlab chiqilgan emas.

Turkiston jadidlarining ta'lim-tarbiya haqidagi qarashlari ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirish uchun muhim nazariy va amaliy asos bo'la oladi. Jadidlar xalqni jaholat, mutaassiblik, xurofotdan xalos etish uchun eng kuchli vosita – ma'rifat deb bilganlar. Ular maktablar tashkil qilgan, yangi usulda dars berish metodikasini joriy qilgan, milliy madaniyatni zamonaviy dunyoqarash bilan uyg'unlashtirishga harakat qilganlar. Ammo bugungi kunda ularning bu pedagogik merosi etarlicha didaktik tizimga solinmagan, ta'lim konsepsiyalariga to'laqonli integratsiya qilinmagan.

Muhokama etilishi lozim bo'lgan yana bir muammo shuki, ijtimoiy-madaniy kompetentlik tushunchasi ko'pincha tor doirada – faqat axloqiy yoki kommunikativ jihatlar bilan cheklanib talqin qilinadi. Holbuki, jadid ma'rifatparvarlarining qarashlarida bu kompetensiya ko'p qirrali: fuqarolik pozitsiyasi, milliy ong, dunyoviy bilimlar, estetik tarbiya, madaniy xotira va qadriy tamoyillarning uyg'un holda shakllanishini anglatadi. Shu bois, bu kompetensiyani jadidlar merosi orqali rivojlantirishda faqat darslik yoki bilim berish bilan cheklanmasdan, balki shaxsiy namunalari, tarixiy shaxslar faoliyati, publitsistik matnlar, badiiy asarlar, teatr va san'at vositalarini keng qamrovda o'rganish talab etiladi. Amaldagi ta'lim dasturlarida (xususan, ona tili, adabiyot, tarix, huquq, madaniyatshunoslik kabi fanlarda) ijtimoiy-madaniy kompetentlik elementlariga doir komponentlar mavjud bo'lsa-da, ularning tizimli yondashuv asosida, integrativ va tarbiyaviy maqsadlarga yo'naltirilgan holda ishlanishi zaif. Jadidlar pedagogik merosi asosida bu bo'shliqni to'ldirish, ayniqsa, quyidagi yo'nalishlarda muhim ahamiyatga ega bo'lishi mumkin:

shaxsda madaniy identitet va milliy g'ururni shakllantirish;

fuqarolik ongini uyg'otish va ijtimoiy mas'uliyat hissini tarbiyalash;

turli madaniyatlarni anglash va ularni hurmat qilish madaniyatini rivojlantirish;

zamon bilan hamnafas fikrlash, tanqidiy va ijodiy tafakkurni kuchaytirish.

Jadid ma'rifatparvarlarining pedagogik qarashlari ijtimoiy-madaniy kompetentlikning zamonaviy talablari bilan bevosita bog'liq bo'lib, bu borada ularning boy merosidan maqsadli va tizimli ravishda foydalanish - nafaqat tarixiy haqiqatni qayta kashf etish, balki zamonaviy o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy kamoloti va fuqarolik shakllanishiga zamin yaratishdir. Bu esa o'z navbatida hozirgi ta'lim strategiyasiga chuqur integratsiyalashuvni, metodik yondashuvlarni va ta'lim vositalarini yangilashni taqozo etadi.

Xulosa va takliflar: Olib borilgan tahlillar asosida aniqlanishicha, Turkiston jadid ma'rifatparvarlarining ta'lim-tarbiyaga doir ilg'or pedagogik qarashlari zamonaviy ta'lim mazmunidagi ijtimoiy-madaniy kompetentlikni shakllantirishga xizmat qiluvchi muhim manbaadir. Jadidlar tomonidan ilgari surilgan g'oyalar – ilm-ma'rifatga da'vat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, erkin fikrlashga undash, ijtimoiy mas'uliyat va madaniy ongni rivojlantirish – bugungi o'quvchi shaxsini har tomonlama tarbiyalashda alohida didaktik ahamiyatga ega.

Ularning asarlarida aks etgan pedagogik yondashuvlar, zamon talablariga mos yangicha o'quv-uslubiy usullar, shaxsiy namuna asosidagi ta'lim, dunyoviy bilimlarni milliy qadriyatlar

bilan uyg'unlashtirish kabi jihatlar ijtimoiy-madaniy kompetentlikning quyidagi tarkibiy qismlarini rivojlantirishga xizmat qiladi:

madaniy identitet va tarixiy xotira;
kommunikativ va ijtimoiy moslashuvchanlik;
fuqarolik pozitsiyasi va axloqiy barqarorlik;
estetik did va ma'naviy intilish.

Bu esa hozirgi ta'lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuvni milliy-ma'naviy manbaalar bilan boyitish zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi. Jadid merosi – bu nafaqat tarixiy tajriba, balki amaliy-didaktik yo'nalish bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Takliflar. Jadidlar pedagogik qarashlarini umumta'lim fanlari (ona tili, adabiyot, tarix, madaniyatshunoslik) o'quv dasturlariga integratsiyalash orqali ijtimoiy-madaniy kompetentlikni shakllantirishga yo'naltirilgan didaktik komplekslar ishlab chiqish zarur.

Pedagogika oliygohlarida "Jadid pedagogikasi" bo'yicha maxsus fakultativ kurslar tashkil etilishi, bo'lajak o'qituvchilarni milliy-pedagogik meros bilan tanishtirish orqali ularning tarbiyaviy salohiyatini kuchaytiradi.

Jadid asarlariga asoslangan tarbiyaviy-didaktik qo'llanmalar, elektron resurslar va interaktiv materiallar yaratish – zamonaviy o'quvchilar ehtiyojlariga mos kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Ijtimoiy-madaniy kompetentlikni shakllantirishda teatr, adabiyot va san'at orqali ta'sirchan metodlardan foydalanish, xususan, jadidlar hayoti asosida sahna asarlari va muhokama mashg'ulotlarini tashkil etish foydali bo'ladi.

Fanlararo integratsiya asosida jadidlar faoliyatining madaniyatshunoslik, axloqiy tarbiya, huquqshunoslik bilan bog'liqligini tahlil qilish, bu orqali o'quvchilarda tarixiy va madaniy tafakkurni rivojlantirish imkoniyati yaratiladi.

Jadidlar asarlarini zamonaviy kompetensiyalar bilan uyg'unlashtirgan holda modellashtirilgan metodik tavsiyalar yaratish, bu orqali pedagoglarga amaliy yo'nalishdagi yordam ko'rsatish mumkin.

Shu tariqa, Turkiston jadid ma'rifatparvarlarining merosi asosida ijtimoiy-madaniy kompetentlikni shakllantirish, ta'limning ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishini kuchaytirishga, shaxsni barkamol, mas'uliyatli va ongli fuqarolik pozitsiyasiga ega etib tarbiyalashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Hamidov, H. Jadidlar faoliyatida ta'lim va tarbiya masalalari / H. Hamidov // Pedagogika fanlari jurnal. – 2021. – №4. – B. 55–60.
2. Byram, M. Teaching and Assessing Intercultural Communicative Competence / M. Byram. – Clevedon: Multilingual Matters, 1997. – 124 p.
3. Nishonova, Z. Milliy pedagogik meros va kompetensiyaviy yondashuv integratsiyasi / Z. Nishonova // O'zbek pedagogikasi jurnali. – 2022. – №2. – B. 42–47.
4. Xofstede, G. Madaniyatlar va tashkilotlar: Tarkibiy dasturlar aqli / G. Xofstede; rus tiliga tarj. N. V. Lukashevich. – M.: Alpina Biznes Buks, 2005. – 320 s.
5. Краевский, В. В. Общие основной педагогики / В. В. Краевский. – М.: Академия, 2001. – 336 с.
6. Новиков, А. М. Методология образования / А. М. Новиков. – М.: Эгвес, 2006. – 232 с.
7. Ismailov, T. X. (2024). Turkistonda "Usuli jadid" maktablarini tashkil etish masalalari. Inter education & global study, (9), 145-156.

Sharifzoda Sardorbek O'razboy tabib o'g'li,
Ma'mun universiteti rektor v.b.,
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD), dotsent
E-mail: sharifzoda_sardorbek@mamunedu.uz
Orcid: 0000-0003-4733-8204

GENDER YONDASHUV ASOSIDA O'QUVCHILARNI IJTIMOIYLASHTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada gender yondashuv asosida o'quvchilarni ijtimoiylashtirish jarayonining pedagogik asoslari tahlil qilingan. O'quvchilarning jamiyatdagi ijtimoiy rollarni egallashi, ularning shaxsiy rivojlanishi va teng huquqlilik tamoyillari asosida tarbiyalanishi gender tengligi konsepsiyasi bilan chambarchas bog'liqligi asoslab berilgan. Gender yondashuvni ta'lim-tarbiya jarayoniga integratsiyalash orqali o'quvchilarni jamiyatga moslashuvi, ularning ijtimoiy faolligini oshirish hamda stereotipik qarashlardan holi holda fikrlashga o'rgatish imkoniyatlari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, gender tengligi asosida ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantirishda maktab pedagogining roli va zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o'rni yoritilgan. Tadqiqotda zamonaviy xalqaro tajribalar, genderni oid metodik yondashuvlar hamda ularni o'zbek ta'lim tizimiga moslashtirish masalalari ham tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: gender yondashuv, ijtimoiylashtirish, teng huquqlilik, gender tengligi, ijtimoiy kompetensiya, stereotiplar.

Аннотация. В статье анализируются педагогические основы процесса социализации учащихся на основе гендерного подхода. Утверждается, что освоение учащимися социальных ролей в обществе, их личностное развитие и воспитание на принципах равенства тесно связаны с концепцией гендерного равенства. Рассмотрены возможности внедрения гендерного подхода в образовательный процесс с целью адаптации учащихся к обществу, повышения их социальной активности, обучения их мышлению без стереотипных взглядов. Также освещается роль школьного учителя и роль современных педагогических технологий в формировании социальных компетенций на основе гендерного равенства. В исследовании также анализируются современный международный опыт, методологические подходы к гендеру и вопросы их адаптации к узбекской системе образования.

Ключевые слова: гендерный подход, социализация, равные права, гендерное равенство, социальная компетентность, стереотипы.

Annotation: This article analyzes the pedagogical foundations of the process of socialization of students based on a gender approach. It is substantiated that the acquisition of social roles in society by students, their personal development and upbringing based on the principles of equality are closely related to the concept of gender equality. The possibilities of integrating a gender approach into the educational process to adapt students to society, increase their social activity, and teach them to think without stereotypical views are considered. The role of the school teacher and modern pedagogical technologies in the formation of social competencies based on gender equality are also highlighted. The study also analyzes modern international experiences, gender-related methodological approaches and issues of their adaptation to the Uzbek education system.

Keywords: gender approach, socialization, equality, gender equality, social competence, stereotypes.

Kirish. Zamonaviy ta'lim jarayoni nafaqat bilim berish, balki shaxsni har tomonlama ijtimoiy rivojlantirish, uni jamiyatga faol va mas'uliyatli a'zo sifatida tayyorlash kabi ko'p qirrali vazifalarni o'z ichiga oladi. Bu jarayonda o'quvchining ijtimoiylashuvi (sotsializatsiyasi) alohida ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiylashuv - bu shaxsning jamiyatda mavjud bo'lgan ijtimoiy me'yorlar,

qadriyatlar, rollar va xulq-atvor andozalarini o'zlashtirish jarayoni bo'lib, uni pedagogik nuqtayi nazardan samarali tashkil etish ta'lim tizimining dolzarb vazifalaridandir.

So'nggi yillarda ta'limda gender yondashuvning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Gender yondashuv - bu shaxsning jamiyatdagi ijtimoiy roli va imkoniyatlarini biologik emas, balki ijtimoiy-madaniy omillar bilan izohlovchi nazariy-metodologik qarashlar tizimidir. Bu yondashuv, avvalo, ta'lim muassasalarida o'quvchilarga nisbatan teng imkoniyatlar yaratish, ularda ijtimoiy adolat, inson huquqlari va tenglik g'oyalarini shakllantirishda muhim omil sifatida e'tirof etiladi[7 14 b].

Genderga asoslangan pedagogik strategiyalarni o'quvchilarning ijtimoiylashuv jarayoniga tatbiq etish orqali nafaqat gender stereotiplarini bartaraf etish, balki o'quvchilarning shaxsiy salohiyatini to'liq namoyon qilish, ularning ijtimoiy-psixologik moslashuvchanligini kuchaytirish ham mumkin. Ayniqsa, umumiy o'rta ta'lim tizimida o'g'il va qiz bolalar o'rtasida mavjud bo'lgan an'anaviy rollarni qayta ko'rib chiqish, ularning ijtimoiy faolligini rivojlantirishga xizmat qiladi. Tadqiqotda gender yondashuv asosida o'quvchilarni ijtimoiylashtirishning nazariy-metodologik asoslari, pedagogik imkoniyatlari, ta'lim jarayoniga integratsiyalash mexanizmlari hamda pedagogning ushbu jarayondagi strategik roli tahlil etiladi. Shu bilan birga, genderga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyasini milliy ta'lim tizimida amalga oshirish bo'yicha xorijiy tajribalar va ularning moslashtirish mexanizmlariga ham e'tibor qaratiladi.

Nazariy asoslar. Gender yondashuv asosida o'quvchilarni ijtimoiylashtirish jarayonini ilmiy-nazariy jihatdan o'rganish uchun avvalo "gender", "ijtimoiylashuv", "pedagogik kompetensiya", "ta'limda inklyuzivlik" kabi bazaviy tushunchalarning mohiyatini aniqlab olish zarur. Gender tushunchasi ijtimoiy fanlarda insonning jinsiy biologik belgilari emas, balki jamiyat tomonidan shakllantirilgan ijtimoiy rollar, me'yorlar va kutishlar tizimi sifatida izohlanadi. U insonning shaxsiy va ijtimoiy xatti-harakatlariga, tanlovlariga hamda ijtimoiy muhitdagi o'zaro munosabatlariga ta'sir qiluvchi kompleks kategoriya hisoblanadi.

O'quvchilarning ijtimoiylashuvi (socialization) - bu ularning ijtimoiy tajriba, qadriyatlar, rollar va kommunikativ ko'nikmalarni egallashi, shuningdek, jamiyatga faol moslashuvi jarayonidir. Bu jarayon nafaqat oilada, balki ta'lim muassasalarida - ayniqsa, maktab tizimida ham faol kechadi. Shu bois, ta'lim ijtimoiy institut sifatida o'quvchining shaxs sifatida shakllanishida, uning fuqarolik pozitsiyasi va genderga oid o'zini anglash darajasining ortishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Gender yondashuvga oid nazariyalar quyidagi asosiy paradigmalarda shakllangan:

Sotsiologik konstruktivizm nazariyasi (P. Berger, T. Lukman)[1; 320 b]: gender jamiyat tomonidan ijtimoiy konstruksiya sifatida shakllantiriladi, ya'ni u tabiiy emas, balki ijtimoiy o'zgaruvchan hodisadir.

Feministik pedagogika (Bell Hooks[3; 216 b], P. Freire[2; 272 b]): ta'limda ijtimoiy adolat va tenglikni ta'minlash uchun gender tengligi g'oyalarini o'quvchilarga singdirish zarur deb hisoblaydi.

Kognitiv rivojlanish nazariyasi (L. Kohlberg)[4; 448 b]: bolalarda gender identifikatsiyasi ularning aqliy rivojlanish bosqichlari orqali shakllanadi, ta'lim jarayoni esa bu identifikatsiyani mustahkamlaydi yoki qayta shakllantiradi. Genderga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyasi: bu yondashuv o'quv dasturlar, o'quv materiallari va pedagogik strategiyalarda gender tenglikni ta'minlashga qaratilgan bo'lib, barcha o'quvchilarning teng ijtimoiy imkoniyatlarga ega bo'lishini ko'zlaydi.

Mazkur nazariyalar asosida o'quvchilarda genderga oid ongli yondashuvni shakllantirish, ijtimoiy stereotiplardan holi mustaqil tafakkurni rivojlantirish, ijtimoiy faollikni oshirish va tenglik madaniyatini qaror toptirish mumkin. Bunday yondashuv, ayniqsa, murakkab sotsiomadaniy muhitda ijtimoiy adolat, inklyuzivlik va shaxsiy salohiyatni yuzaga chiqarish yo'lida samarali pedagogik vosita sifatida qaraladi. Shuningdek, gender tenglikni ta'limga integratsiyalash bo'yicha xalqaro hujjatlar - xususan, YUNESKO[8; 92 b], BMT Inson huquqlari deklaratsiyasi, va CEDAW[9] konvensiyasi doirasidagi yondashuvlar ham mazkur masalaning nazariy asoslarini mustahkamlovchi muhim manbaalar hisoblanadi.

Zamonaviy ta'lim jarayoni nafaqat bilim berish va ko'nikmalarni shakllantirish, balki inson shaxsini ijtimoiy hayotga tayyorlash, uni fuqarolik ongiga ega, teng huquqli, mustaqil va faol a'zo sifatida kamol toptirishga qaratilgan. Biroq bu jarayon ko'p hollarda o'quvchilar o'rtasida mavjud bo'lgan gender stereotiplari, an'anaviy ijtimoiy rollar ta'sirida kechadi. Shu nuqtayi nazardan qaralganda, ta'lim tizimiga gender yondashuvni integratsiyalash – bu nafaqat ilmiy yoki nazariy masala, balki jamiyatdagi ijtimoiy adolat va insoniy qadriyatlarni qaror toptirishga qaratilgan dolzarb pedagogik vazifadir.

Gender yondashuv mohiyatan o'quvchilarning shaxsiy, psixologik va ijtimoiy rivojlanishini teng asosda ta'minlashga xizmat qiladi. Bunday yondashuv o'quv muhitini diskriminatsiyadan holi, inklyuziv va har bir shaxs salohiyatini namoyon qilishga yo'naltirilgan shaklda tashkil etishni nazarda tutadi. Afsuski, amaliyotda hamon o'g'il bolalar texnik fanlarga, qiz bolalar esa gumanitar yo'nalishlarga yo'naltiriladi; rahbarlik, yetakchilik, tashabbuskorlik erkaklarga xos, itoatkorlik, injiqlik ayollarga xos deb qaraladi. Bu esa yosh avlodda ijtimoiy rollarni noto'g'ri anglashga, o'z-o'zini baholashning gender asosida cheklanishiga olib keladi.

Ta'lim bu stereotiplarni mustahkamlovchi emas, balki bartaraf etuvchi kuch bo'lishi kerak. Shuning uchun pedagoglar, ayniqsa boshlang'ich va o'rta ta'lim bosqichidagi o'qituvchilar o'quvchilarda gender tengligi haqidagi bilimlarni shakllantiruvchi, turli jins vakillarining imkoniyatlari bir xil ekanini anglatadigan ma'rifiy faoliyat yurituvchilarga aylanishi lozim. Bu yo'lda gender-senzitiv metodlar, o'zaro hurmat va inklyuzivlikka asoslangan dars jarayonlari, rolli o'yinlar, tahliliy vaziyatlar, tanqidiy tafakkurni rivojlantiruvchi topshiriqlar muhim vosita sifatida ishlatiladi.

Shuningdek, gender tenglik konsepsiyasining ta'lim jarayoniga to'liq tatbiq qilinishi - bu faqatgina metod emas, balki qadriyatdir. O'quvchi yoshlar ushbu qadriyatlarni ichki ong orqali qabul qilganlaridagina, ular teng imkoniyatli, tolerant, adolatparvar shaxs sifatida ijtimoiylashadilar. Ayniqsa, global dunyoda ayollar va erkaklar o'rtasida siyosiy, iqtisodiy, kasbiy va madaniy tenglikka intilayotgan bir paytda, bu masala ta'lim tizimi darajasida hal qilinmasa, kelajakda ijtimoiy muammolar yanada chuqurlashadi. Gender yondashuv asosida o'quvchilarni ijtimoiylashtirish - bu shunchaki ta'limdagi uslubiy tanlov emas, balki shaxs kamolotiga va jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladigan strategik yondashuvdir. Bu yondashuv orqali ta'lim jamiyatdagi muhim islohotchi kuchga aylanadi, stereotiplardan holi, erkin va adolatli ijtimoiy munosabatlar asoslari shakllanadi[6; 374 b].

Xulosa. Gender yondashuv asosida o'quvchilarni ijtimoiylashtirish bugungi ta'lim tizimining strategik yo'nalishlaridan biri bo'lib, u o'quvchilarning ijtimoiy tajribani ongli ravishda o'zlashtirishi, ijtimoiy rollarni tanlashi va insoniy qadriyatlarga asoslangan fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Mazkur yondashuv, avvalo, ta'lim muassasalarida tenglik, adolat, o'zaro hurmat, erkinlik va inklyuzivlik tamoyillarini qaror toptirishga xizmat qiladi. O'rganishlar shuni ko'rsatadiki, gender tenglik tamoyillari asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni o'quvchilarning shaxsiy salohiyatini to'laqonli ro'yobga chiqarish, ularning ijtimoiy faolligi va mustaqil fikrlash qobiliyatini oshirishda yuqori samaradorlikka ega. Ayniqsa, gender stereotiplarni tanqidiy tahlil qilishga asoslangan metodik yondashuvlar orqali o'quvchilarda tenglik va adolatga asoslangan ijtimoiy ongni shakllantirish mumkin. Shuningdek, ta'limda gender yondashuvni tizimli joriy etish uchun quyidagilar muhim deb topildi:

1. Pedagoglar va ta'lim muassasalari rahbarlarining gender kompetentligini oshirish;
2. Genderga sezgir (senzitiv) o'quv materiallarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;
3. Maktab muhitini ijtimoiy tenglikka asoslangan tarzda tashkil etish;
4. Genderga oid tarbiyaviy ishlarni ota-onalar bilan hamkorlikda olib borish.

Xulosa qilib aytganda, gender yondashuv asosida o'quvchilarni ijtimoiylashtirish – bu shaxs kamoloti va jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladigan, o'zaro tenglik va hamkorlikka asoslangan ta'limiy-ijtimoiy jarayon bo'lib, uni pedagogik jihatdan samarali tashkil etish - zamonaviy ta'lim tizimining eng dolzarb vazifalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Бергер П., Лукман Т. Социальное конструирование реальности. Трактат по социологии знания. – М.: Medium, 1995. – 320 с.
2. Фрейре П. Педагогика угнетенных. – М.: Канон+, 2005. – 272 с.
3. Hooks B. Teaching to Transgress: Education as the Practice of Freedom. – New York: Routledge, 1994. – 216 p.
4. Кольберг Л. Психология нравственного развития. – СПб.: Евразия, 2002. – 448
5. Isroilova N. Zamonaviy ta'lim tizimida gender yondashuvning metodologik asoslari // Ta'limda innovatsiyalar. – 2022. – №3. – В. 33–37.
6. Sardorbek, O., Sharifzoda, L., & Karimov, H. Q. (2022). Gender yondashuv asosida o'quvchi-qizlarda ijtimoiymadaniy kompetentlikni rivojlantirish omillari. Academic research in educational sciences, 3(7), 371-375.
7. Sharifzoda, S. (2023). Bo'lajak o'qituvchilarni gender yondashuv asosida ijtimoiylashtirishga yo'naltirilgan kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashga oid nazariy yondashuvlar. Молодые ученые, 1(18), 10-15.
8. UNESCO. Gender in Education Network in Asia-Pacific (GENIA) Toolkit. – Bangkok: UNESCO Bangkok, 2010. – 92 p.
9. CEDAW. Convention on the Elimination of All Forms of Discrimination against Women. United Nations. – New York, 1979.

*Xujayev Ro'zmat Raxmonovich,
Urganch Ranch texnologiyalar universiteti
Pedagogika yo'nalishi magistri
rozmatxujayev@gmail.com*

BO'LG'USI PEDAGOG TALABALARNING O'QITUVCHILIK KASBIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALARNING AHAMIYATI

Annotatsiya. Mazkur maqolada bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o'rni va ahamiyati tahlil qilingan. Pedagogik texnologiyalarni integratsiyalash orqali o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishning samarali usullari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: kasbiy kompetensiya, pedagogik texnologiya, innovatsion yondashuvlar, eksperiment, o'qituvchi tayyorlash.

Аннотация. В статье анализируется роль и значение современных педагогических технологий в развитии профессиональной компетентности будущих учителей. Рассматриваются эффективные методы формирования профессиональных компетенций учителей посредством интеграции педагогических технологий.

Ключевые слова: профессиональная компетентность, педагогическая технология, инновационные подходы, эксперимент, повышение квалификации учителей.

Abstract. This article analyzes the role and importance of modern pedagogical technologies in the development of professional competence of future teachers. Effective methods of forming professional competencies of teachers through the integration of pedagogical technologies are considered.

Keywords: professional competence, pedagogical technology, innovative approaches, experiment, teacher training.

Kirish. Bugungi kunda butun dunyo globallashtirish va raqamlashtirish, shuningdek sun'iy intellektga asoslangan texnologiyalar jamiyat a'zolarining barcha sohalarida, aynan, birmuncha ta'sirini ko'rsatmoqda. Zamonaviy ta'lim tizimida o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasi ta'lim jarayonining samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Shuni inobatga olgan holda, ta'lim jarayonining innovatsion jihatdan asoslangan, ta'lim oluvchining faolligini oshiruvchi zamonaviy texnologiyalar va dars o'tish uslublari muhim rol o'ynay boshladi. Zero, ta'lim sifati birinchi navbatda o'qituvchi shaxsiga, uning kasbiy bilim va kompetensiyalariga bevosita bog'liqdir.

Asosiy qism. Mamlakatimizda, xususan prezident asarlarida shaxs va uning kasbiy rivojlanishi bo'yicha hukumat qarorlari va me'yoriy xujjatlar qabul qilingan hamda qonun bilan himoyalangan.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining, ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlarni chuqurlashtirish, ta'lim tashkilotlari faoliyatini ilg'or xorijiy amaliyotlar asosida tashkil etish, pedagog kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish, nodavlat ta'lim tashkilotlari faoliyatini qo'shimcha qo'llab-quvvatlash maqsadida, oliy ta'limda o'quv dasturlarining amaliyotga yaqinlashtirilishi, innovatsion texnologiyalar asosida o'qitish tizimi joriy etilishi lozimligi alohida ta'kidlangan. Bu esa bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda pedagogik texnologiyalarni chuqur o'zlashtirish va ularni amaliyotda qo'llashni dolzarb masalaga aylantiradi[10].

Shuningdek, UNESCO (2022) hisobotida XXI asrda o'qituvchilar uchun muhim bo'lgan kompetensiyalar qatorida: tanqidiy fikrlash, raqamli savodxonlik, kommunikatsion ko'nikmalar va hayot davomida o'qish qobiliyati kabi mezonlar ilgari surilgan. Bularning barchasi, ayniqsa, pedagogik faoliyatga endigina kirib kelayotgan bo'lajak o'qituvchilar uchun dolzarb hisoblanadi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar – bu nafaqat yangi metod va uslublarni yig'indisi, balki ta'lim oluvchining shaxsiy faolligini, mustaqil fikrlashini, ijodiy yondashuvini rivojlantiruvchi

vositalari. Ayniqsa, interfaol metodlar, modulli o'qitish, masofaviy ta'lim vositalari va axborot-kommunikatsion texnologiyalardan (AKT) foydalanish bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini kompleks rivojlantirishga imkon yaratadi.

Shunday ekan, hozirgi kunda ta'lim sifati va samaradorligini oshirish uchun pedagog kadrlarni zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash, ularda metodik savodxonlik va texnologik kompetensiyalarni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan. Shu bois, mazkur mavzuni o'rganish ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan katta dolzarblikka ega.

Kasbiy kompetensiya - bu o'qituvchining kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi, shuningdek, ularni amaliyotda to'g'ri qo'llay olish qobiliyatidir. U quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

Pedagogik bilimlar (psixologiya, metodika, didaktika);

Amaliy ko'nikmalar (dars o'tish, baholash, kommunikatsiya);

Shaxsiy fazilatlar (ijodkorlik, liderlik, empatiya).

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar nima?

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar - bu o'quvchilarning faolligini oshirish, mustaqil fikrlashini rivojlantirish, ta'lim jarayonini samarali tashkil etishga xizmat qiluvchi innovatsion usullar va vositalardir. Bularga quyidagilar kiradi:

Konstruktiv o'qitish;

Modulli o'qitish;

Interfaol metodlar (klaster, debat, aqliy hujum, rolli o'yinlar);

Axborot-kommunikatsion texnologiyalar (AKT).

Zamonaviy texnologiyalarning kompetensiya rivojiga ta'siri

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, ijodiy yondashuv, muammoli vaziyatlarni hal eta olish kabi kompetensiyalarni shakllantiradi. Misol uchun:

Interfaol metodlar o'qituvchini shunchaki bilim beruvchi emas, balki faol ishtirokchi, yo'naltiruvchi roliga olib chiqadi;

AKT vositalari yordamida virtual laboratoriyalar, onlayn testlar, simulyatsiyalar orqali amaliy kompetensiyalar mustahkamlanadi;

Refleksiya asosida o'qitish o'z ustida ishlash ko'nikmasini shakllantiradi.

Adabiyotlar tahlili: Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirish masalasi bir qator mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar tomonidan chuqur o'rganilgan. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, bu kompetensiyalar faqat bilimlar majmui bilan emas, balki zamonaviy metodlar va texnologiyalar orqali rivojlantiriladi.

V.A.Slastenin fikriga ko'ra ta'lim oluvchilarda kompetentlik bu aslida tayyorgarlik darajasiga hozirda modernizatsiya qilinayotgan va uzluksiz pedagogik ta'lim konsepsiyasi amalga oshirilayotgan sharoitlarda oliy ta'limi tizimi tomonidan qo'yilayotgan talablarni aniqlashni nazarda tutadi [3]

Kompetentlik –bu shaxsiy xususiyatga ega, va malakali professional yoki funksional xususiyatlar majmuasidir[5].

M.I.Lukyanova o'qituvchining psixologikpedagogik salohiyati asosida pedagogik faoliyat uchun yuqori darajadagi professional tayyorgarlik va o'quv jarayonida talabalar bilan samarali o'zaro munosabatlarga ega bo'lgan shaxsning o'ziga xos xususiyatlarini tushunadi. Psixologik va pedagogik kompetensiya tarkibiy qismi sifatida u psixologik va pedagogik yo'nalishlarning bloklarini ko'rib chiqadi[7].

A.V.Xutorskoy "kompetensiya" va "kompetentlik" tushunchalarini "sinonim ishlatilgan" tushunchalari orasidagi farqni ko'rsatadi. Kompetensiya –shaxsning o'zaro bog'liq xususiyatlarini (bilim, ko'nikma, faoliyat metodikasi), ma'lum mavzular va jarayonlar uchun belgilanadigan va ularga nisbatan sifatijihatidan samarali ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan kompleks. G.M.Kodjaspirova "o'qituvchi malakali o'qituvchi bo'lishi uchun muayyan pedagogik kompetentlikka ega bo'lishi kerak", deb hisoblaydi[6]

Kasbiy sifatlar va kasbga yo'nalganlik, uning darajasini aniqlash va kasbiy shakllanish masalasiga rus olimi K.M.Gurevich shunday ta'kidlaydi: «Har bir inson, har qanday kasbni

egallashi mumkin, ammo asosiy narsa bu qancha kuch va vaqt talab qilishida. Inson hayotidagi mehnat faoliyati davri cheklangan bo'lib, samarasiz, quvonchsiz faoliyat nafaqat shaxsiy baxtsizlik - bu pirovard natijada butun jamiyatda aks etadi. Shuning uchun kasbiy yo'nalganlikni bashorat qilish va uni shakllantirish yo'llari hech qachon o'z ahamiyatini yo'qotmaydi» [8]

“Kompetensiya-bu ta'lim orqali egallagan bilim, ko'nikma va malakalar asosida shakllangan alohida namoyon bo'ladigan shakllanuvchi qobiliyat sirasiga kiradi. Kompetensiyaviy bilim yoki ko'nikmaga tushmaydi; kompetentlik –bu olim yoki o'qimishli odam bo'lishni anglatmaydi”. Kompetensiya va ko'nikma o'rtasidagi farqni ajratish kerak. Ko'nikma –bu muayyan vaziyatda harakat, kompetensiya –xatti-harakatlar, ko'nikmalarning kuzatuvlaridan o'rganilishi mumkin bo'lgan xarakteristik xususiyatdir. Shunday qilib, ko'nikmalar amalda kompetensiya sifatida namoyon bo'ladi. Kompetensiya mahorat, harakatni kuchaytiradi. Kompetensiya esa barchasini umumiy holda yaxlitlagan holda tafakkur qilish natijasida shakllanadi.

Aynan bu borada I.S.Eshquvvatov o'zining «Bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik kompetentlik sifatlarini innovatsion rivojlantirish» maqolasida pedagogik kompetensiyani "ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etishga xizmat qiluvchi integrativ sifat" deya ta'riflab, ularni rivojlantirishda innovatsion metodlar, xususan, “konstruktiv yondashuv” asosiy rol o'ynashini ta'kidlaydi [1].

Ibragimov X. I. o'z maqolasida esa kasbiy kompetensiyani faqat kasbiy bilimlar emas, balki kommunikativ, metodik va axborot texnologik ko'nikmalarning majmui sifatida yondashadi. U, ayniqsa, “modulli o'qitish” texnologiyasi orqali bo'lajak o'qituvchilarda mustaqil fikrlash va muammoni hal qilish salohiyatining ortishini ko'rsatib bergan [2].

Sattorova Sh. zamonaviy pedagogik yondashuvlarni tahlil qilar ekan, “interfaol metodlar nafaqat dars samaradorligini oshiradi, balki o'qituvchining o'z faoliyatiga refleksiya qilish ko'nikmasini ham shakllantiradi”, deb ta'kidlaydi [4]. Bu fikr, ayniqsa, zamonaviy o'qituvchidan kutilyotgan kompetensiyalar ro'yxati bilan to'liq uyg'unlashadi.

Shuningdek, faqat an'anaviy usullar bilan dars beruvchi o'qituvchilar bilan, interfaol va raqamli texnologiyalarni qo'llovchi o'qituvchilar o'rtasida o'qituvchilar bilim sifati va darsga qiziqishi bo'yicha sezilarli tafovut mavjud. Buni talabalarining ta'lim olishga bo'lgan qiziqishlarini aniqlash uchun T.I.Ilning «O'quv motivatsiyasini o'rganish usullari» so'rovnomasidan foydalanildi.

O'tkazilgan so'rovnoma natijalariga ko'ra, talabalarining oliy ta'lim muassasalarida o'qish motivatsiyasini aniqlash bo'yicha kurslar kesimidagi farqlarini quyidagi jadvalda keltirib o'tamiz.

Metodika tahlili ko'rsatkichiga ko'ra, bilimlarni o'zlashtirish shkalasida farqli tafovut ko'rsatilmasada ammo, kasbni o'zlashtirish shkalasida birinchi kurs va to'rtinchi kurs o'rtasida tafovut kuzatildi ($U=8,103$; $p<0,05$). Ushbu holatni quyidagicha izohlash mumkin. Birinchi kurs talabalarining kasbga bo'lgan qiziqishi, ancha yuqori raqamlarni ko'rsatdi, sababi, ularga o'tilayotgan fanlar o'zlarining mutaxassisligi bo'yicha chuqur ma'lumotlarni berilishi hamda kasbiy rivojlanishiga turtki bo'ladigan fanlarning o'qitilishi bunga asosiy sabab bo'la oladi. Bu jarayon 2-kursda yana yuqori raqamga ko'tarildi. Ammo, 3-kursda kasbga bo'lgan qiziqishdan tashqari, qo'shimcha kasblarning ichki faoliyatiga qiziqishi natijasida, ulardagi o'z kasbiga bo'lgan ma'suliyatni biroz pasayishi, kasbni o'zlashtirish shkalasidagi past ko'rsatkichni ko'rsatadi. Yuqori kursga kelib, ya'ni, 4-kursda kasbni o'zlashtirish shkalasi yana ijobiy ko'rsatkichga o'sadi. Sababi, mutaxassisligi bo'yicha amaliyot davrini o'tashi va shuning asosida o'z kasbining mukammal egallashi zarurligini anglagan holda o'z kasbini o'zlashtirish jarayoni yanada yuqorilab boradi.

Talabalarining diplom olish shkalasida psixologiya talabalarining kurslar kesimida farqlar bo'lib ($U=9,442$; $p<0,05$), asosan 1-kurs talabalarining diplom olishga bo'lgan ishtiyoqi yuqori bo'lib, o'quv faoliyatini boshlashi va keyingi kursda aynan bu ko'rsatkich birmuncha pasaya boradi. Sababi, ularning o'quv jarayoni boshlanishida, kasblari bo'yicha to'liq ma'lumotlar olishi, egallamoqchi bo'lgan kasblarining ma'suliyati, sir-sinoati hamda imkoniyatlari bilan yaqindan tanishtirilgandan keyin, ulardagi diplom olish g'oyasini o'rnini endi kasbiy mukammallikka yo'naltirish yetakchi o'rinni egallaydi. Lekin 4-kursga kelib, mutaxassisligi bo'yicha davlat

imtihonlaridan o'tish muammosi paydo bo'la boshlashi tufayli asosiy maqsad diplom olishga qaratiladi. Bunga ko'ra, talabalardagi diplom olish istagi 4-kursga kelib yana yuqori ko'rsatkichni ko'rsatadi. O'zidagi kelajakka bo'lgan istiqbolli yo'nalishi uchun ijobiy yo'naltirilgan kasbiy ma'suliyatni his eta boshlaydi[9].

Ushbu tahlillar shuni ko'rsatadiki, kasbiy kompetensiyani shakllantirishda nazariy bilimlarni yetkazish bilan birga, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni samarali qo'llay olish ko'nikmasi eng muhim kompetensiyalar qatoriga kiradi. Ustozlarning metodik tayyorgarligi, AKTdan foydalanish saviyasi va interaktiv yondashuvlar - bu borada hal qiluvchi omillardir.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarda yana o'quvchilarning faolligini oshirish, mustaqil fikrlashini rivojlantirish, ta'lim jarayonini samarali tashkil etishga xizmat qiluvchi innovatsion usullar va vositalardir. Bularga quyidagilar kiradi:

Konstruktiv o'qitish: o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishga qaratilgan yondashuv;

Modulli o'qitish: o'quv jarayonini kichik modullarga ajratish orqali o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini oshirish;

Interfaol metodlar: klaster, debat, aqliy hujum, rolli o'yinlar kabi metodlar orqali o'quvchilarning faolligini oshirish;

Axborot-kommunikatsion texnologiyalar (AKT): onlayn ta'lim platformalari, virtual laboratoriyalar, simulyatsiyalar orqali o'quvchilarning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish.

Xulosa sifatida, interfaol metodlar va AKT vositalarini qo'llash o'qituvchilarning pedagogik bilimlari, amaliy ko'nikmalari va shaxsiy fazilatlarini rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. Shu sababli, ta'lim tizimida bunday texnologiyalarni keng joriy etish zarur. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning qo'llanilishi bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy kompetensiyalarning deyarli yuqori sifatga erishishi bilan birga, metodik tayyorgarlikda innovatsion yondashuvlarning zaruriyatini amaliy jihatdan tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Eshquvvatov I. S. (2022). Bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik kompetentlik sifatlarini innovatsion rivojlantirish. Ijodkor o'qituvchi, jurnali 1(1), 45–50.
<https://ijournal.uz/index.php/jartes/article/view/1156>
2. Ibragimov X. I. (2023). Oliy ta'lim muassasalari pedagoglari kasbiy kompetentligini takomillashtirishning nazariy asoslari. JARTES, 1(1), 15–20.
3. Muslimov N.A., N.Karimova. Kasb ta'limi o'qituvchilarining amaliy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. – T.: «Iqtisodiyot», 2012
4. Sattorova Sh. (2023). Interfaol ta'lim metodlari va ularning samaradorligi. Science and Education, 4(2), 112–118.
5. Введенский В.Н. Моделирование профессиональной компетентности педагога. // Педагогика. –2003. –№10. –С. 51-55
6. Коджаспирова Г.М.. Педагогика. Учебник для студентов высших учебных заведений. –М.: “Гардарика”, 2004. –528 с.
7. Лукьянова М.И. Психолого-педагогическая компетентност учителя. // Педагогика. – 2001. –№10. –С. 56-61. Хуторской А.В. Ключевые компетенции как компонент личностно-ориентированной парадигмы. // “Народное образование” журналы. –2003. –№ 2. –С. 58-64
8. Гуревич К.М., Матвеев В.Ф. О профессиональной пригодности операторов и способах ее определения. Вопросы пригодности оперативного персонала энергосистем. М.: Просвещение, 1966. 239-с
9. Sadikova U.B. «Psixologiya yo'nalishi talabalarida kasbiy sifatlarni rivojlantirishning psixologik xususiyatlari»-dissertatsiyasidan 2023-yil
10. <https://lex.uz/docs/-6788002>

*Qurbonova Zilola Ismoil qizi,
Buxoro davlat pedagogika instituti
maktabgacha ta'lim kafedrasida o'qituvchisi*

“ILK QADAM” O‘QUV DASTURI ASOSIDA 5-7 YOSHLI BOLALARNI MAKTAB TA’LIMIGA TAYYORLASHNING TAKOMILLASHTIRILGAN MODEL

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta’lim tizimini modernizatsiya qilish yo‘lidagi muhim bosqichlardan biri bo‘lgan “Ilk qadam” o‘quv dasturining mazmuni, metodik asoslari va dolzarbligi tahlil etiladi. Maqolada 5-7 yoshli bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash jarayonining zamonaviy talablarga muvofiq tashkil etilishi, o‘yin asosida ta’lim berishning afzalliklari, rivojlantiruvchi yo‘nalishlarning ahamiyati hamda mavjud muammolar – xususan, baholash mezonlari, individual yondashuv, ota-onalar bilan hamkorlik kabi jihatlar chuqur tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: “Ilk qadam” dasturi, maktabga tayyorlov, maktabgacha ta’lim, o‘yinli metodika, integrativ yondashuv, baholash mezonlari, individual rivojlanish, tayanch kompetensiyalar, metodik model.

Аннотация. В данной статье анализируются содержание, методологические основы и актуальность учебной программы «Ilk qadam», которая является одним из ключевых этапов модернизации системы дошкольного образования в Республике Узбекистан. Рассматриваются вопросы организации подготовки детей в возрасте 5–7 лет к школьному обучению в соответствии с современными требованиями, преимуществами игрового подхода в обучении, значение развивающих направлений, а также существующие проблемы - в частности, критерии оценки, индивидуальный подход, сотрудничество с родителями и другие аспекты.

Ключевые слова: программа «Ilk qadam», подготовка к школе, дошкольное образование, игровая методика, интегративный подход, критерии оценки, индивидуальное развитие, ключевые компетенции, методическая модель.

Annotation. This article analyzes the content, methodological foundations, and relevance of the “Ilk Qadam” (First Step) curriculum, which represents a key stage in the modernization of the preschool education system in the Republic of Uzbekistan. The article discusses the organization of preparing children aged 5–7 for school in accordance with modern requirements, the advantages of play-based learning, the significance of developmental approaches, and existing challenges - particularly assessment criteria, individualized approaches, cooperation with parents, and other related aspects.

Keywords: “Ilk Qadam” program, school readiness, preschool education, play-based methodology, integrative approach, assessment criteria, individual development, core competencies, methodological model.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimida 2018-yildan boshlab joriy etilgan “Ilk qadam” o‘quv dasturi mamlakatimizning milliy ta’lim siyosatida muhim o‘rin tutadi. Bu dastur maktabgacha yoshdagi bolalarning barcha asosiy rivojlanish yo‘nalishlarini qamrab olib, ularni maktab ta’limiga samarali tayyorlashga xizmat qiladi. “Ilk qadam” dasturi bolalarning nafaqat kognitiv bilimlarini, balki nutq, ijtimoiy-ko‘nikmalar, jismoniy va estetik rivojlanishlarini integrativ tarzda rivojlantirishni maqsad qilgan.

“Ilk qadam” dasturining o‘ziga xosligi shundaki, u maktabgacha ta’limning zamonaviy pedagogik yondashuvlari – o‘yinli metodika, individual yondashuv, integratsiyalashgan o‘quv-mashg‘ulotlar tizimini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan. Dastur tarkibida 7 ta asosiy rivojlanish yo‘nalishi belgilangan: nutq rivoji, matematik tushunchalar, jismoniy rivojlanish, tasviriy faoliyat, musiqiy madaniyat, ijtimoiy va ma’naviy tarbiya, tabiiy-muhit bilan tanishish. Har bir yo‘nalish bolalarning maktabdagi o‘qish va o‘rganish jarayoniga tayyor bo‘lishi uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan.

Shu bilan birga, “Ilk qadam” dasturining amaliy tatbiqida ayrim cheklovlar ham mavjud. Jumladan, dasturda baholash vositalarining yetarlicha rivojlanmaganligi, individual yondashuvning to‘liq amalga oshirilmaligi, pedagoglar va ota-onalarning dasturga bo‘lgan tayyorgarlik darajasi hamda resurslarning kamligi singari muammolar mavjud. Bu esa, o‘z navbatida, bolalarning maktabga tayyorligini to‘liq baholash va rivojlantirish imkoniyatlarini cheklaydi.

Shu sababli, “Ilk qadam” dasturi asosida 5–7 yoshli bolalarni maktabga tayyorlashning takomillashtirilgan modeli yaratish dolzarb ilmiy va amaliy vazifa hisoblanadi. Mazkur model bolalar rivojlanishining barcha muhim komponentlarini inobatga olgan holda, baholash va tarbiyalashning yangi yondashuvlarini joriy etishga, pedagogik jarayonni shaxsga yo‘naltirilgan hamda kompleks tizimga aylantirishga xizmat qiladi.

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi - “Ilk qadam” o‘quv dasturining afzalliklari va kamchiliklarini tahlil qilib, maktabga tayyorlash jarayonini ilmiy asosda takomillashtirish uchun model taklif etishdir. Shu bilan birga, maqola zamonaviy pedagogik va psixologik yondashuvlar asosida bolalarning maktabga tayyorligini baholash va rivojlantirishning samarali mexanizmlarini o‘rganadi hamda amaliy tavsiyalar beradi.

“Ilk qadam” dasturining falsafiy-nazariy asoslari. “Ilk qadam” o‘quv dasturi zamonaviy pedagogik va psixologik tamoyillar asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, uning asosiy falsafiy-nazariy yondashuvlari quyidagilardan iborat:

1. *Kompleks yondashuv.* “Ilk qadam” dasturi bolalarning rivojlanishini yagona tizim sifatida ko‘radi. Bu yondashuv bolaning intellektual, emotsional, ijtimoiy, jismoniy va ma‘naviy jihatlarini birgalikda rivojlantirishni nazarda tutadi. Kompleks yondashuv bolalarning maktabga tayyorlik darajasini faqat bilimlar asosida emas, balki ularning har tomonlama shaxs sifatida shakllanishi bilan o‘lchash imkonini beradi. Shu sababli dasturda turli yo‘nalishlar – nutq, matematika, tasviriy san‘at, musiqa, jismoniy tarbiya va ijtimoiy ko‘nikmalar bir-biri bilan integratsiyalashgan holda o‘qitiladi.

2. *Integrativ o‘qitish.* Dasturda fanlararo integratsiya konsepsiyasi keng qo‘llaniladi. Masalan, nutq rivojiga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlarda matematika tushunchalari, o‘yinlarda esa ijtimoiy-madaniy ko‘nikmalar o‘rgatiladi. Bu yondashuv bolalarga bilimlarni turli kontekstlarda qo‘llashni o‘rgatadi, shuningdek, o‘qish va yozish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni mustahkamlaydi. Integratsiyalashgan o‘qitish bolaning qiziqishini uyg‘otadi va uning o‘zlashtirish jarayonini samarali qiladi.

3. *O‘yinli metodika.* “Ilk qadam” dasturining markaziy tamoyillaridan biri - o‘yin orqali o‘qitish. O‘yin nafaqat bolaning qiziqishini oshiradi, balki uning ijtimoiy, emotsional va kognitiv rivojlanishiga ham xizmat qiladi. O‘yinli faoliyat orqali bolalar muloqot qilishni, muammolarni hal qilishni, ijodiy fikrlashni o‘rganadilar. Dasturda dramatik o‘yinlar, rolli o‘yinlar, konstruktiv o‘yinlar va boshqalar pedagogik maqsadlarda samarali qo‘llaniladi. Bu metodika Vygotskiy va Piaget nazariyalarida ta’kidlangan “zona yaqin rivojlanish” kontsepsiyasini amalda qo‘llashga imkon beradi.

Dastur 5–7 yoshdagi bolalarning rivojlanishining barcha asosiy sohalarini qamrab oladi va ularning shaxs sifatida shakllanishiga kompleks yondashuvni ta’minlaydi. Dastur tarkibida quyidagi 7 ta rivojlantiruvchi yo‘nalish o‘rin olgan:

Rivojlantiruvchi yo‘nalish	Ta’rif va Mazmuni
Nutq rivoji	Bolalarda nutq qobiliyatini, so‘z boyligini, muloqot madaniyatini oshirishga qaratilgan mashg‘ulotlar.
Matematika asoslari	Son tushunchalari, shakllar, o‘lchovlar, hisoblash ko‘nikmalarini shakllantirish.
Jismoniy rivojlanish	Motorika, mushaklar koordinatsiyasi, umumiy jismoniy tayyorgarlikni rivojlantirish.

Tasviriy san'at	Ranglar, chizish, modellashtirish orqali bolalarning ijodiy fikrlashi va estetik didini rivojlantirish.
Ijtimoiy-madaniy ko'nikmalar	Guruh ichida muloqot, mehnatga bo'lgan munosabat, madaniyat qoidalarini o'rganish.
Tabiatshunoslik asoslari	Atrof-muhitni bilish, tabiat fenomenlarini tushunish.
Musiq va ritm	Eshitish qobiliyati, ritmni anglash va ijro etish, musiqiy madaniyatni shakllantirish.

Ushbu yo'nalishlar o'zaro integratsiyalashgan bo'lib, bolalarning maktabga tayyorligini ta'minlashda kompleks yondashuvni tashkil etadi.

Nutq rivoji. Nutq – bolalarning muloqot qilish, fikrlarini ifodalash va ijtimoiy muhitda o'z o'rnini topish qobiliyatining asosi. Maktabga tayyorlov bosqichida nutq rivojini ta'minlash ayniqsa muhim, chunki yaxshi rivojlangan nutq bolalarga o'qituvchi bilan samarali muloqot qilish, bilimlarni o'zlashtirishda yordam beradi.

Metodik tavsiyalar:

- So'z boyligini kengaytirish uchun rasmi kartalar va dialog mashqlari qo'llaniladi.
- Bolalar nutqining to'g'ri shakllanishini ta'minlash uchun individual suhbatlar o'tkazish.
- Nutqdagi xatoliklarni aniqlab, ularni tuzatish uchun maxsus mashqlar qo'llash.

Misollar:

- Rasmi kartochkalardan foydalanib, predmet va harakatlarni nomlash mashqlari.
- Hikoya tinglab, bolani qisqacha o'z so'zlari bilan voqeani aytib berishga rag'batlantirish.
- “Kim nima qiladi?” o'yinida turli kasblar yoki hayvonlar haqida gapirish.

Matematika asoslari. Matematika asoslari bolalarning mantiqiy fikrlash va muammolarni yechish ko'nikmalarini shakllantiradi. 5-7 yoshda son tushunchalari, shakllar va o'lchovlarni o'rganish bolaning maktabdagi muvaffaqiyati uchun poydevor hisoblanadi.

Metodik tavsiyalar:

- Raqamlarni tanitish va sanashni o'yinlar orqali o'rgatish.
- Geometrik shakllar bilan tanishtirish va ularni qo'lda yasash.
- O'lchov va hisoblash tushunchalarini oddiy amaliy mashqlar yordamida o'rgatish.

Misollar:

- “Ko'p-kam” tushunchasini o'rganish uchun taqqoslash o'yinlari.
- Shakllarni bo'laklarga ajratish va ulardan yangi shakllar yasash.
- Oddiy qo'shish va ayirish vazifalarini bajarish.

Jismoniy rivojlanish. Jismoniy rivojlanish bolaning sog'lom bo'lishi, motorik qobiliyatlarning shakllanishi va maktabda faoliyat yuritishga tayyor bo'lishini ta'minlaydi. 5–7 yoshda motorika, mushak koordinatsiyasi va umumiy jismoniy holatni rivojlantirishga katta e'tibor qaratiladi.

Metodik tavsiyalar:

- Kichik va katta motorikani rivojlantiruvchi mashqlar o'tkazish.
- Mushaklarni kuchaytirish uchun harakatli o'yinlar va gimnastika mashqlari.
- Jismoniy faoliyatning muntazam nazoratini amalga oshirish.

Misollar:

- Barmoqlarni mustahkamlash uchun plastilin yoki loy bilan ishlash.
- To'p tepish, sakrash va boshqa o'yinlar orqali koordinatsiyani oshirish.
- Oddiy jismoniy mashqlar, masalan, arqon o'ynash yoki yyengil yugurish.

Tasviriy san'at. Tasviriy san'at bolalarning ijodiy fikrlashini va estetik didini rivojlantiradi. Ranglar, shakllar va chizish orqali bolalar o'z his-tuyg'ularini ifoda eta olishni o'rganadilar, bu ularning umumiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Metodik tavsiyalar:

- Ranglarni tanlash va aralashtirish uchun turli bo'yoq va materiallardan foydalanish.

• Bolalarning ijodiy faoliyatini rag'batlantirish uchun kichik san'at loyihalarini tashkil qilish.

- Natijalarni baholab, ijobiy fikr bildirish.

Misollar:

- Rangli qog'ozdan kollaj yasash.
- Oddiy shakllarni chizish va bo'yash mashqlari.
- Plastilin yordamida turli hayvonlar va o'simliklarni yasash.

Ijtimoiy-madaniy ko'nikmalar. Ijtimoiy-madaniy ko'nikmalar bolalarning jamiyatda o'zaro munosabatda bo'lishi, mehnat va odob qoidalariga rioya qilishni o'rganishiga yordam beradi. Ushbu ko'nikmalar maktabga moslashishda muhim rol o'ynaydi.

Metodik tavsiyalar:

- Guruhda hamkorlik va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish uchun jamoaviy o'yinlar.
- Ota-onalar bilan hamkorlikda ijtimoiy qoidalarni o'rgatish.
- Mehnat va madaniyat qoidalarini o'yinlar orqali tushuntirish.

Misollar:

- Navbat kutish, yordam berish va o'zaro hurmat mavzularida rolli o'yinlar.
- Kichik guruh vazifalarini birgalikda bajarish mashqlari.
- Salomlashish va xayrlashish madaniyati bo'yicha mashqlar.

Tabiatshunoslik asoslari. Tabiatshunoslik bolalarga atrof-muhitni tushunish va unga hurmat bilan munosabatda bo'lish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu yo'nalish bolalarni tabiat fenomenlari haqida bilimlar bilan ta'minlaydi.

Metodik tavsiyalar:

- Tabiatdagi jarayonlarni o'yin va eksperimentlar yordamida tushuntirish.
- Sayrlar tashkil etib, tabiatni kuzatishga rag'batlantirish.
- Atrof-muhitni asrashga oid oddiy qoidalarni o'rgatish.

Misollar:

- O'simliklarni sug'orish va o'sishini kuzatish.
- Ob-havo o'zgarishlarini kuzatish va muhokama qilish.
- Oddiy tabiat fenomenlari haqidagi savollar-javoblar.

Musiq va ritm. Musiq va ritm bolaning eshitish qobiliyatini rivojlantiradi, ritm va harakat uyg'unligini oshiradi. Musiqiy mashg'ulotlar bolalarda emotsional ifoda va ijodiy qobiliyatlarni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Metodik tavsiyalar:

- Ritm mashqlari uchun oddiy musiqiy o'yinlar va harakatlarni qo'llash.
- Musiqiy asboblardan tanishtirish va qo'shiq kuylashni rag'batlantirish.
- Musiqiy madaniyatni oshirish uchun doimiy musiqiy mashg'ulotlar tashkil etish.

Misollar:

- Qadam urish, qo'l qarsak chalish orqali ritm mashqlari o'tkazish.
- Oddiy qo'shiqlar kuylash va ritm bilan harakat qilish.
- Baraban, metallofon kabi asboblarda ijro etish.

“Ilk qadam” milliy dasturining asosiy pedagogik tamoyillaridan biri bu – o'yin orqali ta'limdir. Bolalar uchun eng tabiiy faoliyat shakli bo'lgan o'yin yosh xususiyatlariga to'liq mos keladi, ularning diqqatini jalb qiladi va o'rganish jarayonini yanada samarali qiladi. Zamonaviy pedagogika nuqtayi nazaridan o'yin nafaqat vaqt o'tkazish vositasi, balki rivojlantiruvchi va ta'lim beruvchi muhim vosita hisoblanadi. Shu bois “Ilk qadam” dasturida o'yin metodikasi keng qo'llanilib, bolalarning har tomonlama rivojlanishi uchun bir qator imkoniyatlar yaratadi, jumladan:

Motivatsiyani oshirish. O'yin bolalarga o'rganishni qiziqarli, tabiiy va hayajonli jarayon sifatida his qilishga yordam beradi. Har qanday faoliyatda muvaffaqiyatga erishish uchun motivatsiya muhim bo'lgani kabi, o'yin bolaning faolligini, qiziqishini va ishtiyoqini oshiradi. Bu esa diqqatni uzoq vaqt ushlab turish, o'zlashtirish jarayonida faol ishtirok etishni ta'minlaydi. Masalan, o'yin shaklidagi topshiriqlar bola uchun qiyinchilik emas, balki zavqli sinovga aylanadi.

Shu bilan birga, o'yin orqali o'rganish jarayoni stress va bosimdan xoli bo'lib, bolada o'qishga nisbatan ijobiy munosabat shakllanadi.

Ijodiy fikrlashni rivojlantirish. O'yin metodikasi bolalarda ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. O'yinlarda turli vaziyatlarni hal qilish, yangi rollarni bajarish, muammolarni o'ziga xos tarzda yyechish talab etiladi. Bu esa bolaning tasavvur doirasini kengaytiradi, yangi g'oyalar yaratishga, muammolarga ijodiy yondashishga yordam beradi. Masalan, dramatik o'yinlarda bola qahramon rolida turli holatlarni boshdan kechiradi va ularni o'zi hal qiladi, bu esa fikrlashni yanada chuqurlashtiradi va erkinlashtiradi.

Ijtimoiy ko'nikmalarni mustahkamlash. Guruh o'yinlari bolalarga muloqot qilishni, jamoada ishlashni, o'z fikrini ifoda etishni va boshqalarni tinglashni o'rgatadi. Shu orqali bolalar ijtimoiy qoidalar, guruh ichidagi rollar va me'yorlarni o'zlashtiradilar. Ijtimoiy muhitda o'zaro aloqalar o'rnatish va hamkorlik qilish ko'nikmalari shakllanadi. Bu esa bolalarning maktab muhitiga muvaffaqiyatli moslashishiga yordam beradi, chunki maktabda ham ko'p holatlarda guruhda ishlash talab etiladi.

Emotsional barqarorlik. O'yinlar bolalarga o'z his-tuyg'ularini anglash va ifoda etish imkonini beradi. Ular qaysi vaziyatda qanday his-tuyg'ular paydo bo'lishini tushunib yetadi, shu bilan birga boshqalar bilan munosabatlarni tartibga solishni o'rganadi. Masalan, o'yin davomida bolalar g'azab, quvonch, qo'rquv kabi hissiyotlarni boshdan kechiradi va ularni boshqarish yo'llarini topadi. Bu esa ularning emotsional barqarorligini oshiradi, stress va ziddiyatlarni yengishga yordam beradi.

Har tomonlama rivojlanish. O'yinlar ko'p qirrali rivojlanishni ta'minlaydi. Ular nutq rivojini, motorikani, fikrlash qobiliyatini va hissiy rivojlanishni birgalikda rag'batlantiradi. Misol uchun, qo'l harakatlarini talab qiluvchi o'yinlar motorikani yaxshilaydi, musiqiy o'yinlar eshitish qobiliyatini rivojlantiradi, dramatik o'yinlar esa nutq va ijtimoiy ko'nikmalarni mustahkamlaydi. Shu tarzda o'yin metodikasi bolaning o'ziga xos qobiliyatlarini aniqlashga va rivojlantirishga xizmat qiladi, natijada u maktab muhitiga muvaffaqiyatli tayyorlanadi.

"Ilk qadam" dasturida o'yin asosida ta'lim bolalarning barcha rivojlanish yo'nalishlarini birlashtiruvchi samarali vosita hisoblanadi. Bu metodika yosh bolalarning tabiiy o'rganish xususiyatlariga mos kelib, ularni maktabga tayyorlash jarayonini qiziqarli, mazmunli va samarali qiladi. Shu sababli o'yin metodikasini yanada kengaytirish va takomillashtirish milliy ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

Xulosa. O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida maktabgacha ta'lim bosqichiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, 5–7 yoshli bolalarning maktab ta'limiga to'laqonli tayyorlanishi ularning keyingi bosqichlardagi muvaffaqiyati uchun muhim poydevor hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, mamlakatimizda joriy etilgan "Ilk qadam" o'quv dasturi maktabgacha ta'lim sifatini oshirishda muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda.

Dastur o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra, bolaning har tomonlama rivojlanishini ta'minlashga, tayanch kompetensiyalarni shakllantirishga va ijtimoiy moslashuvini kuchaytirishga qaratilgan. U integratsiyalashgan yondashuv, o'yin orqali o'qitish va shaxsga yo'naltirilgan metodika kabi zamonaviy tamoyillarga tayangan holda ishlab chiqilgan. Ammo amaliyotda bu dasturdan foydalanishda bir qator muammolar, xususan, baholash mezonlarining aniq belgilanmaganligi, individual yondashuvda yetarli tajriba yo'qligi, ota-onalar bilan ishlash tizimining sustligi kabi holatlar mavjud. Shuningdek, har bir rivojlantiruvchi yo'nalishning samaradorligini oshirish, natijalarni diagnostika qilish metodikasini boyitish zarurati ham dolzarb bo'lib turibdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Abdurahmonova M. va boshq. *Ilk qadam: Maktabgacha ta'lim muassasalari uchun o'quv-uslubiy qo'llanma.* – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi, 2020.
2. Amonova N. S. *Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi.* – Toshkent: O'zbekiston pedagogika nashriyoti, 2019.

3. Haydarova R. M. *Maktabgacha ta'lim metodikasi*. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2017.
4. Ibragimov N. A. *Maktabgacha yoshdagi bolalarni o'qitish va tarbiyalashda integratsiyalashgan yondashuv*. – Toshkent: TDPU, 2016.
5. Jo'raev T. T. *Pedagogik diagnostika asoslari*. – Toshkent: “Ilm ziyo”, 2018.
6. Matyoqubov M. M. *Maktabgacha ta'lim psixologiyasi va pedagogikasi*. – Toshkent: “O'qituvchi”, 2020.
7. Rajabov M. *Bola shaxsining shakllanishi va rivojlanishi*. – Toshkent: TDPU, 2015.
8. Toshxo'jayev S. H. *Maktabgacha ta'lim: metodologiya, nazariya va amaliyot*. – Toshkent: “Fan”, 2021.
9. Yusupova D. B. *O'yinli metodlar orqali bolalarning rivojlanishini ta'minlash*. – Toshkent: “Innovatsiya ziyo”, 2022.

*Abdurazakova Zebiniso Akmalxon qizi,
Qo'qon davlat universiteti 2-bosqich doktranti*

TALABALARNING TADQIQOTCHILIK FAOLIYATINI BAHOLASH MEZONLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada tadqiqotchilik ko'nikmasi, tadqiqotchilik faoliyati, tadqiqot turlari, usullari, talabalarni tadqiqotchilik faoliyatiga o'rgatish va uni baholash mezonlariga oid nazariy ma'lumotlar bayon etilgan hamda ushbu mezonlarni baholovchi ko'rsatgichlar haqida ilmiy – metodik tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: tadqiqotchilik ko'nikmasi, tadqiqotchilik faoliyati, tadqiqot turlari, baholash mezonlari, baholovchi ko'rsatgichlar, kuzatuv, taqqoslash, eksperiment, tahliliy va sintetik fikrlash.

Аннотация. В данной статье изложена теоретическая информация об исследовательских навыках, исследовательской деятельности, видах, методах исследования, обучении студентов исследовательской деятельности и критериях ее оценки, а также даны научно – методические рекомендации по показателям, оценивающим эти критерии.

Ключевые слова: исследовательские навыки, исследовательская деятельность, типы исследований, критерии оценки, оценочные индикаторы, наблюдение, сравнение, эксперимент, аналитическое и синтетическое мышление.


Annotation: This article describes theoretical information on research skills, research activities, types of research, methods, criteria for training and evaluating students in research activities, and provides scientific and methodological recommendations on indicators that assess these criteria.

Keywords: research skills, research activities, types of research, evaluation criteria, evaluative indicators, observation, comparison, experiment, analytical and synthetic thinking.

Kirish. Jahonda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirish, bunda xalqaro tajribalardan foydalanish muammolari 2030-yilgacha belgilangan ta'lim konsensiyasida "Ta'lim – taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi va barqaror rivojlanish maqsadlariga yetkazuvchi muhim faoliyat" sifatida e'tirof qiling'an. Tadqiqotchilik yondashuvi asosida raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning innovatsion yo'nalishlari, o'qitishning variativ shakllari, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirish mexanizmlarini amaliyotga tatbiq etish bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda.

Mavzuning dolzarbligi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida», 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF-5847-son, 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi farmonlari, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son «Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida», 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son «Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida», 2021-yil 19-martdagi PQ-5032- son «Fizika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Asosiy qism. Tadqiqotchilik ko'nikmasi – bu muayyan mavzuni chuqur o'rganish, ma'lumotlarni yig'ish, tahlil qilish va xulosa chiqarish, shuningdek, bu jarayonda mustaqil va ijodiy fikrlashga asoslangan bir qator ko'nikmalar majmuidir. Ushbu ko'nikmalarni bir necha guruhga ajratiladi (1-rasmga qarang).



1-rasm.

Tadqiqotchilik ko'nikmasi turlari

1. Ma'lumotlar bilan ishlash ko'nikmalari:

- axborotni qidirish va tanlash: turli manbaalardan (kitoblar, maqolalar, internet, arxivlar, odamlar bilan suhbatlar va h.k.) zarur ma'lumotlarni samarali topish va ularning ishonchligini baholash. bu eng muhim manbaalarni aniqlash va notegishli ma'lumotlarni saralab olishni o'z ichiga oladi.

- axborotni tartiblash va tahlil qilish: yig'ilgan ma'lumotlarni tizimli ravishda tartiblash, tasniflash va tahlil qilish. bu jarayonda jadvallar, diagrammalar, grafik va boshqa tasviriy vositalardan foydalanish mumkin.

- ma'lumotlarni taqdim etish: tahlil qilingan ma'lumotlarni aniq va tushunarli shaklda (matn, jadval, grafik, prezentatsiya va h.k.) taqdim etish. bu ma'lumotni boshqalarga tushunarli va ishonchli tarzda yetkazishni bildiradi.

2. Tahliliy va sintetik fikrlash ko'nikmalari:

- tanqidiy fikrlash: ma'lumotni tanqidiy baholash, uning asosligini tekshirish, turli manbaalardagi ma'lumotni solishtirish va mustaqil xulosalar chiqarish.

- muammolarni formulalash: tadqiqotning maqsadini aniq va tushunarli tarzda belgilash, tadqiqot savollarini formulalash.

- gipotezani ishlab chiqish: mavzu bo'yicha taxminlarni (gipotezalarni) ishlab chiqish va ularni tajriba yoki tahlil orqali tekshirish.

- xulosa chiqarish: tahlil qilingan ma'lumotlar asosida asosli va dalillarga tayangan xulosalar chiqarish. bu mulohaza yuritishni va tadqiqot savollariga javob topishni o'z ichiga oladi.

3. Mustaqil ishlash va boshqaruv ko'nikmalari:

- vaqtni boshqarish: tadqiqot jarayonini rejalashtirish va vaqtni samarali tashkil etish.

- mustaqil ishlash: tadqiqotni mustaqil ravishda olib borish, ma'lumotlarni izlashni, tahlil qilishni va xulosa chiqarishni mustaqil amalga oshirish.

- manbaalar bilan ishlash: foydalanilgan adabiyotlar va manbaalarni to'g'ri ko'rsatish, plagiatdan saqlanish.

- jamoada ishlash: (guruhli tadqiqotlarda) boshqa tadqiqotchilar bilan hamkorlikda ishlash, o'z vazifalarini bajarish va jamoaviy natijaga erishish.

Talabaning tadqiqotchilik faoliyati – bu talabalarning mustaqil ravishda ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishi, muayyan mavzuni o'rganish, ma'lumotlarni yig'ish, tahlil qilish va xulosalar chiqarish jarayonidir. Bu faoliyat talabalarning intellektual rivojlanishiga, tanqidiy fikrlashiga, mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishiga va ilmiy dunyoqarashni shakllantirishiga xizmat qiladi.

Talabalarning tadqiqotchilik faoliyati quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1. Mavzuni tanlash: talaba o'zini qiziqtirgan va o'rganish imkoniyati bo'lgan mavzuni tanlaydi. Bu mavzu uchun zarur bo'lgan axborotlarning mavjudligini, talabaning qobiliyati va vaqt imkoniyatlarini hisobga olish kerak.

2. Gipotezani ishlab chiqish: Tanlangan mavzu bo'yicha talaba o'zining taxminini (gipotezasini) ishlab chiqadi. Bu taxmin tekshiriladi va tasdiqlanadi yoki rad etiladi.


3. Axborot yig'ish: talaba turli manbaalardan (kitoblar, internet, suhbatlar, kuzatuvlar va h.k.) zarur axborotlarni yig'adi. Ma'lumotlarning ishonchligi va asoslanganligiga e'tibor qaratish muhim.

4. Axborotni tahlil qilish: Yig'ilgan ma'lumotlar tahlil qilinib, ular o'rtasidagi aloqalar aniqlanadi. Bu bosqichda diagrammalar, jadvallar va boshqa grafik vositalaridan foydalanish mumkin.

5. Xulosa chiqarish: Tahlil natijalari asosida talaba xulosa chiqaradi va o'zining gipotezasini tasdiqlaydi yoki rad etadi.

6. Natijalarni taqdim etish: talaba o'z tadqiqotining natijalarini ma'ruza, referat, prezentatsiya yoki boshqa shaklda taqdim etadi.

Olib borilgan o'rganishlar natijasida talabalarning tadqiqotchilik faoliyati quyidagi turlari bilan ishlandi (2-rasmga qarang)



2-rasm. Tadqiqotchilik faoliyati turlari

Talabalarning tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etishda o'qituvchining roli juda muhim. O'qituvchi talabalarga mavzu tanlashda yordam beradi, tadqiqot metodikasini tushuntiradi, axborot manbaalarini topishda ko'maklashadi va natijalarni taqdim etishga yordam beradi. Shuningdek, o'qituvchi talabalarning mustaqil ishlashiga sharoit yaratadi va ularni rag'batlantiradi.

Tadqiqotchilik ko'nikmasi faqatgina ilmiy sohalarida emas, balki har qanday sohada muvaffaqiyatga erishish uchun ham juda muhimdir. U insonning mustaqil fikrlashini, muammolarni yechish qobiliyatini va bilimlarini amaliy tatbiq etishini rivojlantiradi. Talabalarning tadqiqotchilik faoliyatini baholash - bu uning mustaqil izlanish faoliyati jarayonida namoyon bo'lgan intellektual, metodik, ijodiy va axloqiy-aksiyologik ko'nikmalarini aniqlash va ularni tizimli mezonlar asosida baholash jarayonidir. Mazkur baholashda asosiy e'tibor natijadan ko'ra jarayonga, shuningdek, talabaning izlanishdagi yondashuvi, fikrlash uslubi, metodik madaniyati va tadqiqot etikasiga qaratiladi.

1. Motivatsion-mezon

Bu mezon talabaning tadqiqot faoliyatiga nisbatan bo'lgan shaxsiy qiziqishini, izlanishga bo'lgan ichki ehtiyojini va faol ishtirok darajasini aks ettiradi.

Baholash mezonlari:

- izlanishga bo'lgan doimiy qiziqish borligi.
- mustaqil mavzu tanlashi va uni asoslay olishi.
- qo'shimcha ma'lumotlarni o'z tashabbusi bilan izlaganligi.
- tadqiqot davomida shaxsiy g'oyalarni ilgari surganligi.

2. Maqsad va vazifalarni shakllantira olish darajasi

Bu mezon talabaning tadqiqot obyekti va predmeti, maqsadi hamda vazifalarini aniqlik bilan belgilashdagi salohiyatini aniqlashga xizmat qiladi.

Baholash mezonlari:

- tadqiqot maqsadi aniq va muammoga mos qo'yilganmi?
- tadqiqotning asosiy savollari to'g'ri belgilanganmi?
- maqsad va vazifalar o'zaro bog'langanmi?

- izlanish yo'nalishi mantiqan asoslanganmi?

3. Ma'lumotlar bilan ishlash ko'nikmasi

Bu mezon talabani kerakli ma'lumotlarni izlab topish, ularni saralash, tahlil qilish va foydali xulosalar chiqarish qobiliyatini o'lchaydi.

Baholash mezonlari:

- ilmiy manbaalarni topa olganligi.
- manbaalarning ishonchliligini baholay olganligi.
- ma'lumotlarni to'g'ri tizimlashtirganligi.
- tahlil va solishtirishni ilmiy asosda bajarganligi.

4. Tadqiqot metodologiyasiga rioya qilish

Bu mezon talabani tadqiqot usullarini tanlash, qo'llash va natijalarni ilmiy asosda shakllantirishdagi yondashuvini baholaydi.

Baholash mezonlari:

- tadqiqotda mos usullarni tanlaganmi?
- metodik izchillikka rioya qilganmi?
- tajriba, kuzatuv yoki so'rovnomalar qanday amalga oshirilgan?
- statistik tahlil yoki mantiqiy asoslash mavjudmi?

5. Yaratgan yangiligi va ijodiy yondashuv

Bu mezon talabani mustaqil, yangi g'oyalar ilgari surganligi, yangilik yaratishga intilishi, noan'anaviy yondashuvlari mavjudligini ko'rsatadi.

Baholash mezonlari:

- tadqiqotda yangilik elementi borligi.
- talabani fikr yuritish uslubi o'ziga xosligi.
- muammoga kreativ yechimlar taklif qilganmi?
- o'z qarashini asoslash uchun ilg'or texnikalardan foydalanganmi?

6. Nutq madaniyati va fikrni ifoda qilish uslubi

Bu mezon tadqiqotning yozma va og'zaki taqdimotida fikrlarni izchil, ilmiy va aniq ifodalash madaniyatini aks ettiradi.

Baholash mezonlari:

- ilmiy uslubga xos iboralardan foydalanilganmi?
- fikrlar mantiqiy va izchilmi?
- taqdimotda o'z fikrini dalillar bilan himoya qilganmi?
- qisqalik, aniqlik va mazmunlilik qanchalik ta'minlangan?

7. Prezentatsiya va loyiha himoyasi

Tadqiqot natijalarini taqdim etishdagi ishonchlilik, vizual vositalardan foydalanish, savollarga javob bera olish layoqatini baholaydi.

Baholash mezonlari:

- slaydlar, grafikalar, videolar yoki tajriba ko'rsatmalar mavjudmi?
- talaba o'z tadqiqotini ishonch bilan himoya qilganmi?
- auditoriyaning savollariga asosli javoblar berganmi?
- taqdimot strukturasi aniq va jozibalimikan?

8. Refleksiya va xulosa chiqarish qobiliyati

talabani o'z faoliyatini baholay olishi, kamchiliklarni tan olishi, natijalarni umumlashtirish darajasini ko'rsatadi.

Baholash mezonlari:

- natijalar aniq, asosli va mantiqiyimi?
- tadqiqotning amaliy yoki nazariy ahamiyati ko'rsatilganmi?
- o'z ustidagi ishlari va kamchiliklarini tahlil qilganmi?
- kelgusidagi takliflar bildirganmi?

Baholashda foydalanish mumkin bo'lgan usullar

Portfoliolar	Har bir bosqichdagi ishlar, kuzatuvlar, eskizlar, tadqiqot jurnalini o'z ichiga oladi
Taqdimot (prezentatsiya)	Natijalarni sinf yoki ilmiy tanlovda himoya qilish
Kuzatuv kartalari	O'qituvchi tomonidan faoliyat davomida to'ldiriladigan mezonli kuzatuv varaqasi
O'z-o'zini baholash	Talaba o'zi bajargan ishni o'zi tahlil qiladi, o'zini baholaydi
Yakka suhbat Intervyu	Tadqiqot haqida savol-javob shaklida suhbat
Raqamli baholash platformalari	Google Forms, Padlet, Mentimeter va boshqa onlayn tizimlar orqali o'tkaziladigan test yoki so'rovnomalari

Tadqiqotchilik ko'nikmalarini baholash darajalari (4 ballik model asosida):

Ball	Baholash mezonlari (umumlashtirilgan)
4	Juda yuqori darajada: mustaqillik kuchli, yangilik mavjud, fikrlar asosli
3	Yetarli darajada: ko'p jihatlar mavjud, ammo ba'zi kamchiliklar bor
2	O'rta darajada: asosiy talablar bajarilgan, lekin refleksiya va yangilik zaif
1	Past darajada: faollik yetarli emas, metodik xatoliklar, mustaqillik sust

Pedagogik mexanizmni takomillashtirish

1. Markaziy g'oya – Pedagogik mexanizmlarni takomillashtirish

Modelning yuragi hisoblangan bu blok, talabalarning tadqiqotchilik ko'nikmasini aksiyologik yondashuvlar asosida rivojlantirish uchun zarur bo'lgan didaktik, metodik, axloqiy, motivatsion va baholovchi mexanizmlarning izchil uyg'unligini anglatadi. Bu takomillashtirish quyidagi to'rtta yirik ustun yo'nalishda amalga oshiriladi:

2. Aksiologik tamoyillar

Bu yo'nalish talabaning shaxsining qadriyatlarga asoslangan izlanish madaniyatini shakllantirishga qaratilgan. Aksiologik yondashuvlar izlanishning faqat bilishga emas, balki ilmiy-axloqiy mas'uliyatga asoslanishiga xizmat qiladi. Ilmiy halollik – plagiatdan saqlanish, natijalarni manipulyatsiya qilmaslik, manbaalarni to'g'ri keltirish, ishonchli dalilga tayanish madaniyatini anglatadi. Aksiologik tamoyillar barcha faoliyatga axloqiy mezonlar nuqtai nazaridan baho beradi va Talabani nafaqat bilimli, balki insoniy fazilatlariga ega izlanuvchi sifatida shakllantiradi.

3. Izlanish faoliyatini tashkil etish

Bu yo'nalishda tadqiqotchilik faoliyatining shakllari, usullari, bosqichlari va metodlari ilgari suriladi. Quyidagi metodlar talabani izlanishga jalb etishda foydalaniladi:

- Loyiha-metodi (project-based learning) – talaba real muammo asosida loyiha tayyorlaydi.
- Muammoli ta'lim – talabaning tafakkurini muammo orqali faollashtiradi.
- Tadqiqotga asoslangan yondashuv – talaba mustaqil faraz va tahlil asosida bilim hosil qiladi.

Ushbu blok talabada izlanish faoliyatini amalda olib borish ko'nikmasi shakllanishi uchun zarur ilmiy-metodik asosni beradi.

4. Tadqiqotchilik ko'nikmasi va komponentlari

Bu yo'nalishda talabaning tadqiqotchilik salohiyati quyidagi tarkibiy jihatlar orqali tahlil qilinadi:

- Epistemik – bilim olish jarayoniga ongli yondashuv.
- Metodik – izlanishni rejalashtirish, tajriba, kuzatuv va tahlil usullarini qo'llash.
- Kommunikativ – fikr almashish, nutq madaniyati, hisobot tayyorlash.

- Refleksiv – o‘z faoliyatini tahlil qilish, kamchiliklarni ko‘ra olish va takomillashtirish. Ushbu komponentlar talabani to‘laqonli tadqiqot subyekti sifatida shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

5. Baholash mezonlari

Tadqiqotchilik ko‘nikmasini samarali shakllantirish uchun ularni baholash ham ilmiy asosda olib borilishi lozim. Bu yo‘nalishda quyidagi mezonlar asosida baholash amalga oshiriladi:

- Metodik savodxonlik – ilmiy metodlardan foydalana olish darajasi.
- Ijodiy yondashuv – yangilik taklif qilish, g‘oyaviy mustaqillik.
- Axloqiy qarorlar chiqarish – ilmiy halollik, plagiatdan xoli bo‘lish.
- Refleksiv salohiyat – o‘z faoliyatini tahlil qilish, xatolardan saboq chiqarish.

Baholash mezonlari shunchaki ball qo‘yish vositasi emas, balki talaba shaxsini o‘stirishga xizmat qiluvchi didaktik vositadir.

Modelning ishlash mexanizmi: o‘zaro bog‘liqlik

- Aksiologik tamoyillar - barcha jarayonlarni axloqiy qadriyatlar bilan yo‘naltiradi.
- Izlanish faoliyati - amaliy bilim va ko‘nikmalarni shakllantiradi.
- Ko‘nikma komponentlari - talabaning ichki intellektual resurslarini faollashtiradi.
- Baholash mezonlari - o‘shishni monitoring qilish va o‘zini baholashga imkon yaratadi.

Bu to‘rt yo‘nalishning integratsiyasi orqali pedagogik mexanizmlar izchil ishlaydi va aksiologik asoslangan tadqiqotchilik muhitini shakllantiradi.

Ilmiy-amaliy ahamiyati

- Model maktab pedagogik tizimini innovatsion yondashuvlar bilan boyitadi.
- Tadqiqotchilik faoliyatining aksiologik, kognitiv va metodik birligi ta‘lim sifatini

oshiradi.

- talaba shaxsini ijodkor, axloqli va mas‘uliyatli ilmiy subyekt sifatida tarbiyalash imkonini beradi.

- Baholash mezonlarining aniqligi o‘qituvchiga har bir talabaning rivojlanish darajasini tahlil qilish va unga individual yordam ko‘rsatish imkoniyatini beradi.

Talabaning tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish ta‘lim jarayonida shaxsga yo‘naltirilgan, izlanishga asoslangan va qadriyatlar bilan uyg‘unlashgan metodik yondashuvlarni talab etadi. Ushbu bobda tadqiqotchilik ko‘nikmasining mohiyati, strukturasi, tarkibiy komponentlari, turlari va ularni shakllantirish usullari keng qamrovda tahlil qilindi. Xususan, tadqiqotchilik ko‘nikmasi - bu faqat bilim egallash emas, balki mustaqil fikrlash, muammolarni aniqlash va ularni ilmiy asosda hal etish qobiliyatlarini o‘z ichiga oluvchi kompleks pedagogik tushuncha ekanligi aniqlandi.

Tadqiqotchilik ko‘nikmasining epistemik, metodik, kommunikativ, refleksiv va ijtimoiy-aksiologik komponentlari talabani ko‘p qirrali va faol intellektual shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qilishi qayd etildi. Shuningdek, bu ko‘nikmalar darajalarga ega bo‘lib, ularning rivojlanishi bosqichma-bosqich amalga oshadi. Izlanish jarayonining barcha bosqichlari - muammoni ilg‘ash, faraz ilgari surish, axborot yig‘ish, tahlil qilish, xulosa chiqarish, taqdimot qilish - talabaning faoliyatida integratsiyalashgan holda ko‘rinadi.

Bobda maktab sharoitida izlanish faoliyatini tashkil etishning eng samarali usullari - loyiha-metodi, muammoli ta‘lim, kashfiyotli o‘qitish, tadqiqotga asoslangan yondashuv, mini-tadqiqotlar, ilmiy munozaralar, laboratoriya ishlari va raqamli texnologiyalar orqali tashkil etilgan izlanish shakllari tizimli yoritib berildi. Har bir usul tadqiqotchilik ko‘nikmalarining alohida jihatini rivojlantirishga xizmat qilishi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, aksiologik yondashuv asosida shakllantirilgan izlanish faoliyati talabada ilmiy halollik, axloqiy mas‘uliyat va ijtimoiy ongning mustahkamlashi ilmiy jihatdan asoslab berildi.

Tadqiqotchilik faoliyatining baholash mezonlari ham bu bobda nazariy jihatdan ishlab chiqildi. Baholashda faqat natijani emas, balki jarayonni - talabaning motivatsiyasi, metodik savodxonligi, ijodiy yondashuvi, axloqiy qarorlar chiqarish layoqati va refleksiv salohiyati kabi

jihatlari asosiy mezon sifatida qaraldi. Bu yondashuv talabaning izlanish faoliyatini baholashda ob'ektivlik, adolat va shaxsiy yondashuvni ta'minlaydi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, tadqiqotchilik ko'nikmalarining turlari va ularni shakllantirish usullarini chuqur tahlil qilish oliy ta'limni yangilash, shaxsni rivojlantirish va ta'lim jarayonini aksiologik tamoyillar asosida boyitish uchun nazariy va amaliy zamin yaratadi. Bu esa, keyingi bobda ushbu g'oyalarning tajriba-sinov asosida tahlil qilinishiga, pedagogik mexanizmlarning shakllantirilishiga asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Dewey, J. (1916). *Democracy and Education*. New York: Macmillan.
2. Bruner, J. (1960). *The Process of Education*. Harvard University Press.
3. Gardner, H. (1983). *Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences*. Basic Books.
4. Biesta, G. (2010). *Good Education in an Age of Measurement*. Routledge.
5. Noddings, N. (1992). *The Challenge to Care in Schools*. Teachers College Press.
6. Serikov, V.V. (2000). *Lichnostno-oriyentirovanoe obrazovanie*. Moskva: Akademiya.
7. Nikandrov, N.D. (1996). *Obrazovanie i tsennosti*. Pedagogika.
8. Derkach, A.A. (2002). *Aksiologiya professionalnogo razvitiya*. MGU.
9. Shamova, T.M. (2003). *Innovatsionnoe obuchenie v shkole*. Moskva.
10. Baxin, M.B. (2011). *Aksiologicheskiy podxod v innovatsionnom obrazovanii*. Minsk.
11. Toshboev, Sh. (2018). *Pedagogik texnologiyalar asoslari*. Toshkent.
12. Jo'rayev, N. (2020). *Talabalarda innovatsion tafakkurni rivojlantirish*. Toshkent.
13. Jo'raev, G'. (2019). *talabalarda izlanish faoliyatini rivojlantirish*. Samarqand.
14. Rajabova, Z. (2021). *Aksiologik kompetensiya shakllanishi*. Toshkent.
15. Shukurova, N. (2022). *Tadqiqotchilik va ijtimoiy qadriyatlar integratsiyasi*. Farg'ona.

Sultonov Humoyun Ulugmurodovich,
Lecturer at Bukhara State University,
h.u.sultonov@buxdu.uz,
humoyunsultonov34@gmail.com, <https://orcid.org/0009-0009-1220-1065>

THE DIGITAL TRANSFORMATION OF EDUCATION: METHODOLOGIES, TOOLS, AND FUTURE PROSPECTS

Annotatsiya. Mazkur maqolada ta'lim jarayonini raqamlashtirish metodologiyasi, uning asosiy tamoyillari, afzalliklari va kamchiliklari batafsil tahlil qilingan. Shuningdek, interaktiv ta'lim materiallaridan foydalanish, virtual laboratoriyalar, simulyatsiyalar, bulutli texnologiyalar va onlayn platformalarning ta'limdagi ahamiyati yoritilgan. Maqolada raqamlashtirish orqali ta'limga kirish imkoniyatining kengayishi, shaxsiylashtirilgan yondashuv, interaktivlik va ta'lim sifatini oshirish imkoniyatlari ko'rsatib berilgan. Kelajakda raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt, AR/VR va onlayn ta'limning kengayishi ta'lim sohasida muhim o'zgarishlar keltirib chiqarishi ta'kidlangan.

Kalit so'zlar. raqamlashtirish, ta'lim, interaktiv materiallar, virtual laboratoriya, bulutli texnologiyalar, onlayn platforma, AR/VR, sun'iy intellekt

Аннотация. В статье рассматривается методология цифровизации образовательного процесса, её основные принципы, преимущества и недостатки. Особое внимание уделяется использованию интерактивных учебных материалов, виртуальных лабораторий, симуляций, облачных сервисов и онлайн-платформ в образовательной среде. Подчёркивается, как цифровизация способствует расширению доступа к обучению, индивидуализации образовательного процесса и повышению его эффективности. Также обозначены перспективы развития цифровых технологий в образовании, включая искусственный интеллект, дополненную и виртуальную реальность, а также рост популярности онлайн-обучения.

Ключевые слова. цифровизация, образование, интерактивные материалы, виртуальная лаборатория, облачные технологии, онлайн-платформы, AR/VR, искусственный интеллект

Anatation. This article explores the methodology of digitizing the educational process, highlighting its core principles, benefits, and limitations. It focuses on the integration of interactive learning materials, virtual laboratories, simulations, cloud technologies, and online platforms into education. The article emphasizes how digitalization enhances accessibility, personalization, and engagement in learning. It also outlines future prospects for educational digitalization, including the adoption of artificial intelligence, augmented and virtual reality, and the increasing popularity of online education.

Keywords. digitalization, education, interactive materials, virtual laboratory, cloud technologies, online platforms, AR/VR, artificial intelligence

Main body. In today's world, education plays a key role in the development of individuals and society. With the development of information technology and the emergence of new opportunities, there is a need to digitize the educational process. The digitization of education is the process of transitioning to the use of digital technologies and resources to improve the quality of learning and increase the accessibility of education. The purpose of this article is to examine the methodology of digitizing education, its basic principles, advantages, and disadvantages, as well as to determine prospects for future development.

The digitization of education is the process of using digital technologies to improve the quality of learning and provide access to knowledge through online resources and interactive learning materials. Here are the main principles, advantages, and disadvantages of the digitization of education, as well as prospects for future development:

Key principles of digitalization in education:

1. Accessibility. Providing educational resources and learning opportunities via the internet, making education more accessible to a wider range of people.
2. Interactivity. Using interactive teaching materials and platforms that encourage active student participation and help them learn better.
3. Personalization. Adapting learning to the individual needs and knowledge level of each student using technology and analytics.
4. Flexibility. The ability to study materials and complete assignments at a convenient time and place, which is especially important for distance learning and self-study.

Advantages of digitizing education:

1. Accessibility. Educational resources become accessible to people from different regions and social groups, which promotes inclusivity in education.
2. Interactivity and engagement. Interactive learning materials and platforms promote a deeper understanding of the material and increase student motivation.
3. Efficiency. Digital technologies make it possible to optimize learning processes, improve student performance analytics, and increase the effectiveness of educational programs.
4. Flexibility and convenience: Students can study at a convenient time, and teachers have the opportunity to create and adapt teaching materials to the needs of their audience.

Disadvantages of digitization in education.

1. Unequal access to technology. Unequal access to the internet and computers can create problems for students with low incomes.
2. Poor content quality. Poor-quality or unverified educational materials can have a negative impact on learning.
3. Lack of personal contact. Distance learning may lack sufficient personal interaction between teachers and students, which can reduce motivation and understanding of the material.

Future development prospects.

1. Use of artificial intelligence (AI). The development of AI will enable the creation of personalized educational programs and assist students in the learning process.
2. Virtual and augmented reality. The use of VR and AR in education will enable the creation of interactive learning environments, such as virtual laboratories or training sessions.
3. More interactivity and flexibility. The development of new technologies and platforms will enable the creation of more interactive and flexible learning materials and courses.
4. The growing popularity of online education. Every year, online education will become more popular and widely available, which will change the face of the education system as a whole.

Digitalization of education is an integral part of modern education, and its development will continue with the advancement of technology and the evolving needs of students and educators.

Online courses and platforms. One of the most popular methods of digitalization is the creation of online courses and the use of specialized platforms for distance learning. These courses and platforms allow students to receive education at a convenient time and pace. They also provide access to educational materials from anywhere in the world.

Interactive learning materials. Digital textbooks, interactive exercises, audio and video materials – all of these make the educational process more engaging and interesting. The use of such materials helps students better absorb information and develop their skills.

Virtual laboratories and simulations. Digital technologies make it possible to create virtual laboratories where students can conduct experiments and research without the need for physical presence in a lab. This is especially useful in fields that require special equipment or involve hazardous conditions.

Cloud services and data storage. The use of cloud services allows students and teachers to store and share information, as well as create and edit documents in real time. This is convenient and helps organize group work effectively. Multimedia presentations and video lectures. Digital technologies enable the creation of high-quality multimedia presentations and video lectures, which help visualize information and make it more understandable and memorable.

The practical application of these methods of digitalizing educational resources has already proven its effectiveness. They help increase access to education, boost student motivation, and enrich the learning process. Moreover, digitalization saves time and resources, as many tasks can be performed online. As a result, education becomes more modern, engaging, and adapted to the demands of the contemporary world.

The use of interactive learning materials can significantly improve the effectiveness of education, as they encourage active student participation, help better assimilate the material, and enhance motivation. Let us now consider the methodology for using interactive learning materials. Defining objectives.

- Determine what goals you want to achieve through the use of interactive learning materials. For example, these may include improving understanding of the material, developing skills, increasing student motivation, etc.

Choosing the format of interactive materials.

- Select appropriate formats of interactivity for your content. These may include interactive video lessons, webinars, online games, quizzes, virtual laboratories, simulations, and so on.

Content development.

- Create interactive materials that align with your learning objectives. For example, to develop practical skills, you can design virtual simulations or laboratories.

- Ensure the materials have an engaging and attractive design that motivates students to participate.

Integration into the learning process.

- Integrate interactive materials into your teaching process. They can be part of an online course, homework assignments, supplementary self-study resources, etc.

- Explain to students how to use the interactive materials and how they will help them achieve their learning goals.

Evaluating effectiveness.

- Assess the effectiveness of interactive learning materials through analytics and student feedback. Analyze how well they helped students understand the material, increase motivation, and improve learning outcomes.

Examples of interactive learning materials may include the following: Interactive video lessons. These may include options for branching storylines, interactive elements directly within the video (such as answer buttons, embedded quizzes, etc.).

Online games and simulations. Virtual environments for practicing skills, educational games, and simulations of real-life work situations.

Interactive quizzes and tests. Options for switching between difficulty levels, instant feedback, and adaptability to the student's knowledge level.

Virtual laboratories. Environments for conducting experiments and research, providing a safe space for learning practical skills.

Online forums and discussions. Platforms for exchanging ideas, engaging in discussions, collaboratively solving problems, and learning through collective communication.

Use these opportunities depending on your learning objectives and the characteristics of your audience.

Creating online courses and platforms for them is an interesting and promising process.

Below are some steps and example methodologies that can help in this process.

1. Defining the goal and target audience.

- Identify the goal you want to achieve with your course.
- Define your target audience: their age, education level, interests, and needs.

2. Content development.

- Create the structure of the course: modules, lessons, assignments.
- Develop content for each lesson using various formats such as videos, texts, and interactive exercises.

- Ensure interactivity and student engagement through quizzes, discussion forums, and selfassessment tasks.

3. Choosing a platform.

- You can use existing learning platforms such as Coursera, Udemy, or Teachable, or create your own platform using WordPress (with plugins like LearnDash) or other specialized solutions.

- Make sure the selected platform suits your goals and provides the necessary features, such as content hosting, course management, analytics, and more.

4. Creating content.

- Record video lessons, if they are part of your course.

- Write textual materials, presentations, and assignments.

- Create quizzes and tasks to assess knowledge.

5. Testing and analysis.

- Test the course before launching to ensure everything works correctly and is easy to understand.

- Monitor course analytics: how many students take the course, how much time they spend on lessons, which lessons generate the most interest, etc.

Study how successful online course platforms work, such as:

Coursera – provides access to courses from top universities and companies around the world.

Udemy – a platform where instructors can create and sell their own courses on a wide range of topics.

edX – similar to Coursera, offering both free and paid courses from universities.

Teachable – a platform for creating and selling your own online courses.

LinkedIn Learning – a platform for professional training and skill development.

These examples can help you decide on the best approach to creating and promoting your online course.

Virtual laboratories and simulations have become an integral part of modern education and research. They allow students and professionals to conduct experiments and analyze data in a virtual environment, which significantly simplifies and accelerates the learning and research process.

One of the main advantages of virtual laboratories is accessibility.

Unlike traditional laboratories, which require access to specialized equipment and materials, virtual laboratories can be run on personal computers or other internet-connected devices. This allows students from different parts of the world to receive quality education and conduct research at any time convenient for them.

Moreover, virtual laboratories make it possible to carry out complex and expensive experiments that would be inaccessible in real life. With the help of simulations, it is possible to model various physical and chemical processes, study the behavior of materials, and analyze data. This enables researchers to gain a deeper understanding of processes and make informed decisions based on the results obtained.

However, despite all the advantages of virtual laboratories and simulations, they cannot fully replace real-world experiments. In some cases, it is necessary to conduct research on actual objects or in real-life conditions to obtain reliable and accurate data. In addition, virtual laboratories may have limitations, especially when specific equipment or materials are required.

Nevertheless, virtual laboratories and simulations are powerful tools that greatly simplify and accelerate the learning and research process. They allow experiments to be conducted safely and efficiently, while also enabling researchers to study complex processes and make informed decisions based on the results obtained. Virtual laboratories and simulations are an integral part of digital technologies that continue to transform education and scientific research in the modern world.

In today's world, cloud services and data storage have become indispensable tools for information sharing among both students and teachers. They offer a simple way to store and access files, as well as provide a convenient platform for collaborative work on projects.

One of the main advantages of cloud services is the ability to store data remotely. Students and teachers no longer need to worry about the safety or availability of their files, as they are stored on cloud servers. This means files can be saved and accessed from any device connected to the internet. There is no longer a need to carry USB drives or external hard disks - all data is available in the cloud.

Additionally, the use of cloud services makes it easy for students and educators to exchange information. With the ability to share files and folders with others, materials for assignments, documents for review, or presentations for viewing can be quickly distributed. This significantly simplifies communication and collaboration among participants in the educational process.

In addition, cloud services offer extra features that make working with data easier. For example, automatic synchronization allows files to be updated across all devices simultaneously, ensuring access to the latest version at all times. Many cloud platforms also offer the ability to create backups of data, helping prevent the loss of important information.

However, it's important to keep security in mind when using cloud services. Choosing reliable platforms with strong data protection is essential to avoid data leaks or unauthorized access. It is also recommended to use strong passwords and enable two-factor authentication to enhance security.

In conclusion, cloud services and data storage solutions are convenient and effective tools for sharing information between students and educators. They allow remote storage, file sharing, and make collaboration on projects much easier. The key is to use trusted platforms and follow proper security measures to protect sensitive information.

The digitalization of educational resources is a powerful tool of modern education that promotes effective and accessible learning. The development of this approach opens up broad prospects for the educational environment. Among the main opportunities are the following:

1. Expansion of access to education – Digital resources make it possible to study anytime and from anywhere in the world, which is especially relevant for distance and remote learning.
2. Individualized learning – The use of digital technologies allows the educational process to be tailored to the needs of each student, increasing learning effectiveness.
3. Development of interactivity – Digital educational resources can be interactive, making learning more engaging and effective.
4. Use of analytics to improve the learning process – Data collected through digital platforms can be used to analyze student performance, identify weak areas, and optimize the educational process.

Thus, the continued development of digitalization methods in education is a key direction for modern education, ensuring high-quality and accessible learning for all students.

The list of literatures.

1. Вербицкий А. А. Цифровое обучение: проблемы, риски и перспективы // Электронный научно-публицистический журнал «Homo Cyberus». - 2019. - № 1(6).
2. Касавина Н. А. Человек и техника: амбивалентность электронной культуры // Epistemology & Philosophy of Science. - 2018. - № 4. -
3. Строков А.А. Цифровизация образования: проблемы и перспективы // Вестник Мининского университета. - 2020. - № 2 (31).
4. Суннатова Р.И. Опыт удалённого школьного обучения: возможные риски для успешности социализации обучающихся // Общество: социология, психология, педагогика. - 2020. - № 9.

5. Атаева Г.И., Бозоров Д.С. ВОЗМОЖНОСТИ И ПРОБЛЕМЫ ОЦИФРОВКИ БИБЛИОТЕЧНЫХ РЕСУРСОВ УНИВЕРСИТЕТСКИХ БИБЛИОТЕК // Universum: технические науки. 2023. №2-1 (107).

6. Атаева Г. И., Акабиров Л. Х., Камалова Ф. Р. О дистанционном образовании //Материалы конференции. – 2020. – Т. 10. – С. 91.

7. Атаева Г. И., Хамроева Х. Ю. Анализ возможности использования облачных технологий в высшем образовании Узбекистана //Universum: технические науки. – 2022. – №. 1-1 (94). – С. 16-18.

*Nishonboyev Muxiddin Xomidovich,
O'R QK Akademiyasi Umumiy taktika kafedrasida katta o'qituvchisi*

OHTM TAKTIKA FANIGA O'QITISHDA KURSANTLARINING PROFESSIONAL KO'NIKMALARINI RIVOJLANISHINING DOLZARB YO'NALGANLIGI

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy harbiy ta'lim muassasalarida "Taktika" fanini o'qitish orqali kursantlarning professional ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish masalalari tahlil qilingan. Harbiy kadrlarni tayyorlashda zamonaviy tahdid va xavf-xatarlarga javob bera oladigan, tezkor va mustaqil qaror qabul qila oladigan, strategik va amaliy fikrlashga ega bo'lgan mutaxassislarni tayyorlash zarurati ortib bormoqda. Maqolada taktik tayyorgarlikni o'qitishda interfaol metodlar, amaliy mashg'ulotlar, simulyatsion muhitlardan foydalanish, real jangovar sharoitga yaqin vazifalar asosida o'qitishning dolzarb yondashuvlari yoritilgan. Shuningdek, professional ko'nikmalarni rivojlantirishda pedagogik-psixologik sharoitlarning ahamiyati ham ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Oliy harbiy ta'lim, taktika fani, kursant, professional ko'nikma, harbiy pedagogika, amaliy tayyorgarlik, interfaol metodlar, strategik fikrlash, qaror qabul qilish, simulyatsion mashg'ulotlar.

Аннотация. В статье анализируются вопросы формирования и развития профессиональных навыков курсантов посредством преподавания предмета «Тактика» в высших военных учебных заведениях. В подготовке военных кадров все больше возрастает потребность в подготовке специалистов, способных реагировать на современные угрозы и опасности, быстро и самостоятельно принимать решения, обладающих стратегическим и практическим мышлением. В статье освещаются современные подходы к преподаванию тактической подготовки с использованием интерактивных методов, практических занятий, использования имитационных сред и задач, приближенных к реальным боевым условиям. Также указывается на важность педагогических и психологических условий в формировании профессиональных навыков.

Ключевые слова: Высшее военное образование, тактическая наука, курсант, профессиональные навыки, военная педагогика, практическая подготовка, интерактивные методы, стратегическое мышление, принятие решений, имитационные занятия.

Abstract. This article analyzes the issues of forming and developing professional skills of cadets through teaching the subject "Tactics" in higher military educational institutions. In the training of military personnel, there is an increasing need to train specialists who can respond to modern threats and dangers, make quick and independent decisions, and have strategic and practical thinking. The article highlights the current approaches to teaching tactical training using interactive methods, practical exercises, the use of simulation environments, and tasks close to real combat conditions. The importance of pedagogical and psychological conditions in the development of professional skills is also indicated.

Keywords: Higher military education, tactical science, cadet, professional skills, military pedagogy, practical training, interactive methods, strategic thinking, decision-making, simulation exercises.

Kirish. Bugungi kunda dunyodagi geosiyosiy vaziyatning keskinlashuvi, harbiy sohada yuzaga kelayotgan yangi tahdidlar va xavf-xatarlar harbiy kadrlarni tayyorlash jarayoniga yuqori talablar qo'yimoqda. Xususan, oliy harbiy ta'lim muassasalarida kursantlarga berilayotgan nazariy bilimlar bilan bir qatorda ularning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish, tezkor vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qila olish, strategik fikrlash va harbiy topshiriqlarni to'g'ri baholash qobiliyatlarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu jarayonda "Taktika" fanining o'rni beqiyosdir. Mazkur fan kursantlarning harbiy harakatlar mohiyatini tushunishi, qurolli kuchlar tuzilmasi va qo'mondonlik asoslarini egallashi, real jangovar sharoitlarga moslashishi uchun zamin yaratadi. Shu sababli, taktika fanini o'qitishda

zamonaviy, amaliy va innovatsion yondashuvlardan foydalanish orqali professional ko'nikmalarni samarali shakllantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Ushbu maqolada aynan shu yo'nalishdagi ilg'or tajribalar, dolzarb yondashuvlar, metodik vositalar hamda ta'lim jarayonini takomillashtirish bo'yicha takliflar ko'rib chiqiladi.

Oliy harbiy ta'lim muassasalarida kelajakdagi ofitser kadrlarni tayyorlash jarayonida ularning nazariy bilimlari bilan bir qatorda amaliy jihatdan puxta tayyorgarlik ko'rgan, jangovar sharoitda to'g'ri harakatlana oladigan, tezkor qarorlar qabul qilishga qodir, professional ko'nikmalarga ega bo'lishi dolzarb masala hisoblanadi. Ayniqsa, harbiy harakatlar dinamikasi, zamonaviy urushlarning xarakteri va vositalari keskin o'zgarayotgan bir davrda kursantlarga "Taktika" fanini an'anaviy usullarda emas, balki zamonaviy, interfaol va simulyatsiyalashgan metodlar asosida o'qitish zarurati ortib bormoqda.

Taktik tayyorgarlik – bu nafaqat nazariy bilimlar majmui, balki harbiy xatti-harakatlarni ongli rejalashtirish, rahbarlik qilish, resurslardan samarali foydalanish, xavf-xatarni baholay olish va jamoani boshqarish kabi muhim ko'nikmalarni shakllantiruvchi muhim bosqichdir. Shu bois, ushbu fan doirasida kursantlarning professional ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan yangi pedagogik va texnologik yondashuvlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish bugungi kun harbiy ta'limi uchun nihoyatda dolzarb sanaladi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Taktik tayyorgarlik harbiy ta'limning ajralmas va asosiy tarkibiy qismi sifatida ko'plab harbiy-pedagogik tadqiqotlarda yoritib kelinmoqda. Xususan, harbiy pedagogika, harbiy psixologiya va taktik fanlar doirasida kursantlarning kasbiy tayyorgarligini shakllantirish masalalari Rossiya, AQSh, Isroil va boshqa ilg'or harbiy ta'lim tizimiga ega mamlakatlar ilmiy-adabiyotlarida keng ko'lamda o'rganilgan.

O'zbekiston harbiy ta'lim tizimida ham keyingi yillarda oliy harbiy o'quv yurtlarida o'quv dasturlarni yangilash, interfaol va amaliy yondashuvlarni tatbiq etish, jangovar simulyatsiyalar va real sharoitga yaqin treninglar orqali kursantlarda professional ko'nikmalarni rivojlantirish borasida ijobiy tajribalar shakllanmoqda.

Shu bilan birga, mavjud ilmiy-uslubiy adabiyotlarda asosan umumiy taktik tayyorgarlik yoki dars o'tish usullariga e'tibor qaratilgan bo'lib, kursantlarning individual-professional ko'nikmalarini chuqurlashtirishga qaratilgan dolzarb yondashuvlar va pedagogik shart-sharoitlar hanuz to'liq ochib berilmagan. Shu sababli, mazkur mavzu bo'yicha tizimli yondashuv asosida ilmiy-tadqiqot olib borish harbiy ta'lim sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Natijalar

Tadqiqot doirasida O'zbekiston oliy harbiy ta'lim muassasalarining 3-bosqich kursantlari o'rtasida so'rovnoma va kuzatuv usullari asosida amaliy tahlil o'tkazildi. Tadqiqotga jami 120 nafar kursant jalb qilindi. So'rovnomada kursantlarning "Taktika" fani bo'yicha egallagan bilimlari, amaliy ko'nikmalari, darslarda qo'llanilayotgan metodlar samaradorligi hamda o'zlarining tayyorgarlik darajasi haqidagi fikrlari o'rganildi.

1-jadval. Kursantlarning o'zini baholash natijalari

Baholash mezonlari	Yuqori (%)	O'rtacha (%)	Past (%)
Taktik qaror qabul qilish ko'nikmasi	27%	52%	21%
Rahbarlik qilish va boshqaruv	30%	48%	22%
Vaqtni boshqarish va tezkor rejalashtirish	24%	50%	26%
Nazariy bilimlarni amaliyotga qo'llash	20%	56%	24%
Darslardagi interfaollik darajasi	18%	45%	37%

Darslarda qo'llanilayotgan uslublar (kursant fikriga ko'ra):


- Ma'ruza va an'anaviy o'qitish – 67%
- Interfaol metodlar (rolli o'yin, keys-stadi) – 23%
- Simulyatsiya va amaliy mashg'ulotlar – 10%

Pedagoglar kuzatuvini asosida baholash:

Taktika fani bo'yicha o'quv mashg'ulotlari kuzatuvini davomida aniqlanishicha:

- Kursantlarning 42% vaziyatli mashqlarda faol ishtirok etadi.
- 37% kursant mustaqil qaror qabul qilishda ikkilanadi.
- 21% esa nazariy bilimlarga tayanib harakat qilishga harakat qiladi, ammo real holatlarga moslashish darajasi past.

1-rasm



Yuqoridagi diagramma kursantlarning o'zlarini baholash natijalarini foizlarda ko'rsatmoqda. Har bir ko'nikma bo'yicha "yuqori", "o'rtacha" va "past" darajadagi baholash foizlari solishtirilgan

Tahlil natijalari:

- Taktika fanida amaliy mashg'ulotlar va interfaol metodlar yetarli darajada qo'llanilmayapti, bu esa professional ko'nikmalar rivojlanishiga to'siq bo'lmoqda.
- Kursantlar nazariy bilimga ega bo'lsalar-da, uni real sharoitga moslashtirish, strategik fikrlash va boshqaruvda mustaqil qaror qabul qilishda qiyinchilik sezmoqda.
- Amaliy va simulyatsion o'qitish texnologiyalarini kengroq joriy qilish zarur.

Xulosa va tavsiyalar:

- Taktika fanini o'qitishda simulyatorlar, interfaol vositalar, harbiy ssenariy asosidagi mashqlardan foydalanish kengaytirilishi lozim.
- Harbiy pedagoglar uchun metodik qo'llanmalar ishlab chiqilishi va doimiy malaka oshirish tizimi yo'lga qo'yilishi kerak.
- Kursantlarda rahbarlik, tezkor fikrlash va qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun rolli o'yinlar, keys-tahlil va guruhviy strategik mashg'ulotlar tavsiya etiladi.

Muhokama. Ilmiy adabiyotlarning o'rganilishi, harbiy ta'limga kompetentli yondashuvini amalga oshirilishi, taktika fanida kursantlarning professional ko'nikmalarni shakllanishi samaradorligini oshirilishi yo'llarini izlashga undaydi. O'tkazilgan tahlilning natijalari shuni ko'rsatadiki, taktika fanining tashkiliy tuzilishi va o'rganish mazmunini optimallashtirish kursantlarning taktika fanining professional shakllanishi samaradorligini oshirishda asosiy yo'li hisoblanadi [1,2].

Professional ko'nikmalar ta'lim jarayonida shakllantiriladi va takomillashtirilib boriladi. Ular butun harbiy faoliyatning ko'p qirrali xarakterini aks ettirish uchun yetarli emas. Harbiy

faoliyatning og'ir va favqulotda paydo bo'ladigan vaziyatlarida zarur bo'ladigan bir qator ko'nikmalar mavjud bo'lib ularni shakllantirish harbiy xizmat davomida, jangovar birodarlik, hamjihatlik, ustoz-shogird ana'nalariga rioya qilish yo'li bilan amalga oshiriladi [4].

Yuqori bilimga ega bo'lgan va harbiy-professional ko'nikmalari shakllangan ofitser har qanday sharoit va vaziyatda bo'ysunuvidagi bo'linmani doimiy jangovar va safarbarlik shayligini ushlab turadi, jangovar harakatlar davomida bo'linmani mohirona boshqaradi, shuningdek, oldida turgan har qanday vazifani muvaffaqiyatli bajarilishini ta'minlab beradi. Buning uchun harbiy-professional ko'nikmalarga ega ofitserlarining taktika fanini o'qitishni tashkillashtirish uchun quyidagilarni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi:

birinchidan, kursantlarda harbiy-professional ko'nikmalarini shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi samarador ta'lim dasturlarini ishlab chiqish va o'quv jarayoniga tatbiq qilish;

ikkinchidan, bo'lajak ofitserlarda jangovar holatda, vaziyatning real sharoitlarida g'alabaga yetaklovchi qaror qabul qilib bo'ysunuvchilarini mohirona boshqarish qobiliyatini oshirish – ta'limning asosiy mezonligini ta'minlash;

uchinchidan, taktika fanining o'quv mashg'ulotlarini imkon qadar yuqori harbiy-pedagogik ko'nikmalarga ega bo'lgan mutaxassislar tomonidan tashkillashtirilib, zamonaviy o'quv moddiy bazada o'tkazilishi lozim. Bu jarayonda har bir mutaxassisga o'zining va ehtimoliy dushman bo'linmalarining tashkiliy tuzilishi, qurollanishi va jangovar texnikasi, vazifalari, jangovar imkoniyatlari va jangovar qo'llanishining asosiy tamoyillarini o'rgatish, bo'linmalarni boshqarishning asosiy metodlari, tamoyil va usullarini, taktik harakatlar bo'yicha xaritani rasmiylashtirish, tez o'zgaruvchan taktik vaziyatda tezkorlik bilan nostandart va asoslangan qaror qabul qilish bo'yicha bilim va malakasini oshirish zarur;

to'rtinchidan, kursantlarni taktika faniga o'qitishda sermazmun va tushunarli tilda, ularning mustaqil fikrlash, tahlil qilish va kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishga mo'ljallangan yangi avlod adabiyotlarini ishlab chiqish.

Bo'lajak ofitserlarning majburiyati va vazifalaridan kelib chiqib kursantlarning harbiy-professional ko'nikmalari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin.

Harbiy qasamyodiga sodiq, o'z xalqiga fidoiy, O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi va hududiy yaxlitligini matonat bilan himoya qilishga tayyor, harbiy xizmat mashaqqatlarini yenga olish ko'nikmalarini shakllantirishda – kursantlarni xalqiga, Prezidentiga sodiq bo'lishi, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunlariga qat'iy rioya etish, harbiy nizomlar, komandir va boshliqlarning buyruqlarini so'zsiz bajarish, harbiy intizomga rioya qilish, halol, jasur va sergak jangchi bo'lish, ona-Vataniga sadoqatli bo'lish, davlat manfaatlari va mustaqilligining himoyachisi bo'lish va bunda jonini ham ayamasklik, harbiy xizmatning mashaqqat va qiyinchiliklarini sabot bilan yengish sifatleri ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlik, madaniy-hordiq, tarbiyaviy va mafkuraviy, harbiy qasamyodga keltirish tadbirlari davomida shakllantiriladi.

Jangovar shaylik tadbirlari bo'yicha ishonchli harakatlana olish va uning darajalari bo'yicha bo'ysunuvidagi bo'linma harakatini nazorat qilish qobiliyatini shakllantirishda kursantlarning sutkaning har qanday vaqti, ob-havoning har qanday sharoitida, turli vaziyatlarda, belgilangan meyoriy vaqtda dushmanni yakson qilish uchun tayyor bo'lish, shuningdek, bo'ysunuvchi shaxsiy tarkibini holat bo'yicha xabardor qilish, ularning belgilangan hududga yetib kelishi, to'liq ekipirovkada, qurollangan holda safda turishi tadbirlarini nazorat qilish ko'nikmalarini egallashiga qaratiladi.

Qo'shinlarning kundalik faoliyati va jangovar tayyorgarlik tadbirlarini to'g'ri tashkillashtira olish qobiliyatini shakllantirishda kursantlarning qo'shnlarda belgilanadigan kun tartibi va xizmat vaqti tartibini aniq bajarish, sutkalik naryadning jangovar navbatchilik va xizmatni, bo'ysunuvchilarning sog'lig'ini saqlash to'g'risida g'amxo'rlikning yuksak talabchanlik bilan uyg'unlashtirish, jangovar tayyorgarlikni namunali tashkil etish, qurol-aslaha, harbiy texnika va boshqa moddiy vositalarning to'g'ri ekspluatatsiya qilish ko'nikmalarini egallashiga qaratiladi.

Jangga tayyorgarlik ko'rish va uni tashkillashtirish tadbirlarini amalga oshirish qobiliyatini shakllantirishda kursantlarnig bo'ysunuvchi bo'linmani qo'yilgan vazifalarni bajarishga

tayyorlash, ko'rsatilgan hudud, marralarni egallash, olingan vazifani anglab yetish, vaziyatni baholash, jang g'oyasini belgilash va qaror qabul qilish, bo'linmalarga jangovar vazifani belgilash va qo'yish, dushmani yakson qilishni tashkillashtirish, hamkorlik, boshqaruv va jang ta'minotining barcha turlari bilan ta'minlash, jangovar va boshqa hujjatlarni ishlab chiqish va rasmiylashtirish hamda tegishli hisob-kitoblarni tayyorlash bo'yicha ko'nikmalarini shakllantirishga qaratiladi.

Yangi g'oyalar yaratishga qodirlik (kreativlik), shtatda mavjud harbiy-texnika va qurol-yarog'dan foydalana olish, ularga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq malakalarni tatbiq eta olishida ofitserning o'z ixtisosligi bo'yicha qo'shinlarning tashkiliy tuzilishi, qurollanishi va jangovar texnikasi, vazifalari, jangovar imkoniyatlari va jangovar qo'llanishining asosiy tamoyillarini hamda barcha turdagi jangovar harakatlarda ixtisosligidan kelib chiqqan holda bo'linmaning o't ochishini boshqarishning asosiy metodlari, tamoyillari va usullarini bilish hamda ularni qo'llash ko'nikmalarini shakllantirishga qaratiladi.

Ekstremal shariotlar (vaziyatlar) (atrof-muhit sharoitlari va tabiat injiqliklari, oziq-ovqat yetishmovchiligi, dushman ta'siri kabi omillar) nafaqat harbiy bo'linma, balki har bir jangchi ruhiyatiga o'z ta'sirini o'tkazadi. Buning natijasida bo'linma oldiga qo'yilgan jangovar vazifaning bajarilishi qiyinlashadi. Jangovar harakatlar olib borish va o'z vazifalarini ularning xususiyatidan kelib chiqib bajara olish va o'rgata olish har bir ofitserning vazifasidir. Kundalik faoliyat jarayonida orttirilgan har taraflama bilim va amaliy ko'nikmalar nafaqat murakkabliklarni yengib o'tishga yordam beradi, balki harbiy xizmatchida o'z kuchiga bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi, turli azob-uqubatlarga qarshi tura olishga qodirlik hissini singdirib boradi.

Boshqaruvchanlik qobiliyatiga shaxsning bir necha shaxsiy sifatleri kiradi, ular ofitserning professional faoliyatida vazifalarni muvaffaqiyatli bajara olishini o'z ichiga oladi. Tinchlik va urush davrida bo'linmani boshqara olish qobiliyatini shakllantirishda vaziyat haqida uzluksiz ma'lumotlarni topish, yig'ish, o'rganib olish va ularni tahlil qilish, qabul qilingan qarorni bo'ysunuvchi bo'linmalarga yetkazish, uzluksiz hamkorlikni tashkil qilish va ushlab turish, razvedka, qo'riqlov, niqoblanish, axloqiy-ruxiy, texnik va moddiy ta'minot tadbirlarini tashkillashtirish va ularni o'tkazish, bo'ysunuvchilariga yordam berish va ular ustidan nazorat qilish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratiladi.

Kelajakda ofitserning shaxsiy professional yo'nalishida uning shaxsiy sifatlarini shakllantirish, o'z munosabatini bildira olishi, qadrlashga yo'naltirilganligi, fikrlash, o'z xulq-atvor odatlarining shakllanishi, professional muhitda muvaffaqiyatli qarorlarni qabul qila olish va qulay tartibda uni ishlata bilishidir. Barcha turdagi jangovar harakatlarda bo'linmalarni boshqarishning asosiy metodlari, tamoil va usullarini bilish, tez o'zgaruvchan taktik vaziyatda tezkorlik bilan nostandart va asoslangan qaror qabul qilishga tayyor bo'lishga o'rgatadi.

Hozirda dunyoda kechayotgan globallashuv jarayonida harbiy mojarolar fonida olib borilayotgan harbiy harakatlar o'zining keskinligi, to'satdanligi, vaziyatning kutilmaganda keskin o'zgarishi, katta maydonni egallamasada, shaxsiy tarkib va harbiy texnikalar talofatlarini sezilarli darajada yuqori bo'lishi bilan farqlanadi. Ushbu omillar harbiy mojaroning bevosita ishtirokchisi bo'lgan nafaqat shaxsiy tarkib shuningdek, bo'linma komandirlarining ruhiy va jismoniy holatiga yuklamalar sezilarli darajada oshishi, ularning ruhiyatining bardoshlilikini oshirishga qaratiladi. Oliy harbiy ta'lim muassasalarida taktika fani kursantlarning mutaxassisligini egallashi bo'yicha ixtisoslik hamda boshqa fanlar bilan uyg'unlikda amalga oshirilishini talab etadi. Taktika fanini o'qitishning uslubiy tizimi ishchi o'quv dasturlarini va ularning mazmunini ta'lim yo'nalishi o'quv dasturi bilan muvofiqlashtirishda fanlar tizimining shakllantiruvchi elementi hisoblanadi. Taktika fanining funksiyasi kursantlarda harbiy-professional ko'nikmalarni hosil qiluvchi elementlarni amalga oshirish imkonini beradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, hozirgi globallashuv va tez rivojlanib borayotgan davrda, o'z qasamyodiga sodiq, Vatan himoyasiga ma'sullik tuyg'ulari shakllangan, harbiy burchni bajarishga shay jangchini tayyorlash uchun kursantlarda shakllantirilishi zarur bo'lgan harbiy-professional ko'nikmalarni belgilash muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. <http://strategy.regulation.gov.uz/uz/document/2>. 25.07.2019.
2. O'R MVning 2022 yil 15 sentabrdagi "Mudofaa vazirligi oliy harbiy ta'lim muassasalarida harbiy kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish to'g'risida" gi 686-sonli buyrug'i., T. 2022.
3. Qo'shinlarning taktik qo'mondonligi (motoo'qchi qo'shinlari taktik qo'mondonligi) O'quv Dasturi. T.:O'R QKA 2021.
4. Nishonboyev, M. "OHTM kursantlarining ta'lim sifatining pedagogik sharoitlari omili sifatida". // Zirhli qalqon. 2022. – 1/10 – son - B. 630-634.
5. Nishonboyev M.X., "Modulli o'qitish tizimida kursantlarning professional tayyorgarligi sifatini oshirish yo'llari". // Harbiy ta'lim va fanda innovatsiyalar 2022. – 2/14 – son.- B. 17-22.
6. Педагогический энциклопедический словарь. М.: Дрофа, 2008. 528 с.

Sattorov Najmiddin Pulatovich,

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi kafedra katta o'qituvchisi

TOIFALANGAN OBYEKT LARNI QO'RIQLASH VA HIMOYA QILISHDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASH

Annotatsiya. Mazkur maqolada toifalangan obyektlarni (strategik, harbiy, sanoat va boshqa muhim inshootlarni) qo'riqlash va himoya qilish jarayonlarida sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarini qo'llash masalalari yoritilgan. Sun'iy intellektga asoslangan kuzatuv tizimlari, yuzni aniqlash va tanish algoritmlari, harakatni bashorat qilish modullari va tahdidni avtomatik aniqlash imkoniyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, mavjud xavfsizlik tizimlariga SI integratsiyasi orqali ularning samaradorligini oshirish, inson omiliga bog'liq xatolarni kamaytirish va real vaqt rejimida tahliliy qarorlar qabul qilish imkoniyatlari ko'rib chiqilgan. Maqola yakunida ushbu texnologiyalarning milliy xavfsizlik tizimlarida qo'llash istiqbollari va tavsiyalari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, xavfsizlik tizimi, toifalangan obyekt, avtomatlashtirilgan nazorat, yuzni aniqlash, tahdidni aniqlash, real vaqt tahlili, xavfsizlikni boshqarish, intellektual monitoring.

Аннотация. В данной статье рассматривается применение технологий искусственного интеллекта (ИИ) в процессах охраны и защиты секретных объектов (стратегических, военных, промышленных и других важных объектов). Анализируются возможности систем наблюдения на основе искусственного интеллекта, алгоритмов распознавания и распознавания лиц, модулей прогнозирования движения и автоматического обнаружения угроз. Также рассматриваются возможности повышения их эффективности, снижения человеческих ошибок и принятия аналитических решений в режиме реального времени за счет интеграции ИИ в существующие системы безопасности. В конце статьи излагаются перспективы и рекомендации по применению данных технологий в системах национальной безопасности.

Ключевые слова: искусственный интеллект, система безопасности, секретный объект, автоматизированный контроль, распознавание лиц, обнаружение угроз, анализ в реальном времени, управление безопасностью, интеллектуальный мониторинг.

Abstract. This article discusses the application of artificial intelligence (AI) technologies in the processes of guarding and protecting classified objects (strategic, military, industrial and other important facilities). The possibilities of artificial intelligence-based surveillance systems, face recognition and recognition algorithms, motion prediction modules and automatic threat detection are analyzed. Also, the possibilities of increasing their efficiency, reducing human error and making analytical decisions in real time through the integration of AI into existing security systems are considered. At the end of the article, the prospects and recommendations for the application of these technologies in national security systems are outlined.

Keywords: artificial intelligence, security system, classified object, automated control, face recognition, threat detection, real-time analysis, security management, intelligent monitoring.

Kirish. Zamonaviy dunyoda xavfsizlik masalalari tobora dolzarb tus olmoqda. Ayniqsa, toifalangan obyektlar - strategik, harbiy, energetika, transport, axborot-kommunikatsiya infratuzilmalari kabi muhim ahamiyatga ega inshootlar - mamlakat milliy xavfsizligi, iqtisodiy barqarorligi va ijtimoiy hayotining uzluksiz ishlashi uchun hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ularni samarali qo'riqlash va har qanday ichki yoki tashqi tahdidlardan himoya qilish davlat va jamiyat oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

An'anaviy qo'riqlash tizimlari asosan inson omiliga tayanadi va bu tizimlarda turli xatolar, reaksiya kechikishlari, shuningdek, cheklangan nazorat doiralari mavjud bo'ladi. So'nggi yillarda texnologik taraqqiyot, ayniqsa sun'iy intellekt (SI) sohasidagi yutuqlar, xavfsizlik tizimlarini tubdan yangilash imkoniyatlarini yaratdi. SI algoritmlari yordamida real vaqt rejimida ma'lumotlarni yig'ish, tahlil qilish va qarorlar qabul qilish jarayonlari inson ishtirokisiz amalga oshirilishi mumkin bo'lib, bu xavfsizlik darajasini sezilarli oshiradi.

Ushbu ishda toifalangan obyektlarni himoya qilishda sun'iy intellekt texnologiyalarining o'rni, amaliy qo'llanilishi, texnik imkoniyatlari va istiqbollari tahlil qilinadi. Shuningdek, mavjud muammolar va ularni hal qilish bo'yicha tavsiyalar ham beriladi. Maqsad - zamonaviy xavfsizlik muammolariga innovatsion yechimlarni ishlab chiqish va ularni real tizimlarga integratsiya qilish yo'llarini ko'rsatishdir.

Bugungi kunda global miqyosda terrorchilik, kibernetik xavfsizlik tahdidlari, sabotaj harakatlari va boshqa xavf-xatarlar toifalangan obyektlarga bevosita tahdid solmoqda. Bunday obyektlar - energetika markazlari, harbiy qismlar, axborot markazlari, transport tizimlari, suv va gaz infratuzilmalari - mamlakat xavfsizligining tayanch nuqtalaridir. Ularning ishdan chiqishi yoki zararlanishi butun iqtisodiy va ijtimoiy tizimda jiddiy muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

An'anaviy qo'riqlash vositalari ko'pincha inson omiliga bog'liq bo'lganligi sababli, ularning samaradorligi cheklangan, reaktiv yondashuv ustuvor hisoblanadi. Bunga javoban, zamonaviy xavfsizlik konsepsiyalari profilaktik va intellektual yondashuvni talab qilmoqda. Aynan shu nuqtada sun'iy intellekt texnologiyalari muhim ahamiyat kasb etadi.

Sun'iy intellekt asosidagi videoanalitika, yuz va ob'ektni aniqlash, harakatni kuzatish, real vaqt rejimida tahdidlarni prognozlash va avtomatik qarorlar qabul qilish tizimlari xavfsizlik darajasini sezilarli darajada oshirishga xizmat qilmoqda. Bunday yondashuvlar xavf-xatarining oldini olish, inson xatolari ehtimolini kamaytirish va resurslardan samarali foydalanishga imkon beradi.

Shu boisdan toifalangan obyektlarni himoya qilishda sun'iy intellektdan foydalanish nafaqat texnologik taraqqiyot talabi, balki milliy xavfsizlikni ta'minlashning dolzarb ehtiyojidir.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Toifalangan obyektlarni himoya qilish va xavfsizlikni ta'minlash masalasi global miqyosda ko'plab ilmiy tadqiqotlar va amaliy loyihalarning e'tibor markazida bo'lib kelmoqda. Ayniqsa, so'nggi yillarda sun'iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi ushbu yo'nalishda yangi ilmiy izlanishlar va innovatsion yondashuvlarga zamin yaratdi.

Chet el olimlaridan M. Wooldridge (Artificial Intelligence: A Modern Approach), R. Sutton va A. Barto (Reinforcement Learning), shuningdek, xavfsizlik tizimlari bo'yicha tadqiqot olib borgan P. Viola va M. Jones (yuzni aniqlash algoritmlari), G. Bradski (OpenCV asoschisi) kabi mutaxassislarning ishlari sun'iy intellektning amaliy qo'llanilishi, xususan, monitoring va kuzatuv tizimlarida qo'llanish imkoniyatlarini chuqur tahlil etadi. Shuningdek, xalqaro miqyosda NATO, IEEE va ACM kabi tashkilotlar tomonidan xavfsizlik texnologiyalari va SI integratsiyasi yuzasidan maxsus hisobotlar, konferensiyalar va ilmiy maqolalar muntazam chop etilmoqda.

O'zbekiston sharoitida esa ushbu mavzu bo'yicha tadqiqotlar hali boshlang'ich bosqichda bo'lib, asosan texnik sohalar, jumladan, axborot texnologiyalari, raqamli xavfsizlik va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari doirasida yoritilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasi doirasida sun'iy intellektni davlat boshqaruvi va xavfsizlik sohalariga joriy etish vazifasi belgilangan. Bu esa mazkur mavzuning dolzarbligini oshiribgina qolmay, uning chuqur ilmiy o'rganilishini taqozo etmoqda.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida ham ayrim amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda. Biroq bu ishlar ko'proq texnik yechimlarga qaratilgan bo'lib, SI asosidagi xavfsizlik strategiyalari va ularning tizimli ilmiy tahlili hali to'liq shakllanmagan.

Shu bois, ushbu mavzuni chuqur ilmiy asosda o'rganish, mavjud xalqaro tajribalarni o'rganib, O'zbekiston sharoitiga mos innovatsion yechimlarni taklif qilish ilmiy va amaliy jihatdan nihoyatda muhimdir.

Muhokama. Toifalangan obyektlar deb davlat, jamiyat va iqtisodiyot barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydigan inshootlar, texnologik tizimlar va infratuzilmalar tushuniladi. Ular jumlasiga harbiy qismlar, strategik sanoat korxonalarini, yirik energiya markazlari, kommunikatsiya va transport tuzilmalari, axborot markazlari va boshqa muhim obyektlar kiradi. Bu obyektlarning uzluksiz faoliyat yuritishi davlatning iqtisodiy xavfsizligi va ijtimoiy barqarorligi uchun zaruriy shart hisoblanadi.

Zamonaviy xavfsizlik tahdidlari murakkab, ko'p qirrali va ko'pincha noan'anaviy shakllarda yuzaga chiqmoqda. Jumladan, kiberhujumlar, sabotaj harakatlari, ichki ma'lumotlarning sizib chiqishi, dronlar orqali kuzatuv va zarba berish kabi texnologik xavflar ko'paymoqda. Bunday tahdidlar oddiy nazorat postlari va oddiy kuzatuv kameralari yordamida aniqlanishi yoki bartaraf etilishi qiyin bo'lib qolmoqda. Shu sababli, ilg'or texnologiyalar, jumladan sun'iy intellekt (SI) vositalarini joriy etish bugungi kun talabiga aylangan.

Sun'iy intellekt texnologiyalari yordamida xavfsizlikni ta'minlash jarayoni bir necha bosqichlarda amalga oshiriladi. Birinchi bosqichda sun'iy intellekt real vaqt rejimida atrof-muhitni monitoring qiladi. Bu bosqichda turli sensorlar, videokameralar va harakat detektorlaridan kelayotgan ma'lumotlar avtomatik tarzda qayta ishlanadi. Ikkinchi bosqichda to'plangan ma'lumotlar tahlil qilinadi: yuzni tanish, noma'lum shaxslar va ob'ektlarni aniqlash, g'ayrioddiy harakatlar va holatlarni bashorat qilish. Uchinchi bosqichda esa xavf-xatar mavjudligi aniqlansa, avtomatik tarzda qarorlar qabul qilinadi - signal beriladi, kirish cheklanadi yoki xavfsizlik xodimlariga ogohlantirish yuboriladi.

Amaliyotda qo'llanilayotgan ayrim tizimlarga misol sifatida videoanalitika asosidagi xavfsizlik kameralarini ko'rsatish mumkin. Bunday tizimlar yordamida odamlarning harakati, yuz ifodalari, noxush harakatlar (masalan, yugurish, tajovuzkorlik, urish) aniqlanadi. Shuningdek, termal kameralar bilan birgalikda ishlovchi SI tizimlari orqali tungi va yomon ob-havo sharoitlarida ham samarali monitoring olib boriladi. Ayrim ilg'or tizimlarda dronlar sun'iy intellekt algoritmlari bilan jihozlanib, obyektidagi har qanday o'zgarishni avvaldan aniqlash imkonini beradi.

Yuzni tanish texnologiyalari ayniqsa kirish-chiqish nazoratida keng qo'llanmoqda. Masalan, maxsus toifalangan obyektida har bir xodimning yuz ma'lumotlari oldindan tizimga kiritilgan bo'ladi. Begona shaxs kirishga urinayotganida tizim avtomatik tarzda ogohlantirish beradi va kirishni bloklaydi. Bu orqali inson omiliga bog'liq xatoliklar, masalan, noaniq vizual identifikatsiya yoki e'tiborsizlik oqibatidagi yo'l qo'yishlar bartaraf etiladi.

Bundan tashqari, sun'iy intellekt asosidagi tahdidni bashoratlash tizimlari ham tobora dolzarb bo'lib bormoqda. Ular tarixiy xavfsizlik ma'lumotlari asosida xavfli holatlar yuzaga kelish ehtimolini tahlil qiladi. Masalan, tashqi perimetrda bir nechta odamning bir vaqtda yaqinlashuvi, g'ayritabiiy harakatlar yoki noma'lum transport vositasining uzoq vaqt turib qolishi kabi holatlar real vaqt tahlil qilinadi va xavf darajasiga ko'ra avtomatik signal beriladi.

Shu bilan birga, mavjud xavfsizlik tizimlariga sun'iy intellektni integratsiya qilishda muayyan muammolar ham mavjud. Avvalo, texnologik infratuzilmaning yangilanishi katta mablag' talab qiladi. Sun'iy intellekt tizimlarini o'rnatish va ularni muntazam yangilab borish uchun malakali mutaxassislar va barqaror texnik xizmat ko'rsatish tizimi zarur. Shuningdek, SI tizimlarining noto'g'ri pozitiv yoki noto'g'ri negativ natijalar berish holatlari xavfsizlikni chalg'itishi yoki ortiqcha tashvish uyg'otishi mumkin. Bu esa maxsus obyektlarda ortiqcha tashvish, inson resurslarining behuda sarflanishi yoki noto'g'ri qarorlar qabul qilinishiga olib keladi.

Shunga qaramay, jahon tajribasi sun'iy intellekt texnologiyalarining qo'llanilishi orqali xavfsizlik tizimlarining samaradorligi sezilarli oshganini ko'rsatmoqda. Jumladan, AQSh, Isroil, Xitoy kabi mamlakatlarda strategik obyektlarni SI orqali nazorat qilish va avtomatik boshqaruv tizimlari asosiy xavfsizlik mexanizmlariga aylangan. O'zbekiston sharoitida ham raqamli xavfsizlik konsepsiyasini rivojlantirish, toifalangan obyektlar ro'yxatini qayta ko'rib chiqish va ularni texnologik jihatdan yangilash orqali sun'iy intellektdan foydalanish istiqbollari mavjud.

Xulosa qilib aytganda, toifalangan obyektlarni zamonaviy tahdidlardan himoya qilishda sun'iy intellekt texnologiyalarining o'рни beqiyos. Bu texnologiyalar xavfsizlikni avtomatlashtirish, aniqlikni oshirish, resurslarni tejash va inson omiliga bog'liq xatolarni kamaytirishda muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Kelajakda bu yo'nalishdagi texnologiyalarni milliy xavfsizlik tizimlariga bosqichma-bosqich integratsiya qilish zarur.

Natijalar. So'nggi yillarda sun'iy intellekt texnologiyalarining xavfsizlik sohasida qo'llanilishi keskin o'sdi. Xalqaro tadqiqot kompaniyasi *Markets and Markets* tomonidan 2024-

yilda e'lon qilingan hisobotga ko'ra, sun'iy intellektga asoslangan xavfsizlik tizimlari bozori 2020-yildagi 8,3 milliard AQSh dollaridan 2024-yilga kelib 21,2 milliard dollarga yetgan. Bu esa 25% yillik o'sish sur'atini ko'rsatadi.

1. Xavfsizlik samaradorligiga ta'siri: Sun'iy intellekt joriy etilgan toifalangan obyektlarda xavfsizlik darajasining keskin oshganligi kuzatilgan:

Ko'rsatkichlar	An'anaviy tizim (%)	SI asosidagi tizim (%)
Tahdidni real vaqt rejimida aniqlash	58	91
Inson xatosi tufayli yuz beradigan xatolik	34	7
Tezkor javob qaytarish va reaksiya vaqti	90 soniya	12 soniya
Kuzatuv samaradorligi (24/7)	60	100

Bu ko'rsatkichlar SI texnologiyalarining xavfsizlik samaradorligini sezilarli darajada oshirganini ko'rsatadi.

2. Xavfsizlik buzilishlarining kamayishi


Misol tariqasida, Janubiy Koreyada 2022–2023-yillar davomida 18 ta strategik obyektga SI asosidagi kuzatuv va monitoring tizimlari o'rnatilgach, ruxsatsiz kirish holatlari 63 foizga kamaygan, tahdidlar to'g'risida ogohlantirishlar esa 34 foizga tezroq aniqlangan.

3. Resurslar va iqtisodiy samaradorlik

Sun'iy intellekt joriy etilgan xavfsizlik tizimlarida xodimlar soni 25–30% ga qisqartirilgan bo'lib, bu esa yillik texnik xizmat ko'rsatish xarajatlarini o'rtacha 20–25% ga kamaytirgan. Misol uchun:

- Har bir obyekt uchun inson resurslaridan yillik tejash: taxminan 70 ming AQSh dollari
- Xavfsizlik tizimi orqali avvalgi yillarga nisbatan yo'qotilgan mulk qiymatining kamayishi – 40%

1-rasm



Yuqoridagi diagrammada sun'iy intellekt asosida ishlovchi xavfsizlik tizimlari va an'anaviy tizimlar o'rtasidagi samaradorlik ko'rsatkichlari grafik tarzda taqqoslab berilgan. Diagramma quyidagilarni ko'rsatadi:

- Tahdidni aniqlash darajasi: SI asosidagi tizimlarda ancha yuqori.
- Inson xatoliklari: SI orqali sezilarli darajada kamayadi.
- Reaksiya vaqti: SI yordamida xavfsizlik tizimlari ancha tezkor.
- Kuzatuv samaradorligi: SI tizimlari 24/7 uzluksiz nazoratni ta'minlaydi.

4. O'zbekiston tajribasidan misol

2023-yilda O'zbekiston Respublikasining xavfsizlik tizimi loyihasi doirasida 5 ta yirik inshootda sun'iy intellektga asoslangan yuzni aniqlash va videoanalitika tizimi joriy etildi. Ilk natijalarga ko'ra:

- Noma'lum shaxslarning kirishga urinish holatlari avtomatik tarzda aniqlanish darajasi – 92%
- Xavfsizlik xodimlarining bevosita aralashuvi ehtiyoji – 40% ga kamaydi
- Tizim operatorlarining charchoq va e'tibor yo'qotishi bilan bog'liq xatoliklar 80% ga qisqardi

Umumiy natijalar:

- SI yordamida xavfsizlikni avtomatlashtirish obyekt xavfsizligini barqaror saqlash imkonini beradi.
- Resurslar va vaqt tejaladi, inson omiliga bog'liq xatoliklar kamayadi.
- Real vaqtli tahlil, bashorat va tezkor qaror qabul qilish imkoniyatlari yuzaga chiqadi.
- Mamlakat miqyosida xavfsizlikning raqamli darajasini ko'taradi va strategik obyektlarni global tahdidlardan himoya qilishni kuchaytiradi.

Xulosa

Zamonaviy xavfsizlik muammolarining murakkablashuvi, global tahdidlarning kuchayishi va strategik obyektlar himoyasiga bo'lgan talabning ortishi toifalangan obyektlarni qo'riqlashda innovatsion yondashuvlarni joriy etishni taqozo etmoqda. Sun'iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi esa bu boradagi asosiy yechim sifatida maydonga chiqmoqda.

Chet el tajribasi va O'zbekistondagi ilk amaliyotlar sun'iy intellektni toifalangan obyektlar xavfsizligiga integratsiyalash eng dolzarb va istiqbolli yo'nalishlardan biri ekanligini tasdiqlaydi. Mavjud an'anaviy tizimlarni SI texnologiyalari bilan uyg'unlashtirish orqali milliy xavfsizlikni ta'minlashda yangi bosqichga ko'tarilish imkoniyati mavjud.

Kelgusida ushbu yo'nalishda ilmiy izlanishlar, mahalliy kadrlar tayyorlash va texnologik infratuzilmani mustahkamlash orqali to'liq raqamli xavfsizlik tizimlarini yaratish O'zbekiston uchun strategik ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi. – rasmiy hujjat, 2020.
2. Turg'unov R. "Sun'iy intellekt asoslari". – T.: Innovatsion rivojlanish nashriyoti, 2022.
3. Islomov I., Yusupov I. "Sun'iy intellekt va uning amaliy qo'llanilishi". – T.: Innovatsion ta'lim, 2022.
4. Ergashxo'jayev R., Jo'rayev Sh. "Monitoring va xavfsizlik tizimlari". – T.: "Fan", 2017. Akbarov, B. (2020). Harbiy psixologiya asoslari. Toshkent: "Fan va Texnologiya" nashriyoti.
5. Oripov, S. (2019). Sun'iy intellekt va ta'lim jarayonlarini avtomatlashtirish. Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti.
6. Xolmamatov, D. (2018). Ofitserlarni tayyorlashda innovatsion yondashuvlar. Toshkent: Harbiy akademiya nashriyoti.
7. Sobirov, A. (2022). Harbiy ta'limda zamonaviy texnologiyalar. Toshkent: "Innovatsiya va Rivojlanish" jurnali, 3-son, 45-53-betlar.
8. Rasulov, N. (2021). Sun'iy intellekt yordamida yondashuv. Toshkent: Axborot texnologiyalari jurnali, 2-son, 28-34-betlar.

Kamolov Oybek Olimovich,

*Buxoro davlat universiteti Jismoniy tarbiya va sport fakulteti
Sport nazariyasi va metodikasi kafedrasi mustaqil izlanuvchisi*

O'QUV-MASHQ GURUHI ERKIN KURASHCHILARNING JISMONIY TAYYORGARLIGINI TAHLIL QILISH VA U ASOSIDA MASHG'ULOT SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada erkin kurash sport turi bilan muntazam shug'ullanuvchi sportchilarning jismoniy tayyorgarlik darajasi chuqur tahlil qilinadi. Sportchining musobaqalarda muvaffaqiyatli qatnashishi va yuqori natijalarga erishishi ko'p jihatdan u egallagan texnik-taktik ko'nikmalarga emas, balki jismoniy sifatlarining darajasiga ham bevosita bog'liqdir. Ayniqsa, kuch, chidamlilik, epchillik va reaksiya kabi asosiy jismoniy sifatlar erkin kurash sportida hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqotda o'quv-mashq guruhlari misolida sportchilarning mazkur jismoniy sifatlari bo'yicha tayyorgarlik holati bosqichma-bosqich baholandi. Monitoring asosida sportchilarning boshlang'ich holati va 8 haftalik o'quv-mashq tsiklidagi rivojlanish dinamikasi o'zaro solishtirildi. Har bir test ko'rsatkichi statistik usullar yordamida tahlil qilinib, o'zgarishlarning ishonchlilik darajasi aniqlashtirildi.

Tayanch so'zlar: erkin kurash, jismoniy tayyorgarlik, mashg'ulot samaradorligi, sportchilar, tahlil, o'quv-mashq guruhi.

Annotation: This article provides an in-depth analysis of the level of physical preparation of athletes who regularly engage in freestyle wrestling. An athlete's successful participation in competitions and achievement of high results largely depend not only on the technical and tactical skills he possesses, but also on the level of his physical qualities. In particular, such basic physical qualities as strength, endurance, agility and reaction are manifested as decisive factors in freestyle wrestling. In the study, the state of preparation of athletes in these physical qualities was assessed step by step using the example of training groups. Based on the monitoring, the initial state of the athletes and the dynamics of their development during the 8-week training cycle were compared. Each test indicator was analyzed using statistical methods, and the reliability of the changes was determined.

Keywords: freestyle wrestling, physical training, training efficiency, athletes, analysis, training group.

Аннотация. В данной статье дается углубленный анализ уровня физической подготовки спортсменов, регулярно занимающихся вольной борьбой. Успешное участие спортсмена в соревнованиях и достижение им высоких результатов во многом зависят не только от технико-тактического мастерства, которым он обладает, но и от уровня его физических качеств. В частности, такие основные физические качества, как сила, выносливость, ловкость и реакция проявляются как решающие факторы в вольной борьбе. В ходе исследования поэтапно оценивалось состояние подготовки спортсменов по этим физическим качествам на примере учебных групп. На основе мониторинга сравнивались исходное состояние спортсменов и динамика их развития в течение 8-недельного цикла подготовки. Каждый тестовый показатель анализировался с использованием статистических методов, определялась достоверность изменений.

Ключевые слова: вольная борьба, физическая подготовка, эффективность подготовки, спортсмены, анализ, тренировочная группа.

Kirish: Erkin kurash – bu zamonaviy sport turlaridan biri bo'lib, texnik-taktik harakatlarning ko'pligi, jangovar holatlarning tez-tez o'zgarib turishi va qarama-qarshilik kuchining doimiy mavjudligi bilan ajralib turadi. Bu sport turi nafaqat jismoniy, balki psixologik, koordinatsion va analitik salohiyatni ham bir vaqtda talab qiladi. Aynan shu omillar uni boshqa sport turlaridan ajratib turadi va sportchidan yuksak darajadagi tayyorgarlikni talab etadi.

Erkin kurashda muvaffaqiyatga erishish uchun sportchining har tomonlama jismoniy yetukligi muhim ahamiyatga ega. Ustunlikni belgilovchi omillar orasida kuch, chidamlilik, epchillik, koordinatsiya va reaksiya tezligi alohida o'rinni egallaydi. Mazkur sifatlar sportchining jang davomida zarur bo'lgan tezkor harakatlarni bajarishi, raqibga tez moslashishi va turli texnik kombinatsiyalarni to'g'ri qo'llay olishini ta'minlaydi. Shu sababli, jismoniy tayyorgarlik sportchining texnik mahoratini to'liq namoyon etishiga zamin yaratadi.

Bundan tashqari, so'nggi yillarda kurash sportida raqobat darajasi sezilarli darajada oshgan. Jahon miqyosida olib borilayotgan tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, yuqori darajadagi jismoniy tayyorgarlikka ega bo'lgan sportchilar nafaqat musobaqa davomida barqaror natijalar ko'rsatmoqda, balki uzoq muddatli sport faoliyatini muvaffaqiyatli davom ettirishga ham erishmoqda. Bu esa sport tayyorgarligi tizimini ilmiy asoslangan tarzda qurish zaruratini yanada kuchaytirmoqda.

Shu nuqtai nazardan qaralganda, erkin kurashchilarning jismoniy tayyorgarligini tizimli tahlil qilish, mavjud yutuq va kamchiliklarni aniqlash hamda mashg'ulot jarayonini yanada samarali tashkil etish masalalari sport pedagogikasi va sport nazariyasi sohalarining dolzarb yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda.

Mazkur tadqiqot aynan shu yo'nalishga qaratilib, o'quv-mashq guruhi sharoitida erkin kurashchilarning jismoniy tayyorgarligi darajasini chuqur tahlil qilish, monitoring asosida o'zgarishlarni aniqlash va mashg'ulotlar samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan metodik tavsiyalarni ishlab chiqishni maqsad qilgan.

Maqolaning maqsad: Erkin kurashchilarning jismoniy tayyorgarlik darajasini o'quv-mashq guruhi misolida baholash va mashg'ulot samaradorligini oshirishga qaratilgan takliflarni ishlab chiqish.

Biz tadqiqotimiz maqsadidan kelib chiqib quyidagi vazifalarni belgilab oldik:

O'quv-mashq guruhida sportchilarning jismoniy sifatlarini tahlil qilish.

Tadqiqotning boshlang'ich bosqichida o'quv-mashq guruhi a'zolari bo'lgan erkin kurashchilarning mavjud jismoniy tayyorgarlik darajasi har tomonlama baholanadi. Sportchilarda kuch, chidamlilik, epchillik, tezlik, reaksiya va koordinatsiya kabi asosiy jismoniy sifatlarning rivojlanish holatini aniqlash uchun standartlashtirilgan testlar qo'llaniladi. Ushbu tahlil natijalari sportchilarning individual yondashuv asosida mashg'ulotlar olib borilishi zarurligini belgilab beradi.

Asosiy ko'rsatkichlar (kuch, epchillik, chidamlilik, tezlik) bo'yicha monitoring o'tkazish.

Jismoniy sifatlarning holatini muntazam ravishda baholab borish uchun sportchilarning asosiy ko'rsatkichlari ustida monitoring ishlari olib boriladi. Bu monitoring quyidagi maqsadlarga xizmat qiladi:

sportchining individual rivojlanish dinamikasini aniqlash;

mashg'ulot jarayonining samaradorligini kuzatish;

dastlabki va oraliq natijalarni solishtirish orqali o'zgarishlarni aniqlash.

Buning uchun ilg'or testlar, zamonaviy texnologiyalar va statistik tahlil usullaridan foydalaniladi.

Olingan natijalarga asoslanib mashg'ulot dasturini yangilash.

Monitoring va tahlil natijalari asosida har bir sportchining kuchli va zaif tomonlari aniqlanadi. Shu asosda ularning jismoniy holatiga moslashtirilgan mashg'ulot dasturlari qayta ko'rib chiqiladi va takomillashtiriladi. Dasturga quyidagilar integratsiya qilinadi:

kuchli mushak guruhlarini rivojlantirish uchun blokli yuklamalar;

epchillik va muvozanatni oshirishga qaratilgan koordinatsion mashqlar;

qisqa, yuqori intensivlikdagi yuklamalar orqali anaerob salohiyatni kuchaytirish;

mashg'ulotlar oraliq idagi tiklanish usullarini optimallashtirish.

Natijalarni statistik jihatdan asoslab, mashg'ulot samaradorligini baholash.

Tadqiqot yakunida sportchilarning dastlabki va yakuniy test ko'rsatkichlari o'zaro solishtirilib, T-student testi, variatsiya koeffitsienti va boshqa statistik ko'rsatkichlar yordamida o'zgarishlarning ishonchlik darajasi aniqlanadi. Bu tahlil mashg'ulotlar samaradorligini obyektiv

baholash va metodik tavsiyalar ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Statistik asoslash orqali nafaqat sifat o'zgarishlari, balki mashg'ulot tizimining ilmiy asoslanganligi ham tasdiqlanadi.

O'quv-mashq guruhi doirasida olib borilgan 8 haftalik mashg'ulotlardan so'ng sportchilarning jismoniy tayyorgarlik darajasida sezilarli o'zgarishlar kuzatildi. Tadqiqot davomida kuch, chidamlilik, epcillik, reaksiya tezligi va umumiy jismoniy holatni aks ettiruvchi testlar qo'llanildi. Quyida har bir test turi bo'yicha olingan natijalar tahlil qilinadi:

O'tirib-turish mashqi (30 soniya davomida)

Mazkur test sportchining oyoq mushaklarining kuchi va mahalliy chidamliligini baholash uchun o'tkaziladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, dastlabki bosqichda sportchilar o'rtacha 24,6 marta harakat bajargan bo'lsa, mashg'ulotlar yakunida bu ko'rsatkich 30,1 martani tashkil etdi. Bu esa kuch sifatining 22,3 foizga o'sganini ko'rsatadi. t-student testi orqali o'zgarishlar statistik jihatdan ishonchli deb topildi ($t=4,23$; $P<0,01$), ya'ni bu o'zgarish tasodifiy emas, balki mashg'ulotlar ta'sirida yuzaga kelgan.

O'quv-mashq guruhi erkin kurashchilarning jismoniy tayyorgarligi dinamikasi


t/r	Test turi	Tajriba boshi	Tajriba oxiri	t	P
1	O'tirib-turish (30 soniya)	24,6 ± 3,4	30,1 ± 2,8	4,23	<0,01
2	Reaksiya testi (ms)	350 ± 40	310 ± 32	3,87	<0,01
3	Uzoqqa sakrash (sm)	210 ± 15	232 ± 14	5,12	<0,001
4	3x10 yugurish (sek.)	8,4 ± 0,6	7,8 ± 0,5	3,75	<0,01
5	12 daq yugurish (m)	2300 ± 180	2580 ± 160	4,65	<0,001

Reaksiya testi (millisekundlarda o'lchanadi)

Ushbu test sportchilarning tashqi ta'sirga javob berish tezligini baholaydi. Dastlabki bosqichda o'rtacha reaksiya vaqti 350 millisekundni tashkil etgan bo'lsa, yakuniy bosqichda u 310 millisekundgacha qisqardi. Bu reaksiya tezligining 11,4% ga yaxshilanganini anglatadi. Statistika bo'yicha t-student qiymati 3,87 bo'lib, $P<0,01$ darajasida bu o'zgarish sezilarli deb baholandi. Demak, mashg'ulotlar sportchilarning qaror qabul qilish va javob berish tezligini yaxshilagan.

Joydan uzoqqa sakrash (portlovchi kuchni aniqlovchi test)

Ushbu test orqali sportchilarning oyoq mushaklarining portlovchi kuch darajasi baholandi. Test natijalariga ko'ra, sportchilar dastlab o'rtacha 210 sm sakrashgan bo'lsa, tajriba yakunida bu ko'rsatkich 232 sm ga yetgan. Bu deyarli 10,5 foiz o'sishni anglatadi. Olingan t-student qiymati 5,12 bo'lib, $P<0,001$ darajasida yuqori ishonchlilik bilan mashg'ulotlar samaradorligini ko'rsatmoqda.



O'quv-mashq guruhi erkin kurashchilarning jismoniy tayyorgarligi dinamikasi

3x10 metrga yugurish (epchillikni baholovchi test).

Epcillik - bu sportchining tezlikda yo'nalishni o'zgartirish, moslashish, o'z harakatini muvofiqlashtirish qobiliyatidir. Dastlabki natijalar o'rtacha 8,4 sekundni tashkil qilgan bo'lsa,

mashg'ulotlar natijasida bu ko'rsatkich 7,8 sekundga qisqardi. Ya'ni sportchilar tezroq va samaraliroq harakatlana boshladilar. Statistika ($t=3,75$; $P<0,01$) bu o'zgarishning ham ishonchli ekanligini tasdiqlaydi.

12 daqiqalik yugurish (umumiy chidamlilik ko'rsatkichi)

Bu test orqali sportchilarning yurak-qon tomir va nafas olish tizimining funksional holati, shuningdek, umumiy chidamlilik darajasi aniqlanadi. Tadqiqot boshida sportchilar o'rtacha 2300 metr yugurgan bo'lsa, mashg'ulot yakunida bu ko'rsatkich 2580 metrga yetdi. Ya'ni ular 280 metrga ko'proq yugurishga qodir bo'lishgan. O'zgarish 12 foizga teng bo'lib, juda muhim rivojlanish sifatida qayd etiladi ($t=4,65$; $P<0,001$).

O'tkazilgan testlar natijalariga ko'ra, o'quv-mashq guruhi doirasida tashkil etilgan 8 haftalik metodik mashg'ulotlar sportchilarning barcha muhim jismoniy sifatlarini rivojlantirishda samarali bo'lgan. Har bir test bo'yicha olingan natijalar statistik jihatdan ishonchli o'zgarishlarni ko'rsatdi. Bu esa shuni anglatadiki, ilmiy asoslangan, tizimli mashg'ulot metodikasi erkin kurashchilar tayyorgarligining samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

1. O'quv-mashq guruhlarida sportchilarning individual jismoniy ko'rsatkichlariga asoslangan mashg'ulotlar samaradorlikni oshiradi

Har bir sportchining jismoniy rivojlanish darajasi, fiziologik imkoniyatlari va tayyorgarlik holati o'ziga xos bo'ladi. Shu boisdan o'quv-mashq jarayonini bir xil, umumiy dasturni qo'llash orqali tashkil etish o'rniga, har bir sportchiga individual yondashuv asosida yuklamalar belgilanishi kerak. Kuchli mushak guruhlari, zaiflik zonalari, yyengil charchashga moyillik va tiklanish tezligi kabi xususiyatlar e'tiborga olinishi lozim. Individual ko'rsatkichlarga moslashtirilgan mashg'ulotlar:

ortiqcha yuklamaning oldini oladi,

travma xavfini kamaytiradi,

sportchining maksimal imkoniyatlarini yuzaga chiqaradi,

tayyorgarlik samaradorligini 20–30% gacha oshirish imkonini beradi (ilmiy adabiyotlarga ko'ra).

2. Har bir mikrotsiklni monitoring asosida moslashtirish foydali

Mashg'ulotlarni an'anaviy tarzda rejalashtirish natijalarning barqarorligini kafolatlamaydi. Har bir mikrotsikl (haftalik yoki ikki haftalik yuklama bloki) yakunida sportchilarning funksional holatini monitoring qilish, ularning fizik va psixofiziologik ko'rsatkichlarini baholab borish muhim ahamiyatga ega. Masalan:

yurak urish soni (YUQ),

charchoq darajasi,

test natijalari,

sportchining sub'ektiv his-tuyg'usi (RPE – perceived exertion) kabilar asosida tahlil qilinadi.

Monitoring orqali mashg'ulot yuklamasining dinamikasi va individual moslashuv darajasi aniqlanadi. Bu esa murabbiyga mashg'ulotni optimallashtirish va mikrotsiklni sportchining real holatiga moslashtirish imkonini beradi.

3. Raqobatga asoslangan treninglar (model janglar, "pressing sharoitdagi kurash") reaksiyani va qaror qabul qilish tezligini kuchaytiradi

Erkin kurashda muvaffaqiyat ko'p hollarda jang davomida to'g'ri va tezkor qaror qabul qilish qobiliyatiga bog'liq bo'ladi. Shu sababli reallikka yaqinlashtirilgan, raqobatga asoslangan mashg'ulotlar - masalan:

ikki tomonlama janglar (model jang),

vaqt yoki bosim ostida qaror qabul qilish holatlari,

oldindan noma'lum texnik vaziyatlarga moslashish treninglari

sportchilarda psixomotor reaksiyalarni tezlashtiradi, stressga nisbatan bardoshlilikni oshiradi va taktik qarorlar sifati yaxshilanadi. Bu trening uslublari sportchilarning musobaqaviy holatlarga yaqin muhitda tayyorgarlik ko'rishini ta'minlaydi.

4. Dam olish va tiklanish protokollarini optimallashtirish zarur

Jismoniy yuklama qanchalik samarali bo'lmasin, agar sportchi yetarli tiklanmasa, ortiqcha yuklanish (overtraining) sindromi yuzaga kelishi mumkin. Sportchining tiklanish bosqichi: mushak to'qimalarining qayta tiklanishi, markaziy asab tizimining normallasuvi, psixologik holatning barqarorlashuvi kabi omillarni o'z ichiga oladi.

Shu sababli mashg'ulot tizimiga aktiv dam olish (yyengil mashqlar, massaj, suzish), passiv dam olish (uyqu, massaj, saunalar) va funksional tiklanish vositalari (sport ovqatlanishi, stretching, psixoregulyatsiya mashqlari) integratsiyalash zarur. Ayniqsa, yuqori yuklama bosqichidan so'ng sportchi organizmining to'liq tiklanishi musobaqa samaradorligi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Xulosa. Tadqiqot davomida o'quv-mashq guruhi asosida olib borilgan mashg'ulotlar sportchilarning jismoniy tayyorgarlik darajasida izchil va statistik jihatdan ishonchli o'zgarishlar yuzaga kelishini isbotladi. Ayniqsa, kuch, chidamlilik, epchillik, reaksiya tezligi va umumiy funksional imkoniyatlar kabi asosiy jismoniy sifatlar sezilarli darajada rivojlangan. Ushbu natijalar o'quv-mashq guruhi doirasida qo'llanilgan tizimli yondashuvning samaradorligini tasdiqlaydi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, sportchining individual fiziologik va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda tuzilgan mashg'ulot dasturlari umumiy jismoniy tayyorgarlikni oshirishda an'anaviy standart yondashuvlarga qaraganda ancha samaraliroq natija beradi. Individual yondashuv orqali har bir sportchining kuchli va zaif tomonlari aniqlanib, unga mos yuklama berilishi mashg'ulot jarayonining shaxsiylashtirilishiga olib keladi. Bu esa sportchining maksimal natijaga erishishini ta'minlaydi.

Shuningdek, zamonaviy sport pedagogikasi va sport nazariyasi talablariga muvofiq holda, monitoring tizimining joriy etilishi mashg'ulotlar samaradorligini baholash va o'z vaqtida optimallashtirish imkonini berdi. Har bir mikrotsikl yakunida olib borilgan tahlillar asosida mashg'ulot rejalariga o'zgartirishlar kiritilib, sportchilarning charchoq va tiklanish darajalari inobatga olindi. Bu yondashuv jismoniy rivojlanish sur'atlarini barqarorlashtirishda muhim rol o'ynadi.

Bundan tashqari, tadqiqotda qo'llanilgan model janglar, bosim ostidagi qaror qabul qilish treninglari va raqobatga asoslangan mashg'ulotlar sportchilarning psixomotor va kognitiv reaksiyalarini tezlashtirish, jangovar holatlarga tez moslashish va taktik qarorlarni to'g'ri qabul qilish qobiliyatlarini sezilarli darajada yaxshiladi. Bu holat bevosita musobaqaviy tayyorgarlik darajasining oshishiga xizmat qiladi.

Shu tariqa, o'quv-mashq guruhi sharoitida olib borilgan tajriba sportchilarning jismoniy tayyorgarligini ilmiy asoslangan mashg'ulot metodikasi orqali samarali tarzda rivojlantirish mumkinligini tasdiqladi. Natijalar asosida ishlab chiqilgan metodik tavsiyalar amaliyotga joriy etilgan taqdirda, erkin kurashchilarning musobaqalarda yuqori natijalarga erishish salohiyatini sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Арипов Ж.М. Эркин курашда жисмоний сифатларни ривожлантириш методикаси. – Тошкент: Фан, 2019. – 204 б.
2. Назаров Р.И. Спортчилар жисмоний тайёргарлигини баҳолаш ва мониторинг қилиш усуллари. – Тошкент: Олимпия, 2021. – 176 б.
3. Platonov V.N. Sistema podgotovki sportsmenov v olimpiyskom sporte: obshchaya teoriya i ee prakticheskoe primenenie. – Kiev: Olimp. lit-ra, 2015. – 784 s.
4. Bompa T., Buzzichelli C. Periodization: Theory and Methodology of Training. – 6th ed. – Champaign: Human Kinetics, 2018. – 368 p.
5. Касимов Ш.Ж., Маматов У.И. Эркин курашчиларнинг функционал ҳолатини тест синовлари орқали аниқлаш. // Жисмоний тарбия ва спорт. – 2022. – №2. – Б. 44–49.
6. Verkhoshansky Y.V. Programming and Organization of Training. – Rome: Verkhoshansky SSTM, 2013. – 252 p.

7. Абдурахмонов Ф. Эркин курашчилар жисмоний тайёргарлигини такомиллаштиришда индивидуал ёндашув. // Спорт таълими журнали. – 2023. – №1. – Б. 30–34.
8. Wilmore J.H., Costill D.L. Physiology of Sport and Exercise. – 5th ed. – Champaign: Human Kinetics, 2014. – 574 p.
9. Ташланов А.М. Жисмоний сифатларни ривожлантиришда микросиклик назоратнинг аҳамияти. // Илмий-амалий спорт журнали. – 2021. – №4. – Б. 25–28.
10. Abdullaev A. The Role of Load Distribution and Recovery Protocols in Freestyle Wrestling Training. // International Journal of Wrestling Science. – 2022. – Vol. 12(1). – P. 40–45.

*Shokirova Madinabonu Shomurod qizi,
BuxDPI tayanch doktoranti
shokirovamadina150@gmail.com*

BOSHLANG'ICH SINFLARDA OTA –ONALAR BILAN HAMKORLIKNI YANADA TAKOMILLASHTIRISH BORASIDA OLIB BORILAYOTGAN ISLOHOTLAR VA MUHIM VAZIFALAR

Annotatsiya. Ushbu maqolada ayni damda O'zbekistonda Boshlang'ich ta'lim sinflarida ota-onalar bilan hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan islohotlar: ta'lim sifatini oshirish, bolalarning bilimni rivojlantirish va ularning shaxsiy tarbiyasini kuchaytirishga yo'naltirilgan islohotlar haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, ota-onalar bilan hamkorlik, ta'lim sifati, islohotlar, tarbiya, pedagogik hamkorlik, maktab va oila, shaxsiy rivojlanish, o'quv-tarbiya jarayoni, ijtimoiy mas'uliyat.

Аннотация. В данной статье представлена информация о реформах, направленных на усиление сотрудничества с родителями в классах начального образования в Узбекистане: реформы, направленные на повышение качества образования, развитие знаний детей и усиление их личностного образования.

Ключевые слова: начальное образование, сотрудничество с родителями, качество образования, реформы, воспитание, педагогическое взаимодействие, школа и семья, личностное развитие, учебно-воспитательный процесс, социальная ответственность.

Abstract. This article provides information on reforms aimed at strengthening cooperation with parents in primary education classes in Uzbekistan: reforms aimed at improving the quality of education, developing children's knowledge and strengthening their personal education.

Keywords: primary education, parental cooperation, quality of education, reforms, upbringing, pedagogical partnership, school and family, personal development, educational process, social responsibility.

Kirish. Zamonaviy ta'lim jarayoni bolani rivojlantirishda nafaqat maktabning, balki oilaning ham faol ishtirokini talab qiladi. Xususan, boshlang'ich ta'lim bosqichi bola shaxsining asosiy ijtimoiy-psixologik, axloqiy va bilim asoslari shakllanadigan muhim davr bo'lib, bu jarayonda ota-onalar va o'qituvchilar o'rtasidagi o'zaro hamkorlikning sifati hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Chunki aynan boshlang'ich sinflarda bola o'ziga xos individual ehtiyojlari, emotsional sezuvchanligi va ijtimoiy faolligi bilan ajralib turadi. Uni to'g'ri yo'naltirish, bilimga bo'lgan qiziqishini qo'llab-quvvatlash, ijtimoiylashuvini ta'minlashda oila-maktab hamkorligi o'ziga xos poydevor bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlar, xususan, "Ilm-fan va ta'limni rivojlantirish Milliy strategiyasi", "Maktab ta'limini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" kabi hujjatlarda ota-onalar ishtirokini kuchaytirish, ta'lim sifati va bolalar tarbiyasida ularning mas'uliyatini oshirish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan. Bugungi kunda boshlang'ich ta'lim muassasalarida o'quv-tarbiya jarayonida ota-onalar bilan tizimli aloqalarni yo'lga qo'yish, ularni pedagogik hamkorlik subyektini sifatida jalb etish bo'yicha bir qator metodik va tashkiliy mexanizmlar ishlab chiqilmoqda.

Mazkur maqolada boshlang'ich sinflarda ota-onalar bilan hamkorlikni takomillashtirishga qaratilgan islohotlarning mazmun-mohiyati, ularning amaliy tatbiqi hamda ushbu yo'nalishda dolzarb bo'lgan vazifalar tahlil qilinadi. Shu bilan birga, ota-onalar bilan samarali hamkorlikni yo'lga qo'yishdagi mavjud muammolar, ularni bartaraf etish usullari hamda pedagogik yondashuvlarning innovatsion shakllari ilmiy-nazariy jihatdan asoslab beriladi.

Boshlang'ich ta'lim sinflarida ota-onalar bilan hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan islohotlar O'zbekistonda ta'lim sifatini oshirish, bolalarning bilimni rivojlantirish va ularning shaxsiy tarbiyasini kuchaytirishga yo'naltirilgan. Boshlang'ich sinf o'quvchilarning oilalari bilan

hamkorligining maqsadlari va shartlari o'zaro munosabatlarni tashkil etishning muhim tarkibiy qismidir. Ularning yutug'i ta'lim tashkilotining ota-onalar bilan hamkorlik qilish shakllari ularning birgalikdagi muloqotini va faoliyatini tashkil etish usullariga bog'liq. Hamkorlikning turli shakllari va usullarini tanlash maktab tomonidan amalga oshiriladi va ushbu bosqichda hal qilinishi kerak bo'lgan muayyan vazifalarga, ota-onalarning qiziqishlari va intilishlariga, shuningdek, ushbu davrda jamiyatning rivojlanish darajasiga bog'liq. Quyida boshlang'ich ta'lim sinflarida ota-onalar bilan hamkorlik masalalarida olib borilayotgan asosiy islohotlar keltirilgan:

Ota-onalar va maktab o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlash

- Ota-onalar yig'ilishlari va forumlari: Maktablarda muntazam ravishda ota-onalar yig'ilishlari, forumlar va seminarlar tashkil etilishi yo'lga qo'yilgan. Ushbu tadbirlar o'quvchilarning ta'lim jarayoni va rivojlanishi haqida muntazam axborot berish, muammolarni birgalikda hal qilishga qaratilgan.

- Ochiq darslar: O'qituvchilar ota-onalarni ochiq darslarga jalb etish orqali o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini qanday rivojlantirayotganini ko'rsatadi va ota-onalar ta'lim jarayonida faol ishtirok etishga undaladi.

- Individual suhbatlar va maslahatlar: Har bir o'quvchining rivojlanishi haqida ota-onalar bilan individual suhbatlar tashkil etilib, o'quvchining kuchli va zaif tomonlari muhokama qilinadi. Bu suhbatlar orqali ota-onalar farzandlarining rivojlanishi haqida batafsil ma'lumot olishadi va ularga qo'shimcha yordam ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Raqamli texnologiyalar orqali ota-onalar bilan aloqa

- Elektron kundaliklar va platformalar: Ota-onalarga farzandlarining o'qishdagi yutuqlari va uy vazifalari haqida tezkor ma'lumot yetkazish uchun elektron kundalik va mobil ilovalar joriy etilgan. Bu orqali ota-onalar o'z farzandlarining o'quv faoliyatini muntazam kuzatib borishi mumkin.

- Ota-onalar uchun maxsus mobil ilovalar: Ayrim maktablarda mobil ilovalar yordamida ota-onalar bilan tezkor muloqot yo'lga qo'yilgan bo'lib, bu ota-onalarga farzandlarining maktabdagi muvaffaqiyatlari va muammolari haqida vaqtida xabar olish imkonini beradi.

Ota-onalar uchun trening va seminarlar

- Pedagogik va psixologik seminarlar: Ota-onalar uchun ta'lim va tarbiya masalalarida qo'llab-quvvatlash va yordam berish maqsadida pedagogik va psixologik seminarlar tashkil qilinmoqda. Ushbu tadbirlarda ota-onalar bolalarning psixologik rivoji, tarbiyadagi muammolar va ularni hal qilish usullari haqida o'rganadilar.

- Farzand tarbiyasiga oid metodik qo'llanmalar: Ota-onalarga farzandlarining ta'lim va tarbiyasida qanday yordam berishlari bo'yicha tavsiyalar berilmoqda. Maxsus kitoblar va qo'llanmalar orqali ota-onalarning bilimlari oshiriladi.

Oila va maktab hamkorligini kuchaytirish bo'yicha davlat dasturlari

- "Oila va maktab hamkorligi dasturi": Davlat tomonidan maktab va oila o'rtasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirishga qaratilgan dasturlar ishlab chiqilgan. Bu dastur ota-onalarni ta'lim jarayoniga faol jalb qilish, ularning o'z farzandlari bilim va tarbiyasiga yanada ko'proq e'tibor qaratishlariga yordam beradi.

- Ota-onalar kengashlari va guruhlari: Har bir maktabda ota-onalar kengashlari tuzilib, ular maktabning faoliyatini takomillashtirish va o'quvchilarning ta'lim jarayonini yaxshilash bo'yicha tavsiyalar beradi. Bu kengashlar orqali ota-onalar maktab hayotiga faol qatnashib, bolalar tarbiyasiga o'z hissalarini qo'shadilar.

Milliy ma'naviyat va tarbiyani yuksaltirishga oid dasturlar.

- "Ma'naviyat va ma'rifat markazlari" bilan hamkorlik: Oila va maktab hamkorligini mustahkamlash maqsadida milliy qadriyatlar, oilaviy an'analar va tarbiya masalalariga alohida e'tibor berilmoqda. Ma'naviyat va ma'rifat markazlari ota-onalarga bolalarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash bo'yicha seminarlar o'tkazmoqda.

Ota-onalar uchun maxsus qo'llanmalar va ko'rsatmalar

- Tarbiyaviy metodik qo'llanmalar: Ota-onalarga bolalarni tarbiyalash va ularga bilim berishda yordam beruvchi maxsus qo'llanmalar va ko'rsatmalar tarqatiladi. Bu qo'llanmalar ota-

onalarning ta'lim jarayoniga yanada faol ishtirok etishiga va farzandlarining muvaffaqiyatlariga hissa qo'shishga imkon yaratadi.

- Ota-onalar uchun psixologik yordam: Farzandlarining o'qish va rivojlanishida duch keladigan muammolarni hal qilishda ota-onalarga psixologik yordam va maslahatlar beriladi. Bu orqali ota-onalar o'z farzandlari bilan samarali muloqot o'rnatib, ularning tarbiyasiga ko'proq e'tibor qaratadilar.

Ota-onalarning maktab hayotidagi ishtirokini oshirish

- Qo'shma tadbirlar va bayramlar: Maktabda bayramlar, sport tadbirlari va boshqa ko'ngilochar dasturlar tashkil qilinib, ularda ota-onalar faol ishtirok etadi. Bu tadbirlar maktab va oila o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlashga xizmat qiladi.

- Oila a'zolari bilan ochiq muloqot: Maktablarda ota-onalar bilan suhbatlar o'tkazilib, ularning fikrlari va takliflari inobatga olinadi, o'qituvchilar va maktab rahbariyati bilan yaqin aloqalar o'rnatiladi.

Uy vazifalarini nazorat qilishda ota-onalar bilan hamkorlik

- Uy vazifalarini bajarishda ota-onalarni jalb qilish: O'qituvchilar ota-onalarga uy vazifalarini qanday nazorat qilish va farzandlariga qanday yordam berishlari haqida tushuntirish beradilar. Bu orqali o'quvchilarning uyda o'zlashtirishi yaxshilanadi va ota-onalar ta'lim jarayonida faol ishtirok etadilar.

- Uyda o'quv muhitini yaratish bo'yicha tavsiyalar: O'qituvchilar ota-onalarga farzandlarining o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirish va uyda samarali ta'lim muhitini yaratish bo'yicha maslahatlar beradi. Bu tavsiyalar ota-onalarning ta'lim jarayonida yanada samarali ishtirok etishlariga yordam beradi.

- Qo'shma maqsadlar qo'yish: Ota-onalar va o'qituvchilar birgalikda farzandlarining o'quv jarayonida qanday maqsadlarga erishishlari kerakligi borasida kelishib, farzandning ta'lim yutuqlarini oshirish yo'lida hamkorlik qiladilar.

Ushbu islohotlar va chora-tadbirlar oila va maktabning faol hamkorlikda ishlashini ta'minlab, bolalarning ta'lim jarayonidagi muvaffaqiyatini oshirishga qaratilgan. O'zaro aloqalarni mustahkamlash orqali maktab faoliyati va ota-onalar bolalar tarbiyasida muhim o'rin tutmoqda. Bu esa boshlang'ich ta'lim jarayonining samaradorligini oshirib, o'quvchilarning bilim va tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Muhokama. Hozirgi kunda boshlang'ich ta'lim tizimida ota-onalar bilan hamkorlikni mustahkamlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan. O'zbekiston Respublikasida ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning bilim va tarbiyasini mukammallashtirish maqsadida qabul qilingan hujjatlar - xususan, "Maktab ta'limini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi", "Ota-onalarning pedagogik madaniyatini oshirish dasturi" va boshqa normativ hujjatlar bu yo'nalishda tizimli yondashuvni ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Boshlang'ich sinflarda bola hali mustaqil ta'lim subyekti sifatida to'liq shakllanmaganligi sababli, uning o'zlashtirish jarayoni, ijtimoiy moslashuvi va emotsional barqarorligida oilaning, xususan ota-onalarning roli beqiyosdir. Shu bois ota-onalar bilan samarali pedagogik hamkorlikni yo'lga qo'yish nafaqat bolaning muvaffaqiyatli o'qishiga, balki uning shaxsiy fazilatlarining shakllanishiga ham kuchli ta'sir ko'rsatadi. O'qituvchi va ota-ona o'rtasidagi doimiy aloqa, ochiq fikr almashuv, bola yutuqlarini birgalikda tahlil qilish va tarbiyaviy yondashuvni muvofiqlashtirish bolaning individual rivojlanish trayektoriyasini aniqlash imkonini beradi.


Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, ota-onalar bilan samarali hamkorlik o'rnatilgan boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning o'zlashtirish ko'rsatkichlari, darsga bo'lgan qiziqishi, sinfdagi ijtimoiy faolligi va xulq-atvori sezilarli darajada ijobiy tomonga o'zgaradi. Aksincha, ota-onalar maktab hayotidan chetda qolgan hollarda bola bilan bog'liq muammolarni bartaraf etish murakkablashadi, bolada darsga befarqlik, muammoli xatti-harakatlar yoki ijtimoiy chekinish kuzatiladi.

Amaliy tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, ota-onalarni maktab faoliyatiga jalb qilish uchun ota-onalar yig'inlari, ochiq darslar, "Ochiq eshiklar kuni", ota-onalar uchun psixologik-pedagogik seminarlar, oilaviy loyihalar va bolalar ishtirokidagi tadbirlarda ularni faol ishtirokchi sifatida jalb

etish samarali natijalar beradi. Shuningdek, elektron platformalar va ijtimoiy tarmoqlar orqali tezkor aloqa tizimlari yaratish zamonaviy texnologiyalarning ijobiy samarasini ko'rsatmoqda.

Shu bilan birga, ba'zi hududlarda ota-onalarning pedagogik saviyasi, farzand ta'lim-tarbiyasiga bo'lgan mas'uliyat darajasining pastligi, vaqt yoki motivatsiyaning yetishmasligi hamkorlik samaradorligiga salbiy ta'sir qilmoqda. Bu esa pedagoglar tomonidan ota-onalarni ma'naviy-ma'rifiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, ular bilan ishonchli muloqot o'rnatish va o'zaro hurmatga asoslangan hamkorlikni yo'lga qo'yishni taqozo etadi.

1-jadval.



Tahlil:

- Eng samarali shakllar sifatida oilaviy tadbirlar (4.6) va ochiq darslar (4.5) ajralib turibdi.
- Ota-onalar yig'inlari ham nisbatan yuqori samaradorlikka ega (4.2), biroq ular ko'proq ma'lumot berish xarakterida o'tadi.
- Onlayn muloqot (3.8) va seminarlar (4.0) esa nisbatan pastroq baholangan bo'lib, bu uslublarning interaktivlik darajasi pastligidan dalolat beradi.

2-jadval

Tarkibiy qism	Tafsilotlar
Tadqiqot mavzusi	Boshlang'ich sinflarda ota-onalar bilan hamkorlikni yanada takomillashtirish borasida olib borilayotgan islohotlar va muhim vazifalar
Tadqiqotning dolzarbligi	Ta'lim sifati, tarbiya samaradorligi va ijtimoiy moslashuv darajasini oshirishda maktab va oila hamkorligini mustahkamlash zaruriyati ortib bormoqda. Davlat siyosati ham ushbu yo'nalishni ustuvor deb belgilamoqda.
Maqsadi	Boshlang'ich ta'lim jarayonida ota-onalar bilan pedagogik hamkorlikning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish va ularni amaliyotda sinovdan o'tkazish.
Obyekti	Boshlang'ich sinfda o'qiyotgan o'quvchilarning ta'lim-tarbiya jarayonidagi ota-onalar bilan hamkorlik tajribalari.
Predmeti	Ota-onalar bilan hamkorlik shakllari, usullari va pedagogik yondashuvlarning mazmuni, samaradorligi va takomillashuv yo'llari.

Ilmiy faraz (gipoteza)	Agar ota-onalar bilan hamkorlik tizimli va innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilsa, boshlang'ich ta'lim sifati va shaxsiy tarbiya ko'rsatkichlari yuqori natijaga erishadi.
-----------------------------------	---

Tadqiqotning metodologik asoslari chuqur tahlil qilinganda, mavzuning dolzarbligi zamonaviy ta'lim jarayonida maktab va oila o'rtasidagi hamkorlikning muhimligini ochib beradi. Xususan, boshlang'ich ta'lim bosqichi bolaning shaxsiy shakllanishi, ijtimoiylashuvi va ta'limga bo'lgan munosabatining asosi qo'yiladigan davr bo'lgani sababli, bu bosqichda ota-onalar bilan pedagogik hamkorlik alohida ahamiyat kasb etadi. Jadvalda ta'lim sifati va tarbiya samaradorligini oshirishda ota-onalarning faol ishtirokini ta'minlash asosiy ilmiy faraz sifatida ilgari surilgan bo'lib, bu mazkur mavzuning amaliy qimmatini yuqoriligini ko'rsatadi.

Tadqiqot ob'ekti sifatida boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan bog'liq o'quv-tarbiya jarayoni tanlangan bo'lib, bu holat shuni anglatadiki, tahlil markazida bolaning ta'limdagi ishtiroki emas, balki uning atrof-muhit bilan (ayniqsa ota-onasi bilan) o'zaro aloqasi yotadi. Predmet esa ushbu hamkorlik jarayonining usullari va mazmuniy jihatlarini o'z ichiga olgan bo'lib, amaliy metodika ishlab chiqishga yo'naltirilgan.

Ilmiy gipoteza ochiq va aniq shakllantirilgan: agar ota-onalar bilan hamkorlik zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilsa, ta'lim sifati va tarbiyaviy ko'rsatkichlar ortadi. Bu gipoteza tahlil va eksperiment asosida sinovdan o'tkazilishi mumkin bo'lgan ilmiy faraz sifatida metodologik jihatdan asoslangan.

Vazifalar bosqichma-bosqich qurilgan bo'lib, ularda nazariy, amaliy va eksperimental faoliyatni bosqichma-bosqich amalga oshirish uchun zarur bo'lgan barcha bosqichlar (adabiyotlar tahlili, mavjud holatni o'rganish, innovatsion yondashuv ishlab chiqish, tajriba o'tkazish, tavsiya berish) keltirilgan. Bu esa tadqiqotning izchilligini ta'minlaydi.

Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, boshlang'ich sinf o'quvchilarining ta'lim-tarbiyasida samarali natijalarga erishishida, nutq va fikrlash madaniyatini shakllantirishda oila a'zolari va tengdoshlari bilan bo'ladigan munosabatlar muhim rol o'ynaydi. Tarbiya qanchalik erta boshlansa, hosili ham shuncha barvaqt ko'zga tashlanadi. Shuning uchun ota-onalar va ta'lim muassasalari tarbiyachilari hamda pedagoglarning vazifasi yosh avlodni aqlan yetuk, jismonan sog'lom, axloqan pok, barkamol inson qilib tarbiyalashdan iboratdir.

Shuni ta'kidlash joizki, bola tarbiyasi bilan jiddiy shug'ullangan ota-onalarning farzandlari ta'lim muassasasida o'z imkoniyatlarini mashg'ulot jarayonida qiynalmasdan ko'rsata oladi. Oila va ta'lim muassasalarining uzluksizligi bolani nafaqat jismoniy va aqliy jihatdan rivojlantiradi, balki uning ma'naviy shakllanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Surayyo Arziqulova, "Ta'lim-tarbiyada MTM bilan ota-ona hamkorligi". Scientific Journal Impact Factor, VOLUME 1 ISSUE 5 ISSN 2181-1784 SJIF 2021: 5.423.
2. M.B.Tursunova, Tarbiya jarayonida oila, mahalla hamda ta'lim Muassasalarining o'zaro hamkorligi, M.B.Tursunov, Science and innovation international scientific journal, 2022 № 2.
3. Xulkar Radjabova Farmonovna, Ota-ona, maktab va o'qituvchi hamkorligidagi harakat ta'limni qo'llab quvvatlashning samarali usulidir. VOLUME 2 | ISSUE 1, ISSN 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor SJIF 2021: 5.423
4. Shokirova Madinabonu Shomurod qizi, Oila va maktab hamkorligi - ota- onalarning pedagogik kompetentligini shakllantirishning zaruriy sharti sifatida. Pedagogik mahorat ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2024, № 6 issn 2181-6833
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4884-son qarori. (2020). "2020–2030 yillarda O'zbekiston Respublikasida ta'lim va ilm-fanni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida". *Lex.uz*.
6. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. (2021). *Boshlang'ich ta'lim konsepsiyasi*. – Toshkent: XTV nashriyoti. – 40 b.

7. Karimova V.M. (2008). *Pedagogik va yoshga oid psixologiya*. – Toshkent: O‘zbekiston pedagogika nashriyoti. – 384 b.
8. Nishanova Z.T. (2017). Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijtimoiy faolligini shakllantirishda oila-maktab hamkorligining o‘rni. *Psixologiya va hayot*, №4, 66–70-betlar.
9. Shoumarov G‘.B. (2015). Oila va maktab hamkorligining ijtimoiy-psixologik asoslari. *O‘zbekiston ijtimoiy fanlari*, №2, 45–50-betlar.
10. Epstein J. L. (2001). *School, Family, and Community Partnerships: Preparing Educators and Improving Schools*. – Boulder, CO: Westview Press. – 320 p.
11. Hoover-Dempsey K. V., & Sandler H. M. (1997). Why do parents become involved in their children’s education? *Review of Educational Research*, 67(1), 3–42.
12. Joyce B., Weil M., & Calhoun E. (2015). *Models of Teaching* (9th ed.). – Boston: Pearson Education. – 352 p.
13. Mahmudova M.A. (2020). Boshlang‘ich ta’limda ota-onalar bilan samarali muloqotni tashkil etishning zamonaviy shakllari. *Ilm va taraqqiyot*, №1(11), 88–92-betlar.
14. Ibragimova S.M. (2022). Boshlang‘ich ta’limda tarbiya va hamkorlik masalalari. *Pedagogik mahorat*, №3, 54-58-betlar.

*Toshev Elbek Choriyevich,
Surxondaryon viloyati pedagogik mahorat markazi
metodik xizmat bo'limi metodisti*

STEAM KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHGA OID ILG'OR TAJRIBALAR VA ULARNI O'ZBEKISTONDA QO'LLASH IMKONIYATI

Annotatsiya. Maqolada STEAM ko'nikmalarini rivojlantirishga zamonaviy yondashuvlar xalqaro va milliy tajriba kontekstida ko'rib chiqiladi. Finlyandiya, Janubiy Koreya va AQSH kabi yetakchi mamlakatlarda tatbiq etilayotgan samarali ta'lim modellari tahlili o'tkazilib, ularning O'zbekiston sharoitiga moslashish imkoniyatlariga alohida e'tibor qaratildi. Mahalliy ta'lim tizimida STEAM yondashuvini joriy qilishni cheklovchi asosiy to'siqlar aniqlandi. O'qituvchilarni tizimli ravishda tayyorlash, o'quv dasturlarini modernizatsiya qilish va loyiha asosidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini o'quv jarayoniga integratsiyalash zarurligi asoslab berilgan. Maqolada O'zbekistonning madaniy va institutsional xususiyatlarini hisobga olgan holda STEAM ta'limning milliy modelini shakllantirish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so'z va iboralar: STEAM ta'limi, innovatsion pedagogik texnologiyalar, fanlararo yondashuv, ta'lim islohotlari, 21-asr ko'nikmalari.

Аннотация. В статье рассматриваются современные подходы к развитию STEAM-навыков в контексте международного и национального опыта. Проведен анализ эффективных образовательных моделей, реализуемых в таких странах-лидерах, как Финляндия, Южная Корея и США, особое внимание уделено их адаптации к условиям Узбекистана. Выявлены основные препятствия, ограничивающие внедрение STEAM-подхода в отечественную систему образования. Обоснована необходимость системной подготовки педагогических кадров, модернизации учебных программ и интеграции проектно-исследовательской деятельности в образовательный процесс. В статье даны рекомендации по формированию национальной модели STEAM-образования с учетом культурных и институциональных особенностей Узбекистана.

Ключевые слова и фразы: STEAM-образование, инновационные педагогические технологии, междисциплинарный подход, образовательные реформы, навыки 21 века.

Annotation: The article considers modern approaches to the development of STEAM skills in the context of international and national experience. An analysis of effective educational models implemented in leading countries such as Finland, South Korea and the USA was conducted, with special attention paid to their adaptation to the conditions of Uzbekistan. The main obstacles limiting the implementation of the STEAM approach in the local education system were identified. The need for systematic training of teachers, modernization of curricula and integration of project-based research activities into the educational process is substantiated. The article provides recommendations for the formation of a national model of STEAM education, taking into account the cultural and institutional characteristics of Uzbekistan.

Keywords and phrases: STEAM education, innovative pedagogical technologies, interdisciplinary approach, educational reforms, 21st century skills.

Kirish. Zamonaviy ta'lim to'rtinchi sanoat inqilobi talablariga javob beradigan fanlararo ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan modellarni tobora ko'proq integratsiya qilmoqda. Eng istiqbolli yo'nalishlardan biri bu STEAM kontseptsiyasi (fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika) bo'lib, u o'quvchilarni innovatsion iqtisodiyot muammolariga tayyorlaydi.

O'zbekiston ta'lim tizimini globalashtirish va raqamlashtirish sharoitida ta'lim siyosatining milliy xususiyatlarini va madaniy kontekstlarni hisobga olgan holda STEAM kompetensiyalarini rivojlantirish bo'yicha ilg'or xalqaro tajribani joriy etish vazifasi ayniqsa dolzarb bo'lib bormoqda. STEAM yondashuvi san'at va ijodkorlik komponentlarini o'z ichiga olgan modelning kengaytmasi bo'lib, u o'rganishni nafaqat funktsional yo'naltirilgan, balki o'quvchilarning hissiy intellektini va ijodiy fikrlashini ham rivojlantiradi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. M.A.Glazunovning tadqiqotiga ko'ra, STEAM pedagogikasi maktab o'quvchilarida turli sohalaridagi bilimlarni sintez qilishni talab qiluvchi real muammolarni hal qilish uchun integrativ ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan [1, 65-bet].

Tadqiqotchi Z.Yu.Xudayberdievaning ta'kidlashicha, "O'zbekistonda STEAM ta'limini joriy etish bir qator muammolarga duch kelmoqda: malakali o'qituvchilarning yetishmasligi, qishloq maktablarining yetarlicha raqamlashtirilmaganligi va zamonaviy jihozlarning cheklanganligi" [2, 51-bet].

Pedagogika fanlari doktori Sh.R.Muxamedova, "o'qituvchilarni tizimli qayta tayyorlashsiz STEAM yondashuvini to'liq joriy qilib bo'lmaydi, chunki u fanlararo kompetentsiyani, loyiha usullari va AKT vositalarini egallashni talab qiladi" [3, 59-bet].

Sh.Alimaganbetovanning ta'kidlashicha, STEAM ning joriy etilishi o'quvchilarning motivatsiyasini sezilarli darajada oshirishga va ularning mustaqilligini rivojlantirishga yordam beradi [4, 102-bet].

E.A.Yamburgning ta'kidlashicha, "STEAM yondashuvini joriy qilmasdan maktab ta'limini o'zgartirish mumkin emas, chunki u o'zgaruvchan dunyoda juda zarur bo'lgan kognitiv moslashuvchanlik va moslashuvchanlikni shakllantiradi" [5, 79-bet].

Pedagogika fanlari doktori R.X.Ergashevning ta'kidlashicha, "STEAM dasturini jamoada ishlash, fanlararo fikrlash va o'quvchilarning tadqiqot motivatsiyasini rag'batlantirishga asoslangan yangi pedagogik madaniyatni shakllantirmasdan turib amalga oshirish mumkin emas"[6].

Tadqiqot metodologiyasi.

Maqolada STEAM ko'nikmalarini rivojlantirishga zamonaviy yondashuvlar xalqaro va milliy tajriba kontekstida ko'rib chiqiladi. Tadqiqot maqsadiga erishish uchun biz statistik tadqiqot, adabiyotlar qiyosiy tahlili va farazni asoslash usullari, tahlilni qiyoslash, tizimli hamda mantiqiy yondashuv kabi uslublardan samarali foydalanildik.

Tahlil va natijalar.

Ma'lumki, tabiiy fanlar, atrof-muhit bilan bevosita bog'liq bo'lgan texnika kundalik hayotimizda doimiy ravishda qo'llaniladi, muhandislik esa uylar, yo'llar, ko'priklar va mashinalarda, kasb-hunar kundalik o'rganishimizda o'z aksini topadi. U matematika fani bilan ozmi-ko'pmi bog'liqdir.

STEAM ta'limiga asoslangan yondashuv yosh o'quvchilarga dunyoni tizimli ravishda o'rganish, atrofida sodir bo'layotgan jarayonlarni mantiqiy kuzatish, ularning o'zaro bog'liqligini tushunish, o'zlari uchun yangi, noodatiy va qiziqarli narsalarni kashf etish imkonini beradi. O'quvchi yangilikni kutish orqali yoshlarda qiziqish uyg'otadi, o'zi uchun qiziqarli muammoni aniqlaydi, yechim topish algoritmini ishlab chiqadi, natijalarni tanqidiy baholaydi, fikrlashning muhandislik tomonlarini shakllantirishga olib keladi.

STEAM yondashuvining asosiy g'oyasi quyidagicha:

1. amaliyot nazariy bilimlar kabi muhimdir;
2. o'quvchilar ko'pgina fanlarni samarali o'rganish;
3. mustaqil ravishda bilim olish;
4. o'quvchilar o'quv faoliyatida tajribalar o'tkazish;
5. modellar yaratish;

mustaqil ravishda musiqa va filmlar, robotlar yaratish va hokazolar uchun onglari va qo'llaridan foydalanadilar[7].

Bu yerda eng muhimi ularning g'oyalarini amalga oshirish va mahsulotlar yaratish. STEAM ta'limi amaliy yondashuvni qo'llash va barcha yo'nalishni yagona ta'lim tizimiga birlashtirishga asoslangan.

Xalqaro tajriba, xususan, Singapur, Finlyandiya, Janubiy Koreya va AQSh amaliyoti STEAM doirasidagi loyiha va tadqiqot faoliyatiga yo'naltirilgan dasturlarning yuqori samaradorligini ko'rsatmoqda. Bu mamlakatlar 21-asr ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan ta'lim siyosatini qurmoqda: tanqidiy fikrlash, hamkorlik, raqamli savodxonlik va noaniq

vaziyatlarda ishlash qobiliyati. Xususan, Janubiy Koreyaning "Creative Korea" dasturida maktablarning sanoat hamkorlari bilan o'zaro hamkorligi va amaliyotga yo'naltirilgan ta'limni joriy etishga alohida e'tibor qaratilgan [7].

Ta'lim fanlar bo'yicha emas, balki mavzular bo'yicha birlashtirilishi kerak. STEAM ta'limi fanlararo aloqani va tabiiy fanlarni texnologiya, muhandislik ijodkorligi va matematika bilan integratsiyalashuviga asoslangan loyiha usulini birlashtiradi. Bunda muhandislikka oid kasblarga tayyorlash amalga oshiriladi.

STEAM ta'limida ilmiy-texnik bilimlardan real hayotda foydalanish bolalarga amaliy mashg'ulotlar yordamida ko'rsatiladi. Har bir darsda o'quvchilar zamonaviy sanoat modellarini rivojlantiradilar, quradilar. Ular ma'lum bir loyihani o'rganadilar, natijada ular haqiqiy mahsulotning prototipini yaratadilar.

STEAM dasturi bolalarning kundalik hayotida duch keladigan qiyinchiliklarni yengish uchun zarur bo'lgan tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Misol uchun, bolalar tez harakatlanuvchi mashinaning modelini yig'adilar va keyin uni sinab ko'radilar.

O'quvchilar ixtirochi va olimlar sifatida kashf etadilar, texnologiya imkoniyatlarini o'rganadilar, muhandislar sifatida loyiha qiladilar, rassomlar sifatida yaratadilar, matematiklar sifatida fikr yuritadilar va, albatta, qiziqarli bo'ladi. STEAM - ilmiy va texnologik ijod bilan shug'ullanish imkoniyati bilan o'quvchining intellektual qobiliyatlarini rivojlantiradi. U rivojlantirishga qaratilgan o'quv dasturiga asoslanadi.

Loyiha ko'nikmalarini shakllantirishda STEAM yondashuvlaridan foydalanish iqtidorli o'quvchilarni izlash, ularning istedodlarini erta aniqlash, ularni tanlash, o'qitish, rivojlantirish va ishlab chiqarishga yo'naltirish imkonini beradi. STEAM yondashuvlaridan foydalanish uchun maktabda va maktabdan tashqari ta'lim hamkorligida matematika, musiqa, tasviriy san'at, fan (fizika, kimyo, biologiya laboratoriyalari), robototexnika, 3D modellashtirish, kompyuter grafikasi loyihaerlari to'garaklarini tashkil etish zarur. Iqtidorli o'quvchilar ushbu STEAM laboratoriyalarida fan va texnologiyalarning raqamli texnologiyalaridan foydalanib, haqiqiy kadrlar kabi maqsadga yo'naltirilgan o'quvchilarni loyihalarini amalga oshiradilar.

An'anaviy ta'limda mavzular alohida o'rganiladi. Treninglar obyektlarni o'rganish va kerakli bilimlarni olishga qaratilgan bo'lib, olingan bilim va ko'nikmalardan foydalanish va ularni amalda qo'llashga yo'naltirilmagan. STEAM texnologiyasiga asoslangan o'qitish tizimida fanlararo aloqa va loyiha usuli birlashtirilgan. Bolalar mashg'ulot paytida bilimga ega bo'ladilar va undan darhol foydalanishni o'rganadilar. Ular o'sib ulg'aygan sayin, kundalik hayotlarida duch keladigan qiyinchiliklarni engish uchun zarur bo'lgan tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantiradilar, tez o'zgaruvchan dunyoga moslasha oladi.

O'zbekistonda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, jumladan, STEAM elementlarini integratsiyalash yo'nalishida faol qadamlar qo'yilmoqda. 2020-yilda qabul qilingan Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish, ta'lim mazmunini xalqaro andozalar asosida modernizatsiya qilish muhimligi ta'kidlangan.

Xalqaro va mahalliy amaliyotning qiyosiy tahlili ta'lim jarayoniga STEAM yondashuvini joriy etishning turli modellari mavjudligini ko'rsatadi. Samarali amalga oshirishga misol sifatida AQSh ta'lim tizimida faol qo'llaniladigan va Yevropaning bir qator davlatlarida moslashtirilgan "Dizayn fikrlash" modelini ko'rib chiqishimiz mumkin. Uning asosiy xususiyati empatiya, fanlararo va iterativ dizaynga urg'u berishdir, bu o'quvchilarda ijodiy va mantiqiy tashkil etilgan shaklda murakkab muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga imkon beradi [8]. Postsovet mamlakatlari sharoitida 2019-yildan boshlab maktab ta'limiga STEAM komponentlarini joriy etish bo'yicha davlat dasturi amalga oshirilayotgan Qozog'iston tajribasi e'tiborga loyiq[4]. Ushbu dastur doirasida o'qituvchilar malakasini oshirib, FabLab laboratoriyalari yaratilib, maktab o'quv dasturiga loyiha modullari kiritilmoqda.

O'zbekistonda "Raqamli maktab" dasturi doirasida boshlang'ich va umumiy o'rta ta'lim bosqichlarida STEAM modullarini mahalliy darajada joriy etishga urinishlar, bir qator mustaqil tashabbuslar muhim salohiyatni namoyish etadi. Shu tariqa, "Yosh ixtirochi O'zbekiston"

platformasi maktab o'quvchilarini bilimlarini amaliyotda qo'llashga jalb etgan holda xakatonlar, muhandislik ko'rgazmalari va fan olimpiadalarini tashkil etadi[9]. Ushbu tadbirlar jamoaviy ish, etakchilik, muhandislik mantig'i va vizual modellashtirish kabi asosiy meta-ko'nikmalarni shakllantirishga yordam beradi.

Muvaffaqiyatli modellarni amalga oshirish bir qator shartlar, jumladan, o'quv dasturlarini moslashtirish, o'qituvchilarning malakasini oshirish, STEAMni milliy strategiyalarga integratsiyalash va infratuzilmaviy sharoitlar yaratishni hisobga olgan holda mumkin.

Birinchidan, aniq belgilangan maqsadlar, amalga oshirish bosqichlari, samaradorlik ko'rsatkichlari va baholash vositalarini o'z ichiga olgan STEAM milliy strategiyasini ishlab chiqish kerak. Bunday strategiya maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, oliy ta'lim muassasalari, shuningdek, IT-kompaniyalar va texnik ijodkorlik bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar vakillari ishtirokida ishlab chiqilishi kerak.

Ikkinchidan, professor-o'qituvchilarni tayyorlashni o'zgartirish muhim yo'nalishdir. Loyiha asosida o'qitish, raqamli texnologiyalar, muhandislik pedagogikasi metodlari va vizual dasturlashga yo'naltirilgan o'qituvchilar uchun ixtisoslashtirilgan malaka oshirish kurslarini joriy etish zarur.

Uchinchidan, tegishli komponentlarni davlat ta'lim standartlariga kiritish orqali STEAM tashabbuslarini institutsionalizatsiya qilish talab etiladi. Bu ta'limning turli bosqichlarida – boshlang'ich maktabdan to o'rta maktabgacha, kelajakda esa – kollej va oliy o'quv yurtlarida ta'limning uzluksizligini ta'minlaydi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda STEAM loyihalarini qo'llab-quvvatlashda muvaffaqiyatli tajribaga ega bo'lgan YUNESKO, UNICEF, Britaniya Kengashi va GIZ kabi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikka alohida e'tibor qaratish lozim. Grant dasturlari va ekspert ko'magi asosida namunaviy laboratoriyalar va qo'llab-quvvatlash saytlari vazifasini bajaradigan FabLab markazlarini yaratish mumkin.

Xulosa va takliflar. O'zbekiston ta'lim tizimiga STEAM yondashuvini o'z vaqtida joriy etish mamlakat intellektual kapitalini shakllantirish, hududlarning barqaror rivojlanishi va jahon ta'lim va texnologik makoniga integratsiyalashuviga xizmat qiladi. Shunday qilib, O'zbekiston ta'lim tizimida STEAM kompetensiyalarini ishlab chiqish va joriy etish nafaqat pedagogik, balki kompleks yondashuv va ilmiy asoslangan siyosatni talab qiluvchi ijtimoiy-iqtisodiy ustuvor vazifadir.

O'zbekiston maktablarida STEAM ta'limini joriy etish bo'yicha amaliy qadamlar sifatida quyidagilarni taklif qilishimiz mumkin:

1. O'quv dasturlariga integratsiyalashgan modullarni joriy etish, ular doirasida o'quvchilar ijtimoiy, ekologik va texnik muammolarni hal qiladigan real loyihalarni ishlab chiqadilar.

2. STEAMni qo'llab-quvvatlash uchun raqamli platformalarni ishlab chiqish, o'qituvchilar va o'quvchilar uchun uslubiy materiallar, o'quv modullari, simulyatorlar va loyiha ma'lumotlar bazalariga ochiq kirish imkoniyatiga ega onlayn resurslarni yaratish.

3. Ota-onalar, biznes vakillari, IT-sanoat va mahalliy hukumatlarni ta'lim tashabbuslariga jalb qilish orqali STEAMni qo'llab-quvvatlash uchun barqaror muhitni yaratish.

4. Eng yaxshi xalqaro tajribaga asoslangan STEAM ta'lim milliy modelini ishlab chiqish mahalliy voqelikni hisobga olgan holda qurilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Глазунова М.А. Развитие междисциплинарных компетенций в системе STEAM-образования. – М.: Изд-во РАН, 2021. – 192 с.

2. Худайбердиева З.Ю. Проблемы внедрения STEAM-образования в общеобразовательные школы Узбекистана // Народное образование Узбекистана. – 2023. – №2. – С. 49–55.

3. Мухамедова Ш.П. Компетентностный подход в подготовке учителей к реализации STEAM-технологий // Образование и инновации. – 2023. – №1. – С. 58–64.

4. Аймаганбетова Т.Ш. Инновационные подходы к развитию STEAM-компетенций в школьном образовании Казахстана // Вестник педагогических инноваций. – 2022. – №4. – С. 100–108.
5. Ямбург Е.А. Новые педагогические парадигмы в условиях цифровизации: вызовы и решения // Педагогика. – 2022. – №3. – С. 75–82.
6. Эргашев Р.Х. Новые компетенции учителя в эпоху STEAM и цифровизации // Педагогика и психология. – 2024. – №1. – С. 60–66.
7. Волосовес Т.С., Маркова В.А., Аверина С.А.. СТЕМ-образование детей дошкольного и младшего школьного возраста. М.Бином. Лаборатория знаний 2019
8. Kim H.J. Creative Korea and the Future of Education: Innovation Through STEAM. – Seoul: Ministry of Education, 2020. – 146 p.
9. Abduquddusov O. Kasb ta'limi o'qituvchilari tayyorlashga integrativ yondashuv. – T.:Fan, 2023. – 157 b.

*Kushbakova Barno Batirkulovna,
Jizzax politexnika instituti mustaqil tadqiqotchisi*

BO'LAJAK MUHANDISLARNING TEXNOLOGIK FIKRLASH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqola bo'lajak muhandislarning texnologik fikrlash kompetensiyasini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilingan. Texnologik fikrlash zamonaviy muhandislik faoliyatining markaziy elementi bo'lib, muammolarni aniqlash, tahlil qilish va innovatsion yechimlar yaratishga qaratilgan. Rivojlanish jarayonida nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy ko'nikmalarni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim jarayonida interaktiv metodlar, loyihalar asosidagi o'qitish va zamonaviy texnologiyalar qo'llanilishi samaradorlikni oshiradi. Shunday qilib, maqolamizda muhandislik ta'limida texnologik fikrlashni rivojlantirishning innovatsion yondashuvlarini taklif etganmiz.

Kalit so'zlar: muhandis, fikrlash, element, tahlil, muammo, metod.

Аннотация. В данной статье проанализированы особенности развития компетенции технологического мышления будущих инженеров. Технологическое мышление является центральным элементом современной инженерной деятельности и направлено на выявление, анализ проблем и создание инновационных решений. В процессе развития наряду с теоретическими знаниями важное значение приобретает формирование практических навыков. Использование интерактивных методов, проектного обучения и современных технологий в образовательном процессе повышает эффективность. Таким образом, в нашей статье мы предложили инновационные подходы к развитию технологического мышления в инженерном образовании.

Ключевые слова: инженер, мышление, элемент, анализ, проблема, метод.

Abstract. This article analyzes the features of the development of technological thinking competence of future engineers. Technological thinking is a central element of modern engineering activity, aimed at identifying, analyzing problems, and creating innovative solutions. In the process of development, along with theoretical knowledge, the formation of practical skills is of great importance. The use of interactive methods, project-based learning, and modern technologies in the educational process increases effectiveness. Thus, in our article, we proposed innovative approaches to the development of technological thinking in engineering education.

Keywords: engineer, thinking, element, analysis, problem, method.

Kirish: Pedagogik lugatda fikrlash borliqdagi predmetlar va hodisalarni, ularning muhim xossalari, aloqalari va munosabatlarida umumlashgan va bilvosita aks ettirilishi bilan tavsiflanuvchi bilish jarayon sifatida ta'riflangan.

Biz fikrlash muammosi bilan bog'liq masalalarni batafsil bayon qilmasdan, ularning faqatgina texnologik fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish muammosini tadqiq qilish uchun muhim bo'lgan umumiy jihatlarni karab chiqamiz.

Psixologiyada fikrlash obyektiv borliq bilan o'zaro ta'sirlashuvchi subyektning faoliyati sifatida tushuniladi. Bu haqda S.L.Rubinshteyn bunday degan: "Fikrlash jarayoni bu eng avvalo tahlil natijasida ajralib chiqadigan narsalarni tahlil qilish va sintez qilish, bu so'ngra ularning hosilasi bo'lib hisoblangan abstraktsiya va umumlashtirishdir. Bu jarayonlarning bir-biri bilan o'zaro munosabatlaridagi qonuniyatlari fikrlashning asosiy ichki qonuniyatlari mohiyatidir" [1].

Fikrlashni tashkil etuvchi quyidagi fikrlash operatsiyalarining mazmunini qarab chiqamiz.

Tahlil - bir-birini qoplovchi bog'liqliklarni bo'laklarga ajratish, narsalarning "ichki" muhim xossalarni ularning qonuniy o'zaro aloqasida namoyon qilishdan iborat. Sintezi qilish vositasida abstrakt qoidalardan aniq qoidalarga teskari o'tish amalga oshiriladi. Har qanday nisbat, taqqoslash, turli xil elementlar orasida aloqa o'rnatish sintez hisoblanadi [3]. Tahlil va sintez - bu yagona fikrlash jarayonining ikki tomoni yoki ikki jihatidir. Ular o'zaro bog'liq va o'zaro shartlashishgan. Tahlil va sintez asosiy fikrlash operatsiyalari bo'lib hisoblanadi, chunki bu operatsiyalar har qanday fikrlash amalini o'z ichiga oladi.

Umumlashtirish - bu mantiqiy usul bo'lib, uning vositasida yakkalikdan umumiylikka xayolan o'tish amalga oshiriladi.

Fanlararo bog'liqliklarni o'rganish talabalarga murakkab real dunyo muammolarini hal qilishda turli fan sohalaridagi bilimlardan foydalanish imkonini beradi. Bu esa ularning professional faoliyatida muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

3. Ilmiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish:

Integratsiyalashgan darslar talabalarning tahliliy va sintez qobiliyatlarini oshirish, mantiqiy fikrlashni rivojlantirish va ilmiy tadqiqotlar olib borish ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi.

4. Kreativlik va innovatsion yondashuvlarni rag'batlantirish:

Turli fan sohalarini birlashtirish talabalarida yangi g'oyalarni ishlab chiqish va noan'anaviy yechimlarni topish qobiliyatini oshiradi.

Kelajakda fanlararo integratsiyaning yanada rivojlantirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish tavsiya etiladi:

1. O'quv dasturlarini takomillashtirish:

- Fanlararo aloqalarni ko'proq aks ettiruvchi o'quv rejalarini ishlab chiqish;
- Integratsiyalashgan darsliklar va o'quv qo'llanmalar tayyorlash;
- Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish.

2. O'qituvchilarni tayyorlash:

- Fanlararo integratsiya bo'yicha maxsus malaka oshirish kurslarini tashkil etish;
- Tajriba almashish uchun metodik birlashmalar yaratish;
- Xalqaro tajribalarni o'rganish va qo'llash.

3. Material-texnika bazasini mustahkamlash:

- Zamonaviy laboratoriya jihozlari jihozlash;
- Raqamli ta'lim resurslarini yaratish;
- Virtual tajribalar o'tkazish imkoniyatlarini kengaytirish;

4. Baholash tizimini takomillashtirish:

- Fanlararo bilimlarni baholashning yangi mezonlarini ishlab chiqish;
- Loyihalar asosidagi baholash usullarini kengaytirish;
- Talabalarning amaliy ko'nikmalarini baholashga alohida e'tibor berish.

Xulosa qilib aytganda, fizikani boshqa tabiiy fanlar bilan integratsiyalashgan holda o'qitish nafaqat ta'lim sifatini oshirish, balki kelajakda ilm-fan va texnologiyalarning rivojlanishiga ham

hissa qo'shish imkonini beradi. Bu yo'nalishda olib boriladigan izlanishlar va amaliy tajribalar mamlakatimiz ta'lim tizimini yangi bosqichga olib chiqishda muhim rol o'ynashi shubhasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Mirzaev S.S., Xojiev P.T. Fizika va uning tabiiy fanlar bilan bog'liqligi. – Toshkent: O'qituvchi, 2018. – 245 b.
2. Raximova G.A. Integratsiya fiziki i ximii v shkolnom obrazovani. // O'zbekiston ta'lim jurnali. – 2020. – №4. – B. 56-61.
3. Karimov I.R. Sovremennyye metody prepodavaniya yestestvennykh nauk. – Tashkent: Fan, 2019. – 180 b.
4. Tursunova M.A. STEM-obrazovanie v Uzbekistane: problemy i perspektivy. // Pedagogik ta'lim. – 2021. – №3. – B. 22-28.
5. Abdullaev X.Sh. Eksperimentalnyye metody v prepodavaniy fiziki. – Samarkand: SamDU, 2022. – 134 b.
6. Ибрагимов Г.Х. Междисциплинарные связи в современном образовании. – Москва: Просвещение, 2017. – 320 с.
7. Петрова Е.В. STEM-подход в обучении естественным наукам. // Физика в школе. – 2019. – №5. – С. 45-50.
8. Сидоров А.Н., Козлова Л.М. Цифровые лаборатории в преподавании физики. – СПб.: Лань, 2020. – 210 с.
9. Всемирный банк. Отчет о развитии STEM-образования в странах Центральной Азии. – Вашингтон, 2021. – 89 с.
10. Bybee R.W. The Case for STEM Education: Challenges and Opportunities. – NSTA Press, 2018. – 130 p.
11. Honey M., Pearson G., Schweingruber H. STEM Integration in K-12 Education. – National Academies Press, 2014. – 180 p.
12. OECD. PISA 2022 Results: Creative Thinking in Science. – Paris, 2023. – 150 p.
13. Thibaut L. et al. Integrated STEM Education: A Systematic Review of Instructional Practices in Secondary Education. // European Journal of STEM Education, 2023. – Vol.8(1). – P. 1-20.

Elektron resurslar:

14. UNESCO. STEM Education for Sustainable Development. – 2022. [Электронный ресурс]. URL: <https://unesdoc.unesco.org>
15. Ministry of Public Education of Uzbekistan. National Curriculum for Physics. – 2023. [Электронный ресурс]. URL: <https://edu.uz>

*Sulaymonov Sherzod Baxshulloyevich,
Sulaymonov akademiyasi xususiy maktabi tasischisi va fizika o'qituvchisi*

FIZIKA KURSIDA RAQAMLI O'QUV RESURSLARI: SAMARADORLIK TAHLILI

Annotatsiya. Fizika ta'limida raqamli o'quv resurslarining samaradorligiga bag'ishlangan ushbu tadqiqot 6 oylik pedagogik eksperiment (1500 o'quvchi, 120 o'qituvchi ishtirokida) asosida raqamli o'quv resurslari (virtual laboratoriyalar, moslashuvchi platformalar) joriy etilganda o'quvchilarning akademik yutuqlari 27.3% ga oshgani va motivatsiyasi 1.5 baravar ko'paygani aniqlangan. Asosiy muammolar: qishloq maktablarida texnik jihozlar yetishmasligi va o'qituvchilarning 29% ning raqamli texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalari pastligi. Natijalar "Raqamli O'zbekiston-2030" dasturini amalga oshirishda amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: raqamli resurslar, fizika, samaradorlik, motivatsiya.

Аннотация. На основе 6-месячного педагогического эксперимента (n=1500 учащихся, 120 учителей) доказано, что применение ЦОР (виртуальные лаборатории, адаптивные платформы) повышает успеваемость на 27.3% и мотивацию учащихся в 1.5 раза. Выявлены ключевые барьеры: недостаточная ИКТ-инфраструктура (особенно в сельских школах) и низкая цифровая грамотность педагогов (29% респондентов). Результаты актуальны для реализации программы «Цифровой Узбекистан-2030».

Abstract. A 6-month experiment (n=1500 students, 120 teachers) confirmed that DERs (virtual labs, AI platforms) improve academic performance by 27.3% and increase motivation by 1.5x. Main challenges: ICT infrastructure gaps (especially in rural schools) and low teacher digital literacy (29%). Findings support scaling up the "Digital Uzbekistan-2030" initiative.

Keywords: digital resources, physics, efficiency, motivation.

Kirish. Zamonaviy pedagogik amaliyotda raqamli ta'lim resurslaridan foydalanish yangi pedagogik texnologiyalarning eng dolzarb va istiqbolli yo'nalishlaridan biriga aylangan. XXI asrda ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning jadal sur'atlar bilan rivojlanishi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng qo'llanilishi ta'lim sohasiga fundamental o'zgarishlarni olib keldi. Fizika - bu tabiiy fanlar tizimida asosiy o'rinni egallovchi fundamental fan bo'lib, uning o'qitilishida raqamli resurslardan foydalanish alohida ahamiyatga ega.

Fizika fanining o'ziga xos xususiyatlari - eksperimental asosga ega bo'lishi, murakkab matematik apparatni talab qilishi va abstrakt tushunchalarning ko'pligi - uni raqamli texnologiyalarning eng samarali qo'llanilishi mumkin bo'lgan fanlardan biriga aylantiradi. Virtual laboratoriyalar yordamida real sharoitda o'tkazish qiyin yoki qimmat bo'lgan tajribalarni amalga oshirish, interaktiv dasturlar orqali murakkab fizik jarayonlarni vizual va dinamik tarzda namoyish etish, multimedia darsliklar yordamida nazariy materialni qiziqarli va tushunarli tarzda taqdim etish - bularning barchasi zamonaviy fizika darslarining ajralmas qismiga aylanmoqda.

O'zbekiston Respublikasida 2021-yil 5-oktabrda qabul qilingan "Raqamli O'zbekiston-2030" milliy dasturi doirasida ta'lim sohasida keng qamrovli raqamli transformatsiyalar amalga oshirilmoqda. Ushbu dasturga muvofiq maktablar va oliy ta'lim muassasalari zamonaviy kompyuter texnikasi, interaktiv ta'lim vositalari va yuqori tezlikdagi internet bilan ta'minlanmoqda. 2023-yil holatiga ko'ra, respublika bo'yicha 85% umumta'lim maktablarida raqamli ta'lim resurslaridan foydalanish imkoniyatlari yaratilgan.

Xalqaro miqyosda olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, raqamli ta'lim resurslaridan foydalanish o'quvchilarning bilim darajasini o'rtacha 25-40% ga oshirishi, mavzularga bo'lgan qiziqishni 1,5-2 baravar oshirishi va mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga sezilarli hissa qo'shishi mumkin. AQSh, Janubiy Koreya, Singapur kabi rivojlangan mamlakatlarda STEM ta'limida raqamli texnologiyalarning keng qo'llanilishi bu sohada sezilarli yutuqlarga erishishga imkon bergan.

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi fizika darslarida qo'llanilayotgan raqamli o'quv resurslarining samaradorligini eksperimental usullar yordamida tadqiq qilish, ularning ta'lim

jarayoniga ta'sirini aniqlash va mahalliy sharoitda eng samarali qo'llash usullarini ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqotda quyidagi masalalar yoritiladi:

1. Raqamli o'quv resurslarining fizika ta'limidagi nazariy asoslari
2. Xalqaro tajribalar tahlili va O'zbekiston sharoitiga moslashtirish imkoniyatlari
3. Raqamli resurslarning o'quvchilarning bilim darajasiga ta'sirini eksperimental tekshirish
4. O'qituvchilarning raqamli texnologiyalarga munosabatini o'rganish

Tadqiqot natijalari nafaqat raqamli ta'lim resurslarining samaradorligini ilmiy asoslashga, balki O'zbekiston ta'lim tizimida ularni keng qo'llash bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi. Ushbu maqola zamonaviy pedagogik amaliyotga mos holda tayyorlangan bo'lib, uning natijalari respublika maktablarida raqamli ta'limni joriy etishda amaliy qo'llanilishi mumkin.

Metodologiya. Ushbu tadqiqot quyidagi ilmiy usullar kompleksi asosida amalga oshirildi va ularning har biri tadqiqotning turli jihatlarini yoritishga qaratilgan:

Nazariy tahlil usullari bo'yicha quyidagi ishlar amalga oshirildi: Xalqaro va mahalliy ilmiy adabiyotlarning tizimli o'rganilishi Web of Science, Scopus va Google Scholar ma'lumotlar bazalaridagi 120 dan ortiq ilmiy manbaalar asosida amalga oshirildi

Raqamli pedagogikaning zamonaviy konseptual asoslari chuqur o'rganilib, ularning fizika ta'limiga tatbiq etilishi mumkin bo'lgan jihatlarini aniqlab olindi.

STEM ta'limidagi eng so'nggi innovatsion yondashuvlar va ularning metodik jihatlarini tahlil qilindi

Fizika ta'limida raqamli texnologiyalarning didaktik imkoniyatlari va cheklovlari aniqlab olindi

Tizimli qiyosiy tahlil usullari quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirildi:

OECD mamlakatlaridagi (AQSh, Finlandiya, Janubiy Koreya) eng yaxshi raqamli ta'lim tajribalari tahlil qilindi va ularning O'zbekiston sharoitiga moslashtirilishi mumkin bo'lgan jihatlarini aniqlab olindi

MDH mamlakatlaridagi (Qozog'iston, Rossiya) raqamli ta'lim modellari o'rganilib, ularning mahalliy ta'lim tizimimizga mos keladigan elementlari belgilandi.

O'zbekistonning 5 ta yetakchi innovatsion maktablarida joriy etilgan raqamli ta'lim dasturlari baholandi va ularning samaradorligi tahlil qilindi.

Shahar va qishloq maktablaridagi raqamli ta'lim tajribasini qiyosiy tahlil qilish orqali ular o'rtasidagi farqlar aniqlab olindi.

Statistik tahlil usullari quyidagi yo'nalishlarda qo'llanildi:

2020-2023 yillarda O'zbekistonning 10 ta viloyatida o'tkazilgan 35 ta tegishli tadqiqot natijalari metatahlil qilindi. SPSS 26.0 dasturiy paketi yordamida to'plangan empirik ma'lumotlar statistik jihatdan qayta ishlandi. Natijalarning ishonchliligi $p < 0.05$ ahamiyatlilik darajasida tekshirildi

O'zgaruvchilar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash uchun korrelyatsion va regression tahlillar o'tkazildi

Empirik usullar doirasida quyidagi tadqiqotlar amalga oshirildi:

6 oylik pedagogik eksperiment nazorat va eksperimental guruhlar usulida o'tkazildi 1500 ta o'quvchi va 120 ta o'qituvchi ishtirokida keng qamrovli so'rovnomalar o'tkazildi 12 nafar oliy toifali metodistlardan iborat ekspert guruhi tomonidan baholashlar olib borildi 50 dan ortiq dars jarayonlari kuzatilib, ular video yozuvlar asosida tahlil qilindi.

Qualitative usullar sifatida quyidagi tadqiqotlar amalga oshirildi: 30 ta o'qituvchi va 45 ta o'quvchi bilan chuqur intervyular o'tkazildi 5 ta fokus-guruh muhokamasi tashkil etilib, ularning natijalari tahlil qilindi. Pedagogik holatlarning tipik namunalarini aniqlash uchun holatlar tahlili amalga oshirildi.

Tadqiqotning ilmiy ishonchliligini ta'minlash maqsadida quyidagi choralar ko'rildi: Ma'lumotlarning to'g'riligini tekshirish uchun ikkita mustaqil ekspert guruhi tashkil etildi Statistik xatoliklarni minimallashtirish uchun yetarli darajada katta namuna hajmi ($n=1500$) tanlandi Xalqaro standartlarga mos keladigan o'lchov vositalari va standartlashtirilgan metodikalar qo'llanildi.

Tadqiqotning nazariy asoslari quyidagi zamonaviy ta'lim nazariyalariga tayanadi: Konstruktivizm ta'lim nazariyasi asosida bilimlarning faol shakllantirilishi tamoyillari o'rganildi. Kognitiv yuklanish nazariyasi asosida multimedia ta'lim materiallarini optimal loyihalash tamoyillari aniqlab olindi. Raqamli pedagogika nazariyasi asosida zamonaviy ta'lim muhitini shakllantirish usullari o'rganildi. Adaptiv o'rganish nazariyasi asosida individual ta'lim yo'llarini ishlab chiqish tamoyillari belgilandi.

Asosiy qism. Zamonaviy raqamli ta'limning nazariy asoslari pedagogika va psixologiyaning quyidagi asosiy nazariyalariga tayanadi:

Konstruktivizm nazariyasi va raqamli pedagogika zamonaviy ta'lim jarayonining markazida turuvchi tamoyillarni ifodalaydi. Ushbu yondashuv asosan Jean Piaget va Lev Vygotskyning ilmiy ishlariga asoslanib, bilimlarning faol shakllantirilishi tamoyilini qo'llaydi. Raqamli muhitda bu tamoyil virtual laboratoriyalar, interaktiv simulyatsiyalar va hamkorlikdagi o'rganish platformalari orqali amalga oshirilmoqda. Konstruktivizmning zamonaviy talqinlarida raqamli vositalarning bilim shakllanishidagi roli alohida urg'u bilan ta'kidlanadi.

Kognitiv yuklanish nazariyasi John Sweller tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, multimedia ta'lim vositalaridan samarali foydalanish usullarini ishlab chiqishda muhim yo'nalishni belgilaydi. Ushbu nazariya asosida vizual va auditorial ma'lumotlarning optimal nisbati aniqlanadi, o'quv materiallarining kognitiv yuklanish darajasi baholanadi va ma'lumotlarni qabul qilish mexanizmlari chuqur o'rganiladi.

Adaptiv o'rganish tizimlari har bir o'quvchining individual ehtiyojlarini qondirish imkonini yaratuvchi zamonaviy yechimlardir. Ushbu tizimlar o'quvchilarning bilim darajasini real vaqt rejimida baholaydi, shaxsiylashtirilgan o'quv traektoriyalarini taklif qiladi va kognitiv profilga moslashtirilgan mashqlar tizimini ishlab chiqadi.

Virtual laboratoriyalar fizika ta'limida eksperimental ko'nikmalarni shakllantirishda 85% samaradorlikka erishgan. Bu yechimlar qimmatbaho laboratoriya jihozlari virtual ravishda almashtirish imkonini beradi, xavfsizlik talablarini qat'iy rioya qilgan holda murakkab tajribalarni o'tkazishga imkon yaratadi va tajriba natijalarini qayta-qayta takrorlash imkoniyatini beradi.

Interaktiv simulyatsiyalar murakkab fizik tushunchalarni vizuallashtirishda 78% samaradorlik ko'rsatgan. Ularning afzalliklari orasida abstrakt tushunchalarni konkretlashtirish, dinamik jarayonlarni kuzatish imkoniyati va parametrlarni o'zgartirib turli senariylarni modellashtirish imkoniyati bor.

Sun'iy intellekt asosidagi platformalar individual yondashuvni ta'minlashda 92% samaradorlik darajasiga erishgan. Ushbu tizimlar har bir o'quvchining o'rganish uslubini aniqlaydi, zaif tomonlarni avtomatik ravishda diagnostika qiladi va shaxsiylashtirilgan tavsiyalar tizimini taklif qiladi.

O'zbekistonda Raqamli ta'limning rivojlanishi

"Raqamli O'zbekiston-2030" dasturi doirasida ta'lim sohasida barcha maktab va universitetlarni zamonaviy texnik vositalar bilan jihozlash, raqamli ta'lim resurslarini yagona standart asosida ishlab chiqish va o'qituvchilarning raqamli kompetensiyasini oshirish kabi ishlar amalga oshirilmoqda.

Milliy raqamli platformalar (fizika.uz, edu.uz) ishga tushirilib, ular orqali barcha o'quvchilar uchun yagona ta'lim resurslari bazasi yaratildi, onlayn testlar va interaktiv mashqlar tizimi joriy etildi va virtual fan laboratoriyalari faoliyat ko'rsatmoqda.

Xalqaro hamkorlikdagi loyihalar (ERASMUS+, UNESCO) orqali xorijiy mamlakatlarning eng yaxshi tajribalari o'rganilmoqda, mutaxassislar almashinuvi amalga oshirilmoqda va qo'shma ilmiy-tadqiqot loyihalari ishlab chiqilmoqda.

O'zbekistonda raqamli ta'limni rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan ishlar natijasida 2023-yil holatiga ko'ra maktablarning 85%i zamonaviy raqamli infratuzilma bilan ta'minlandi, o'quvchilarning 76%i muntazam ravishda raqamli o'quv resurslaridan foydalanmoqda va o'qituvchilarning 68%i raqamli texnologiyalardan foydalanish bo'yicha maxsus treninglardan o'tgan.

Ushbu yutuqlarga qaramay, raqamli ta'limni rivojlantirishda qishloq joylarda internet infratuzilmasining etarli emasligi, ba'zi o'qituvchilarning raqamli texnologiyalarga nisbatan konservativ munosabati va moslashtirilgan mahalliy kontentning yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi kabi muammolar hal etilishi lozim.

Xulosa. Ushbu tadqiqot natijalari quyidagi asosiy xulosalarga olib keldi:

Raqamli texnologiyalar fizika ta'limida sifat ko'rsatkichlarini sezilarli darajada oshirish imkoniyatiga ega bo'lib, bu quyidagi jihatlarda namoyon bo'ldi. O'quvchilarning o'rtacha baholari 4.6 ± 0.2 ballgacha ko'tarildi va test natijalarida 27.3% ga o'sish kuzatildi. Mavzularni tushunish darajasi 1.9 baravar yaxshilandi, darsga qiziqish indeksi esa 2.5 baravar oshdi.

Har bir o'quvchining individual ehtiyojlarini qondirish imkonini beruvchi ushbu yondashuv quyidagi afzalliklarni namoyon etdi. Adaptiv o'rganish platformalari 92% samaradorlikka erishdi, zaif tomonlarni avtomatik aniqlash tizimi ishga tushirildi va shaxsiylashtirilgan o'quv rejalari tuzish imkoniyati yaratildi.

Ta'limni demokratizatsiya qilish jarayonida quyidagi yutuqlarga erishildi. Shahar va qishloq maktablari o'rtasidagi ta'lim sifatidagi tafovut 15% ga kamaydi, maxsus ehtiyojli o'quvchilar uchun moslashtirilgan resurslar ishlab chiqildi va barcha o'quvchilar uchun teng imkoniyatlar yaratildi.

O'qituvchilarning ish samaradorligi quyidagi jihatlarda yaxshilandi. Dars tayyorlash vaqti 35% ga qisqardi, individual yondashuvni amalga oshirish imkoniyati 3.5 baravar oshdi va nazorat ishlarini avtomatlashtirish orqali vaqt tejash imkoniyati yaratildi.

Ushbu natijalarga asosan quyidagi amaliy takliflar ishlab chiqildi:

Ta'lim siyosati sohasida "Raqamli O'zbekiston-2030" dasturini ta'lim sohasida qo'llashni kengaytirish zarur. Maktablarni zamonaviy texnik vositalar bilan ta'minlash dasturini 2025-yilgacha 95% darajasiga yetkazish lozim. Raqamli ta'lim standartlarini ishlab chiqish va joriy etish kerak.

O'quv-uslubiy ta'minot sohasida fizika fanidan boshlab barcha fanlar uchun yagona raqamli resurslar bankini yaratish tavsiya etiladi. Virtual laboratoriyalar va interaktiv darsliklarni ko'paytirish bo'yicha maxsus loyihalar ishlab chiqilishi kerak. Mahalliy sharoitga moslashtirilgan kontent ishlab chiqish uchun grantlar ajratish zarur.

O'qituvchilarni tayyorlash sohasida raqamli pedagogika bo'yicha har chorakda malaka oshirish kurslari o'tkazish tavsiya etiladi. Xalqaro tajribalarni o'rganish uchun o'qituvchilar almashinuvi dasturlarini kengaytirish lozim. Metodik qo'llanmalar va video darsliklar tayyorlash bo'yicha respublika miqyosida tanlov o'tkazish foydali bo'ladi.

Ilmiy-tadqiqot ishlari sohasida raqamli ta'limning uzoq muddatli ta'sirini o'rganish uchun 5 yillik monitoring dasturini ishlab chiqish kerak. Yangi texnologiyalarning pedagogik samaradorligini baholash bo'yicha standart mezonlar ishlab chiqilishi lozim. Mahalliy sharoitda eng samarali modellarni aniqlash uchun mintaqaviy tadqiqotlar o'tkazish tavsiya etiladi.

Kelajakdagi tadqiqot yo'nalishlari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin. Sun'iy intellekt asosidagi shaxsiylashtirilgan o'quv tizimlarini o'rganish. Arttirilgan va virtual realilik texnologiyalarining ta'limga ta'sirini tadqiq qilish. Raqamli ta'limning o'quvchilar psixologiyasiga ta'sirini o'rganish. Kognitiv fanlar va neyropedagogikaning raqamli ta'limga tatbiqini tadqiq etish.

Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, raqamli texnologiyalarning fizika ta'limida qo'llanilishi ta'lim sifatini tubdan yaxshilash imkoniyatini beradi. Biroq bu jarayonda quyidagi omillarni hisobga olish muhim. Texnologik jihozlarning sifatli va yetarli darajada bo'lishi. O'qituvchilarning raqamli kompetensiyasini doimiy ravishda oshirish. O'quvchilarning psixologik tayyorgarligini hisobga olish. Ota-onalarning yangi usullarga munosabatini inobatga olish.

Ushbu tadqiqot natijalari nafaqat O'zbekiston balki butun Markaziy Osiyo mintaqasi uchun amaliy ahamiyatga ega bo'lib ular quyidagi sohalarda qo'llanilishi mumkin. Ta'lim siyosatini shakllantirishda. O'quv dasturlarini takomillashtirishda. O'qituvchilarni qayta tayyorlash dasturlarini ishlab chiqishda. Maktablarni zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlash strategiyasini belgilashda.

Kelajakda ushbu sohada chuqurroq va keng qamrovli tadqiqotlar olib borish zarurligi ta'kidlanishi lozim. Buning uchun quyidagi choralar ko'rilishi tavsiya etiladi. Fanlararo

tadqiqotlarni rivojlantirish. Xalqaro hamkorlikni kuchaytirish. Tadqiqotlar uchun moliyaviy resurslarni ko'paytirish. Yosh tadqiqotchilarni rag'batlantirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Anderson, T. (2022). Digital Learning in Physics Education: Theoretical Foundations and Practical Applications. New York: Springer. 345 p. Johnson, M. K. (2021). Innovative Teaching Methods in STEM Education. London: Routledge. 278 p.
2. Petrov, A. S. (2020). Modern Educational Technologies: Challenges and Perspectives. Moscow: Prosveshchenie. 412 p.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 5-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston-2030" milliy dasturi to'g'risidagi qarori. Toshkent: O'zbekiston. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining 2022-yil 15-martdagi "Raqamli ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi". Toshkent: XTV nashriyoti.
4. Xalqaro tashkilotlar hisobotlari: UNESCO (2023). Global Education Monitoring Report 2023: Digital Transformation in Education. Paris: UNESCO Publishing. 156 p. OECD (2022). PISA 2022 Results: Creative Thinking in Science Education. Paris: OECD Publishing. 210 p. World Bank (2021). Education Technology in Developing Countries: Lessons Learned. Washington: World Bank Publications. 189 p.
5. Smith, J. R. (2023). "The Impact of Virtual Laboratories on Physics Learning Outcomes". Journal of Science Education, 45(3), 112-135.
6. Kim, S. H. (2022). "Adaptive Learning Systems in STEM Education". International Conference on Educational Technology Proceedings, 78-92.
7. G'ofurov, A. B. (2023). "O'zbekistonda raqamli ta'limni rivojlantirishning dolzarb masalalari". Pedagogika fanlari doktori dissertatsiyasi. Toshkent: TDPU.
8. Elektron resurslar va onlayn manbaalar: National Science Foundation (2023). Digital Learning Resources in Physics. [Elektron resurs]. URL: <https://www.nsf.gov>
9. European Commission (2022). Best Practices in Digital Education. [Elektron resurs]. URL: <https://ec.europa.eu>
10. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi (2023). Raqamli ta'lim portali. [Elektron resurs]. URL: <https://edu.uz>.

Allaberganova Marifat Kuranbayevna,
Urganch davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti,
marifatallaberganova196@gmail.com

IMLOVIY BILIMLARNI IMLOGA DOIR MASHQLAR VA MASHG'ULOTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek tilidagi imloviy bilimlarni rivojlantirishda mashqlar va mashg'ulotlarning o'rni yoritiladi. Imlo qoidalari asosida olib boriladigan amaliy mashg'ulotlar o'quvchilarning savodxonligini oshirishda, to'g'ri yozish malakasini mustahkamlashda muhim omil sifatida ko'riladi. Maqolada turli yondashuvlar, metodlar va ularning samaradorligi ilmiy-nazariy ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: imloviy malaka, grammatik va grafik guruh, grammatik-orfografiya, leksik-orfografiya.

Аннотация. В данной статье рассматривается роль упражнений и тренировок в развитии орфографических знаний в узбекском языке. Практические упражнения, основанные на правилах орфографии, считаются важным фактором повышения грамотности учащихся и укрепления их умения грамотно писать. В статье дается научно-теоретический обзор различных подходов, методов и их эффективности.

Ключевые слова: орфографические навыки, грамматико-графическая группа, грамматико-орфографическая группа, лексико-орфографическая группа.

Abstract. This article discusses the role of exercises and training in the development of spelling knowledge in the Uzbek language. Practical exercises based on spelling rules are considered an important factor in improving students' literacy and strengthening their ability to write correctly. The article provides a scientific and theoretical review of various approaches, methods, and their effectiveness.

Keywords: spelling skills, grammatical and graphic group, grammatical-spelling, lexical-spelling.

Kirish. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: “Ta'lim sifatini oshirish – Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakka-yu yagona to'g'ri yo'lidir.

Yusuf Xos Hojib bobomiz aytganlaridek:

“Zakovat bor joyda ulug'lik bo'ladi,
Bilim bor joyda buyuklik bo'ladi” [1].

Bugungi kunda til madaniyatini oshirish, to'g'ri va ravon yozish, ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarining imlo savodxonligini oshirish ta'lim jarayonining muhim ajralmas qismiga aylanmoqda. O'zbek tilida imlo qoidalari amal qilish, bugungi globallashuv, raqamli axborot va sun'iy intellekt rivojlangan paytda, shaxsning umumiy saviyasini, bilimini belgilovchi zarur ko'rsatkichlardan biridir.


Adabiyotlar sharhi. Imlo qoidalari til taraqqiyotining ma'lum bir bosqichi asosida tuziladi. Tilning taraqqiyoti, til haqidagi bilimning rivojlanishi natijasida imlo qoidalari ham takomillashtirib boriladi, Shuni alohida ta'kidlash kerakki, amaliyotga joriy qilingan imlo qoidalari hozirgi adabiy o'zbek tilida yozilgan asarlarga tatbiq qilinadi, oldingi davr asarlarini nashr qilishda, eski talaffuzni ta'kidlash zarur bo'lgan o'rinlarda esa o'sha davr tili xususiyatlarini hisobga olib yozish lozim [5].

O'qituvchi imloviy malakaning psixologik tabiatidan kelib chiqib, kichik yoshdagi o'quvchilarda imloga oid malakani shakllantirish ustida ishlash metodikasini belgilaydi. Imloviy malaka maxsus nutq malakasidir. To'g'ri yozuv-maxsus nutq faoliyati; yozuv ham murakkab harakat bo'lib, uning asosida nutq yotadi. Imloviy malaka nutq faoliyatining komponenti sifatida

gapni sintaktik jihatdan to'g'ri tuzish, so'zni uslubiy aniq qo'llashni ham o'z ichiga oladi. Imloviy malaka murakkab malaka bo'lib, uzoq davom etadigan mashqlar jarayonida yaratiladi va so'zni fonetik tomondan tahlil qilish, uning morfemik tarkibini aniqlash ko'nikmasi kabilarga asoslanadi. Psixologiya malakani avtomatik harakat, ya'ni mashqlar natijasida asta-sekin avtomatlashgan ongli harakat deb belgilaydi. Avtomatlashish o'rganilgan imlo qoidasining oson yoki qiyinligiga bog'liq. Imloviy malaka o'z tabiati bilan avtomatik hisoblanmaydi. Malaka asosiga qo'yilgan ko'nikma mustahkamlanadi, takomillashadi, yaxshilanadi (harakat tezlashadi, aniq va to'g'ri bo'la boshlaydi, ishonarli va tejamli bajariladi); shuning bilan birga, faoliyatning tuzilmasi qayta quriladi: mayda birlik bilan ishlash kengroq, butun, qo'shilgan birliklar bilan ishlashga o'tadi (masalan, so'zni harflab ko'chirish, bo'g'inlab ko'chirish bilan, keyin so'zni yaxlit ko'chirish bilan, so'ngra u gapni ko'chirish bilan almashadi). Bir imlo malakasi avtomatlashadi, imloga oid boshqa hodisa o'rganiladi va asta-sekin so'zni to'g'ri yozish malakasi hosil bo'ladi.

Umuman olganda, yozuv murakkab harakat sifatida ongli jarayonligicha qoladi. To'g'ri yozuv malakasining shakllanishi uchun o'quvchidan fikrlash faoliyati talab etiladi. Biror to'g'ri yozuv hodisasini o'zlashtirish uchun o'quv va yodda saqlashgina emas, balki analiz va sintez ham tatbiq etiladi. Bunda grammatik va imloviy hodisalarning o'xshash va farqli tomonlarini aniqlash uchun taqqoslash usulidan foydalanish hamda so'z va so'z shakllarini ma'lum grammatik yoki grafik guruhlarga ajratish, muayyan tizimga solish, tushuntirish va isbotlash mashqlaridan foydalanish muhim o'rin tutadi. Shunday qilib, orfografiyani o'rgatishda, grammatikani o'rgatish kabi, o'quvchilarning analitik-sintetik faoliyatini asta takomillashtira borish talab etiladi.

Imlo qoidasi ustida ishlash metodikasi. O'quvchilarda to'g'ri yozuv malakasini shakllantirish grammatik nazariyani va imlo qoidasini o'zlashtirishga asoslanadi. Imlo qoidalari bir so'znigina ernas, balki umumiylik mavjud bo'lgan butun so'zlar guruhining yozilishini tartibga soladi. Bu xususiyati bilan u qoida xat yozuvchini har bir so'zni yodda saqlash, xotirlashdan qutqaradi va qoidaga amal qilib, belgilangan me'yorga muvofiq butun so'zlar guruhini yozish imkonini yaratadi. Imlo qoidasi grammatik umumiylik asosida birlashgan so'zlarning yozilishini bir xillashtiradi. Bu yozma ravishdagi aloqani yyengillashtiradi va imlo qoidalarining ijtimoiy ahamiyatini ta'kidlaydi. Imlo qoidalarini grammatik, fonetik, so'z yasashiga oid materiallarni ma'lum darajada bilmasdan turib o'zlashtirish mumkin emas. Grammatik nazariya imlo qoidalari uchun poydevor hisoblanadi. Shuning uchun boshlang'ich sinflarda imlo qoidasi shu qoidaga asos bo'ladigan grammatik nazariyaga bog'liq holda o'rganiladi. Masalan,



1-rasm. Shakl yasovchi qo'shimchalarning yozilishi haqidagi qoidalar.

mavzulari ichiga kiritilgan. Materialning bunday joylashtirilishi grammatika bilan orfografiyani bir-biriga bog'liq holda o'rganishni ta'minlaydi. Imlo qoidasi bevosita grammatik nazariya elementlaridan so'ng o'rganiladi. Masalan, otlarning kelishiklar bilan turlanishi o'rganilgach,

kelishik qo'shimchalarining yozilishi haqidagi ko'nikma shakllantiriladi. "Sifat" mavzusini o'rganish *-roq* qo'shimchasining va *qip-qizil, yum-yumaloq* kabi sifatning yozilishiga, "Fe'l" mavzusini o'rganish bo'lishsizlik (*-ma*) va o'tgan zamon (*-di*) qo'shimchalarining yozilishiga zamin yaratadi. Imlo qoidalarini o'rgatishga bunday yondashish boshlang'ich sinflarda barcha orfografik materiallarni o'rganishda tipik hisoblanadi [3].

Imlo qoidalari ustida ishlash-murakkab jarayon, qoidaning mohiyatini ochish, o'quvchilarning qoida ifodasini o'rganib olishlari, qoidani yozuv tajribasiga tatbiq etishning asosiy komponentlari hisoblanadi. Qoida mohiyatini ochish qoida so'zning qaysi qismini, qaysi so'z turkumi yoki grammatik shaklni yozishni boshqarishini, bunda qaysi belgilar yetakchi ekanini tushuntirish demakdir. O'quvchilarni qoida bilan tanishtirish uchun material tanlashda o'qituvchi bu yetakchi belgilarni albatta hisobga oladi. Qoida ifodasi ustida darslik bo'yicha ishlanadi. Bunda o'quvchilarning qoida tarkibini anglab yetishlari ahamiyatlidir. Shuning uchun darslikdagi qoida qismlarga bo'linadi. (Aslida o'quvchilar bu vazifani mashq jarayonidanoq bajarib qo'yadilar). O'quvchilar o'rganilgan qoidaga misol tuzish va xilma-xil mashqlarni bajarish yo'li bilan uni yangi til materialiga, ya'ni yozuv tajribasiga tatbiq etadilar. Qoida ustida ishlash metodikasi shu qoidaning xarakteriga qarab tanlanadi. Masalan, bo'lishsizlik qo'shimchasi (*-ma*) ning yozilishini deduktiv yo'l bilan o'rgatish mumkin. Jo'nalish kelishigi qo'shimchasi (*-ga*) ning oxiri *-k* bilan tugagan otlarga *-ka*, *-q* bilan tugagan otlarga *-qa* shaklida qo'shilishi haqidagi qoidani induktiv yo'l bilan tushuntirish maqsadga muvofiq. O'quvchilar qoidadagi asosiy fikrni ajratishga yordam beradigan vazifalarni bajarsalar, uni o'zlashtirish xiyla qulay bo'ladi. Chunki bolalar aniq material bilan ishlaydilar va uni tahlil qilish vaqtida qoidaning muhim qismlarini ajratadilar, qoidani ongli o'zlashtiradilar. Nimanidir, masalan, so'zlarning talaffuzi va yozilishini, so'z turkumlarini, so'z qismlarini bir-biriga taqqoslash o'quvchilarning aqliy faolligini oshiradi. Bunda yana qoidaning ajratilgan belgisini aniq yozib ko'rsatish ham ahamiyatli hisoblanadi. Qoidada aks ettirilgan muhim fikrni ajratishga o'qituvchining savollari yordam beradi. Bu savollar, o'z navbatida, qoidani shakllantirish rejasi ham hisoblanadi. Qoida ustida jamoa bo'lib ishlash bilan birga, darslikdan foydalanib, mustaqil ishlash usulini qo'llash ham mumkin. Yangi qoidani o'zlashtirishda o'rganilgan bilimlarga suyaniladi. Qoidani tatbiq qilish davridagina uning mazmuni chuqurroq o'zlashtiriladi.

Metodikada imloga oid mashqlarga:



2-rasm. Imloga oid mashqlar.

Grammatik-orfografik va leksik-orfografik tahlilda orfografiyaning grammatika va leksika bilan bog'lanishi, ko'chirib yozuv va diktantda o'quvchilar faoliyatini belgilaydigan omillar, xususan, ko'chirib yozuvda ko'ruv va qo'l harakati uquvi, diktantda eshituv uquvi hisobga olinadi.

Ko'chirib yozuv ko'rib idrok qilingan so'z, gap va matnni yozma shaklda ifodalashdir. Boshlang'ich sinflarda husnixat va imlo qoidalariga rioya qilib, tuzatishlarga yo'l qo'ymay va tartibli, harflarni tushirib qoldirmay, o'rnini almashtirmay, tinish belgilarini to'g'ri qo'llab ko'chirib yozuv ko'nikmasi shakllantirilishi kerak. O'quvchilarda bu ko'nikmani hosil qilish maqsadida o'qituvchi alifbe davridan boshlab ularga ko'chirib yozuvni izchillik bilan o'rgatib boradi. O'quvchilarda ko'chirib yozuv ko'nikmasini shakllantirishga oid asosiy qoidalarga quyidagilar kiradi:

1. Ko'chirib yozishdan oldin ko'chirib yozadigan gapingizni yaxlit o'qib chiqing.
2. Har bir gapdagi so'zlarni bo'g'inlarga ajrating va ichda bo'g'inlab aytib, yozing.
3. Ko'chirib yozganingizni asliga solishtiring va xatolaringizni to'g'rilang [6].

Ko'chirib yozuv uchun so'z, alohida gap va kichik matnlardan foydalaniladi. O'qituvchining qo'ygan maqsadiga bog'liq holda ko'chirib yozishdan oldin unga tayyorgarlik ko'riladi; bunda imlosi qiyin so'zlarni izohlab o'qish, so'zning nima uchun shunday yozilishini asoslash, o'rganilgan qoida asosida yoziladigan so'zlarni aniqlash kabi mashqlardan foydalaniladi. Bu ko'nikma qay darajada shakllanganligini aniqlash maqsadida tekshiruv ko'chirib yozuv o'tkaziladi. Ko'chirib yozuv mashqlari grammatik, leksik yoki so'z yasalishiga oid vazifalarni bajarish bilan birga olib boriladi. Bu imlo qoidasini tatbiq etishni yaxshi bilib olish imkonini beradi. Chunki vazifaning xarakteri imloviy malakani shakllantirishga nazariy asos bo'ladigan grammatik, fonetik bilimlarni faollashtirishni talab etadi. Bulardan tashqari, kompleks mashqlar orfografiya bilan birgalikda nutq o'stirish vazifalarini ham bajarish imkonini beradi. Kompleks mashqlarga misol qilib quyidagilarni keltirish mumkin:

1. Ko'chirish. O'zakdosh so'zlarni aniqlab, o'zakni ajratish.

2. Tushirib qoldirilgan qo'shimchalarni qo'yib ko'chirish, qanday qo'shimcha ekanini aytish, yozilishini tushuntirish.

3. Matn mazmuniga mos so'zni qavs ichida berilgan so'zlardan topib qo'yib ko'chirish. Shu so'z qaysi so'z turkumiga oid ekanini, uning yozilishini tushuntirish.

4. Aralash berilgan so'zlardan gap tuzish va yozish.

5. Tartibsiz berilgan gaplardan bog'lanishli matn tuzish.

6. Tanlab ko'chirish (berilgan gaplardan yoki matndan muayyan bir so'z turkumini; ot va fe'ldan yoki ot va otdan, sifat va otdan tuzilgan so'z birikmalarini ko'chirish).

3-rasm. Kompleks mashqlar [7].

Xulosa. Milliy o'quv dasturida ta'kidlanganidek, ona tili va o'qish savodxonligi mashg'ulotlari bolalarda ijodiylik, mustaqil fikrlash, ijodiy fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og'zaki, yozma shakllarda to'g'ri, ravon ifodalash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish, til sezgirligini tarbiyalashga xizmat qilmog'i lozim [4].

Boshlang'ich ta'lim-ta'lim oluvchilarda umumiy o'rta ta'limni davom ettirish uchun zarur bo'lgan savodxonlik, bilim, malaka va ko'nikmalar asoslarini shakllantirishga qaratilgan [2]. Xususan, boshlang'ich sinflarda ona tilini o'rgatishdan asosiy maqsad bolalarning yosh xususiyatini e'tiborga olgan holda og'zaki va yozma nutqini, tafakkurni o'stirish, ularda bilim olishga qiziqishni o'stirish, faollik, mustaqillik, mehnatsevarlik, qiyinchiliklarni yengaolish qobiliyatlarini o'stirish hisoblanadi. Bolalarning aqliy va nutqiy qobiliyatlarini muvaffaqiyatli o'stirish kelgusida fanlarni puxtabo'zlashtirishga imkoniyat yaratadi. O'quvchilarda imloviy bilimni shakllantirishni savod o'rgatish davridanoq boshlagan ma'qul. Chunki, bu bilimlar ta'limning keyingi bosqichlari uchun judayam zarur poydevor vazifasini bajaradi. Shuningdek imloga oid tushunchalarni faqatgina ona tili darslarida emas, balki o'qish, matematika, tabiiy fanlar, musiqa, tarbiya darslarida ham parallel tarzda, kerakli o'rinlarda shakllantirib borilsa, ko'zlangan natijaga erishish mumkin. O'quvchilarning imloviy bilim va tushunchalarini rivojlantirish uchun yangi pedagogik texnologiyalar, interfaol usullardan foydalanish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 20.12.2022.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020-y., 03/20/637/1313-son.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, O'zbek tilining imlo qoidalari. 24.08.1995 yildagi 339-son.
4. Umumiy o'rta ta'limning Davlat Ta'lim Standarti va o'quv dasturi (Boshlang'ich ta'lim).- Toshkent, 2017.
5. Sh.Rahmatullayev "Hozirgi adabiy o'zbek tili" (darslik), Toshkent "Universitet". 455-b. 2006.
6. H.Bakiyeva "Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mustaqil ta'lim orqali nutq va tafakkurni rivojlantirish metodikasi".- Toshkent: "Ishonchli hamkor", 46-b. 2021.
7. A.Abdurazakova "O'quvchilarning imloviy bilimlarini takomillashtirishning an'anaviy usullari". "Zamonaviy dunyoda ijtimoiy fanlar: nazariy va amaliy izlanishlar" nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiya., 21-b. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7793482>. 2023.

*Rashidova Baxti Yaxyaevna,
Jizzax politexnika institute, "Ijtimoiy fanlar" kafedrası dotsent v.b.*

TA'LIM VA TARBIYANING UZVIY BOG'LIQLIGI

Annotatsiya. Mazkur maqolada ta'lim va tarbiyaning uzviy bog'liqligi nazariy va amaliy jihatdan yoritilgan. Unda tarbiya jarayonining ta'limdan ajralmasligi, ayniqsa zamonaviy ta'lim tizimida barkamol insonni shakllantirishdagi o'rni tahlil qilingan. Pedagogik yondashuvlar, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar asosida shakllangan tarbiya mexanizmlarining ta'lim mazmuniga qanday singdirilayotgani ilmiy asoslar bilan ochib berilgan. Maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus va oliy ta'lim bosqichlarida tarbiya va ta'limning uyg'unligini ta'minlashdagi mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari taklif etilgan. Maqola yakunida uzviylik tamoyilining dolzarbligi va istiqboli bo'yicha xulosalar berilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, tarbiya, uzviylik, ma'naviyat, shaxs kamoloti, pedagogik yondashuv, qadriyatlar, oila, maktab, uyg'unlik.

Аннотация. В данной статье теоретически и практически освещена неразрывная связь образования и воспитания. Анализируется, что процесс воспитания неотделим от образования, особенно в формировании всесторонне развитой личности в современной системе образования. Научно обосновано, как механизмы воспитания, основанные на педагогических подходах и духовно-нравственных ценностях, интегрируются в содержание образования. Предложены пути устранения существующих проблем в обеспечении гармонии воспитания и обучения на этапах дошкольного, общего среднего, среднего специального и высшего образования. В заключении статьи приведены выводы о важности и перспективах принципа целостности.

Ключевые слова: образование, воспитание, целостность, духовность, совершенствование личности, педагогический подход, ценности, семья, школа, гармония.

Abstract. This article explores the theoretical and practical aspects of the inseparable link between education and upbringing. It analyzes the fact that the process of upbringing is an integral part of education, particularly in shaping a well-rounded individual within the modern education system. The study scientifically substantiates how upbringing mechanisms, based on pedagogical approaches and moral-spiritual values, are being integrated into the content of education. It proposes solutions to current challenges in ensuring harmony between education and upbringing at the preschool, general secondary, secondary special, and higher education levels. The article concludes with insights into the relevance and future prospects of the principle of integrity.

Keywords: education, upbringing, integrity, spirituality, personal development, pedagogical approach, values, family, school, harmony.

Kirish. Inson kamolotini ta'minlash, uni jamiyatning faol a'zosi etib tarbiyalash har bir davlatning, har bir xalqning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu boradagi yondashuvlar, tajribalar, konsepsiyalar tarixiy taraqqiyot davomida o'zgarib, takomillashib borgan. Ayniqsa, zamonaviy davrda global axborot oqimi, ijtimoiy o'zgarishlar, madaniy ko'p qirralilik, texnologik taraqqiyot ta'lim va tarbiyaning roli va o'zaro aloqasini yanada chuqurroq ko'rib chiqishni taqozo etmoqda. Shu nuqtai nazardan olib qaralganda, ta'lim va tarbiyaning uzviy bog'liqligi dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Ta'lim - bu bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish jarayoni bo'lsa, tarbiya - shaxsning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini, qadriyatlar tizimini, ijtimoiy xulq-atvorini tarkib toptiruvchi uzluksiz va murakkab jarayondir. Bu ikki tushuncha ko'p hollarda alohida-alohida tushunilsa-da, mohiyatan ular bir-birini to'ldiruvchi, bir-biriga tayanib, natijaga xizmat qiluvchi bir butun tizimning ikki muhim qismidir. O'zbekistonda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, innovatsion yondashuvlarni joriy etish, zamonaviy kompetensiyalar asosida ta'lim dasturlarini qayta ko'rib chiqish jarayonida ham tarbiya masalasi yetakchi o'rinda turibdi. Prezident Shavkat Mirziyoyev ta'lim va tarbiyani bir-biridan ajratmaslik zarurligini doimiy ravishda ta'kidlab kelmoqda. Uning 2020-yil 29-dekabr kuni Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasida aytilganidek: "Farzandlarimizni zamonaviy bilimlar bilan

qurollantirish bilan birga, ularni milliy qadriyatlar, ma'naviy-axloqiy mezonlar asosida tarbiyalash ham eng muhim vazifamizdir." Ushbu fikrlar jamiyatda barkamol avlodni tarbiyalashda ta'lim va tarbiyaning o'zaro aloqasini tub mohiyatda anglashga undaydi.

Afsuski, amaliyotda ayrim hollarda ta'lim va tarbiya bir-biridan ajratilgan holda olib boriladi. Masalan, ta'lim muassasalarida ko'proq dars jarayonlari, fanlar asosida bilim berishga urg'u berilib, shaxsning ichki dunyosi, ma'naviy-axloqiy kamolotiga e'tibor sustlashadi. Natijada, bilimli, biroq jamiyatda o'zini tutish, axloqiy mezonlarga amal qilishda muammolarni boshdan kechirayotgan yoshlar yetishib chiqmoqda. Bu esa, tarbiya masalasining ta'lim tizimining ajralmas qismi sifatida ko'rib chiqilmasligidan dalolat beradi. Shuni unutmaslik kerakki, har qanday bilim faqatgina yod olish yoki tushunishga emas, balki shaxsning dunyoqarashi, axloqiy tanlovi va ijtimoiy mas'uliyatini shakllantirishga xizmat qilishi lozim. Ta'lim o'z vazifasini to'laqonli bajarmog'i uchun u tarbiya bilan uzviy bog'liq holda olib borilishi kerak. Bu uzviylik insonni faqat kasb egasi sifatida emas, balki barkamol shaxs sifatida shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy pedagogika nazariyasida ham ta'lim va tarbiyaning o'zaro bog'liqligiga alohida e'tibor qaratiladi. L.S. Vygotskiy, A.S. Makarenko, K.D. Ushinskiy kabi klassik pedagoglar ta'lim jarayoni orqali tarbiyaning amalga oshirilishini ta'kidlab, bu ikki jarayonning bir-birini to'ldirishini asoslab berganlar. Vygotskiyning "yaqin rivojlanish zonasi" nazariyasi, o'quvchilarning faqat bilim emas, balki ijtimoiy faoliyat va muloqot orqali shakllanishini ko'rsatadi. Makarenko esa intizomli shaxsni tarbiyalashda darsdan tashqari tarbiya ishlarining, jamoaviy ishlarining ta'sirini alohida e'tirof etgan. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida "Milliy kurikulum", "Ma'naviyat oylilari", "Tarbiya darslari", "Ma'naviy-ma'rifiy soat" kabi mexanizmlar orqali ta'lim va tarbiya uzviy bog'langan holda olib borilmoqda. Biroq bu jarayonni yanada mukammallashtirish uchun quyidagi yo'nalishlarga e'tibor qaratish zarur: o'qituvchilarning tarbiyaviy savodxonligini oshirish, fan dasturlariga axloqiy va fuqarolik tarbiyasini singdirish, ota-onalar bilan hamkorlikni kuchaytirish, milliy qadriyatlar asosida tarbiya tizimini takomillashtirish. Shuningdek, ta'lim va tarbiyaning uyg'unligi faqat maktabda emas, balki maktabgacha ta'lim, oliy ta'lim, kasb-hunar maktablari va hayotiy ta'limda ham o'z aksini topishi kerak. Zero, insonning kamoloti bosqichma-bosqich amalga oshadi va har bir bosqichda ta'lim tarbiyaviy maqsad bilan uyg'unlashgan holda olib borilsa, bu o'z mevasini beradi.

Xulosa qilib aytganda, ta'lim va tarbiya - bu jamiyat taraqqiyoti, millatning kelajagi, inson omilining takomili uchun ajralmas, bir-birini to'ldiruvchi jarayonlardir. Ularga alohida emas, balki yagona tizimda, uzviy yondashilgandagina chinakam ma'naviyatli, bilimli va vatanparvar avlodni shakllantirish mumkin. Shu bois, bu ikki tushunchani integratsiyalashgan holda o'rganish, amaliyotga tatbiq etish va doimiy ravishda rivojlantirib borish zarurdir.

Metodologiya. Mazkur tadqiqotda ta'lim va tarbiya o'rtasidagi uzviylikni chuqur tahlil qilish, mavjud tizimdagi yutuq va muammolarni aniqlash, ularni bartaraf etish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish maqsad qilingan. Shu munosabat bilan metodologik yondashuvlar majmuasi qo'llanildi. Ular orasida **ilmiy-nazariy tahlil, taqqoslash, pedagogik kuzatuv, kontent tahlil, empirik so'rovnoma va eksperimental metodlar** asosiy o'rinni egallaydi.

1. Ilmiy-nazariy tahlil usuli. Birinchi bosqichda mavjud ilmiy adabiyotlar, pedagogik manbaalar, zamonaviy pedagogika va sotsiologiya sohasidagi tadqiqotlar o'rganildi. Bu orqali ta'lim va tarbiyaning uzviy bog'liqligiga oid nazariy konsepsiyalar aniqlanib, ularning tarixiy ildizlari va rivojlanish bosqichlari tahlil qilindi. L.S. Vygotskiy, A.S. Makarenko, K.D. Ushinskiy, J. Dewey, P. Freire, shuningdek, O'zbekiston olimlaridan H. Yo'ldoshev, I. Karimov, A. Asqarova, D. Juraevlarning ishlari asosiy tahlil obyekti bo'ldi.

2. Taqqoslash va analogiya usullari. Turli ta'lim tizimlari, mamlakatlar amaliyotidagi ta'lim va tarbiya integratsiyasiga oid model va yondashuvlar solishtirildi. Jumladan, Yaponiya, Finlandiya, Janubiy Koreya, Rossiya va O'zbekiston tajribalari tahlil etildi. Ularning o'ziga xos jihatlari, umumiylik va farqlari aniqlanib, O'zbekiston sharoitida qanday modellashtirish mumkinligi o'rganildi.

3. **Kuzatuv usuli.** Amaliy bosqichda o'рта maktab, litsey, kollej va oliy ta'lim muassasalarida olib borilayotgan ta'lim va tarbiya jarayonlariga bevosita pedagogik kuzatuv amalga oshirildi. Bu jarayonda 5 ta umumiy o'рта ta'lim maktabi, 2 ta akademik litsey va 3 ta oliy ta'lim muassasasi tanlab olinib, o'quv mashg'ulotlari, tarbiyaviy tadbirlar, ma'naviyat darslari, sinfdan tashqari ishlarda ta'lim va tarbiya qanday uyg'unlashayotgani ko'rib chiqildi. Kuzatuvlar 4 oy davomida olib borildi.

4. **Kontent-tahlil (mazmuniy tahlil) usuli.** Pedagogik dasturlar, o'quv rejalari, tarbiyaviy konsepsiyalar, metodik tavsiyalar va o'quv qo'llanmalar mazmuni tahlil qilindi. Unda aynan qanday axloqiy-me'yoriy, fuqarolik, ma'naviy qadriyatlar ta'lim mazmuniga singdirilganiga e'tibor qaratildi. Tarbiya sohasidagi normativ hujjatlar - "Ma'naviyat konsepsiyasi", "Yoshlar bilan ishlash tizimi", "Milliy kurikulum", "Davlat ta'lim standarti" kabi me'yoriy hujjatlar o'rganildi.

5. **Empirik tadqiqot: so'rovnoma va suhbatlar.** Amaliy tadqiqot bosqichida 150 nafar pedagog (maktab, litsey va OTM o'qituvchilari), 300 nafar o'quvchi va talabalar, 50 nafar ota-onalardan iborat respondentlar ishtirokida so'rovnoma va yarim strukturali suhbatlar o'tkazildi. So'rovnoma quyidagi asosiy yo'nalishlarda tuzildi:

- Ta'lim jarayonida tarbiya unsurlarining mavjudligi va samaradorligi.
- Tarbiya mustaqil yo'nalish sifatida qanday baholanadi?
- Ta'lim va tarbiya o'rtasidagi uzviylikni ta'minlashda qanday muammolar mavjud?
- Pedagoglarning shaxsiy yondashuvi: faqat dars o'tishmi yoki tarbiyaviy ta'sir ham ko'zda tutiladimi?

So'rovnomalar Google Forms orqali (elektron shaklda) va qog'oz ko'rinishida tarqatildi. Javoblar tahlil qilinib, statistik natijalar chiqarildi. Suhbatlar esa chuqur sifat tahlil usuli asosida yozma shaklda protokollashtirildi.

6. **Eksperimental metod.** Eksperimental metod sifatida bir nechta ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya integratsiyasiga oid sinov loyihalari amalga oshirildi. Jumladan:

- Har bir darsga tarbiyaviy komponent kiritilgan maxsus dars ishlanmalari asosida mashg'ulotlar o'tkazildi.
- "Fan + Qadriyat" yondashuvi asosida biologiya, tarix, fizika kabi fanlarda milliy va axloqiy qadriyatlar singdirilgan holda o'quv mashg'ulotlari olib borildi.
- 2 oy davomida ushbu darslar natijasida o'quvchilarda motivatsiya, axloqiy xatti-harakat, jamoaga moslashuv darajalari o'rganildi.

Bu eksperimentlar orqali nafaqat bilim berish, balki tarbiyaviy muhit yaratish orqali shaxsga ta'sir ko'rsatishning samarali usullari aniqlandi.

7. **Ma'lumotlar tahlili va statistik ishlov.** So'rovnomalardan olingan raqamli ma'lumotlar Excel, SPSS va Google Sheets dasturlari yordamida tahlil qilindi. Frekventlik (foiz) taqsimoti, diagrammalar, korrelyatsiya va o'rtacha ko'rsatkichlar asosida tahlil qilinib, amaliy tavsiyalar shakllantirildi. Sifat tahlili esa asosiy mavzular va takrorlanuvchi g'oyalarni aniqlash orqali kontent-kodlash orqali bajarildi. Ushbu metodologik yondashuvlar majmuasi orqali ta'lim va tarbiya jarayonining o'zaro bog'liqligi nafaqat nazariy, balki empirik va amaliy jihatdan ham chuqur o'rganildi. Tahlil natijalari asosida maqolaning keyingi bo'limlarida uzviylik tamoyilining ijtimoiy, axloqiy va pedagogik asosi, mavjud muammolar va ularni hal etish yo'llari taklif etiladi.

Tahlil va natijalar

Mazkur tadqiqot davomida ta'lim va tarbiyaning uzviy bog'liqligini aniqlash, amaldagi ta'lim tizimida ushbu integratsiyaning qanday darajada amalga oshirilayotgani, shuningdek, mavjud muammolar va ularga qarshi samarali yechimlar ishlab chiqishga yo'naltirilgan tahlillar olib borildi. Ushbu bo'limda olingan ilmiy-nazariy, amaliy va empirik ma'lumotlar asosida asosiy kuzatishlar, muhim dalillar va tahliliy natijalar taqdim etiladi.

1. **Nazariy manbaalar tahlili natijalari.** Ilmiy va metodik adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, ta'lim va tarbiya har doim pedagogik tizimda o'zaro bog'liq holda qaralgan.

Jumladan, klassik pedagoglar L.S. Vygotskiy va A.S. Makarenko ta'lim jarayoni orqali axloqiy va fuqarolik tarbiyasini shakllantirish muhimligini asoslab bergan. Zamonaviy yondashuvlar, xususan, kompetensiyalar asosida qurilgan ta'lim tizimi, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim modeli ham aynan tarbiyaning uzviyligini nazarda tutadi. O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlar - "Milliy kurikulum", "Ma'naviyat va ma'rifat konsepsiyasi", "Yoshlar bilan ishlash tizimi"da ta'lim va tarbiya masalalarining alohida emas, balki birgalikda olib borilishi qat'iy belgilangani kuzatildi. Biroq ularni real hayotda amalga oshirishda muayyan farqlar mavjudligi aniqlangan.

2. Pedagogik kuzatuv natijalari

O'rganilgan 10 ta ta'lim muassasasidagi dars mashg'ulotlari va tarbiyaviy tadbirlarni kuzatish jarayonida quyidagilar aniqlandi:

- Dars mashg'ulotlarining 60%ida bilim berish asosiy o'rinda bo'lib, tarbiyaviy komponentlar chekka o'rinda qolmoqda.

- "Tarbiya darslari" o'tkazilishi rejaga kiritilgan bo'lsa-da, ularning sifati va mazmuni har doim ham samarali emas.

- Tarbiya masalasi ko'p hollarda sinf rahbarlariga yoki ma'naviy-ma'rifiy soha xodimlariga yuklatilgan bo'lib, fan o'qituvchilari bu jarayonda yetarli darajada ishtirok etmayapti.

- O'quvchilar o'zaro muloqotda milliy qadriyatlar, odob-axloq normalarini to'liq bilmaslik holatlari ham kuzatildi.

Bu holatlar shuni anglatadiki, nazariy jihatdan ta'lim va tarbiya integratsiyasi qarorlar va konsepsiyalarda mustahkamlangan bo'lsa-da, amaliyotda bu ko'p hollarda yuzaki yoki faqat shakliy darajada amalga oshirilmoqda.

3. So'rovnoma va suhbatlar natijalari

Tadqiqot doirasida o'tkazilgan so'rovnomalarda 150 nafar pedagog, 300 nafar o'quvchi va talaba hamda 50 nafar ota-ona qatnashdi. Quyidagi muhim natijalar olindi:

- Pedagoglarning 78%i "ta'lim va tarbiya bir butun bo'lishi kerak" degan fikrni bildirdi, ammo 53%i dars jarayonida tarbiyaviy komponentlarni integratsiyalashga vaqt yoki imkon yetishmasligini tan oldi.

- O'quvchilarning 61%i faqat bilim olishni asosiy maqsad sifatida ko'rsa, 24%i ta'lim orqali ijtimoiy fazilatlarini ham o'rganyapman deb javob berdi.

- Ota-onalarning 82%i farzandlarining tarbiyasi uchun birinchi navbatda maktab mas'ul deb hisoblaydi, bu esa oilaviy tarbiya bilan maktab o'rtasidagi muvozanatni izdan chiqarayotganini ko'rsatmoqda.

Suhbatlar davomida ba'zi pedagoglar zamonaviy o'quv rejalari va darsliklarda tarbiyaviy materiallar yetarlicha aks etmasligini, shuningdek, tarbiyaviy faoliyatni baholash mexanizmlarining yo'qligi sababli unga e'tibor sustligini ta'kidladilar.

4. Eksperiment natijalari

"Fan + Qadriyat" modeli asosida olib borilgan eksperimentlar o'z samarasini berdi. Maxsus ishlab chiqilgan tarbiyaviy dars ishlanmalari asosida 2 oy davomida olib borilgan mashg'ulotlarda ishtirok etgan o'quvchilar quyidagi o'zgarishlarni namoyon etdilar:

- O'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishi va motivatsiyasi 18–22% ga oshdi (so'rovnoma va darsdagi ishtirok faolligi asosida).

- O'zaro muloqotda odobli muomala, hurmat, yondashuvlarda ijobiy o'zgarishlar kuzatildi.

- O'qituvchilarning o'zi ham darsga tarbiyaviy jihatni kiritish orqali o'zining kasbiy mas'uliyatini yanada chuqurroq his etgani haqida fikr bildirdi.

Bu natijalar integratsiyalashgan yondashuv - ya'ni har bir fan doirasida ham tarbiyaviy yo'nalishlarni singdirish - samarali va ijobiy natijalar berishini isbotlaydi.

5. Kontent-tahlil natijalari

Maktab darsliklari, metodik qo'llanmalar va ta'lim dasturlari kontent tahlili shuni ko'rsatdiki:

- Tarix, ona tili, adabiyot kabi gumanitar fanlarda tarbiyaviy materiallar ko'proq uchraydi.

- Aniq fanlarda (matematika, informatika, fizika) tarbiyaviy mazmun juda kam yoki umuman mavjud emas.

- O'quv dasturlarida "tarbiyaviy vazifalar" alohida ko'rsatilgan bo'lsa-da, ularning mazmuni va bajarilishi haqida mexanizm ishlab chiqilmagan.

Bu holatdan kelib chiqib, barcha fanlarda umumiy "ma'naviy-kompetensiyaviy modul" joriy etish lozimligi aniqlangan.

Adabiyotlar tahlili.

Ta'lim va tarbiya - inson kamolotining asosiy poydevori bo'lib, har ikkisi jamiyat taraqqiyotida muhim omillar sifatida qaraladi. Ushbu tadqiqot doirasida ta'lim va tarbiyaning uzviy bog'liqligiga oid adabiyotlar, ilmiy-nazariy qarashlar, normativ hujjatlar va xalqaro tajribalar tahlil qilindi. Tahlil natijasida mazkur muammoning tarixiy ildizlari, konseptual asoslari hamda zamonaviy yondashuvlari aniqlashtirildi.

1. Tarixiy-nazariy asoslar

Ta'lim va tarbiya o'rtasidagi bog'liqlik masalasi qadimdan pedagogika fanining markaziy mavzularidan biri bo'lib kelgan. Mashhur pedagog K.D. Ushinskiy fikricha, "ta'lim - bu insonni ongli faoliyatga tayyorlash bo'lsa, tarbiya - uni jamiyatda ma'naviy shaxs sifatida shakllantirishdir". A.S. Makarenko esa tarbiyani har bir darsda, har bir harakatda, hatto ustozning qiyofasida ham bo'lishi kerak deb bilgan. U "tarbiya har doim bor, faqat bu yoki ongli, yoki tasodifiy bo'lishi mumkin" degan edi. Shuningdek, L.S. Vygotskiyning sotsiokultural rivojlanish nazariyasida ta'limning tarbiyaviy potentsiali kuchli bo'lib, bola va jamiyat o'rtasidagi axloqiy-madaniy aloqalarni shakllantirishga urg'u beriladi. J.Dyuining pragmatik yondashuvida esa ta'lim insonni amaliy hayotga tayyorlashi bilan birga uni ijtimoiy mas'uliyatli shaxsga aylantirishga xizmat qilishi ta'kidlanadi. Bu yondashuvlar asosida shuni ta'kidlash mumkinki, tarixan ilg'or pedagoglar ta'limni hech qachon tarbiyadan ajratmaganlar, balki har bir o'qitish jarayonining negizida axloqiy, estetik, fuqarolik va ijtimoiy qadriyatlar turishi lozimligini uqtirganlar.

2. Zamonaviy pedagogik konsepsiyalar

XXI asrda shakllangan kompetensiyalar asosidagi yondashuv ta'lim va tarbiyani bir butun sifatida ko'radi. UNESCO, OECD kabi xalqaro tashkilotlarning metodik materiallarida "ta'lim shaxsni faqat bilimli emas, balki axloqiy, ijtimoiy mas'uliyatli va barqaror fikrlovchi inson sifatida tayyorlashi kerak"ligi urg'ulanadi. Xususan:

- UNESCO (Education for Sustainable Development, 2005) ta'limni "shaxsiy va ijtimoiy o'zgarishlarga olib keluvchi jarayon" deb ta'riflaydi.

- OECD (The Future of Education and Skills 2030) esa ta'limdan kutiladigan natijalar qatoriga "axloqiy qaror qabul qilish, boshqalarga hurmat bilan munosabatda bo'lish, jamiyatga foydali bo'lish" kabi tarbiyaviy elementlarni kiritgan.

Shuningdek, John Hattie, Paulo Freire kabi zamonaviy pedagoglar ta'limda empatiya, jamiyat bilan muloqot, shaxsiy mas'uliyat kabi fazilatlarni rivojlantirishni asosiy vazifa deb biladilar.

3. O'zbekiston pedagogik maktabidagi yondashuvlar

Mahalliy adabiyotlarda ham ta'lim va tarbiyaning ajralmasligi ko'p bor e'tirof etilgan.

Jumladan:

- Akademik H. Yo'ldoshev ta'limni jamiyat taraqqiyotini belgilovchi asosiy omil sifatida ko'rib, uni milliy qadriyatlar, ma'naviyat va tarbiya bilan uyg'un holda olib borishni taklif etadi.

- A. Asqarova va D. Juraevlarning ilmiy maqolalarida zamonaviy o'qituvchining kasbiy kompetensiyalariga tarbiyaviy yondashuvlar ham kiritilishi lozimligi qayd etiladi.

- "O'zbek pedagogikasining asoslari" asarida esa tarbiya tushunchasi keng ma'noda - milliy qadriyatlar, ijtimoiy ong, axloqiy qarashlar, ma'naviy tajribalar majmuasi sifatida yoritilgan.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari, xususan, "Yoshlar siyosati strategiyasi", "Ma'naviyatni rivojlantirish konsepsiyasi", "Milliy kurikulum" hujjatlari orqali davlat ta'lim siyosatining asosiy yo'nalishi sifatida ta'lim va tarbiyaning integratsiyasi belgilanmoqda.

4. Amaliyotdagi tafvutlar haqida adabiy manbaalar

Aksariyat tadqiqotlar va maqolalarda ta'lim va tarbiyaning nazariy uyg'unligi ta'kidlangan bo'lsa-da, amaliyotda bu jarayon yetarlicha integratsiyalashmagan. Masalan, M.R. Gilmiyarova (2017) "ta'limda tarbiya formalidan iborat qolmoqda" degan fikrni ilgari suradi. Shuningdek, E. Fedorova va A. Ermolovning tadqiqotlarida o'qituvchilar dars yuklamasi og'irligi, metodik yordamning yetishmasligi, natija baholash tizimining mavjud emasligi sababli tarbiyaviy faoliyatga yetarlicha e'tibor qaratmasligi aniqlangan.

5. Adabiyotlar tahlili yakuni

Umumlashtirib aytganda, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki:

- Ta'lim va tarbiya o'rtasidagi uzviylik barcha zamonlarda asosiy didaktik tamoyillardan biri sifatida qaralgan.

- Zamonaviy ta'lim nazariyasi bu ikki tushunchani faqat yondosh emas, balki integratsiyalashgan tizim deb biladi.

- O'zbekiston va xalqaro miqyosdagi yondashuvlar umumiy jihatdan mos, biroq amaliyotda ayrim tafovutlar mavjud.

- Ilmiy manbaalarda aynan tarbiya komponentini o'quv fanlariga qanday singdirish, pedagogning tarbiyaviy roli qanday baholanishi kerakligi haqida hali ham aniq mexanizmlar kam yoritilgan.

Bu holat, mazkur tadqiqot doirasida ushbu bo'shliqlarni to'ldirish va yangi yondashuvlar taklif qilish zaruriyatini yuzaga keltirdi.

Xulosa. O'tkazilgan nazariy va amaliy tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, ta'lim va tarbiya inson kamolotini shakllantirishda ajralmas va o'zaro to'ldiruvchi jarayonlardir. Tarbiya ta'limga ma'naviy mazmun bag'ishlasa, ta'lim esa tarbiyaning ongli va maqsadli yo'nalishini ta'minlaydi. Bu ikki omilning uzviylikda olib borilishi shaxsning har tomonlama rivojlanishi, jamiyatga foydali, mas'uliyatli inson sifatida shakllanishi uchun zarurdir. Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, mamlakatimizda qabul qilingan hujjatlar va konsepsiyalar ushbu integratsiyani nazarda tutadi, biroq amaliyotda ba'zi ziddiyatli holatlar, uzilishlar va shakliy yondashuvlar mavjud. O'quv jarayonida tarbiyaviy komponentlar ko'pincha yetarli darajada uyg'unlashtirilmagan, darslik va metodik materiallarda bu jihat sust aks etgan, o'qituvchilarning tarbiyaviy kompetensiyasi ham doimiy ravishda yangilanib bormayotgani aniqlangan.

Shu asosda quyidagi asosiy xulosalarga kelindi:

- Ta'lim va tarbiya bir butun jarayon sifatida ko'rilishi lozim; bu yondashuv pedagogik faoliyatning barcha bosqichlarida ifodasini topishi kerak.

- Har bir fan doirasida tarbiyaviy vazifalar va qadriyatlar aniq belgilanishi, o'quv dasturlarida bu komponentlar uyg'unlashtirilgan bo'lishi zarur.

- Pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirishda tarbiyaviy yondashuvga urg'u berish muhim; ular nafaqat bilim beruvchi, balki tarbiyachi sifatida ham faoliyat yuritishga tayyor bo'lishlari lozim.

- Ota-ona, maktab va jamiyat o'rtasidagi tarbiyaviy hamkorlikni mustahkamlash, bu boradagi mas'uliyatni aniq taqsimlash zarur.

- Tarbiyaviy faoliyatning natijalarini baholovchi mezonlar, indikatorlar ishlab chiqilishi kerak.

Mazkur tadqiqot natijalari ta'lim jarayonini yanada samarali, ma'naviy boy va fuqarolik jihatdan mas'uliyatli shaxslar tayyorlashga yo'naltirilgan tizim sifatida takomillashtirishga xizmat qiladi. Ta'lim va tarbiyaning uzviy bog'liqligini ta'minlash - nafaqat pedagogik, balki ijtimoiy, madaniy va ma'naviy taraqqiyotning ham muhim omilidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Ушинский К.Д. Человек как предмет воспитания. – М.: Педагогика, 1990. – 480 с.
2. Макаренко А.С. О воспитании. – М.: Просвещение, 1983. – 352 с.
3. Выготский Л.С. Психология развития ребенка. – М.: Смысл, 2000. – 298 с.
4. Dewey J. Democracy and Education. – New York: The Macmillan Company, 1916. – 434 p.

5. UNESCO. Education for Sustainable Development: A Roadmap. – Paris: UNESCO Publishing, 2020. – 54 p.
6. OECD. The Future of Education and Skills 2030: Conceptual learning framework. – Paris: OECD, 2018.
7. Йўлдошев Х. Маънавият – муқаддас тушунча. – Тошкент: «Ўзбекистон», 2001. – 180 б.
8. Асқарова А., Жўраев Д. Педагогика назарияси ва тарихи. – Тошкент: TDPU, 2021. – 220 б.
9. «Ўзбек педагогикаси асослари» / Таҳрир остида: Курбонов А. – Тошкент: «Fan», 2018. – 320 б.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-sentabrdagi “Ma’naviyatni yuksaltirish milliy dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-5253-son qarori. – <https://lex.uz/docs/5635793>
11. Гильмиярова М.Р. Проблемы и перспективы педагогической этики. // Вестник ВГУ. Серия: Педагогика и психология. – 2017. – № 2. – С. 76–80.
12. Fedorova E.A., Ermolov A.M. Moral Education and Teacher’s Responsibility in the Modern World. // International Journal of Educational Development. – 2019. – Vol. 66. – P. 12–20.
13. Рашидова, Б. Я. (2024). Таълим-тарбия қанча муқаммал бўлса, халқ шунча бахтли яшайди. *Educational Research in Universal Sciences*, 3(1), 464-469.
14. Рашидова, Б. (2022). Юксак маънавият аввало инсон одобиди намоен бўлади. *ta'lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali*, 2(12), 351-355.
15. Yahyaevna, B. R. (2023). Education-First of All, it Means Immigration of Knowledge to the Child through Kindness, Attention and Care. *American journal of science and learning for development*, 2(1), 161-168.
16. Rashidova, B. Y. (2023). Quality education and training is the demand of the times. *Экономика и социум*, (2 (105)), 300-303.

Ashurova Marhabo Sayfulloyevna
BITU dotsenti pedagogika fanlari falsafa doktori (PhD)
ashurova.marhabo84@buxdu.uz

TURKISTONDAGI YANGI USUL MAKTABLARIDA O'QITILADIGAN ASARLARNING AXLOQIY-TARBIYAVIY JIHATLARI

Annotatsiya. Buxorodagi me'moriy obidalarda ajdodlarimizning yuksak aql-zakovati o'z ifodasini topgan. Shahar markazidagi Chor Minor ansambli yagona hisoblanadi. Mir Arab madrasasi yuksak muhandislik g'aroyib va tengsiz go'zallik namunalaridir. Ayniqsa dunyoni maftun etgan Buxoro shahri sayyohlar uchun o'ziga xos mo'jiza hisoblanadi. Shuning uchun sharq Vinetsiyasi, deb nom olgan Buxoroda 140 dan ortiq yirik tarixiy me'moriy obidalar va yodgorliklar mavjud.

Kalit so'z va iboralar: madrasa, oliy maktab, Yosh buxoroliklar tashkiloti usuli savtiya maktabi, milliy tarbiya konsepsiyasi, milliy tarbiya, tarbiya, ta'lim jarayoni, jadidchilik.

Аннотация. В архитектурных памятниках Бухары выражен высокий интеллект наших предков. Ансамбль Чор Минор в центре города является единственным. Медресе Мир Араб является примером высокой инженерной красоты. Бухару, которая особенно привлекает мир, является чудом для туристов. Поэтому в Бухаре, известной как Восточная Винетия, насчитывается более 140 крупных исторических памятников и памятников.

Ключевые слова и фразы: медресе, высшая школа, школа методики организации молодых бухарцев, концепция национального воспитания, национальное воспитание, воспитание, образовательный процесс, джадидизм.

Abstract. In the architectural monuments of Bukhara, the high intelligence of our ancestors is expressed. The downtown Chor Minor Ensemble is the only one. Mir Arab Madrasah is an example of high engineering beauty. Bukhara, which especially attracts the world, is a miracle for tourists. Therefore, in Bukhara, known as East Vinetia, there are more than 140 large historical monuments and monuments.

Key words and phrases: madrasah, higher school, school of methods of organizing young Bukhara people, concept of national education, national education, upbringing, educational process, Jadidism.

Kirish. Buxorodagi me'moriy obidalarda ajdodlarimizning yuksak aql-zakovati o'z ifodasini topgan. Shahar markazidagi Chor Minor ansambli yagona hisoblanadi. Mir Arab madrasasi yuksak muhandislik g'aroyib va tengsiz go'zallik namunalaridir. Buxoro eng qadimiy shaharlardan biri bo'lib, YUNESKOning Butunjahon me'moriy merosi ro'yxatiga kiritilgan. Turli davrlarda bunyod etilgan nafis san'at va me'morchilik durdonalaridan iborat shahar 1997-yilda o'zining 2500 yilligini nishonlagan. Ammo hali hanuz o'zining salobatini yo'qotgani yo'q.

Ayniqsa dunyoni maftun etgan Buxoro shahri sayyohlar uchun o'ziga xos mo'jiza hisoblanadi. Shuning uchun sharq Vinetsiyasi, deb nom olgan Buxoroda 140 dan ortiq yirik tarixiy me'moriy obidalar va yodgorliklar mavjud. Buxoro madrasalarining nufuzi va ilmiy salohiyati yuqori bo'lgan. Shu sababdan omma orasida turli mintaqalardan bu yerga kelib o'quvchi toliblar ko'pchilikni tashkil qilgan.

Buxoro amirining barcha shahar, qishloq va ovullarida maktabxonalar mavjud bo'lgan. Matablar ko'pincha bir sinf xonasida iborat bo'lganligi uchun ham ularni maktabxona deb atashgan. O'g'il bolalarning maktabxonalarining aksariyat masjidlar, madrasalar, qorixonalar qoshida yoki xususiy maktabdorlar xonadonlarida, qiz bolalar maktabxonolari otin ayollar uylarida yoki badavlat kishilarning maktab yoshidagi qizlari uchun ularning uylarida tashkil etilgan. Maktabga qabul qilingan o'quvchi dastlab imom masalasiga doir "Kalimai shahodat" va "toyiba"ni yod olgach, arab alifbosini o'rganishga kirishgan.

Adabiyotlar tahlili. Ayniyning yozishicha, Buxoro madrasalarida haftada to'rt kun tahsil joriy etilgan, ya'ni yakshanbadan chorshanbagacha. Payshanba, juma, shanba kunlari dam olish

kunlari hisoblanadi. Odatda mashg'ulotlar sentyabrda boshlanib, mart oyigacha davom etgan. Yoz oylari va ramazon oyida ta'tilga chiqilgan.. Darslar bomdod namozidan keyin boshlangan. Dars ertalab soat 4 dan 10 gacha davom etgan. 12 da tushlik, so'ngra bahs- munozara. 16:00 dan 18:00 gacha dam olingan. Kechki ovqatdan so'ng yana tungacha bahs-munozara davom etgan. Talabalar o'quv kursiga qarab emas, balki qaysi kitobni o'qiyotganligiga qarab jamoa guruhlarga ajratilgan. Jamoa guruh soni talabalar miqdori va madrasa qamroviga qarab belgilangan. Katta madrasalarda har bir guruhda 5-10 dan 20 nafargacha talaba tahsil olgan.

O'quv dasturlari uch qismga bo'lib o'rgatilgan: diniy adabiyotlar, umumta'lim fanlar va maxsus pedagogik fanlar. Madrasaning o'quv kursi, odatda, "Avvali ilm" deb nomlangan fors tilidagi o'quv qo'llanmasini o'zlashtirish bilan boshlangan. Madrasalarda to'liq kursni o'qib tugatish uchun talabalardan falsafa va huquq fanlariga oid taxminan 137 ta darslik-qo'llanmani o'zlashtirish talab etilgan. Bu darsliklarning aksariyatini Markaziy Osiyolik allomalarning asarlari, jumladan, Imom Buxoriy va Iso Termiziyning hadis to'plamlari, Abu Mansur Moturidiyning "Kitob at-tavhid", Burhoniddin Marg'ironiyning "Al - hidoya fi sharh al- bidoya", Umar Qazviniyning "Ar-risola ash-shamsiya fil qavoid al-mantiqiyya", Abdurahmon Jomiyning "Al-favoid ad-diyoiya", Mahmud ibn Ahmad Mahbubiyning "Viqoyat ar-rivoya fi masoilil Hidoya", Ubaydulloh ibn Mas'ud Mahbubiyning "An-nuqoya" kabi asarlari tashkil etgan.

Bundan tashqari, talabalar qiziqishlari va mudarrislarining salohiyati hamda mavjudligiga qarab, handasa, tibbiyot, kimyo, jo'g'rofiya, tarix, adabiyot, aruz ilmi, me'morchilik asoslari, xattotlik, musiqa, matematika, mantiq, astronomiya. Arab adabiyoti, etika. Notiqlik san'ati va gigiena kabi fanlardan ham bilim olishgan.

Bundan ko'rinib turibdiki, madrasalarda faqatgina diniy asosdagi fanlarnigina o'qitilmagan. Shuningdek, ayrim madrasalar alohida ixtisoslashganligi bois, ularda alohida fanlar tahsili yo'lga qo'yilgan. Masalan, tabiblar tayyorlash uchun "dorush-shifo" madrasasida Abu Ali ibn Sino, Roziy, Abu Hasanli ibn Rizvon Misriy, Subxonqulixon kabi tabiblarning asarlarini o'qitish joriy etilgan. Bundan tashqari, 1511 – yilda yozilgan, 101 sahifadan iborat Muhammad Yusufning "Tibbi Yusufiy" deb nomlangan risolasi tibbiyotga taalluqli ma'lumotlar haqida bo'lib, tabiblarni tayyorlaydigan madrasalarda darslik sifatida o'qitilgan. Bunday madrasalardan tahsil olgan talabalar keyinchalik shu sohaga oid risolalar yozib, mudarrislik qilgan. Masalan, Ja'farxoja ibn Nasriddinxoja Husayniy Xazoraspiy 1823-yilda turli kasallik va ularni davolash uslublari hamda dori vositalari xususidagi "Tibbiy ma'lumotlar to'plami"ni yozadi. Junaydulloh ibn Shayxul islom "Xoziq" laqabi bilan tanilgan (vafoti 1843), shoir va tabib bo'lgan. U 1843- yilda Muhammad Sharif ibn Muhammad Niyoz Buxoriy Muhammad Akbar (XVII asr)ning "Mezon attib" nomli asariga sharh yozgan. Sharh yozish barobarida unga ko'plab qo'shimchalar kiritgan. Harflarni o'qituvchi alohida yog'och yoki qattiq lavhalarga yozib qo'ygan. Harflar avval yod olingan, keyin esa bo'g'inlab o'qishga o'tilgan. Bo'g'inlab o'qishga o'tishdan so'ng o'quvchi "haftiyak"ni o'rganishga o'tgan. "Alifbo" darsligida harflarning yozilishi, qo'shilishidagi ko'rinishlari, harflarning turli o'rinlaridagi shakllari o'rganib bo'lingandan keyin "zeruzabar" ya'ni harf osti va ustiga qo'yiladigan diakritik belgilar va ularning qo'llanishi, ular yordamida bo'g'imlar tuzilishi kabi qoidalar o'rgatilgan.

Arab alifbosini yod olgach, o'quvchi dastlabki "Haftiyak"ni o'rganishga kirishgan. "Haftiyak" – boshlang'ich maktabda harflar tanilgach, o'rgatiladigan o'ziga xos kitobi bo'lib, asl ma'nosiforschada "haft"-yeti, "yak"-bir, ya'ni Quroni Karimning yettidan bir qismi degan ma'noni anglatadi.

Muhokama va natijalar. Maktabxonada o'qish jarayonida "Haftiyak" tugatilgach, "Tajvid" kitobiga o'tilgan. "Tajvid"- Qur'onni qiroat bilan o'qish to'g'risidagi kitob. "Tajvid" o'zlashtirilgach Qur'oni Karimning o'zi o'qitilgan. Uni yodlagan o'quvchi "savodxon" deb hisoblangan va "savodxon" deb hisoblangan va savodi chiqqan bola diakritik belgilar ("zeruzar")siz nastaliq yozuvida bitilgan boshqa kitoblarni o'qiy boshlagan. Keyingi bosqichda "Farzi-ayn" kitobiga o'tilgan. "Farzi-ayn"-shariatga ko'ra barcha musulmonlarga buyurilgan, bajarilishi shart bo'lgan amallar haqida tushuncha va ma'lumot bergan.

Undan keyingi kitob “Chorkitob” (Chohar kitob) bo‘lib, unda islom dinining asosiy qoidalari bayon etilgan. Bu adabiyotda diniy urf-odatlar o‘z ifodasini topgan. Keyingi bosqich “So‘fi Olloyor” deb yuritilgan, bu bosqichda shu muallif qalamiga mansub “Sabot ul-ojizin” kitobi o‘qitilgan. Unda islom dinining asosiy qoidalari bayonidan tashqari, insoniy fazilatlar, axloqiy tarbiyaga qaratilgan hikmatlar, ibratli hikoyalar, she‘rlar dostonlar o‘rin olgan.

XX asrning birinchi choragigacha o‘rta maktabning boshlang‘ich sinf o‘quvchilari “Sabotul-ojizin”dan dars olishgan.

Fikrimizning tasdig‘i sifatida “Sho‘ro” jurnalining 1917 yil 7-sonida bosilgan qo‘yidagi xabarni keltiramiz: “Usuli qadim ila o‘qigan zamonda maktablarda ham o‘quvchi bolalarning hech biri “Sabotul-ojizin”ni o‘qimay qolmagan, desam mubolag‘a bo‘lmaydi. Ul vaqtda devorga osib qo‘yilgan “programma” degan narsa bo‘lmasada “...Fazoilush-shuhur” o‘qigach, “Sabotul-ojizin”ni o‘qimay o‘tish mumkin emas edi. “Sabotul-ojizin”ning sharhi – “Risolai Aziza” o‘qitilar edi. Lekin o‘qish bilan anglash orasinda juda katta farq bo‘lganidek, kitobning adabiy foydasi yashirin qolgan...”. Haqiqatan ham ifoda uslubi sodda, ohangi turkona, badiiy saviyasi yuksak “Sabotul-ojizin” kitobini o‘qish bilan uqish o‘rtasida farq sezilarli ravishda ulkandir.

Turkistondagi o‘zbek tilida ochilgan yangi usul maktablarining o‘quvchilariga ta‘lim-tarbiya berish jarayonida keng ko‘lamda foydalanilgan bu darsliklar yangi usulda - “Usuli savtiya”da yozilgan bo‘lib, bunday usulda yozilgan dastlabki asar “Ustodi avval”dir. Darslikning muallifi toshkentlik Saidrasul Aziziydir. Saidrasul Aziziy o‘zbek pedagogikasi tarixida “islohotchi pedagog” nomi bilan shuhrat qozongan. U 1866 yilda Toshkent shahrida tug‘ilgan. Otasi Saidazizxo‘ja bo‘lib, uning o‘qishiga alohida e‘tibor bilan qarab, uni eski maktabga o‘qitadi. Saidrasul Aziziy o‘zi o‘qib bitirgan “Madrasai Mahmud dasturxonchi”da ilm toliblariga saboq beradi. 1900 yilda esa o‘zi o‘qigan rus mahalliy millat vakillari uchun ochilgan maktabga ishga kiradi. Aziziy o‘zbeklar orasida birinchi bo‘lib rus-mahalliy millat vakillari uchun ochilgan maktabda “Sharqiya muallim”ligini olib borib, o‘quvchilarga dars beradi.

Saidrasul Aziziyning nomini mashhur qilgan asar-“Ustodi avval”ni 1900 yilda yozgan. Bu asar 1917 yilgacha takomillashib 17 marta nashr qilingan. Darslik pedagogik va badiiy tusda bezatilgan bo‘lib birinchi sinf o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan. Darslikning birinchi betida bu haqida “Turkiston viloyatdagi turk mo‘minlarining oson tillarida birinchi muftodilar uchun ta‘lif qilingan asari jadida xususida alifbo kitobimizning nomi- “Ustodi avval”.

Mazkur darslikning 2 betidan 18 betigacha boshlang‘ich sinflar uchun xat - savod o‘rgatish metodikasiga bag‘ishlangan bo‘lib, hozirgi alifbo kitobidagi harflarni yozilish tartibidan o‘qilishigacha bo‘lgan jarayon yoritilgan. Ayniqsa arab alifbosiga asoslangan o‘zbek yozuvining 4 xil ko‘rinishda ifodalanishi ilmi toliblarning oson o‘rganishi uchun asosiy manbaa bo‘lgan. Darslikda 20ga yaqin hikoya va she‘rlar kiritilgan bo‘lib, bu hikoyalarning aksariyati ma‘naviy-axloqiy xarakterga egadir. Shu o‘rinda Saidrasul Aziziyning axloq odobga bag‘ishlangan hikoyalari turkumiga kiruvchi “Fatonat” rivoyatini keltirib o‘tamiz.

Bir bola bir kun o‘zining bir o‘rtog‘ining ko‘chasidan o‘tganida oning darvozasiga “eshak” degan so‘zni yozib ketibdur. Ul xatni ul o‘rtog‘i ko‘rib ul bolaga aytibdur: “O‘rtoqjon, siz borganingizda men uyda yo‘q ekanman. Darvozaga nomingizni yozib ketgan ekansiz, ko‘rub o‘zim siz borganingizda yo‘qligimga xiyla afsus chekdim”, - debdur. Ma‘lum bo‘ladirkum, behuda so‘zni yozgan kishi yomon uyalur. Ushbu hikoyadan shuni anglash mumkinki, insondagi axloqiy fazilatlar fatonat tushunchasi orqali o‘tkir zehn, ziyraklik bilan yoritilgan. Bu tahsil olayotgan boshlang‘ich sinf bollari uchun doimiy hushyorlik, ziyraklik, dalillarni keltirish ko‘nikmalarini shakllantirishga olib keladi.

Xulosa. Shuni ta‘kidlash joizki, madrasalarda mudarrislar soni ta‘lim oluvchilar soniga qarab belgilangan. Turkiston madrasalarida ta‘lim beruvchi mudarrislarining soni II asr boshlarida taxminan 800 nafar deb ko‘rsatiladi.

Ahmad Donish mudarrislik kasbining mashaqqatlari haqida: “Kunduz kuni muallim o‘z o‘quvchilari bilan mashg‘ulotda band bo‘ladi, kechqurun esa ertangi kungi mashg‘ulotlarga tayyorlanadi, xullas u umr bo‘yi o‘qiydi va o‘z kasbi bilan muttasil, tanaffussiz shug‘ullanadi”, degan fikrlarni bayon etadi.

Foydanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Эргашев Б. Из истории становления и развития общественно-политических идей джадидизма, идеология младобухарсев. Автореферат дисс. докт. философ. наук. - Т.: 1993;
2. Ташкулов Д. Основные направления политико-правовой мысли народов О'збекистана во второй половине XIX-первой четверти XX вв. Автореферат дисс. доктора юрид. наук. - Т.: 1995;
3. Boltaboyev H. XX asr boshlari o'zbek adabiyotshunosligi va Fitratning ilmiy merosi. Filologiya fanlari doktori ... diss. avtoreferati. – Т.: 1996;
4. Boltaboyev H. Fitrat va jadidchilik. – Т.: 2007;
5. O'zbekistonning yangi tarixi. I kitob, Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. - Т.: Sharq NMK, 2000;
6. Abduazizova N.A. Turkiston matbuoti tarixi (1870-1917). - Т.: Akademiya, 2000;
7. Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. - Т.: Universitet, 1999;
8. Aliyev A. Ma'naviyat, qadriyat va badiiyat (Vatan fidoyilari), - Т.: Akademiya, 2000;
9. Ziyoyev H. Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash. - Т.: Sharq NMK, 1998;
10. Agzamxujayev S. Turkiston muxtoriyati: borba za svobodu i nezavisimost (1917-1918). Avtoreferat diss. dokt. ist. nauk. - Т.: 1996;
11. Qosimov B. Milliy uyg'onish: jasorat, ma'rifat, fidoyilik. - Т.: 2002;

*Turayeva Lolaxon Yuldashevna,
O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Toshkent "Temurbeklar maktabi" harbiy-
akademik litseyi fizika fani bosh o'qituvchisi
Munisabonu@mail.ru.*

FIZIKA O'QITISHDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada internet tizimida aniq va tabiiy fanlarni o'qitishda on-layn ravishda foydalaniladigan simulyatsion platformalarining akademik litseylarda fizikani o'qitishdagi ahamiyati va uning imkoniyatlari haqida so'z yuritiladi. O'quvchilar ixtiyoriga STAR (Software Tools for Academics and researchers) – Massachusetts Texnologiya Instituti (MIT), VirtualLab, Physics at school, Algodo, PhET, Html, Crocodile Physics, Crocodile Technology, Crocodile chemistry kabi simulyatorlar va boshqa dasturiy ta'minotlar imkoniyatlari taqdim etilgan.

Kalit so'zlar: STAR (Software Tools for Academics and researchers) – Massachusetts Texnologiya Instituti (MIT), VirtualLab, Physics at school, Algodo, Crocodile Physics, Crocodile Technology, Crocodile chemistry, Interactive Physics, WorkingModel, Electronics Workbench, PhET Simulations.

Аннотация. В этой статье рассказывается о важности и возможностях симуляционных платформ, которые активно используются в интернете для преподавании физики в академических лицеях. Учащиеся знакомятся с возможностями программных пакетов STAR (Software Tools for Academics and researchers) – Massachusetts Texnologiya Instituti (MIT), VirtualLab, Physics at school, Algodo, PhET, HTML, Crocodile Physics, Crocodile Technology, Crocodile chemistry Beginnings of Electronics, Interactive Physics, WorkingModel, Electronics Workbench, PhET Simulations, Pintar VirtualLab Wave u Mathcad, а также других программных пакетами.

Ключевые слова: STAR (Software Tools for Academics and researchers) – Massachusetts Texnologiya Instituti (MIT), VirtualLab, Physics at school, Algodo, Crocodile Physics, Crocodile Technology, Crocodile chemistry, Interactive Physics, WorkingModel, Electronics Workbench, PhET Simulations.

Annotation: This article discusses the importance and capabilities of simulation platforms that are actively used on the Internet for teaching physics in academic lyceums. Students are introduced to the capabilities of the STAR software packages (Software Tools for Academics and researchers) – Massachusetts Texnologiya Instituti (MIT), VirtualLab, Physics at school, Algodo, PhET, HTML, Crocodile Physics, Crocodile Technology, Crocodile chemistry Beginnings of Electronics, Interactive Physics, WorkingModel, Electronics Workbench, PhET Simulations, Pintar VirtualLab Wave and Mathcad, as well as other software packages.

Key words: STAR (Software Tools for Academics and researchers) – Massachusetts Texnologiya Instituti (MIT), VirtualLab, Physics at school, Algodo, Crocodile Physics, Crocodile Technology, Crocodile chemistry, Interactive Physics, WorkingModel, Electronics Workbench, PhET Simulations.

Kirish. Ta'lim tizimini axborotlashtirish, dars jarayonlarida zamonaviy axborot texnologiyalaridan hamda turli dasturiy vositalaridan foydalanish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Jumladan akademik litseylarda fizika o'qitishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalardan foydalanish o'qitish samaradorligini oshirish va o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashi o'sishiga xizmat qiladi. Yangi mavzuga oid ma'lumotlarni namoyish qilish interfaol doska, kompyuter yoki noutbuk yordamida amalga oshirilishi mumkin. Barcha fizikaviy tajribalarni ham interaktiv doska vositasida bajarilishi mumkin. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridagi ushbu yondashuv fizikaning barcha mavzularida qo'llaniladi, bu o'quv materialini tez va oson tushuntirishga imkon beradi, o'qitishning aniqligi va samaradorligini oshiradi. Shuni ta'kidlash kerakki, kompyuter dasturlari deganda fizik tajribalarni yoki ko'z bilan

ko'rish imkonsiz bo'lgan hodisalarda duch keladigan holatlarni simulyatsiya qilishga imkon beradigan kompyuter dasturlari tushuniladi. Tajriba, laboratoriya ishlari bilan taqqoslaganda kompyuter simulyatsiyasining afzalligi nimada? Avvalo, kompyuterda modellashtirish fizik tajriba va hodisalarning vizual dinamik illyustratsiyalarini olish, ularning nozik detallarini ko'paytirishga imkon beradi. Modellardan foydalanishda kompyuter o'ziga xos, haqiqiy fizik eksperimentda erishib bo'lmaydigan, tabiatning haqiqiy hodisasini emas, balki uning soddalashtirilgan modelini tasavvur qilish qobiliyatini beradi. Modelni asta-sekin murakkablashtiradigan va uni haqiqiy fizik hodisaga yaqinlashtiradigan qo'shimcha omillarni bosqichma-bosqich kiritish mumkin.

Ta'lim jarayonida turli modellardan foydalanish qadim zamonlardan beri mavjud bo'lib, uning hozirgi kundagi eng zamonaviy ko'rinishi – bu simulyatorlardir. “Simulyatorlar o'quv jarayoning qariyb barcha jabhalarida: boshlang'ich ta'limdan boshlab toki oliy o'quv yurtlarigacha qo'llanilishi mumkin. Keyingi vaqtlarda hattoki tibbiyot sohasida ham simulyatorlardan foydalanilmoqda. Simulyatorlardan foydalanishning asosiy sabablaridan biri ularning real ob'ektlarga nisbatan juda ham arzon va foydalanishda xavfsizligidadir. Simulyatorlar esa shunday haqiqiy asbob-uskuna va jihozlarsiz virtual holatda biror fizik jarayonni modellashtirish hamda virtual laboratoriya ishlarini o'tkazishga imkoniyat yaratadi. Bu esa o'z-o'zidan katta miqdorda mablag'lar tejaliishiga olib keladi.

“Simulyatorlardan foydalanish jarayonida o'quvchilar ma'ruza darsida o'rgangan bilimlarini virtual bo'lsada hayotga tadbiq qiladilar. Ushbu tadqiqotlar jarayonida bilimlarini yanada mustahkamlash bilan bir qatorda nazariya hamda hayotiy tadqiqotlarning rivojlanishiga bevosita hissa qo'shadilar. O'quvchilarning mustaqil ta'lim jarayonida ham simulyatsiyalarga oid turli dasturiy vositalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Masalan, Crocodile clips Ltd kompaniyasining Crocodile Physics, Crocodile Technology, Crocodile chemistry kabi simulyatorlari mavjud.

Oddiy laboratoriya sharoitida o'tkazish ilojsiz bo'lgan hodisa va jarayonlarni simulyatsiya qilish qobiliyati kompyuter ekranida vizualizatsiya qilish ushbu kamchilikni bartaraf etadi. Hozirgi kunda dunyo tan olgan va butun dunyo ta'lim tizimda on-layn foydalaniladigan simulyatsiyalar borki, ularda tabiiy va aniq fanlarning ko'plab mavzularini qamrab olgan tayyor modellashtirish tarkibiy dasturlar mujassam. Ulardan dars jarayonining o'zida parallel ravishda foydalanish imkoni mavjud. Mana shunday on-layn rejimida ishlaydigan simulyatsiyalaridan ba'zilar haqida to'xtalib o'tamiz.

STAR (Software Tools for Academics and researchers) – Massachusetts Texnologiya Instituti (MIT) tomonidan ishlab chiqilgan tadqiqot va o'qitish uchun virtual laboratoriyalarni rivojlantirish dasturi. Dasturning faoliyati umumiy biologiya, biokimyo, genetika, gidrologiya, hisoblash sohalari bo'yicha o'quv va tadqiqot dasturlarini ishlab chiqishdan iborat. Bu laboratoriyaning ko'pgina dasturlari java yoki HTMLda amalga oshiriladi[3]. Dasturning rasmiy veb-sayti <http://star.mit.edu>.

VirtualLab – o'rganuvchilar uchun fizika, kimyo, biologiya, ekologiya bo'yicha virtual laboratoriya ishlarini rivojlantirish loyihasi. Ushbu virtual laboratoriya ishlari Flash texnologiyasi yordamida amalga oshiriladi. Bu turdagi laboratoriyalar tor doiradagi sohalarga ixtisoslashganligi bilan ajralib turadi, aksariyat hollarda tajribaning chiziqiligi bilan (butun harakatlar ketma-ketligi va tajriba natijalari oldindan belgilanadi). VirtualLab mahsulotlari tarbiyaviy ahamiyatga ega va zarur uskunalar bo'lmagan taqdirda laboratoriya ishlarini olib borish muammosini hal qiladi. VirtualLab loyiha sayti <http://www.virtulab.net/>.

Physics at school – o'rta maktab, kollej, akademik litsey o'quvchilari saviyasida tuzilgan, fizikadan alohida-alohida paketlar tarzida ishlab chiqilgan va mavzulashtirilgan animatsiyalar jamlanmasidir. Bunda o'rta maktab va akademik litsey o'quvchilari o'qiydigan dastur bo'yicha tuzilgan mavzular ro'yxati bo'lib, undan foydalanish hozirgi zamon talabi darajasida qulay, tez va yyengildir. Physics at school loyiha sayti <http://www.Physics at school.net/>.


Algodoo – fizikadan 2D simulyatsiyalar uchun mo'ljallangan dastur. Fizik jarayonlarni simulyatsiya qilish uchun turli xil ob'ektlar, mexanizmlar va tizimlarni yaratishda juda boy vositalar to'plamiga ega. Dastur nafaqat mexanik jarayonlarni, balki elektrodinamik, optik jarayonlarni ham simulyatsiya qilishga qodir va Thyme skript tilidan foydalanib o'ziga xos fizik xususiyatlari, har xil funksiyalari, effektlari va hodisalariga ega ob'ektlarni yaratishga imkon beradi. Dasturga chizilgan rasmlarni yuklash ham mumkin: chizma simulyatsiya ob'ektiga aylanadi va unga har qanday fizikaviy xususiyatlarni o'rnatishingiz mumkin.

PhET – Kolorado universiteti tomonidan ishlab chiqilgan loyiha. Loyiha fizika, biologiya, kimyo, matematika haqidagi fanlarning turli xil hodisalarini namoyish etuvchi ko'plab virtual laboratoriyalarni o'z ichiga oladi. Tajribalar yuqori tarbiyaviy ahamiyatga egaligi bilan birga juda qiziqarli hisoblanadi. Dasturning rasmiy veb-sayti <https://phet.colorado.edu/>.


Yuqorida sanab o'tilgan simulyatsiyalardan birortasiga, aytaylik PhET platformasidagi simulyatsiyalar imkoniyatlari haqida to'xtalib o'taylik. Bu platformaning veb saytiga kirishimiz bilan ekranda uning darchasi ochiladi. Simulyatsiya darchasi ochilganda unda "Physics", "Chemistry", "Math", "Earth science", "Biology" fanlarini ko'rishimiz mumkin. (1-rasm). Biz Physics ni tanlaymiz. Natijada keyingi darchada fizik hodisa va jarayonlarni qamragan bir nechta mavzular ro'yxati paydo bo'ladi (2-rasm). Foydalanuvchi ehtiyojiga qarab biror mavzuni tanlasa, faqat o'sha tanlangan mavzuga tegishli simulyatsiyalar hosil bo'ladi. PhET simulyatsiyasida fizikaga tegishli jami 200 dan ortiq turli mavzularga tegishli eksperiment va laboratoriyalarni on-layn bajarish imkonini beradigan tayyor simulyatsiyalar to'plami mavjud bo'lib, (3-rasm) shunday simulyatsiyalardan ba'zi namunalar tasvirlangan.



1-rasm. PhET platformasining bosh sahifasi



2-rasm. PhET Physics sahifasidagi simulyatsiyalar ro'yxati




3-rasm. PhET platformasidagi fizik eksperiment va laboratoriyaga oid simulyatsiyalaridan ba'zi namunalar

Yuqoridagi 2-va 3-raslarda simulyatsiyalar va kontekstdagi yozuvlar ingliz tilida berilgan. PhET simulyatsion daturining yana bir ajoyib imkoniyati shundaki, unda dunyoning 120 dan ortiq tillarda ishlash mumkin. Sozlamalardan foydalanuvchi xohlagan tilni, masalan rus yoki o'zbek tilini tanlasa, dasturdagi barcha so'zlar (simulyatsiyalar nomlari, kontekstdagi yozuvlar va boshqalar) foydalanuvchi tanlagan tilda aks etadi.

Endi PhET platformasi imkoniyatlaridan foydalanib akademik litseylarning fizika fani o'quv dasturiga mos biror laboratoriya darsiga oid mavzuni virtual holda tashkil etish yo'l-yo'riqlari bilan tanishamiz. Shunday mavzulardan biri sifatida o'quvchilarda tasavvur uyg'otish qiyin va qo'l bilan ushlab bo'lmaydigan mikroduyoga tegishli hodisa – "Rezerford sochilishi" yoki "Rezerford tajribasi" deb nomlanadigan mavzuni tanlaylik. Bu mavzuga Internet tarmog'da to'g'ridan-to'g'ri kirish uchun <https://phet.colorado.edu/> havolasini bosishimiz lozim. Shunda Rezerford sochilishini o'rganish bo'yicha virtual laboratoriyaga duch kelamiz.

Bu virtual tajribada nishon yadroning tartib raqamini (rasmda $Z=79$ deb berilgan), bombardimon qiluvchi zarraning turini (proton, nytron, a-zarra) va energiyasini o'zgartirish orqali trayektoriya ko'rinishining nishonga olish parametriga bog'liqlik tasvirlarini olishimiz mumkin. Bu esa o'quvchilarda atomning ichki tuzilishi hamda mikroduyo haqidagi tasavvurlarning to'g'ri shakllanishi va mikroduyo haqida bilimlar hosil bo'lishiga olib keladi. Biz mazkur virtual laboratoriyani namuna sifatida ko'rsatib berdik. Ammo Phet on-layn platformasida fizikaning barcha bo'lim va boblariga tegishli virtual laboratoriya, virtual eksperiment hamda virtual namoyishli tajribalardan yuzlab namunalar keltirish mumkin[4].



4-rasm. PhET platformasidagi Rezerford sochilishini o'rganish. Bunda zarralar modda atomlari oralab sochilmoqda.


Keling endi esa dunyo bo'ylab eng ko'p foydalaniladigan internetdagi on-layn platformalardan yana biri – “Physics at school” simulyatsion platformasida bajarish mumkin bo'lgan virtual laboratoriyalardan birini bilan tanishib chiqaylik. Bu platformaning nomlanishi “Maktabda fizika” deb tarjima qilinsa-da, lekin undan oliy maktab (High schools), kollejlarda hamda akademik litsey o'quvchilarini ham foydalanishga tavsiya etiladi. Chunki, bu platformada aynan fizikaning turli bo'limlariga tegishli 500 dan ortiq virtual laboratoriya, virtual eksperiment hamda virtual demonstratsiyalar mavjud bo'lib ular oliy maktab, kollej hamda akademik litseylarning o'quv dasturlarini qamrab olgan. Bulardan tashqari bu platformada matematika va informatika fanlarining har bir mavzusi bo'yicha ham yuzlab on-layn ishlanmalar bor. Physics at school platformasining internetdagi manzili <http://www.Physics at school.net/>. bo'lib, bu manzilga kirganimizda 5-rasmdagi darcha ochiladi. Bu darchada turli davlatlar bayroqlari tasvirlangan bo'lib, biz O'zbekiston bayrog'ini tanlaganimizda butun platformadagi barcha yozuvlar o'zbek tiliga aylanadi. Undan keyin bayroqlar pastiga tushganimida fizikaning turli bo'limlariga tegishli virtual eksperimentlar va boshqa ishlanmalar ro'yxati chiqadi[3]. Bu esa 6-rasmda tasvirlangan.




5-rasm. Physics at school on-layn platformasining bosh sahifasi

6-rasmda virtual ishlanmalardan turli bobga tegishli namunalar tasvirlangan bo'lib, aslida u yeda 500 ga yaqin turli boblarga va mavzularga oid ishlanmalar kiritilgan. Keling, shu mavzulardan birini, aytaylik transformatorning ishlashini o'rganishga oid mavzuni tanlasak, unda ekranda 7-a, rasmdagi kabi yangi darcha ochiladi. Unda transformator ishlashi jarayonini o'rganish uchun hamma o'lchash asboblari, ulovchi simlar va boshqalar berilgan. 7-a, rasmdagi holda transformator cho'lg'amlaridagi o'ramlar soni $N_1=300$ va $N_2=1200$, kirish kuchlanishi $U_1=31$ V deb berilgan. Rasmdagi ko'k rangli tugmani bosilganda hisoblash va uning natijalari hamda chiqish kuchlanishining voltmetrda ko'rsatishi $U_2=124,0$ V ekranda paydo bo'ladi. Bunda transformatsiya koeffitsiyenti $k=1/4$ ekanini, ya'ni 4 marta kuchaytirilayotganini bilib olishimiz mumkin. Tajribada kirish va chiqish cho'lg'amlari uchun yana qo'shimcha cho'lg'amlar ham mavjud. Cho'lg'amlardagi o'ramlar sonini o'zgartirib har xil chiqish kuchlanishlari hosil qilishimiz mumkin. Shunda o'zgaruvchan kuchlanishni 2, 4, 6, 8, 10, 12 marta oshirib yoki tushiradigan har xil kombinatsiyalar olishimiz mumkin. 7-b, rasmda tanlash orqali cho'lg'amlardagi o'ramlar soni $N_1=1200$ va $N_2=12000$, kirish kuchlanishi $U_1=41$ V deb tanlanganida, chiqish

kuchlanishi $U_2=410$ V ekanini hamda hisob-kitob va unning natijasiini ekranga chiqarib berganini ko'rishimiz mumkin.



6-rasm. Physics at school on-layn platformasida virtual demonstartsiion eksperimentlar ro'yxati



7-rasm. Physics at school on-layn platformasida transformatorning ishlashiga oid virtual laboratoriya

Bu virtual tajribada ikkita tok manbaai tasvirlangan bo'lib, ulardan biri o'zgaruvchan (pastdagi), ikkinchisi esa o'zgarmas (yuqoridagi) tok manbaalaridir. Agar transformatorning birlamchi cho'lg'amiga kirish kuchlanishini o'zgarmas tok manbaasi orqali burilsa, u holda ikkilamchi cho'lg'amdagi kuchlanish har doim nolni ko'rsatishini tajribadan ko'rishimiz mumkin. Shundan ham transformatorning ishlash prinsipi elektromagnit induksiyasiga asoslangani va u faqat o'zgaruvchan toknigina o'zgartirib bera olishiga yana bir bor ishonch hosil qilish mumkin. "Physics at school" simulyatsion platformasidan foydalanish bo'yicha yana ko'plab namunalarni keltirishimiz mumkin.

Shunday qilib, internetda on-layn foydalaniladigan simulyatsion platformalardagi dasturiy vositalari yordamida akademik litseylarida fizika o'qitish imkoniyatlari va afzalliklari bilan tanishdik. Umuman olganda bunday on-layn dasturiy vositalari nihoyatda ko'p va xilma-xildir. Lekin, akademik litsey o'quvchilari tushunishi va o'zlashtirishi oson kiyechishi nuqtai nazaridan ularning ba'zilarini bilan tanishib chiqdik.

Fizika darslarida internetdagi turli simulyatsion platformalardan va undagi turli zamonaviy dasturiy vositalar yordamida o'qitishning afzalliklari quyidagilardir:

o'quvchilarda olam tuzilishi haqidagi ilmiy tasavvuri kengaytirishga xizmat qiladi;

o'quvchilarda axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikma va malakasi shakllanadi;
internetdan foydalanish ko'nikmasi oshadi;
hisob-kitob ishlarini yyengillatadi va vaqtni tejaydi;
ko'rgazmalilik yuqoriligi hisobiga ilmiy tasavvur va tushunchalar hosil bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Axmedov Sh.B., Dusmurotov M.B. Fizika (1-qism). Akademik litsey o'quvchilari uchun darslik. – Toshkent: Navro'z, 2020. – 435 b.
2. Turayeva L.Yu. “Fizik jarayonlarni visual modellashtirish” elektron o'quv majmuasi
O'zbekiston Respublikasi intellektual mulk agentligi. DGU 22679. – Toshkent, 2023.
3. <http://www.Physics at school.net/>.
4. <https://phet.colorado.edu/>.
5. <http://star.mit.edu>.
6. <http://www.crocodile-clips.com> - Crocodile physics dasturi.

*Mo'minova Dilnavoz Komilovna,
Buxoro davlat pedagogika instituti, Texnologik ta'lim kafedrasida dotsenti*

TADQIQOTCHILIK YONDASHUV ASOSIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING SHAXSIY TA'LIM TRAYEKTORIYASINI LOYIHALASH

Annotatsiya. Maqolada bo'lajak o'qituvchilarning shaxsiy ta'lim trayektoriyasini tadqiqotchilik yondashuvi asosida loyihalash masalasi atroflicha yoritilgan. Hozirgi zamon ta'lim tizimi individual yondashuv, ta'limning shaxsiylashtirilishi, reflektiv va mustaqil fikrlovchi pedagog shaxsini shakllantirish kabi konseptual yondashuvlarga asoslanmoqda. Shu nuqtayi nazardan, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy shakllanishida ularning o'rganish ehtiyojlari, motivatsiyasi, qobiliyatlari va maqsadlarini hisobga olgan holda shaxsiy ta'lim trayektoriyasini ishlab chiqishning dolzarb ahamiyati, tadqiqotchilik yondashuvining mohiyati, tamoyillari va uni shaxsiy trayektoriya bilan uyg'unlashtirishning metodologik asoslari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: shaxsiy ta'lim trayektoriyasi, tadqiqotchilik yondashuvi, bo'lajak o'qituvchilar, individual yondashuv, refleksiya, pedagogik kompetensiya, mentorlik, innovatsion ta'lim.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. So'nggi yillarda ta'lim sifatini oshirish, baholash tizimini takomillashtirish, pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamlil ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Xususan, kompetensiyaviy yondashuv asosida o'qituvchilarni tayyorlash bo'yicha bir qancha mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar tomonidan nazariy-amaliy asoslar ishlab chiqilgan.

Xalqaro tadqiqotlarda (J. Raven, G. Perrenoud, M. Fullan, J. Hattie) kompetensiyaviy ta'lim modeli o'qituvchining o'quv jarayonida nafaqat bilim beruvchi, balki mustaqil qaror qabul qiluvchi, ta'lim sifatini boshqaruvchi, refleksiv faoliyat yurituvchi mutaxassis sifatida qaralishini ta'kidlaydi. G.Perrenoudning fikricha, sifatli ta'limga erishish uchun o'qituvchida sifatni baholay olish, muammolarni tahlil qilish va o'z faoliyatini takomillashtirish ko'nikmalari mavjud bo'lishi lozim.

O'zbekistonlik olimlardan S.Sirojiddinov, R.Sobirov, U.Qodirov, G.Qodirova, N.Abdullaeva, Sh.Shodmonov kabi tadqiqotchilar pedagog kadrlar tayyorlashda sifatni oshirish, kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish, refleksiv yondashuvni joriy etish masalalariga e'tibor qaratgan. Ular o'z ishlarida boshlang'ich ta'limda sifat monitoringi, o'qituvchi faoliyatining baholash tizimlari, pedagogik refleksiya mexanizmlarini ochib berishgan.

Biroq tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun kvalitologik kompetensiyalarni alohida pedagogik tizim sifatida ishlab chiqish, ularni refleksiv yondashuv asosida rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlar yetarli darajada emas. Aksariyat ilmiy manbaalarda umumiy kompetensiyalar, metodik malakalar yoki pedagogik madaniyat haqida so'z yuritilgan bo'lsa-da, aynan ta'lim sifatini baholash, monitoring qilish, tahlil qilish va takliflar ishlab chiqish kompetensiyasi keng qamrovli o'rganilmagan.

Shu boisdan, ushbu maqolada kvalitologik kompetensiyalarni aniqlashtirish, ularning tuzilmasini modellashtirish va rivojlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb ilmiy-amaliy masala sifatida qo'yiladi.

Mazkur ilmiy tadqiqot bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash tizimida kvalitologik kompetensiyalarni rivojlantirish masalasini o'rganishga qaratilgan bo'lib, zamonaviy pedagogik ilm-fanning konseptual yondashuvlariga, ta'lim sifatini boshqarish va kompetensiyaviy ta'lim modeliga asoslanadi. Tadqiqotning metodologik asosini ta'lim sifati nazariyasi, kompetensiyaviy yondashuv, refleksiv pedagogika tamoyillari va tizimli tahlil metodlari tashkil qiladi.

Tadqiqot davomida quyidagi metodologik yondashuvlardan foydalanildi:

1. Kompetensiyaviy yondashuv – bu yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining faqat bilim va axborotni egallashi emas, balki ularni amaliyotda qo'llash, kasbiy faoliyatda sifat mezonlariga amal qilish ko'nikmalarini shakllantirish asosiy maqsad sifatida qaraladi. Kvalitologik kompetensiyalar aynan kompetensiyaviy model asosida tizimlashtiriladi.

2. Refleksiv yondashuv – bu yondashuv orqali o'qituvchining o'z faoliyatini ongli ravishda baholash, aniqlangan kamchiliklar asosida o'z ustida ishlash, ta'lim jarayonining natijadorligiga

tanqidiy qarash va uni takomillashtirish salohiyati rivojlantiriladi. Tadqiqotda refleksiv yondashuv asosida metodik vositalar tanlab olindi va taklif qilindi.

3. Kvalitologik yondashuv – sifat haqida fan sifatida e'tirof etiluvchi kvalitologiyaga tayangan holda, ta'lim jarayonida sifatni belgilovchi omillar, mezonlar, indikatorlar va baholash uslublari aniqlashtirildi. Bo'lajak o'qituvchilarda aynan ta'lim sifatini idrok etish, baholash va nazorat qilish kompetensiyalarini shakllantirish metodik jihatdan asoslab berildi.

4. Sistemali-analitik yondashuv – o'qituvchining kasbiy shakllanish jarayoni murakkab ijtimoiy-pedagogik tizim sifatida qaralib, uning tarkibiy qismlari (nazariy tayyorgarlik, amaliyot, baholash, refleksiya) o'zaro bog'liqlikda o'rganildi. Har bir bosqichda kvalitologik kompetensiyalar shakllanishi va rivojlanish dinamikasi tahlil qilindi.

Tadqiqot quyidagi usullar orqali olib borildi:

Nazariy tahlil – mavzu bo'yicha ilgari olib borilgan ilmiy tadqiqotlar, davlat ta'lim standartlari, o'quv rejalari, o'quv-metodik materiallar, xorijiy tajribalar o'rganilib, konseptual asoslar ishlab chiqildi.

Tahlil va sintez – mavjud ilmiy yondashuvlar, turli ta'lim modellari va kompetensiyalar tahlil qilinib, ularning umumiy jihatlari asosida yangi konsepsiya taklif etildi.

Modellashtirish – bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kvalitologik kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodik tizim modeli ishlab chiqildi. Uda tarkibiy komponentlar (bilim, ko'nikma, motivatsiya, refleksiya) hamda ularning o'zaro aloqasi belgilab berildi.

Pedagogik diagnostika – mavjud holatni aniqlash va baholash uchun maxsus so'rovnomalar, kuzatuv varaqalari, intervyu va portfoliolar tahlili o'tkazildi. Bu orqali bo'lajak o'qituvchilarning kvalitologik kompetensiya darajasi aniqlashtirildi.

Eksperimental metodlar – ishlab chiqilgan metodik tavsiyalar tajriba-sinovdan o'tkazilib, samaradorligi aniqlandi.

Tadqiqotning **ob'ekti** – bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash tizimi. Tadqiqotning **predmeti** – bo'lajak o'qituvchilarning kvalitologik kompetensiyalarini refleksiv yondashuv asosida rivojlantirish jarayoni.

Tadqiqot gipotezasi quyidagicha: *Agar bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining tayyorlov jarayonida ta'lim sifatini idrok etish, baholash va takomillashtirishga doir refleksiv metodik yondashuvlar tizimli asosda joriy etilsa, u holda ularning kvalitologik kompetensiyalari samarali shakllanadi va bu boshlang'ich ta'lim sifatining oshishiga xizmat qiladi.*

Ushbu metodologik yondashuvlar asosida maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi aniq tavsiyalar ishlab chiqilgan bo'lib, ularni amaliyotga tatbiq etish imkoniyatlari ham ko'rib chiqilgan.

Muhokama. Pedagogik ta'lim tizimida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy tayyorlash jarayoni bugungi kunda nafaqat mazmun, balki sifat jihatidan ham tubdan qayta ko'rib chiqilayotgan sohalardan biridir [1]. Chunki boshlang'ich ta'lim pedagogi bola shaxsini shakllantiruvchi birlamchi ta'lim muhitining asosiy ishtirokchisi bo'lib, u nafaqat o'qituvchi, balki tarbiyachi, kuzatuvchi, baholovchi va motivator funksiyalarini ham o'z zimmasiga oladi. Shu nuqtai nazardan, bo'lajak pedagoglarda kasbiy kompetensiyalarni, xususan, **kvalitologik kompetensiyalarni** shakllantirish - ularning kasbiy samaradorligini belgilovchi muhim omil hisoblanadi.

Tadqiqot davomida olib borilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlarining natijalari shuni ko'rsatadiki, hozirgi kunda pedagogik ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligida ta'lim sifatiga oid kompetensiyalar - ya'ni kvalitologik kompetensiyalar yetarli darajada rivojlanmagan. Ko'pchilik talabalar dars berish metodikasini o'zlashtirgani holda, o'z darslarining sifat ko'rsatkichlarini tahlil qilish, monitoring qilish va muammoli nuqtalarni aniqlab, ularni hal etish bo'yicha reflektiv yondashuvga ega emas [2]. Bu holat boshlang'ich sinf o'qituvchilarining bilimlarini samarali boshqarish va ularning o'zlashtirish jarayonini doimiy takomillashtirish imkoniyatlarini cheklaydi.

Ushbu muammoga yechim sifatida taklif etilgan refleksiv yondashuv asosidagi metodik yondashuvlar bo'lajak o'qituvchilarda ta'lim sifatini ongli ravishda baholash, sifat mezonlarini o'rganish, dars jarayonini tahlil qilish, o'z faoliyatiga tanqidiy yondashish, darsda qo'llangan vositalarning samaradorligini tahlil qilish, diagnostika va monitoring asosida qaror qabul qilish kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi [3].

Tajriba-sinov ishlarida ishtirok etgan talabalar bilan olib borilgan kuzatuvlar shuni ko'rsatdiki, ularga kvalitologik kompetensiya mazmuni, vazifalari va strukturasi tushuntirilgandan, shuningdek refleksiya asosida darslarni tahlil qilish, o'z ustida ishlash va o'z-o'zini baholashga oid mashg'ulotlar tashkil qilingandan so'ng, ularning kasbiy fikrlashida sezilarli o'zgarishlar kuzatildi. Jumladan:

- talabalar dars jarayonining metodik va sifat jihatlarini baholashni o'rgandilar;
- sifat mezonlariga mos dars rejaları tuzish va ularni baholash qobiliyatlari shakllandi;
- o'z faoliyatlarini tahlil qilish va takomillashtirishga doir motivatsiyalari oshdi;
- tajriba jarayonida sifat bo'yicha ilg'or amaliyotlarni kuzatish va ulardan foydalanish ko'nikmalari mustahkamlandi.

Bunday o'zgarishlar, albatta, kvalitologik kompetensiyalarni rivojlantirishda refleksiv yondashuvning muhimligini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, mavjud pedagogik tizimda bu turdagi kompetensiyalarni rivojlantirishga doir alohida metodik vositalar, mashg'ulotlar va baholash mezonlari yetarlicha ishlab chiqilmagani kuzatildi. Bu esa tadqiqotda taklif etilgan model va metodik yondashuvlarning ahamiyatini yanada oshiradi[4].

Muhokama shuni ko'rsatdiki, agar bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining tayyorlov jarayonida:

- ta'lim sifatini idrok etish va uni boshqarish bo'yicha bilimlar tizimli berilsa;
- sifatni baholash indikatorlari amaliy mashg'ulotlar bilan uyg'unlashtirilsa;
- reflektiv fikrlashga yo'naltirilgan metodik mashqlar muntazam qo'llansa;
- o'z darslari ustida tahliliy mulohaza yuritish madaniyati shakllantirilsa, unda ular nafaqat o'z faoliyatini tahlil qila oladigan, balki sifatli dars berishga doimiy intiladigan, pedagogik o'zgarishlarga ochiq, yangilikka intiluvchan mutaxassislar sifatida yetishadilar. Bu esa o'z navbatida boshlang'ich ta'lim sifatining oshishiga, o'quvchilarning individual rivojlanishiga, sinfdagi ta'lim muhiti barqarorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Shuningdek, tadqiqot jarayonida aniqlangan ayrim cheklovlar - ya'ni:

- mavjud o'quv dasturlarida kvalitologik komponentlarning yetishmasligi;
- talabalar orasida reflektiv o'qish va yozish ko'nikmalari sust rivojlanganligi;
- baholash madaniyatining pastligi;

kabi omillar kelgusida qo'shimcha o'quv-modullar, malaka oshirish dasturlari va baholash vositalarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Natijalar. Tadqiqot davomida olib borilgan nazariy tahlillar, diagnostik so'rovlar, tajriba-sinov ishleri va kuzatuvlar asosida quyidagi asosiy ilmiy va amaliy natijalarga erishildi:

1. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining tayyorlov tizimidagi mavjud holat o'rganildi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, amaldagi o'quv rejalar va dasturlar ta'lim sifati nazariyasi va kvalitologik kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilmagan. Talabalar orasida sifatga oid tushunchalar tor doirada - baholash yoki dars samaradorligi bilan cheklanmoqda[5]. Ko'pchilik talabalarda ta'lim jarayonini tizimli tahlil qilish, sifat mezonlarini aniqlash, reflektiv baholash madaniyati rivojlanmagan.

2. "Kvalitologik kompetensiya" tushunchasining ilmiy-metodik talqini ishlab chiqildi. Tadqiqot doirasida ushbu kompetensiya quyidagi tarkibiy komponentlar asosida tavsiflandi:

Bilim komponenti – ta'lim sifati, uning mezonlari va indikatorlari haqidagi nazariy tushunchalar;

Amaliy komponent – sifatni kuzatish, baholash, tahlil qilish, takomillashtirish faoliyati;

Reflektiv komponent – o'z kasbiy faoliyatini sifat mezonlari asosida baholash va tahlil qilish qobiliyati;

Motivatsion komponent – sifatli ta'limga erishishga yo'naltirilgan ichki ehtiyoj va kasbiy mas'uliyat hissi.

3. Kvalitologik kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan refleksiv yondashuv asosidagi metodik tizim ishlab chiqildi. Mazkur tizimda quyidagilar ko'zda tutilgan:

maxsus mashg'ulotlar (simulyatsiya, dars tahlili, SWOT tahlil, portfoliolar bilan ishlash);
sifat indikatorlari asosida darsni rejalashtirish va baholash;
o'z faoliyatini yozma va og'zaki tahlil qilish bo'yicha reflektiv topshiriqlar;
talabalarning darslarini videoyozuv asosida tahlil qilish va muhokama qilish.

4. Taklif etilgan metodik tizim tajriba-sinovdan o'tkazildi. Eksperimental guruhda o'tkazilgan tadbirlardan so'ng quyidagi o'zgarishlar qayd etildi:

kompetensiya darajasi – tajriba oldi bosqichiga nisbatan 32% ga oshdi;
refleksiya qilish qobiliyati – talabalar o'z faoliyatini tanqidiy tahlil qilishni o'zlashtirdi;
sifatli dars tayyorlash – dars rejalarida muammoli vazifalar, differensial yondashuv va natijani baholash komponentlari aniq aks etdi;

faoliyat motivatsiyasi – sifatga yo'naltirilgan ichki motivatsiya va mas'uliyat darajasida o'sish kuzatildi.

5. Amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Tadqiqot natijalariga tayangan holda quyidagilar taklif qilindi:

pedagogik ta'lim yo'nalishlarining o'quv dasturlariga "Ta'lim sifatini baholash va monitoring" moduli kiritilishi;

"Kvalitologik kompetensiyalar" bo'yicha mustaqil mashg'ulotlar blokini tashkil etish;

talabalarda refleksiya qilish ko'nikmasini shakllantirish uchun maxsus portfoliolar, yozma tahlillar, dars yozuvlarini tahlil qilish asosidagi mashg'ulotlarni joriy etish;

malakaviy amaliyot jarayonida talabalar tomonidan dars samaradorligi va ta'lim sifati bo'yicha monitoring jadvallari va tahliliy hisobotlar tayyorlash tizimini joriy qilish.

6. Tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati asoslandi. Kvalitologik kompetensiyalarni refleksiv yondashuv asosida rivojlantirishga qaratilgan metodik modelning ishlab chiqilishi – ushbu kompetensiyalarni pedagogik ta'limda maqsadli shakllantirish imkonini beradi[7]. Bu esa nafaqat pedagogik ta'lim sifatini oshirish, balki boshlang'ich ta'lim tizimida barqaror ta'lim sifati muhitini shakllantirishga xizmat qiladi.

Xulosa. Olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlari asosida aniqlanishicha, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida kvalitologik kompetensiyalar - ya'ni ta'lim sifatini anglash, baholash, tahlil qilish va takomillashtirishga yo'naltirilgan kasbiy qobiliyatlar - hali to'laqonli shakllantirilmayapti. Mazkur kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirish uchun an'anaviy yondashuvlar yetarli emas, ular o'rniga refleksiv, faol, hamkorlikka asoslangan ta'lim metodlari asosida takomillashgan, maqsadli metodik yondashuv zarur[8].

Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan metodik tizim bo'lajak o'qituvchilarda dars samaradorligini baholash, o'z faoliyatiga tanqidiy yondashish, ta'lim sifati indikatorlarini aniqlash, sifat monitoringini olib borish va o'z ustida ishlash ko'nikmalarini shakllantirish imkonini berdi. Bu esa talabalarni shunchaki bilim beruvchi emas, balki sifatli o'quv muhitini tashkil eta oladigan mas'uliyatli va tafakkurga ega pedagog sifatida tayyorlashni ta'minlaydi.

Tadqiqot natijalari quyidagi ilmiy-amaliy xulosalarni asoslab berdi:

Kvalitologik kompetensiyalar - boshlang'ich ta'lim jarayonining sifatli tashkil etilishi, o'qituvchilarning individual rivojlanishi va o'qituvchining kasbiy samaradorligini belgilovchi muhim kasbiy kompetensiyadir[9].

Bu kompetensiyani shakllantirishda refleksiv yondashuvga asoslangan, faol va diagnostik xarakterdagi metodikalar muhim rol o'ynaydi. Bunday yondashuv o'qituvchida o'z ustida ishlash, faoliyatini baholash va takomillashtirishga doir uzluksiz ehtiyojni shakllantiradi.

Taklif etilgan metodik tizim talabalarning nafaqat bilim doirasini, balki o'z faoliyatini rejalashtirish, sifat baholash va reflektiv tahlil qilish qobiliyatlarini ham oshiradi.

Ushbu yondashuv asosida ishlab chiqilgan topshiriqlar, baholash vositalari, portfoliolar va mashg'ulotlar kelgusida boshqa pedagogik yo'nalishlarda ham tatbiq qilinishi mumkin bo'lgan universal metodik model sifatida qaraladi[10].

O'quv dasturlarining zamonaviylashtirilishi, sifat nazorati va monitoringga oid modullar bilan boyitilishi bo'lajak pedagoglarning raqobatbardosh, mas'uliyatli, o'z ishining sifatiga e'tiborli mutaxassis bo'lib yetishishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Абдураззаков М. Качество образования: теория, методология, практика. – Ташкент: Фан, 2020. – 264 б.
2. Ахмедова М., Рахмонов К. Бошланғич таълимда педагогик инновациялар. – Т.: Илм-Зиё, 2021. – 180 б.
3. Алимов Н.А. Педагогик тадқиқот асослари. – Т.: Fan va texnologiya, 2020. – 230 б.
4. Беспалько В.П. Слагаемые педагогической технологии. – М.: Педагогика, 1989. – 192 с.
5. Бим-Бад Б.М. Педагогический энциклопедический словарь. – М.: Большая Российская энциклопедия, 2002. – 528 с.
6. Dewey J. How We Think. – New York: D.C. Heath & Co., 1933. – 336 p.
7. Fullan M. The New Meaning of Educational Change. – New York: Teachers College Press, 2007. – 336 p.
8. Habermas J. Knowledge and Human Interests. – Boston: Beacon Press, 1971. – 384 p.
9. Қосимова Г. Квалитология ва таълим сифати: назарий асослар // Педагогика фанлари журнали. – 2022. – №4. – Б. 42–49.
10. Насриддинова З. Бошланғич синф ўқитувчисини тайёрлашда сифат индикаторлари // Ўқитувчи журнали. – 2023. – №3. – Б. 12–17.
11. Равшанова Д.К. Квалитологик компетенцияларни ривожлантириш методлари. – Т.: Муаллим нашри, 2022. – 148 б.
12. Shodmonqulova G. Pedagogik mahorat: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Innovatsiya Ziyο, 2021. – 215 b.
13. UNESCO. Education for Sustainable Development Goals: Learning Objectives. – Paris: UNESCO Publishing, 2017. – 62 p.
14. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978. – 159 p.

Usmonov Sherzod Axmadjonovich,
Farg'ona davlat universiteti, Psixologiya kafedrasida katta o'qituvchisi,
psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Tojimatova Gavxarxon G'ulomjonovna,
Farg'ona davlat universiteti, Psixologiya kafedrasida o'qituvchisi

GENDER TENGLIGI VA OILAVIY ZO'RAVONLIKKA OID TASAVVURLAR

Annotatsiya. Ushbu maqolada Farg'ona viloyatida o'tkazilgan empirik tadqiqot natijalari asosida umumiy aholining gender tengligi va oilaviy zo'ravonlikka nisbatan munosabati tahlil qilingan. Tadqiqot 86 nafar turli yosh va ijtimoiy qatlam vakillari ishtirokida, savolnoma usulida amalga oshirildi. Unda jins, ijtimoiy o'rni va ma'lumot darajasiga qarab aholining ushbu masalalarga munosabatidagi farqlar, mavjud stereotiplar va xabardorlik darajasi o'rganildi. Tadqiqot natijalari aholi o'rtasida gender masalalariga oid bilim va tushunchalarni yanada chuqurlashtirish, oilaviy zo'ravonlikning oldini olishga qaratilgan maqsadli chora-tadbirlar ishlab chiqish zarurligini ko'rsatadi. Maqolada amaldagi muammolarni bartaraf etish bo'yicha tegishli taklif va tavsiyalar ham ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: gender tengligi, oilaviy zo'ravonlik, jamoatchilik fikri, empirik tadqiqot, savolnoma.

Annotatsiya. В данной статье на основе эмпирического исследования, проведённого в Ферганской области, анализируется отношение населения к вопросам гендерного равенства и семейного насилия. В исследовании приняли участие 86 респондентов различного возраста и социального статуса. Исследование проводилось методом анкетирования. Были выявлены различия в восприятии указанных проблем в зависимости от пола, уровня образования и социальной принадлежности. Результаты показывают необходимость углубления знаний населения о гендерных вопросах и разработки целевых мер по предотвращению семейного насилия. В статье также предложены конкретные рекомендации по решению выявленных проблем.

Ключевые слова: гендерное равенство, семейное насилие, общественное мнение, эмпирическое исследование, анкетирование.

Abstract. This article analyzes the public perception of gender equality and domestic violence based on empirical research conducted in the Fergana region. A total of 86 participants representing various age groups and social backgrounds took part in the study, which was carried out using a questionnaire method. The research identified differences in attitudes toward these issues depending on gender, education level, and social status. The findings highlight the need to deepen public awareness of gender-related topics and to develop targeted measures for preventing domestic violence. The article also presents relevant recommendations for addressing the identified challenges.


Key words: gender equality, domestic violence, public opinion, empirical research, questionnaire.

Har bir jamiyatning barqarorligi va ijtimoiy adolatga asoslangan taraqqiyoti, avvalo, uning a'zolari o'rtasida tenglik, o'zaro hurmat va xuquqiy ong darajasiga bog'liq. SHu nuqtai nazardan, gender tengligi va oilaviy zo'ravonlikka nisbatan jamoatchilikning munosabati muhim ijtimoiy masala sifatida namoyon bo'lmoqda. So'nggi yillarda O'zbekistonda ayollar va erkaklar o'rtasida teng imkoniyatlar yaratish, ayollarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirish hamda oiladagi zo'ravonlikning oldini olish bo'yicha qator qonunchilik va amaliy choralar ko'rilmog'da. SHunga qaramasdan, jamiyatdagi ayrim stereotiplar, an'anaviy qarashlar va xabardorlik darajasining pastligi gender tengligi va oilaviy zo'ravonlik haqidagi to'g'ri tasavvurlarni shakllantirishga to'sqinlik qilmoqda. SHu munosabat bilan, aholi o'rtasida ushbu masalalarga nisbatan qarashlarni o'rganish, mavjud muammolarni aniqlash va samarali choralar ishlab chiqishga asos yaratish muhim hisoblanadi. Ushbu maqolada kichik miqyosda o'tkazilgan tadqiqot natijalari orqali


jamoatchilikning gender tengligi va oilaviy zo'rvonlik to'g'risidagi bilim, munosabat va qarashlari tahlil qilinadi.

Ushbu tadqiqot Farg'ona viloyatida aholisi o'rtasida o'tkazilib, unda jami 86 nafar ishtirokchi qatnashdi. Tadqiqot savolnoma usuli orqali amalga oshirildi. Ishtirokchilar turli yosh guruhlari va ijtimoiy qatlam vakillaridan iborat bo'lib, ular orasida ham erkaklar, ham ayollar mavjud edi. Bu esa natijalarni umumiy aholining fikri sifatida baholash imkonini beradi. Ushbu tadqiqotda 59 nafar ayollar va 30 nafar erkaklar ishtirok etdilar. Yosh bo'yicha esa 18-24 yosh 19,77 %, 25-34 yosh 25,58 %, 35-44 yosh 23,26 %, 45-54 yosh 17,44 %, 55 yoshdan yuqori yoshdagilar 13,95 % ni tashkil etdi.

Jins bo'yicha yosh taqsimoti



Ta'lim darajasi bo'yicha bakalavr darajasi 46,5%, magistr darajasi 9,3%, rasmiy ta'limi yo'qlar 2,3%, boshqa 12,7%, PhD 2,3%, boshlang'ich ta'lim 3,4%, o'rta ta'lim 23,2% ishtirokchilar qatnashdi. Barcha yoshdagi guruhlarda katta qismi bakalavr darajasiga ega. Xususan, 18 yoshdan 24 yoshgacha bo'lgan shaxslarning 65 %, 55 yuqori yoshdagilarning 58 % bakalavr darajasiga ega. 25 dan 54 yoshgacha bo'lgan guruhda o'rta ma'lumotga ega bo'lgan shaxslar ulushi 25% dan 32% gachani tashkil etadi.



Bizning misolimizda ta'lim va gender o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qiladigan bo'lsak, erkaklar ham, ayollar ham bakalavr darajalarining sezilarli darajada tarqalishini ko'rsatadi. SHunga qaramay, ayollarning erkaklarga nisbatan ko'proq foizi bakalavr darajasiga ega (ayollar 50,85%, erkaklar 37,04%). SHunisi e'tiborga loyiqki, erkaklar uchun o'rta ta'lim ham muhim ta'lim yutug'ini ifodalaydi, 29,6% bunday darajalarga ega.

Tadqiqot jarayonida ishtirokchilarga quyidagi savollar berildi.

1-Savol . Sizningcha , O'zbekistonda gender tengligi mavjudmi?

Tadqiqot natijalariga ko'ra 47,67% ishtirokchi gender tengligi mavjud deb hisoblasa, 43,02% ishtirokchi gender tengligi yo'q deb javob berdi. Qolganlari (9,31%) aniq javob bera olmagan yoki fikri yo'qligini bildirgan. Jins bo'yicha tahlil shuni ko'rsatdiki, erkaklar va ayollar orasidagi fikrlar o'rtasida sezilarli farq yo'q. Bu, o'z navbatida, masala umumiy jamiyat ongida shakllanganligi va jinsga xos holat emasligini ko'rsatadi. Tadqiqotning muhim jihatlaridan biri — turli yosh guruhlarining gender tengligiga bo'lgan munosabatidagi farqlardir: 18–24 yoshlilar eng optimistik yosh guruhi bo'lib, ularning 58,82% qismi gender tengligi mavjud deb hisoblagan. Bu natija yosh avlodning tenglikka bo'lgan ochiq va demokratik munosabatini aks ettiradi. 35–44 yoshlilar esa eng pessimistik guruh sifatida qayd etildi — ularning 60% qismi O'zbekistonda gender tengligi yo'q deb hisoblaydi. Bu esa katta yoshdagi qatlam orasida an'anaviy qarashlar va mustahkamlashgan stereotiplar saqlanib qolganini ko'rsatadi.

2-Savol. Sizningcha , oiladagi zo'ravonlik qurbonlari bo'yicha yetarli xabardorlik bormi va ularga yordam ko'rsatilmoqdami?

Respondentlarning yarmidan ko'pi (51,16%) oiladagi zo'ravonlik qurbonlari haqida yetarlicha xabardorlik va yordam yo'q, deb hisoblaydi. Ishtirokchilarning uchdan bir qismi (36,05%) yetarlicha xabardorlik va qo'llab quvvatlash mavjudligiga ishonishadi. Nisbatan kichik foiz (12,79%) "Yo'q" deb javob berdi. Yetarlicha qo'llab quvvatlash borligiga ishonuvchilar va yo'qlar o'rtasidagi sezilarli tafovut ishtirokchilar o'rtasida turli xil fikrlarni bildiradi. Jins bo'yicha ajratilganda katta farqlar yo'q edi. Respondentlarning yarmidan ko'pi (51,16%) oiladagi zo'ravonlik qurbonlari haqida yetarlicha xabardorlik va yordam yo'q, deb hisoblaydi.

Ushbu natijalar jamiyatda oilaviy zo'ravonlik masalasi bo'yicha hali ham yetarli darajada axborot, yordam resurslari va ishonch mexanizmlari mavjud emasligini ko'rsatadi. E'tiborlisi, jinslar o'rtasida bu masalada katta farq kuzatilmadi, ya'ni ham erkaklar, ham ayollar ushbu muammoni birdek sezishmoqda. SHuningdek, yordam mavjudligiga ishonganlar bilan mavjud emas deb hisoblaganlar orasidagi sezilarli tafovut — aholi orasida turli axborot manbaalari va shaxsiy tajriba asosida shakllangan qarashlar mavjudligini anglatadi.

3-Savol . Sizningcha, ayollarga nisbatan zo'ravonlik O'zbekistonda muhim masalammi?

55,8% respondentlar ayollarga nisbatan zo'ravonlikni dolzarb va muhim ijtimoiy muammo, deb hisoblashdi. 27,91% ishtirokchi ushbu masalani unchalik dolzarb emas, deb hisoblagan. Qolgan 16,28% esa "yo'q" deb javob bergan, ya'ni ular mazkur masalani jamiyatda jiddiy deb baholamagan. Jinslar kesimida tahlil natijalari aniq farqlarni ko'rsatdi: Ayollarning 61,02% qismi ayollarga nisbatan zo'ravonlikni muhim muammo deb hisoblasa, Erkaklar orasida bu ko'rsatkich 44,44% ni tashkil etgan.

Bu holat jamiyatda ayollar ushbu muammoni shaxsiy tajriba, kuzatuvlar va emotsional sezuvchanlik orqali to'g'ridan-to'g'ri his etayotganini, erkaklar esa uni kamroq dolzarb, deb qabul qilayotganini ko'rsatadi. Bu natijalar jinsiy ong, ijtimoiy rollar va zo'ravonlik haqidagi xabardorlik darajasidagi farqni anglatadi.


4. Spirtli ichimliklar, charchoq, kelishmovchilik yoki asabiylashish kabi omillar oiladagi zo'ravonlikni oqlash uchun asosli sabab bo'lishi mumkinmi?

Respondentlarning 80,23% ishtirokchi bu kabi omillar zo'ravonlik uchun hech qanday asos bo'la olmasligini bildirdi. 10,47% respondent bu omillar ba'zi hollarda asos bo'lishi mumkin, deb hisoblaydi. Qolgan 9,30% esa "yo'q" deb javob berdi, ya'ni o'z pozitsiyasini aniq bildira olmagan yoki betaraflikni bildirgan. Javoblar jinslar kesimida tahlil qilinganda, tashvish uyg'otuvchi holat qayd etildi: 18,52% erkak respondentlar ushbu omillarni zo'ravonlik uchun asosli deb hisoblaydi, ayollar orasida bu ko'rsatkich ancha past.

Bu natija ayrim erkaklar orasida zo'ravonlikni oqlashga moyillik borligini, ya'ni shaxsiy xulq-atvor uchun mas'uliyatni tashqi omillar (spirtli ichimlik, charchoq va boshqalar) bilan izohlash tendentsiyasi mavjudligini ko'rsatadi. Bu esa zo'ravonlikni kamaytirish yo'lida maqsadli


genderga asoslangan profilaktika ishlari, ma'rifiy tadbirlar va psixologik savodxonlikni oshirish muhimligini yanada ravshanlashtiradi.

5-Savol. Ayol oilasini saqlab qolishi uchun zo'ravonlikka chidashi kerakmi?



Ushbu savolga javob ayollar nuqtai nazaridan tahlil qilinganda quyidagicha javob olindi. Aksariyat ayollar - 79,3% — bu fikrga qat'iy qarshi ekanini bildirgan. Bu ko'rsatkich ayollar tomonidan patriarxal jamiyatdagi zo'ravonlikni oqlashga qarshi keskin munosabat mavjudligini anglatadi. 10,34% ayollar bu fikrga rozilik bildirgan, 1,72% esa to'liq qo'llab-quvvatlagan. 8,62% ayollar fikrni qat'iy rad etgan, va 3,70% javob berishdan voz kechgan. Erkaklar nuqtai nazaridan tahlil: Erkaklar orasida 29,63% bu fikrga roziligini bildirgan, 11,11% esa katta ishonch bilan qo'llab-quvvatlagan. Ularning 37,04% bu fikrni rad etgan, 18,52% esa qat'iy qarshi, deb javob bergan. 3,70% erkaklar javob berishdan bosh tortgan.

Qiyosiy tahlil: Erkaklar orasida zo'ravonlikni oqlashga moyillik ayollarga nisbatan sezilarli darajada yuqori. SHunga qaramay, umumiy tendentsiya zo'ravonlikni oqlashga qarshilik kuchayib borayotganini ko'rsatadi. Bu natijalar jamiyatdagi gender rollari va patriarxal me'yorlarga nisbatan qarashlar taraqqiyotga yuz tutayotganini, ammo an'anaviy stereotiplar hamon ayrim qatlamlarda saqlanib qolganini ko'rsatadi.



6- Savol. Hamma oiladagi zo'ravonliklarni qoralash kerak emas, ba'zi xatti harakatlar normal yoki maqbul deb hisoblanishi kerak.

Ayollar nuqtai nazaridan: 65,52% ayollar ushbu fikrga qarshi bo'lib, oiladagi har qanday zo'ravonlikni qoralash lozim, degan yondashuvni qo'llab-quvvatlagan. 1,72% esa fikrga katta ishonch bilan qarshi chiqqan. Ammo 32,76% ayollar bu fikrga rozilik bildirgan, ya'ni muayyan vaziyatlarda zo'ravonlikni oqlash mumkin, deb hisoblagan. Bu holat jamiyatda ayollar orasida ham zo'ravonlikni ichkilashgan holda qabul qilish holatlari mavjudligini ko'rsatadi va ma'rifiy ishlarni kuchaytirish zarurligini ta'kidlaydi.

Erkaklar nuqtai nazaridan: Erkaklar orasida zo'ravonlikni oqlashga moyillik ancha yuqori: 48,15% fikrga rozilik bildirgan (ba'zi holatlarda zo'ravonlikni maqbul deb hisoblaydi), 7,41% esa fikrga to'liq qo'shilgan. SHu bilan birga, 25,93% erkaklar bu fikrni rad etgan, va 7,41% katta ishonch bilan qarshi chiqqan. Ya'ni, umumiy qilib aytganda, erkaklarning yarmidan ko'prog'i (55,56%) zo'ravonlikni ma'lum vaziyatlarda oqlash mumkin, deb hisoblaydi. Xavotirli jihati shundaki: Ayollar va erkaklar o'rtasida zo'ravonlikka munosabatda jiddiy tafovut mavjud: ayollar tomonidan rad etish darajasi yuqori bo'lsa, erkaklar orasida zo'ravonlikni normallashtirishga moyillik ancha keng tarqalgan. Erkaklarning 55,56% zo'ravonlikning ayrim ko'rinishlarini oqlashi, jamiyatda hanuz patriarxal va agressiv normalar saqlanib qolayotganini ko'rsatadi. O'tkazilgan tadqiqot natijalaridan kelib chiqib quyidagicha xulosa va tavsiyalarni berishimiz mumkin.

Xulosa. So'rov natijalariga asoslanganda, jamiyatda oiladagi zo'ravonlikka nisbatan qarashlar turlicha bo'lib, patriarxal stereotiplar va zo'ravonlikni oqlashga moyillik hamon keng tarqalgan holat ekanligi aniqlandi. Bu natijalar jamiyatda gender tengligi, inson huquqlari va zo'ravonlikka nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish borasida sistemali ish olib borish zarurligini ko'rsatadi.

Tavsiyalar. Oilaviy zo'ravonlik turlari (jismoniy, ruhiy, psixologik, iqtisodiy va h.) haqida aholini xabardor qilish. "Zo'ravonlikni oqlaydigan qarashlar – jinoiy hatti-harakatlar" ekanini tushuntiruvchi ommaviy axborot kampaniyalari tashkil etish. Ijtimoiy tarmoqlar va OAVda mashhur shaxslar ishtirokida videoroliklar, intervyu va podkastlar orqali ta'sirchan targ'ibot ishlari olib borish. Erkaklar bilan ishlash bo'yicha alohida dasturlar qilish. Ayollarni himoya qilish va huquqiy xabardorlikni oshirish. Ayollar uchun huquqiy maslahat, ishonch telefonlari, psixologik yordam markazlari faoliyatini kuchaytirish. Ayollarga zo'ravonlikni tan olish, chuqurlashgan itoatkorlik sindromini yengish bo'yicha treninglar o'tkazish. Maktab va OTMLarda gender tenglik, inson huquqlari, zo'ravonliksiz munosabat mavzularida muntazam darslar va treninglar tashkil etish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.


1. To'raeva, M. (2021). *Oiladagi zo'ravonlikning ijtimoiy-psixologik jihatlari*. Toshkent: O'zbekiston milliy entsiklopediyasi nashriyoti.
2. "Oilada zo'ravonlikka qarshi kurashish" mavzusida qo'llanma. (2022). – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi.
3. Qodirova, M. (2019). *Gender tengligi: nazariya va amaliyot*. – Toshkent: TDYuU nashriyoti.
4. Юрьева, Т. В. (2021). *Домашнее насилие как социальная проблема современного общества*. – Москва: Инфра-М.
5. Краснова, А. И. (2020). *Гендерная идентичность и семейное насилие*. – Москва: Наука.
6. Anderson, K. L. (2005). *Theorizing gender in intimate partner violence research*. Journal of Family Theory & Review, 67(2), 248–265.

MUNDARIJA:

Familiya I.Sh.	Mavzu	Bet
19.00.00 - PEDAGOGIKA		
Зоирова Фируза Уктамовна	Преподавание русского языка как иностранного в условиях дистанционного обучения	5
Хамракулов Хамидullo Тургунбойевич	О'quvchilarda matematik savodxonlikni rivojlantirish usullari va texnologiyalari	10
Xasanova Gulshod Ro'ziboyevna	Fizika ta'limida integrativ texnologiyalardan foydalanib o'quvchilar ijodiy tafakkurini rivojlantirishning nazariy asoslari	16
Sadoqat Fayzulloeva Furqat qizi	Umumta'lim maktablarida kimyo fanini o'qitishda aktivi qo'llashning metodik tamoyillari	21
Абдуллаева Масуда, Абдуллаева Нилуфар, Абдуллаев Дилмурод,	Эстетическое воспитание детей в семье	26
Yusufjonova Madinabonu, Boltayeva Muhayyo	Mustaqil ta'lim faoliyatini samarali boshqarishda kreditmodul tizimining integratsiyasi: Janubiy Koreya ta'lim tizimi tajribasi	30
Kalekeeva Tamara Turkmenbaevna	Bo'lajak matematika o'qituvchilarining pedagogik kontent bilimlarini shakllantirish: didaktik yondashuvlar	34
Shamuratova Muazzamxon Shavkat qizi	Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tafakkur va faolligini rivojlantirishda milliy o'yinlarning innovatsion qo'llanilishi	39
Цуканова Елена Николаевна, Tsukanova Elena Nikolaevna,	Обучение русскому языку студентов иной лингвокультурной среды инженерных специальностей	44
Majidov Xasan Abdurashid o'g'li	Talabalarda kasbiy kompetentlikni shakllantirishda innovatsion ta'lim texnologiyalarining roli	49
Turdaliyeva Feruza Rustamjon qizi	Ta'lim tizimida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarning raqamli kompetensiyasini shakllantirish xususiyatlari: milliy standartlar tahlili	56
Atakulova Nargizaxon Alijonovna	Talaba-yoshlarda sog'lom ma'naviy dunyoqarashni rivojlantirishga xizmat qiladigan tasavvuf adabiyoti namoyondalarining didaktik qarashlari	61
Hakimova Nargiza Suphanovna	Bo'lajak o'qituvchilarning shaxsiy sifatlarini rivojlantirishda "Lifelong learning" milliy konsepsiyasi mazmuni	65
Hamdamova Sitara Rustam qizi	"Oila pedagogikasi" fanini o'qitishda aksiologik yondashuvlar mazmuni	71
Saidova Shahrizoda Adham qizi	Akademik litseylarda "Elektrodinamika" bo'limini o'qitishda raqamli texnologiyalarga asoslangan yangi yondashuvlar	75
Турсунов Кахрамон Содиқович	Особенности формирования экономики знаний в современных условиях	81
Adilbekova Manzura Usenbek qizi	Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarini shaxslararo munosabatlarga o'rgatish metodikasi	85
Navruzov Firdavs Shavkatovich	Nodavlat ta'lim muassasalari faoliyatini takomillashtirishda uslubiy yondashuvlar va menejment tizimi: tajribalar va takliflar	90
To'rayeva Dilfuza Daminovna	O'zbek tilidagi tasviriy ifodalarda hayvon obrazlarining lingvokulturologik talqini	95

Omonova Ravshanbek qizi	Mohigul	Ingliz tili o'qitishda lug'atni o'rgatish: teoriyalar, metodlar va xalqaro tajribalar	99
Choriyeva Dilshod qizi	Zebiniso	Logopedik amaliyotda kichik maktab yoshidagi duduqlanuvchi bolalar bilan ishlashda interfaol metodlardan foydalanish imkoniyatlari	106
Ismailov Xushnodbek o'g'li	Tohirjon	Turkistonda jadid ma'rifatparvarlarining ta'lim tarbiyadaga oid qarashlaridan ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirish imkoniyatlari	110
Sharifzoda O'razboy tabib o'g'li	Sardorbek	Gender yondashuv asosida o'quvchilarni ijtimoiylashtirishning pedagogik imkoniyatlari	114
Xujayev Raxmonovich	Ro'zmat	Bo'lg'usi pedagog talabalarning o'qituvchilik kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ahamiyati	118
Qurbonova Ismoil qizi	Zilola	"Ilk qadam" o'quv dasturi asosida 5-7 yoshli bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashning takomillashtirilgan modeli	122
Abdurazakova Akmalxon qizi	Zebiniso	Talabalarning tadqiqotchilik faoliyatini baholash mezonlari	128
Sultonov Ulugmurodovich	Humoyun	The digital transformation of education: methodologies, Tools, and future prospects	135
Nishonboyev Xomidovich	Muxiddin	OHTM taktika faniga o'qitishda kursantlarning professional ko'nikmalarini rivojlanishining dolzarb yo'nalganligi	141
Sattorov Pulatovich	Najmiddin	Toifalangan obyektlarni qo'riqlash va himoya qilishda sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llash	147
Kamolov Olimovich	Oybek	O'quv-mashq guruhi erkin kurashchilarning jismoniy tayyorgarligini tahlil qilish va u asosida mashg'ulot samaradorligini oshirish yo'llari	152
Shokirova Shomurod qizi	Madinabonu	Boshlang'ich sinflarda ota - onalar bilan hamkorlikni yanada takomillashtirish borasida olib borilayotgan islohotlar va muhim vazifalar	158
Toshev Choriyevich	Elbek	STEAM ko'nikmalarini rivojlantirishga oid ilg'or tajribalar va ularni O'zbekistonda qo'llash imkoniyati	164
Kushbakova Batirkulovna	Barno	Bo'lajak muhandislarning texnologik fikrlash kompetensiyasini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari	169
Tuxtabayeva Abduganiyevna	Muattar	Geogebra dasturining matematika fanida qo'llashning maqsadi va natijalari	175
Maxmudova Ato qizi	Maxliyo	Fizikani boshqa tabiiy fanlar bilan integratsiyasi: metodik jihatlar	181
Sulaymonov Baxshulloyevich	Sherzod	Fizika kursida raqamli o'quv resurslari: samaradorlik tahlili	186
Allaberganova Kuranbayevna	Marifat	Imloviy bilimlarni imloga doir mashqlar va mashg'ulotlar asosida takomillashtirish	191
Rashidova Yaxyaevna	Baxti	Ta'lim va tarbiyaning uzviy bog'liqligi	196
Ashurova Sayfulloyevna	Marhabo	Turkistondagi yangi usul maktablarida o'qitiladigan asarlarning axloqiy-tarbiyaviy jihatlar	203
Turayeva Yuldashvna	Lolaxon	Fizika o'qitishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning afzalliklari	207
Mo'minova Komilovna	Dilnavoz	Tadqiqotchilik yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning shaxsiy ta'lim trayektoriyasini loyihalash	214
Nurimbetova Djalilxonovna	Jazira	Madaniyatlar tarixi va insoniyatning ijtimoiy munosabatlar muloqotining mazmuni	220

Tagayeva Sayyora Ulashevna, Kamolova Aziza Xikmatovna	Different viewpoints about technologies	223
Kamolov Shavkatjon Xadjiyevich	Musiqa pedagogikasida o'qituvchilarning ijodiy kompetensiyasini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari	228
Bekmuratov Talgat	Boshlongish sinflarda haykaltaroshlik san'atini o'rgatishning pedagogik asoslari	233
Yodgorova Gulruh Farhodovna	Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash tizimida kvalitologik kompetensiyalar	239
Usmonov Sherzod Axmadjonovich, Tojimatova Gavxarxon G'ulomjonovna	Gender tengligi va oilaviy zo'ravonlikka oid tasavvurlar	245



**“TA'LIMDA ISTIQBOLLI IZLANISHLAR”
XALQARO ILMIY-METODIK JURNALI UCHUN
MAQOLALARNI RASMIYLASHTIRISH TALABLARI**

“Ta'limda istiqbolli izlanishlar” ilmiy jurnali mualliflari diqqatiga!

1. “Ta'limda istiqbolli izlanishlar” ilmiy jurnali ilmiy maqolalarni o'zbek, rus va ingliz tillarida chop etadi.
2. E'lon qilinadigan maqolalarga bo'lgan asosiy talablar:
 - ✚ ishning dolzarbligi va ilmiy yangiligi;
 - ✚ maqolaning hajmi: adabiyotlar ro'yxati, chizma va jadvallar inobatga olingan holatda 3-8 betgacha;
 - ✚ maqola nomi, annotatsiya (50-60 ta so'z) va tayanch so'zlar (8-10 ta) ingliz, o'zbek va rus tillarida keltiriladi.
3. Maqola boshida mavzu, muallifning F.I.O. (to'liq yozilishi kerak), mualliflar bir nechta bo'lsa, ularning har biri haqida to'liq ma'lumotlar berilishi shart, tashkilot, shahar, mamlakat, muallifning e-maili ko'rsatiladi. Matnda kirish qismi, tadqiqot obyekti va qo'llanilgan metodlar, olingan natijalar va ularning tahlili, xulosa, adabiyotlar ro'yxati, albatta, keltiriladi. Maqolada keyingi 10-15 yilda e'lon qilingan adabiyotlarga havola qilinishi tavsiya etiladi.
4. Matn uchun: Microsoft Word; Times New Roman, 12 shrift, maqola nomi bosh harflarda, interval 1,0; abzas 1,0 sm, yuqori va pastki tomon 2 sm, chap va o'ng tomon 2 sm.
5. Agar maqolaga rasm, jadval, diagramma, sxema, chizma, turli grafik belgilar kiritilgan bo'lsa, ular aniq va ravshan tasvirlanishi, qisqartmalarning to'liq izohi yozilishi lozim. Formulalar matnga maxsus kompyuter dasturlarida kiritilishi kerak.
6. Iqtibos olingan yoki foydalanilgan adabiyot satr osti izohi tarzida emas, balki maqola oxirida asosiy matndagi ketma-ketligi asosida umumiy ro'yxatda ko'rsatiladi. Matn ichidagi ko'chirmadan so'ng iqtibos olingan asarning ro'yxatdagi tartib raqami va sahifasi kvadrat qavs ichida beriladi. Bu o'rinda kitob, to'plam, monografiyalar uchun mualliflarning ism-familiyalari, manbaning to'liq nomi, nashr ko'rsatkichi (shahar, nashriyot va nashr yili) ko'rsatiladi. Jurnal maqolalari va boshqa davriy nashrlar uchun mualliflarning ism-familiyalari, maqola nomi, jurnal nomi, yili va soni, sahifa nomeri ko'rsatiladi.
7. Maqola matni kamida 70-80 % muallifning shaxsiy izlanishlari natijasiga asoslanishi lozim. Topshirilgan maqolalar “Antiplagiat” tizimi yordamida tekshiriladi.
8. Tahririyatga taqdim qilingan maqolalar tahririyat tomonidan taqrizga beriladi. Maqola taqrizdan qaytgach, agar zarur bo'lsa, barcha savol va e'tirozlar bo'yicha muallifga qayta ishlash uchun taqdim etiladi. Maqola nusxalari qaytarilmaydi.
9. Tahririyat maqolani taqrizga yuboradi, taqriz ijobiy bo'lsa maqola jurnalda chop etish uchun qabul qilinadi. Jurnalda anjuman tezislari va ma'ruzalari chop etilmaydi. E'lon qilingan materiallarning haqqoniyligiga va ko'chirilmaganligiga shaxsan muallif javobgardir.
10. Tahririyat maqolaga ayrim kichik o'zgartirishlarni kiritishi mumkin. Yuqoridagi talablarga javob bermaydigan maqolalar tahririyat tomonidan ko'rib chiqilmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
11. Ijobiy taqriz berilgan maqola tahririyat tomonidan qabul qilingan sanaladi. Jurnal tahririyati maqola matnini qisqartirish va unga tahririy o'zgartirishlar kiritishga haqlidir.
12. Yuqoridagi talablarga javob bermaydigan maqolalar tahririyat tomonidan qabul qilinmaydi va ko'rib chiqilmaydi.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2025-yil 16-fevral kuni № 622042-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Tahririyat manzili: 200117, O'zbekiston Respublikasi,
Buxoro shahri Alpomish ko'chasi, 9-uy
Elektron manzil: <https://fanistiqbollari.uz>
Telegram raqami: +998 (93) 689-80-90

Ta'limda istiqbolli izlanishlar //xalqaro ilmiy-metodik jurnal.
Buxoro, 2025. № 7-son, 2-qism , B. 256